Актёрлық кәсибинде актёрдың әдеплилик билими, көз-қараслары тийкарғы әҳмийетке ийе, себеби, актёр жумыс ислеў пайытында басқаларға еликлеп, тек ғана схемалардан пайдаланатуғын өнерментке айланып қалыўы яки биреўге усамайтуғын еркин излениўлер нәтийжесинде өзиниң тәкирарланбас рольлери арқалы сахнада дөреткен символларын әжайып етип жеткериўи мүмкин. Соның менен бирге, актёр өзиниң ким екенлигин, тар шеңберде пикирлейтуғын мещан яки өз заманласлары алдында ўазыйпасын толық сезиниўши Ўатанын сүйиўши инсан екенлигин көрсетип береди. Өзбек ҳәм рус театр өнериниң уллы ғайраткерлеринен Аброр Хидоятов, Сара Эшонтураева, Шукур Бурханов, Карим Закиров, К.Станиславский, Немирович - Данченко ҳәм бир қанша театр ғайраткерлери өзлериниң дөретиўшилиги, өмири, гөззал әдеплери, руўхый пазыйлетлери, сабырлы ҳәм пәк сезимлер ийелери екенлиги арқасында басқаларға үлги көрсеткен. Олар сахнаның уллы пирлери болыўы менен бирге, өз елиниң жанкүйер ўатансүйиўшилери еди. Олар, жәмийеттиң уллы мақсетлерин тамашагөйлерге жеткериў қәбилетине ийе болды. Егер, актёр өзиниң өмири ҳәм дөретиўшилигинде майда шүйде, арзымас нәрселерден жоқары көтериле алмаса дөретиўшилигин майда мақсетлерге жумсаса, егер өзиниң жоқары абырайын түсинбесе ол ҳешқандай жоқары дөретиўшилик үлгилерин жарата алмайды. Ҳақыйқый дөретиўши өз өнери арқалы адамларға кеўлиниң бир бөлегин, өмир ҳаққындағы ойларын, өзиниң ең пәк жүрек сырларын бөлиседи, оларды изинен ертеди. Әне усындай ойлар дизбеги, жүрек сырлары, турмыс ҳақыйқаты сәўлелендирилгенде ғана

[1] Станиславский К. С. “Актёрдың өз үстинде ислеўи”. –Т.: Көркем әдебият, 2010.

адамлардың кеўлинен жетип барады. Ҳақыйқый дөретиўши бәрҳәма халық ушын, жоқары мәнәўият ушын хызмет етеди.

Актёрдың қәлиплесиўи-жүдә қыйын процесс; бул дөретиўшиниң шахс болып жетилисиўине, театр жәмәәтинде жасап дөретиўшилик пенен шынтлап шуғылланыўына байланыслы. Жас актёрдың тәрбияланыўына ең керекли усыллардан бири жәмәәт пенен бирге ислеў саналады. Театр өнери өз тәбиятына көре синтетикалық ҳәм коллективлик болып табылады. Бул оның қыйыншылығы ҳәмде өзине тәнлигинен мәлимлеме береди. Театр өнериниң синтетикалығы сонда спектакль музыка, әдебият, сүўретшилик, аяқ ойын, мүсиншилик ҳәм басқа усы сыяқлы өнер түрлерин өз ишине қамтып алған. Соның ушын бул өнер түри коллективлик жумыс деп айтылады. Себеби, бир мақсет жолында эстетикалық қағыйдаларға ҳәм бир дөретиўши методқа таянған ҳалда жүдә көпшилик дөретиўшилер тәрепинен спектакльдиң келбети жаратылады.

Коллективлик, сахна өнериниң тийкарғы принципи ҳәм оны актёрлық кәсибиниң тийкары деп есапласа да болады. Актёр өзиниң тилеклерин ҳәм умтылысларын коллектив ишине сиңдире алса ғана театр жумысына пайда келтиреди. Актёрлық шеберлиги педагогы әжайып талантлы дөретиўши шахслардың жетилисип шығыўына ҳәр тәреплеме жәрдем берип, оларды марапатлаўы менен бирге ҳәр қандай менменликке қарсы болыўы тийис. Жас актёр, менменлик театр тәбиятына ҳәр тәреплеме жат екенлигин ашық-айдын түсиниўи шәрт. Театр оқыў дәргайында дослық аўызбиршиликти, бир-бирине жәрдем көрсетиў пазыйлетлерин тәрбиялаў зәрүр. Студентти оқыў дәргайына дәслепки келген күнлеринен баслап, оны усындай шараятқа көнликтириў керек, сонда ғана ол дөретиўшилик имканиятларын раўажландырыўды, үйретип жумыс алып барыўы тийис. Жас актёрдың өмиринде ең қолайсыз нәрсе - бул өз талантына артықша баҳа бериўде. Талантлы дөретиўшини жүзеге шығаратуғын нәрсе бул турақлы нәтийжели мийнет. Мийнетсиз талант жоқ болып кетеди; өкинишке бола, жаслар арасында, актёрлық шеберлигине оқып атырғанлар арасында абырайына артықша исенип, бәрҳәма тер төгип, мийнет етиўге қарсылық көрсететуғынлар ушырасады. «Илҳам» нан көбирек үмитлер күтиледи. Айырым ўақытлары актёрлық шеберлиги сабақларында «илҳам» ды көзабаға, өнимсиз қыйнаў арқалы жаратып атырғанларды гүзетиўимизге туўра келеди.[2] Тек ғана сезимлерге исениў жумысты ўайран етеди. Мәнаўий, физикалық шаршаў болса студентте кери жағдайды келтирип шығарады, нәтийжеде илҳамнан гүманланыўлар, кеўил қалыспақлар келип шығыўы мүмкин. Актёр жоқары дөретиўши нәтийжелерге ерисиў, илҳамди жүзеге шығарыў ушын, тынымсыз түрде

[2] Кнебель М.О. О некоторых вопросах методологии Вл. Немировича-Данченко. -М.: Искусство, 1954

айырықша таңланған шынығыўларды орынлап, нәтийжели мийнети арқасында өз мәнәўий - физикалық аппаратын таярлайды. Әне усыннан кейин ғана роль үстинде жумысты баслаўы мүмкин. Соның ушында К.С.Станиславский өзиниң тәлийматында мынадай деген еди: «терең саналы мәнаўий техника арқалы, айрықша талантлы дөретиўши артист жүзеге шығады».[3]

Театр мектеби бағдарламасы жас актёрды саналы дөретиўшиликтен илҳамланыўы, туўры жағдайда жасай билиўи, рольге сиңип кетип көркем символ жаратыўына қаратылады. Театр мектеби студентти мийнет етиўге үйретиўи керек. Өзиниң мәнаўий – физикалық аппараты үстинде жүдә аўыр, тынымсыз ҳәм соның менен бирге жүдә қызықлы мийнет, ең әҳмийетлиси актёрдың турмысы аўыр болсада, ол жүдә қызықлы дөретиўши процесс саналады. Ол өзиниң мәнаўий – физикалық аппараты үстинде, яғный, дене, ҳаўаз, демалыс, сөйлеў шынығыўларын ийелеўи, актёр шеберлигиниң мәнаўий техникасы, сахна ҳәрекетлерине, көз алдына елеслетиў ҳәм эмоционал ядлаў қәбилетин раўажландырыўы керек. Өзин театрға бағышлаған адамның турмысы әне усы машқалалардың шешими менен бәнт болыўы тийис.

Солай етип, тийкарғы мақсетке, яғный актёрлық шеберлиги техникасының тийкарларына яки К.С.Станиславскийдиң методларын үйретиў процесине келсек, соны атап өтиўимиз керек, әпиўайы адам өмирде болмысты пүтинлиги менен қабыллайды: Ол бир ўақыттың өзинде еситеди, көреди, пикирлейди, мийнет етеди, бир нәрселердиң мәселеси шешимин табады: қулласы буларды ықтыярсыз түрде орынлайды ҳәм мәлим өмир бөлегин жасап келеди. Өзиниң дөретиўши жолын баслап атырған актёрларға сахнада тәбийғый болыўы ушын булардың барлығын басынан үйрениўине туўра келеди. Актёрлық шеберлиги көркем ҳәрекет элементлерин үйретиўден басланады. Барлық сахна шеберлиги методлары бир-бирине тығыз байланыслы, бирақ биз оларды оқыў бағдарламасын өзлестириў мақсетинде бөлеклерге бөлип майдалап үйретсак мақсетке тез ерисемиз.

ПАЙДАЛАНЫЛҒАН ӘДЕБИЯТЛАР

1. Кнебель М.О. О некоторых вопросах методологии Вл. Немировича-Данченко. -М.: Искусство, 1954
2. Станиславский К.С., Немирович-Данченко Вл. Об искусстве актёра-певца. -М.: Искусство, 1973
3. Станиславский К. С. “Актёрдың өз үстинде ислеўи”. –Т.: Көркем әдебият, 2010.

[3] К.С.Станиславски. М., «Искусство», 2 т., 355 б.

ЎЗБЕК ТЕАТР ВА КИНО САНЪАТИ РИВОЖИДА АКТЁРЛИК МАСАЛАЛАРИ (ОБИД ЖАЛИЛОВ ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИ МИСОЛИДА)

Фахритдин Абдувохидов
УзДМСИ доценти

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada o‘zbek teatr va kino san’ati taraqqiyotida aktyorlik mahoratining o‘rni hamda uning badiiy-estetik tamoyillari Obid Jalilov ijodiy faoliyati misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda milliy sahna va ekran san’atida aktyor ijrosining shakllanish jarayonlari, obraz yaratish usullari, psixologik talqin, milliy xarakter va zamonaviy aktyorlik maktabiga xos xususiyatlar ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, aktyorning teatr va kino sohasidagi ijodiy izlanishlari, sahnaviy nutq, plastika, ichki kechinmalar ifodasi hamda rol ustida ishlash metodikasi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: aktyorlik mahorati, teatr san’ati, kino san’ati, milliy aktyorlik maktabi, obraz talqini, sahna madaniyati, ijro psixologiyasi, badiiy obraz.

Аннотация

В данной научной статье анализируется роль актёрского мастерства в развитии узбекского театрального и киноискусства, а также его художественно-эстетические принципы на примере творческой деятельности Обид Жалилов. В исследовании с научно-теоретической точки зрения освещаются процессы формирования актёрского исполнения в национальном сценическом и экранном искусстве, методы создания художественного образа, психологическая интерпретация, национальный характер и особенности современной актёрской школы. Также проанализированы творческие поиски актёра в сфере театра и кино, сценическая речь, пластика, выражение внутренних переживаний и методика работы над ролью.

Ключевые слова: актёрское мастерство, театральное искусство, киноискусство, национальная актёрская школа, интерпретация образа, сценическая культура, психология исполнения, художественный образ.

Annotation

This scientific article analyzes the role of acting mastery in the development of Uzbek theater and cinema art, as well as its artistic and aesthetic principles through the example of the creative activity of Обид Жалилов. The study theoretically examines the processes of forming acting performance in national stage and screen arts, methods of character creation, psychological interpretation, national character, and the specific features of the modern acting school. In addition, the actor’s creative research in theater and cinema, stage speech, plastic expression, portrayal of inner emotions, and methods of working on a role are analyzed.

The article also focuses on the relationship between national acting traditions and world theatrical experience, the influence of acting performance

on the audience's aesthetic perception, and the role of the creative personality in the development of Uzbek theater and cinema art.

Keywords: acting mastery, theater art, cinema art, national acting school, character interpretation, stage culture, performance psychology, artistic image.

Sahnaning yagona shohi va hukmroni iste'dodli aktyordir!. Dramaturg fikri va rejissyor taliqiniga jon kiritadigan, tomoshabin bilan muloqotga kirishib, unga zavq bag‘ishlaydigan, fikrlashga undaydigan ham aktyordir. O‘zbek aktyorlik san'atining qadimgi ildizlari an'anaviy xalq tomoshalari, qiziqchi, masxaraboz, qissaxon va qo‘g‘irchoq san'ati bilan bog‘liq holda rivojlanib borib, boy va xayirli an'analarga ega bo‘ldi. Yillar davomida shakllangan an'analar xalq hayoti, turmush-tarzi, orzu-umidlari intilishlarini o‘zida mujassamlashtirgan holda, bugungi aktyorlik san'atining o‘q tomiriga aylandi. Xususan, Obid Jalilov ijodi anashu merosga juda yaqin, undan oziqlangan holda shakllandi, kamol topdi.

Obid Jalilov Hamza nomidagi o‘zbek davlat akademik drama teatrining brinchi bo‘g‘in aktyorlariga mansub. U o‘zining tabiiy qobiliyati, iqtidori va mehnati bilan teatrning o‘zbek aktyorlik maktabining rivojlanishiga katta xissa qo‘shdi. Bugungi kunda san'atkorning yorqin sermahsul ijodi o‘zbek aktyorlik san'atining tabiati, bosib o‘tgan yo‘li va istiqbolini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo‘l mashaqqatli, ziddiyatlarga boy, ayni paytda sermazmun va sharafli yo‘ldir.

Obid Jalilov mubolag‘asiz ko‘p qirrali, iste'dodli san'atkorlardan hisoblanadi. Uning uzoq yillik ijodi davomida sahnada, kino va televideniyeda ijro etilgan ikki yuzga yaqin rollar borki, ularning har biri mustahkam xarakterga ega, qaytarilmas obrazlar hisoblanadi. Aktyor yaratgan obrazlar orqali uning ijodi hech qanday amplua va yo‘nalishlar qolipiga sig‘masligini kuzatish mumkin. Ushbu ijod professional drama teatri san'atida mavjud bo‘lgan barcha janr bo‘yoqlarini o‘zlashtirgan holda davrma-davr takomillashib, orginal ijro uslubini yaratdiki, uni o‘rganish har bir aktyor uchun ibrat bo‘lishi mumkin.

An'anaviy xalq tomosha san'atiga bo‘lgan qiziqish Obid Jalilov ijodiga fayz, tarovat bag‘ishladi. San'atkor tabiatiga xos bo‘lgan sinchkovlik, hozirjavoblik, o‘tkirso‘zlilik, hazil va badiha, chapdastlik u yaratgan qahramonlarning tabiiy va xalqchil bo‘lib gavdalanishida asosiy omillardan bo‘ldi. Bu xususiyat unga xilma-xil janr va mavzularda birday mahorat bilan erkin ijod qila olish imkoniyatini yaratdi.

Dramaturg va rejissyorning ko‘zlagan maqsadi spektaklda eng avvalo aktyor ijrosi orqali ro‘yobga chiqadi. Faqat iste'dodli aktyorgina ifodaviy sahna xatti-harakatlari orqali asarning oliy maqsadiga shakl va jon kiritadi. Shu bois spektaklning janrini belgilashda aktyor mahorati muhim hisoblanadi. Asar janrining tugal sahnaviy yechimga erishish uchun aktyor janr talablariga mos his-tuyg‘ular, kechinma va ehtiroslar topishi, ularni qo‘zg‘atish uchun esa mustaqil xatti-harakatlar, ovoz jarangi, ohang, badiha va boshqa ruhiy hamda

jismoniy ifoda vositalari yig‘indisidan tashkil topgan qulay, mustaqil ijro uslubiga ega bo‘lishi lozim. Obid Jalilov ana shunday o‘ziga xos ijro uslubiga ega bo‘lgan noyob aktyorlardan hisoblanadi. Aktyor repertuarida dramatik, fejeaviy obrazlardan tortib, lirik qahramonlargacha mavjud. San’atkor o‘zi yaratgan rang-barang janrlardagi obrazlarining barchasini nozik psixologik talqin bilan mustahkamladi, sayqal berdi. Shu asosda Obid Jalilov ijodida chuqur psixologik negzga tayangan mustaqil ijro uslubi shakllandi.

Obid Jalilov daslab (1919 yili) Toshkent eski shahar maorifi qoshida tashkil etilgan truppada Ziyo Said, Hojizoda, Rahimberdi, Sayfi Olimov, Shokir Najmiddinovlardan aktyorlikning siru-sinoatlarini o‘rganadi. Ziyo Said sahnalashtirgan “Ko‘knori” nomli bir pardali komediyada Choyxonachi rolini ijro etadi. Havaskor truppa jamoasi “Ko‘knori” spektaklidan so‘ng Hamzaning “Boy ila xizmatchi” asarini sahnalashtiradi. Ushbu spektaklda Obid Jalilov choyxonachiga nisbattan murakkabroq- rus revolyusioneri orazini yaratadi. Ushbu rollar aktyor ijodida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Obid Jalilov tabiatan sahnaviy jozibaga ega bo‘lib, aktyorlik fazilati uning chehrasida, kelishgan qomatida, to‘liq, ohangdor ovozida, jo‘shqin va ehtirosli qalbida, aql-farosatida, ijodiy tafakkurining boyligida o‘z ifodasini topgan edi. Undagi sahna uchun zarur bo‘lgan tashqi va ichki xususiyatlar Mannon Uyg‘urni o‘ziga tortadi. 1920 yili Obid Jalilov Uyg‘ur boshchilik qilayotgan truppaga taklif qilinadi. U truppaga kelgan ilk kunlaridan boshlab, o‘ziga xarakter va psixologiyasiga ega “Andalusning so‘ngi kunlari”da ishchi, “Parij kommunasi”da ishchi, “Halima”da Zokir rollarini ijro etadi. 1920-1924-yillar oralig‘ida Uyg‘ur sahnalashtirgan turli janrdagi spektakllarda, turli xarakterdagi qahramonlar “Zaharli hayot”da Mahmudxon, “Tuhmatchilar jazosi”da Sulton, “Boy ila xizmatchi”da Hasan, “Urush”da pochtalyon, “Shodmonbek”da xizmatkor, “Qotil Karima”da Mirshab rollarini ijro etadi. 1925-1927 yillar oralig‘ida musiqali dramlarda ham mahoratini sina ko‘rdi. “Farxod va Shirin”da Hoqon, “Arshin mol olon”da Sultonbek obrazlarini ijro etadi. Bu ijrolar aktyorning dramatik, komik, lirik qahramonlar qiyofasini ijro etishdagi mahoratini namoyon etdi.

1929-yildan boshlab O‘zbek davlat drama teatri repertuariga qardosh xalqlar dramaturgiyasining sara namunalarini kiritdi. Bu esa Obid Jalilov ijodiy faoliyatida yangi davrni vujudga keltirdi. O‘ttizinchi yillarning birinchi yarmida sahnalashtirilgan “Signal”da rais, “Isyon”da Bo‘riboy, “Bronepoyezd 14 – 69”da Vershinin, “Paxta shumg‘iyalari”da Yo‘ldoshev, “Yondiramiz”da Shodmonov, “Istiqlol”da Tolipov kabi murakkab xarakterdagi obrazlarni yaratib, sahna mahoratining yangi tomonlarini o‘zlashtirdi. Bu ayniqsa, san’atkorning 1934 yilda Komil Yashinning “Tor-mor” dramasida yaratgan Arslon obrazida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Obid Jalilov Arslon qiyofasida o‘z dunyosiga, o‘zining fikr-tuyg‘ulariga, qarama-qarshiliklariga, gumon va kechinmalariga ega bo‘lgan keng tafakkurli insonni, kamtar, xalq manfaati uchun kurashadigan, tashkilotchi raxbarni tasvirlashga harakat qiladi. Aktyor ijrochilik mahorati orqali o‘z qahramonining olijanob fazilatlarini haqqoniy ochib beradi. Aktyor obrazni

chuqur ichki dramatizm va vazminlik asosiga quradi. Arslon o‘z dardini, ichki iztiroblarini dod-faryod ko‘tarib emas, nihoyatda vazminlik bilan namoyon etadi.

Aktyor Arslon obrazidan keyin, o‘ttizinchi yiillarning ikkinchi yarmida yana bir qator turli xarakterdagi insonlar qiyofasini yaratdi. “Nomus va muhabbat”da Po‘latov, “Lyubov Yarovaya”da Koshkin, “Sotqinlar”da Bolshov, “Uyg‘onish”da Aleksey, “Pavel Grekov”da Kavalyov, “Nomus”da Yagor kabi rollarni ijro etdi. Bu obrazlar o‘zining ichki dunyosi, ma’naviy boyligi, intilishi bilan bir-biriga yaqin hisoblanadi. Obid Jalilov bu obrazlarga mansub umumiy xususiyatlar bilan birga, ularning har biriga xos qiyofasini ochib berishga urinadi. Ayniqsa, Yagor obrazidagi emotsional ichki va tashqi holat, aktyorning psixologik obrazga yondoshuv mahoratini namoyon etadi.

O‘ttizinchi yillarning oxirlarida Hamzaning “Boy ila xizmatchi” dramasi Akademik teatrda sahnalashtiriladi. Ushbu spektakl teatrning ijodiy mahorat cho‘qqisi tomon ko‘tarilayotganligini namoyon etdi. Mazkur spektaklda Obid Jalilov Solihboy obrazini yaratib, yetuk aktyorlik mahoratini namoyish qildi. Bu obraz san’atkorning yuksak ijrochilik mahoratinigina emas, tafakkuri va dunyoqarashi kengligini ko‘rsatdi. U Solihboy obraziga qadar o‘ttizinchi yillarning ikkinchi yarmida bir qator salbiy xarakterdagi qahramonlarni, jumladan “Qo‘zibuloq”da Komandor, “Revizor”da Amos Fedorovich, “Makr va muhabbat”da Prezident, “Momaqaldiroq”da Dikoy kabi obrazlarni yaratdi. Bu rollar aktyorga salbiy xarakterlarni yaratishda asosiy poydevor bo‘lib xizmat qildi. San’atkor xilma-xil obrazlar orqali hayotni teranroq o‘rganishga, unga o‘z munosabatini bildirishga, asosiysi, salbiy qahramon obrazini yaratish masalasini to‘g‘ri hal qilishga intildi.

Obid Jalilov yaratgan Solihboy, chinnifurush Qurbonboy va uning sheriklari singari dunyoqarashi tor, ma’naviy jihatdan cheklangan, o‘zining huzur halovati, ayshu-ishrati, savdo-sotig‘idan bo‘lak hech narsa bilan qiziqmaydigan, hayotda ro‘y bergan hodisalardan o‘zini chetga olgan kimsa emas. Uning Solihboyi o‘zi ilgari surgan qarashlarning yetakchisi. Unda XX asrning boshlarida vujudga kelgan ijtimoiy jarayonlar xususiyati mujassamlashgan. Uning timsolida baquvvat, basavlat, serviqor, milliy va yevropa madaniyatini yaxshi bilgan, rus tilidan xabardor bo‘lgan shaxs qiyofasi gavdalanadi. Solihboy ijtimoiy umumlashgan, hayotiy va ko‘p qirrali xarakterga ega bo‘lgan murakkab xarakter sohibi sifatida ifodalaydi. Aktyor Solihboyning savlati, saolobati va mag‘rur tabiatini mohirona aks ettiradiki, hatto “iltimos” monand oddiy so‘zlar ham uning suhanida talab, buyruq ohangida jaranglaydi.

1953-yili “Boy ila xizmatchi” dramasi ekranlashtiriladi. Asarning ekran talqinida ham Obid Jalilov Solihboyning ichki dunyosini yanada ravshanroq ochishga erishdi. Solihboy obrazi ustida uzoq va qunt bilan olib borilgan izlanishlar aktyor uchun ijodiy maktab bo‘ldi. Obrazni yaratish jarayonida san’atkorning ma’naviy dunyosi yanada boyidi, ijodiy tafakkuri o‘tkirlashdi, mahorat cho‘qqisining yangi pog‘onasiga ko‘tarildi. Solihboy obrazida

erishilgan ijodiy muvaffaqiyat 1939-yili Shekspirning “Gamlet” tragediyasidagi murakkab obrazlardan biri Klavdiy rolini ijro etadi.

Obid Jalilov ijodiy mahoratining shakllanishi va takomillanishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. U ham o‘z ijodini o‘zbek kino san’ati bilan bog‘lab, uning rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shdi. 1934 yili suratga olingan “O‘lim qudug‘i” filmidagi anglyalik josust-radist roli aktyorning o‘zbek kinosida yaratgan yirik roli hisoblanadi. 1940-yilda yaratilgan “Azamat” filmidagi diversant obrazi aktyor mahoratini yanada takomillashtirdi. Aktyorning ijodiy izlanishlarining samarali natijasi 1945-yili suratga olingan “Tohir va Zuhra” filmida vazir obrazida yaqqol namoyon bo‘ldi.

Vazir Obrazi salmog‘i va mavqei jihatidan aytarli darajada katta emas. U faqat filmning ekspozitsiyasida paydo bo‘ladi xolos. Aktyorning mahorati, kino san’atiga moyilligi tufayli bu obraz tomoshabinlar xotirasida o‘chmas iz qoldirdi. U yaratgan vazir sovuq bashara, g‘oyat dog‘uli, birmuncha bukchaygan, tulkisimon harakatlarga ega chol timsoli namoyon bo‘ladi. Obid Jalilov ifodali xatti-harakatlari bilan vazirning jonli obrazini yaratadi. Vazir aktyor talqinida ma’naviy jihatdan cheklangan, laqma shaxs emas, aksincha, o‘z maqsadi yo‘lida ish ko‘radigan, manfaatini hamma narsadan ustun qo‘yadigan, tadbirkor odam sifatida gavdalantiradi. U o‘zidagi ijodiy xususiyatlarni yovuz niyatlariga xizmat qildiradi. Bu obraz timsolida o‘ta makkor, munofiq, mansabparast, xudbin kimsa qiyofasi gavdalanadi. “Tohir va Zuhra” filmida ko‘rsatilgan yuksak mahorat Nabi G‘aniyev va Komil Yormatov hamkorligida 1946-yili suratga olingan “Nasriddinning sarguzashtlari” kinokomediyasidagi Og‘abek rolida yanada rivoj topdi.

Filmda Obid Jalilov tomonidan yaratilgan Og‘abek obrazi, o‘zining jirkanch qiyofasi bilan tomshabinda chuqur nafrat uyg‘otadi. Uning baqiraygan ko‘zlari, axmoqona tirjaygan chehrasihali amalga oshmagan xayollaridan oldinroq lazzatlanib mag‘rurlanishi, hukmronlarga xos harakatlari tomoshabinlarda nafaqat kulgu, nafrat va g‘azabni ham hosil qiladi. Aktyor Og‘abekning hayotiy falsafasi boylik, molu-davlat orttirishdan iborat ekanligini ko‘rsatib beradi.

Jaloyir, vazir, Og‘abek kabi sahna va ekranda gavdalantirilgan obrazlar Obid Jalilovning ijrochilik mahoratini takomillashtirish bilan birga Majdiddin obrazining yaratilishi uchun muhim zamin bo‘lib xizmat qildi. Bu obrazlar aktyorga o‘tmishni, saroy muhitini, taxtga yaqin kishilarning xulq atvorini, ularning hokimlik tabiatini yaqinroq tasavvur qilishga imkon berdi. Bu obrazlarda Majdiddin xarakteridagi ba’zi xususiyatlarning ko‘rinishi mavjud bo‘lib, aktyor talqinida munosib ifodasini topdi. Uzoq yillik to‘plangan ijodiy tajriba Majdiddinning murakkab xarakterini yaratishga zamin hozirladi.

Obid Jalilov 1945-yili kinorejissyor Komil Yormatov tomonidan suratga olingan “Alisher Navoiy” filmidagi Majdiddin roliga taklif etiladi. Aktyor Majdiddin obrazini talqin qilishda qahramonining xohish-intilishlarini ifodalashga harakat qiladi. Kishilarni aldash, talash, o‘ldirish, bir guruhni ikkinchi guruhga qarshi qo‘yish va shu orqali o‘zining shaxsiy manfaatini ko‘zlash kabi illatlar Obid Jalilov yaratgan Majdiddin hayotining asl maqsadini

belgilaydi. Obrazni jonlantirishda, uning qiyofasini, insoniy va ijtimoiy tabiatini to‘g‘ri ochishda aktyorning mustaqilligi, ijodiy izlanishlari yaqqol ko‘zga tashlanib turadi.

Filmda Majdiddin obrazi Obid Jalilov ijrosida munosib talqin topgan bo‘lsa ham, 1948 yilda Hamza nomli akademik teatrda qayta sahnalashtirlgan “Alisher Navoiy” spektaklida u yaratgan Majdiddin tomoshabinlarda kuchliroq ta’sir uyg‘otdi. Majdiddin obrazi filmda yaratilgan darajada bo‘lganida edi, uning badiiy-g‘oyaviy qiymati oshmagan bo‘lar edi. Spektaklda Obid Jalilov yaratgan Majdiddin obrazi badiiy qiymati bilan Olim Xo‘jayev ijrosidagi Navoiy obrazi bilan yonma-yon turadi. Bu obraz Obid Jalilov talqinida shu qadar salmoqli chiqqanki, usiz spektaklni tasavvur qilish qiyin. Shu obraz tufayli Davlat mukofoti bilan taqdirlanadi.

Majdiddindan keyin, elliginchi, oltmishinchi yillar oralig‘ida Obid Jalilov yana bir qancha turli xarakterga ega bo‘lgan salbiy obrazlarni yaratdi. “Aybsiz aybdorlar”da Murodov, “Revizor”da Lyapkin-Tyapkin, “Bir sevgi afsonasi” vazir, “Beshovi Farg‘onadan” filmidagi Hakimbek rollarni ijro etgan bo‘lsada ular orasidan Solihboy, Klavdiy, Majdiddin obrazlari alohida ajralib turdi. Aktyor faqatgina salbiy rollar bilan chegaralanib qolmadi. Ijobiy qahramonlar ijrosi bilan ham tomoshoshabinlar qalbini zabt etdi. “Imon”da Komilov, “Shubha”da Qo‘chqor, “Sharq tongi”da Po‘lat,”Turkiya haqida hikoya”da Ismoil, “Istiqlol yo‘li” filmidagi Xolmat ota rollari ustida ham samarali izlanishlar olib bordi.

Obid Jalilovning sahna va ekranda yaratgan obrazlari yuksak insonparvarlik, vatanparvarlik tuyg‘ularini o‘zida mujassam etadi. Aktyor ijrosidagi har bir obrazda shu xususiyatlar yetakchilik qiladi. Bu xususiyat, ayniqsa, 1962 yilda O‘zbekfilm studiyasi tomonidan suratga olingan “Sen yetim emassan” filmida yaratilgan Mahkam ota obrazida yorqin namoyon bo‘ldi. Mahkam ota obrazining ijodiy murakkabligi shundaki, aktyor qahramonining murakkab xarakterini to‘laqonli ifoda etadi. Ijodkor talqinidagi Mahkam ulug‘ vatan urushi yillarida ayoli Bahrixon bilan ota-onasiz qolgan o‘n bir yetim bolani issiq bag‘riga olgan oddiy temirchi Shoahmad Shomahmudovning qahramonligini ifodalaydi.

“Sen yetim emassan” filmining badiiy va g‘oyaviy jihatdan muvaffaqiyat qozonishida Obid Jalilovning hissasi katta bo‘ldi. U qahramonining psixologik holati orqali uning xarakterini chuqurlashtirishga, ichki kechinma va ma’naviy dunyosini to‘laqonli aks ettirishga erishadi. Aktyor gavdalantirgan obrazda vatanparvarlik va insoniy tuyg‘ularning chuqur ifodalanashi, san’atkorning yuksak ijrochilik mahorati, hayotni, undagi ijtimoiy jarayonlarni yaxshi bilganligi, qahramoni ruhiyatiga, ma’naviy dunyosiga kiraolganligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston xalq artisti, Davlat mukofoti laureati, aktyorlik maktabi rivojiga munosib hissa qo‘shgan Obid Jalilov tinimsiz mehnatlari samarasi o‘laroq, havaskorlikdan o‘zbek teatri va kino san’atining yirik namoyandasi bo‘lib yetishdi. Qirq yildan ortiq davr (1920-1963 yillar) ichida sahna va ekran san’atida ikki yuzga yaqin turli xarakterdagi obrazlarni yaratdi. Ular orasida

Arslon, Solihboy, Klavdiy, Majdiddin, Hakimbek, Og‘abek, Komilov, Mavlon, Qodir, Mahkam obrazlari o‘zbek teatr va kino san’ati tarixida o‘chmas sahifa bo‘lib qoldi. Aktyor obrazning asosiy g‘oyasi, bosh maqsadini ochishga butun diqqatini, harakatlarini safarbar qilish bilan birga, uning badiiy yaxlitligiga alohida e’tibor e’tibor berdi. U sahnada birorti ortiqcha, maqsadsiz, mantiqsiz harakat qilmaslikka urindi. Qahramoning tashqi va ichki hayotini, uning asosiy mohiyatini tomoshabinga to‘la va aniq yetkazishga intildi. Obid Jalilov ijro etgan obrazlar shundan dalolat beradiki, u hayot bo‘lganida bugungi kunda Buyuk sohibqiron Amir Temur siymosini yaratishga munosib, yagona aktyor sifatida ebtirof etilgan bo‘lar edi.

Obid Jalilov butun ijodini, iste’dodini, kuch va g‘ayratini xalq xizmatiga safarbar qildi, yaratgan obrazlarida davr kishilarining xohish-intilishlari, orzu-intilishlari, mavsad va vazifalari o‘z ifodasini topdi. U yaratgan xoh ijobiy, xoh salbiy, xoh asosiy, xoh epizod obrazlar bo‘lmasin, ularning tarchasi tomoshabinlarni ma’naviy jihatdan tarbiyalashga qaratildi. Uning aktyorlik mahorati ustida ish olib borish uslubi, ijodga bo‘lgan ishtiyoqi, muhabbati yaratgan obrazlari, tajribali, ulkan san’atkor ekanligidan dalolat beradi. Mahoratli aktyor samarali ijodi bilan o‘zbek teatr va kino san’ati shuhratini dunyoga tarannum etibgina qolmay, o‘zbek aktyorlik maktabining shakllantirish va takomillashtirish ishiga katta hissa qo‘shdi. Obid Jalilovning samarali ijodi yosh aktyorlar avlodini tarbiyalashda namuna bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: O‘zbekiston. 2008 y.
2. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va sana’at nashriyoti. 2000.
3. Islomov T. Sahna va tarix. T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va sana’at nashriyoti. 1998 y.
4. Rahmonov M. Hamza (O‘zbek davlat akademik teatri tarixi) Birinchi kitob (1914 – 1960 yillar).T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va sana’at nashriyoti. 2001 y.
5. Tursunov T. Sahna va zamon. - T.: Yangi asr avlodi. 2007.
6. Tursunov T. XX asr o‘zbek teatr tarixi.(ikki tomlik) – T.: O‘zDsi. 2009.
7. Shokirov O‘. Abduqunduzov M. Milliy teatrimiz nomoyondalari. T.: O‘zbekiston. 2002.
8. O‘zbekiston teatr ijodkorlari uyushmasi. Istiqlol va Milliy teatr. T.: Yangi asr avlodi nashriyoti. 2002.

ЎЗБЕК ҚИЗИҚЧИЛИК САНЪАТИ: МУАММОЛАР ВА УЛАРНИНГ ЕЧИМИ

Иброхим Абдурахманов
УзДМСИ, филология фанлари номзоди, доцент

Annotatsiya: Maqolada O‘zbek xalq qiziqchilik santida keyingi yillarda yuzaga kelayotgan muammolar va ularning yechimi masalalari Farg‘ona vodiysi badiiy-ijodiy jarayonlari misolida o‘rganishga bag‘ishlangan.

Tayanch tushunchalar: qiziqchilik, an’ana, kulgi, janr, kontent, dastur, videorolik, ko‘rsatuv, “soxta kulgi”, ma’naviyat.

Аннотация: Статья посвящена изучению проблем и решений, возникших в узбекской традиции народного юмора в последние годы, на примере художественно-творческих процессов Ферганской долины.

Ключевые понятия: юмор, традиция, юмор, жанр, содержание, программа, видеоклип, шоу, «фальшивый смех», духовность.

Qiziqchilik san’atiga bugungi kunda shunchaki ko‘ngilochar kulgi janri sifatida qarash sohaga nisbatan unchalik to‘g‘ri munosabat emas. Negaki, kulgi san’atining vazifalari biroz kengayib jamiyatning ijtimoiy-madaniy holatini, insonlar kasbu-korini, yashash tarzini, qiziqishlari qolaversa butun ma’naviy va ruhiy olamini o‘zida aks ettiruvchi muhim vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Biroq bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadallik bilan rivojlanib borayotgan murakkab davrda ushbu san’at turining bir qator spetsifik, badiiy va funksional muammolari yuzaga chiqmoqdaki ularning har biriga alohida to‘xtalib o‘tish lozim. Ayniqsa, Farg‘ona vodiysi hududlaridagi zamonaviy qiziqchilik san’atining fundamental muammolari va ularning ilmiy-amaliy yechimlarini tahlil qilish orqali bu sohada to‘liq ilmiy manzara hosil qilish mumkin. Ular quydagilardan iborat.

Birinchidan, zamonaviy qiziqchilik san’atining spetsifik muammolari eng avvalo kun sayin yangiliklarga boyib borayotgan internet tarmoqlari bilan bog‘liq holda yuzaga kelmoqda. Kuzatishlarimiz natijasida turli ijtimoiy tarmoqlar uchun tayyorlangan va ommaviy ravishda keng auditoriyaga namoyish etilayotgan kulgiga oid videoroliklar, dasturlar va boshqa kontentlar saviyasi yildan-yilga sayozlashib borayotganligi aniqlandi. Xalqimiz ma’naviyatiga, asriy qadriyatlariga, milliy mentalitetimizga ayniqsa, yoshlarning tarbiyasiga salbiy tasir qiluvchi kulgi namunalarning joylashtirilishi holatlari kuzatilmoqda. Bunday yuzaki munosabat bugungi kundagi ayrim qiziqlar ijodidagi eng katta muammolardan biriga aylanib ulgurdi. "Soxta kulgi" ketidan quvish soha rivojiga o‘zining salbiy tasirini ko‘rsatmoqda. Tabiiyki, internet tarmoqlarida ko‘payib borayotgan bunday video roliklar, dasturlar va ko‘rsatuvlarni raqamli ommaviy platformalar (TikTok, Instagram, YouTube) algoritmlari tez va qisqa vaqt ichida butun dunyoda ko‘p ko‘rilishi, milionlab tomoshabinlarga yetib borish imkoniyatini taminlamoqda. Bu esa o‘z navbatida soha vakillarini intellektual va chuqur

ijtimoiy hajv oʻrniga, yuzaki, koʻpincha behayo, zamondoshlarimiz shaxsiyatga tegadigan, bachkana yoki maishiy mavzulardagi mantiqsiz "arzon kulgi"ning yildan yilga koʻpayishiga olib kelmoqda. Nazoratsiz yangilik bir kun kelib albatta chegaradan chiqishi, oʻz oʻzanidan uzoqlashishi hayotda koʻp bor kuzatilgan.

Ikkinchidan, yana bir muammo bevosita qiziqchilik san'atida hozirga qadar mualliflik huquqi yaxshi yoʻlga qoʻyilmaganligida koʻzga tashlanadi. Shu bois qiziqlar ijodida ham ijrosida ham plagiat – koʻchirmachilikga toʻliq huquqiy barham berilmagan. Qiziqchilar ijodini himoya qilishga qaratilgan aniq badiiy, gʻoyaviy va huquqiy meyorlar ishlab chiqilmagan. Bu holat hozirgi internet asrida bitta muvaffaqiyatli xajviy gʻoya, qochiriq, hangoma, satirik sher, oʻxshatish, kulgili hikoya yoki oddiy latifa matni bir necha daqiqa ichida oʻgʻirlanishi va boshqa qiziqchi tomonidan oʻziniki sifatida taqdim etilishiga olib kelmoqda. Albatta ustoz-shogird an'anasi bundan mustasno. Bunday holatlar – mualliflik huquqining toʻliq himoyasizligi qiziqchilarning professional darajada oʻsishi va yangidan-yangi original kulgi asarlarini yaratish motivatsiyasining pasayishiga olib kelmoqda. Raqobat boʻlmagan joyda rivojlanish ham boʻlmasligi tarixdan ayon. Ammo bunday mulohazalar ayrim qiziqchilargagina tegishli xolos.

Uchinchidan, zamonaviy qiziqchilik san'atining rivojida toʻsqinlik qilayotgan eng muhim muammolardan yana biri aksariyat ijrochilarning sahnada madaniyatiga rioya qilmasligi, etika chegaralarini bilmasligi yoki unga e'tibor qaratmasligida kuzatiladi. Yangi Oʻzbekiston jamiyatida diniy, etnik bagʻrikenglik, millatlararo tolerantlik va siyosiy korrektlik talablari tobora kuchayib bormoqda. Tabiiyki bu holat har qanday ijodkor ayniqsa, qiziqchidan turli ijtimoiy guruhlar, din, millat, kasb, soha yoki gender mavzularida biroz chegaradan chiqib, oʻrinsiz oʻxshatish yoki biroz qoʻpolroq hazil qilganda, jamiyat a'zolari tomonidan keskin munosabat bildirilishi yoki rad etilishi holatlari kuzatilmoqda. Ayrim hollarda bunday ijodkorlar huquqiy muammolarga duch kelishi ham ehtimolan holi emas. Aytmoqchimizki, haqiqiy ijro, yuqori mahorat va samimiy kulgi bilan bachkana qiliqlar qilib sahnaga chiqadigan ayrim "sohta san'atkor" ni bir biridan ajratish vaqti keldi. Yoki ular oʻrtasidagi mutanosiblikni topish yoʻllarini, talablarini va mayorlarini ishlab chiqish, aniqlash lozim. Bu muammo hal etilmas ekan sohadagi ayrim soxta "tadbirkor" kulgi jamoalaridan qutilishimiz amri mahol.

Toʻrtinchidan, mavzu doirasida tadqiqot olib borish, qiziqchilik sohasini ichidan tahlil qilish natijasida yana bir spetsifik muammo sifatida bu borada zamonaviy professional ijodiy maktab va malakali kadrlarning yetishmasligida ayon boʻldi. Garchi Fargʻona vodiysida azaldan an'anaviy teatr san'atida aktyorlik va rejissyorlik maktablari amaliy faoliyat yuritgan boʻlsa-da, aynan zamonaviy estrada qiziqchiligi uchun tizimli akademik ta'lim deyarli yoʻqligi kuztiladi. Sohaga kirib kelayotgan yosh ijrochilarning aksariyati havaskorlardan iborat boʻlib, ularda nutq madaniyati, badiiy tafakkur, sahna harakati, plastika, deklomatsiya, dramaturgiya va tomoshabin psixologiyasi boʻyicha fundamental

tizimli bilim va koʻnikmalar yetishmaydi. Buning ustiga Oʻzbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Qoʻqon filiali ham yopildi. Shu va shunga oʻxshash masalalarga barham berish maqsadida Margʻilon shahrida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-iyuldagi PQ-222-sonli "Respublikada milliy askiya va qiziqchilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi Qarori asosida askiya va qiziqchilik markazi tashkil etilib oʻz faoliyatini boshladi[4].

Beshinchidan, qiziqchilik san'atini rivojlantirishga oid spetsifik muammolarga ilmiy va amaliy yechimlarni izlash ushbu muammolarni bartaraf etishga tizimli yondoshish hamda davlat, siyosiy partiyalar, ijodiy uyushmalar, yoshlar agentligi va davlat va xususiy teleradiokompaniyalarning birgalikdagi aniq hamkorligini talab qiladi. Mavjud muammolarga tavsiya etilayotgan yechimlardan albatta kutilayotgan natijaga erishish judayam muhim. Arzon kulgi va badiiy-gʻoyaviy jihatdan darajasi past boʻlgan kulgi namunalari, umuman har qanday hajviy asarlar sahnaga chiqishidan oldin Badiiy kengashlarda muhokama qilinib, yutuq va kamchiliklari aytilib, ularni bartaraf qilish yoʻllari koʻrsatib berishishi zarur. Har qanday asar xalqimiz ma'naviy qadriyatlariga moslashtirilishi davr talabiga aylanmoqda. Bugungi kunda ularni saralab raqamli formatga moslashtirish ham yaxshi natija berishi mumkin. Ijodkorlar tomonidan yaratilgan sifatli ijtimoiy-siyosiy hajvni moddiy ragʻbatlantirishni ham oʻylab koʻradigan vaqt keldi. Shunday qilinganda internet tarmogʻidagi kontentlarning intellektual darajasi yuksaladi, ijrochilarning ham badiiy-estetik didi shakllanishiga xizmat qiladi. Buning uchun mualliflik huquqi himoya qilingan raqamli kontent uchun yagona intellektual mulk reyestrini yaratishga katta zarurat bor. Butun dunyoda boʻlgani kabi zamonaviy raqamli axborot texnologiyalar orqali asarlarning haqiqiy muallifini aniqlash imkoniyati paydo boʻladi. Natijada qiziqchilarning mualliflik huquqi qonuniy himoyalanadi, ijtimoiy tarmoqlarda original kontentlar soni koʻpayadi, soxtalari oʻz oʻzidan barham topadi. Qiziqlar ijodida sahna etikasi va gʻoyaviy-badiiy mutanosiblikga erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, Fargʻona vodiysi zamonaviy qiziqchilik san'ati tomoshabinlar uchun faqatgina "reaktiv" – voqelikka shunchaki munosabat bildiruvchi funksiyani bajarmasdan ayni payda jamiyat badiiy tafakkurini, xalqimiz ma'naviyatini yuksaltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalarni ham oʻzida mujassamlovchi boʻlishi talab etiladi. Milliylik va globallashuv tendensiyalarini uygʻunlashtirish uchun qiziqchilik san'atida "etno-modernizm" metodologiyasidan foydalanish zarur. YA'ni, milliy xarakter va qadriyatlarni saqlagan holda, jahon andozasidagi zamonaviy komediya shakllaridan lozim oʻrinlarda unumli foydalanish sohaning inqirozdan chiqishiga va xalqaro maydonga integratsiyalashuviga xizmat qilshi shubhasizdir.

[4] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-iyuldagi PQ-222-sonli "Respublikada milliy askiya va qiziqchilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi Qarori (lex.uz›uz/docs/6531520)

Foydalanilgan manbalar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-iyuldagi PQ-222-sonli “Respublikada milliy askiya va qiziqchilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori (lex.uz›uz/docs/6531520)

2. Sultonov M., Sherayev M., O‘zbek xalqining askiya va qiziqchilik san’ati. –Farg‘ona, 2020, –188 b.

3. Sultonov H., Sultonov M., Askiya, kulgi – Chehraning guli. –“Farg‘ona” nashriyoti. 2024 y. 244 b.

4. Abdurahmonov I., Sultonov O., Mirza qiziq teatri. –MonografiY. Toshkent: “Mutarjim”, 2006. –145 bet.

5. Tursunov T. Aka Buxor (suhbat va qiziqchiliklar). –Toshkent, “Yangi asr avlodi”. 2007. 100 b.

6. Qodirov M.H. Yusufjon qiziq. –Toshkent: “Fan”. 1991. 97 bet.

7. Qodirov M. Masxaraboz va qiziqchilar san’ati (Farg‘ona an’anaviy teatri). –MonografiY. Toshkent, “Fan”. 1971. -2005 bet.

8. Abdurahmonov I., Sangirov B., O‘zbek an’anaviy qiziqchilik san’ati. – O‘quv qo‘llanma. Toshkent. “Tafakkur bo‘stoni”., 2017. 80 bet.

XX-АСРНИНГ 1930-1950-ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕК АКТЁРЛИК САНЪАТИ ТАРАҚҚИЁТИНИНГ АСОСИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ

Шахло Хамидова
УзДМСИ, санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент

Annotatsiya: Maqolada XX asrning 1930–1950-yillarida o‘zbek aktyorlik san’ati taraqqiyotining asosiy tendensiyalari haqida fikr yuritiladi. Mazkur tendensiyalar teatrning yetuk aktyorlari A.Hidoyatov, O.Xo‘jayev, S.Eshonto‘rayevalar ijodi misolida tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: teatr, spektakl, aktyor, rejissyor, tendensiya, ijro.

Аннотация: В статье рассматриваются основные тенденции развития узбекского актерского искусства в 1930-1950-е годы XX века. Эти тенденции анализируются на примере творчества выдающихся актеров театра А. Хидоятова, О. Ходжаева, С. Ешонтураевой.

Ключевые слова: театр, спектакль, актер, режиссер, тенденция, спектакль.

Abstract: This article examines the main trends in the development of Uzbek acting in the 1930s–1950s. These trends are analyzed using the work of prominent theater actors A. Khidoyatov, O. Khodjaev, and S. Eshonturaeva as examples.

Keywords: theater, performance, actor, director, trend, performance

Aktyorlik san’ati barcha san’atlar ichida eng yorqin hodisalardan biridir. Zamonaviy o‘zbek aktyorlik san’ati shunchaki bir komponent bo‘lib qolmadi,

sababi aktyor o‘z rolini ijro etar ekan, u faqat spektakl muallifi va rejissyori topilmalariga tayanmadi. Aktyor o‘z iste’dodining barcha vositalari va imkoniyatlarini ishga solgan holda sahna obrazini yaratdi.

Albatta, zamonaviy qahramon xarakteri 1930-50-yillarning aktyorlik san’atida qanday gavdalanganligini o‘rganish muhim va dolzarbdir, chunki birinchidan, bu o‘sha davrda to‘plangan tajribalarni umumlashtirishga imkon beradi, ikkinchidan, o‘zbek drama teatrining bugungi ijodiy amaliyotiga baho berish imkoniyatini yaratadi.

Ayniqsa o‘sha yillarda Respublikaning yetakchi drama teatrlaridan bo‘lgan Hamza nomidagi O‘zbek Davlat Akademik drama teatri (hozirgi Milliy Akademik drama teatri) va Yosh gvardiya teatrining (hozirgi O‘zbekiston davlat drama teatri) spektakllari alohida qiziqish uyg‘otadi, albatta. Sababi, aynan mazkur teatrlar spektakllarida talqin va ijro xilma-xilligini ko‘rish mumkin.

Professional o‘zbek aktyorlik san’ati tarixi XX asr boshlarida jadidlar tomonidan tashkil etilgan yevropa tipidagi teatrning havaskor aktyorlari faoliyati bilan boshlanib, Moskva dram studiyasida tahsil olib kelgan qator iqtidorli yoshlar ijodi bilan davom etadi. M.Qodirovning ta’kidlashicha, o‘zbek teatrining ilk davridan aktyorlik san’atidagi asosiy yo‘nalishlar belgilab olindi, bular: qahramonlik-romantik, satirik-komik, lirik-poetik. O‘zbek aktyorlik san’atida romantik uslubga bo‘lgan intilish kuchli ekanligi ayon. O‘zbek aktyorlik san’atining asoschilaridan bo‘lmish A.Hidoyatov romantik uslubni yanada boyitishga intildi. U “o‘zining eng yaxshi rollarida “romantika” va “oddiylik”ning yuksak sinteziga erishdi” [1, стр 135].

San’atga qadam qo‘ygan Abror Hidoyatov professional ta’lim olishni, aktyorlik san’ati qobiliyatini tubdan o‘rganishni orzu qiladi, uning bu orzusi 1924-yilda ushaladi va u bir qator yoshlar bilan Moskvaga Maorif uyi qoshidagi studiyaga o‘qishga boradi. “Abror Hidoyatov rus teatri artistlaridan, ayniqsa Xudojestvenniy teatrning atoqli san’atkorlaridan realistik san’atni, qahramonlar obrazining g‘oyaviy mazmunini tomoshabinga haqqoniy va ta’sirli qilib yetkazishni o‘rgandi.

Yuksak tragik temperament egasi bo‘lmish Abror Hidoyatov Shekspir dramaturgiyasini, uning she’riyatini chuqur his etgan va Shekspirning buyuk tragediyalari “Gamlet” va “Otello”da yaratgan obrazlari o‘zbek teatri tarixida romantik uslubning yaqqol ifodasi bo‘ldi.

O‘zbek teatrida Shekspir asarlariga murojaat Mannon Uyg‘ur tomonidan amalga oshirildi. “Gamlet” spektakli 1935, 1939, 1949 yillarda rejissyor tomonidan sahnalashtirilgan bo‘lib, unda bosh rollarni Abror Hidoyatov, Olim Xo‘jayev, Sora Eshonto‘rayeva, Obid Jalilovlar ijro etganlar. Mana shu tragediyaga takror va takror murojaat etish asnosida rejissyor va aktyorlar asarning mazmuni va uni bugungi davr bilan nima bog‘lab turganini anglashga intilganlar. Har safar tomoshabin yangi talqindagi Gamletni ko‘rganda, o‘sha davr qahramonini, idealini ko‘rgandek bo‘laveradi. Shuning orasida A.Hidoyatov va O.Xo‘jayev ijrosidagi Gamlet obrazi tomoshabinlar qalbidan chuqur joy egallagan.

Ilk bor o‘zbek tomoshabinlari Gamlet tragediyasi bilan 1935-yilda tanishganlar. M.Uyg‘ur mana shu spektaklni ilk bora o‘zbek sahnasiga olib chiqdi. Spektakl postanovkasida u aktyorlar ansamblini yaratishga muvaffaq bo‘lgan. Rejissyorning fikricha, Gamlet qasoskor emas, u otasining o‘limi sababini izlaydi. A.Hidoyatov ushbu obrazga Gamletning “Daniya - zindon” degan iborasi orqali yondashadi. Sotqinlik va xiyonatning tagiga yetishga, uni quritishga intiladi. U jamiyatda sodir bo‘layotgan nohaqliklar, adolatsizliklarga qarshi kurashish uchun chog‘langan insondir. A.Hidoyatov o‘z Gamletini uyg‘onish davrining qahramoni sifatida jonlantirishga e’tibor berib talqin etdi. U Gamletni aynan Shekspir ta’kidlaganidek ijro etishga harakat qilgan. Bu Gamlet aqlli, qat’iyatli, o‘z maqsadlari uchun kurashuvchan insondir. “A.Hidoyatov Gamletning “kamsitilgan” oddiy kishidan his-tuyg‘ular kurashi protsessida o‘z atrofida hukm surayotgan ijtimoiy haqsizlikni anglovchi faylasuf, sudya darajasigacha bosib o‘tilgan yo‘lni zo‘r mahorat bilan aks ettiradi”[2, 90-b]. Haqiqatan A.Hidoyatov Gamleti orqali o‘zbek aktyorlik san’atida klassik ijroga yangicha yondashuv Shekspir tragediyasi mohiyatini anglash orqali yuzaga kelgani ma’lum bo‘ladi.

Asarning 1949-yildagi M.Uyg‘urning N.Ladigin bilan hamkorlikda sahnalashtirilgan variantida Olim Xo‘jayev avvalgi kamchiliklarni bartaraf etishga muvaffaq bo‘ldi.

Ushbu ikki zabardast aktyorning klassik asarlardagi aktyorlik izlanishlari Shekspirning yana bir tragediyasi “Otello”da davom etdi. “Klassik asarlar tufayli aktyorlik san’atining tabiatiga yangicha qarash, rejissuraning roli va vazifalari tasdiqlandi. Aktyorlar inson psixologiyasining ichki dunyosiga kirib borish san’atini tushunishni o‘rgandilar. Klassika aktyorlik ijrosi tamoyillarini murakkablashtirdi, inson ruhiy hayotining subtekstini nozik va chuqur anglashni va ochib berishni talab qildi”[3, стр 25]. Ruhiyatga kirish inson psixologiyasini chuqur anglash “Otello” spektaklda yanada nomoyon bo‘ldi.

Ushbu spektaklda A.Hidoyatov – Otello, O.Xo‘jayev – Yago obrazlarini yaratdilar. Spektaklni M.Uyg‘ur va N.Ladigin 1941-yil sahnaga olib chiqdilar. Otello obraziga A.S.Pushkinning “Otello tabiatan rashkchi emas, ishonuvchandir” degan so‘zlari asos qilib olingan. A.Hidoyatov o‘z qahramonini xuddi shunday tarzda yarata oldi. “Abror Hidoyatov Otelloni murakkab, buyuk va go‘zal inson sifatida talqin qildi. Aktyor bunga tashqi harakat va ichki his-tuyg‘uni bir-biriga payvasta qilish, har bir so‘z, harakat, holat, nigoh, raftor, ishora, lutf va ohang ustida puxta ishlash orqali erishdi” [4, 23-b]. Otello – A.Hidoyatov sahnaga chiqib kelishi bilan tomoshabinni o‘zining sofdilligi bilan rom etar edi. Otello – A.Hidoyatovning xatosi u Dezdemonaga ham, Yagoga ham ishonganligidadir. Sababi Yago O.Xo‘jayev tomonidan yovuz, lekin aqlli firibgar qilib yaratilgan. Yago aqlli, lekin o‘z aqlini yovuzlik sari ishlatadi. O.Xo‘jayev qahramonini boshqa teatrlar tomonidan talqin etilgan qo‘pol, yollangan askar sifatida ko‘rsatmadi. U Otelloni ulug‘vorligi va oliyjanobiligini ko‘rolmaydi. Otello oldida u hech kim emasligini anglaydi va shu sababli ham unda qasos tuyg‘usi uyg‘onadi. Shundan so‘ng u sekin-asta Otelloni zaharlay boshlaydi.

Abror Hidoyatov oʻzi yaratayotgan qahramonning soʻzlashiga, monologlarni his etishga katta ahamiyat qaratadi. Dezdemonaga ilk shubha uygʻongan sahnadan boshlab u oʻzgarishni boshlaydi. Yago – Olim Xoʻjayevning Dezdemona haqidagi soʻzlari uning yuragiga borib qadalayotganday edi va uning ichki holati koʻz qarashlari orqali tomoshabinga yetib borar edi. Yago – Olim Xoʻjayevning soʻzlaridan keyin u xuddi yaralangan sher kabi qattiq ingraydi. Yago oʻz ishini bajargan edi. Va buni u puxta reja orqali amalga oshiradi. Haqiqatan ham Abror Hidoyatovning Otellosi Gʻarb mamlakatlari tragik aktyorlar talqini kabi rashk tufayli daxshatli tusga kirgan mavr emas, balki chin muhabbat insoniy yetuklik uchun kurashuvchi qudratli shaxs qiyofasida gavdalanadi. Ushbu spektakldagi roli orqali A.Hidoyatov oʻz Otellosi bilan oʻzbek aktyorlik san'atidagi romantik ijro an'analarni davom ettirgan boʻlsa, Olim Xoʻjayev oʻz Yagosi bilan ijroga psixologizm va intellektni qoʻshdi. Shu bilan u oʻzbek aktyorlik san'atida oʻz yoʻli va oʻz oʻrnini topa olgan aktyorlar qatoriga qoʻshildi.

1930-1940 yillar oʻzbek teatri aktyorlik san'atida Sora Eshontoʻrayevaning ham oʻziga xos oʻrni bor. Ushbu aktrisa mumtoz asarlarda hamda zamonaviy pesalarda turli obrazlarni yaratib, oʻzbek aktyorlik san'atida romantik ijro bilan oʻz oʻrniga ega boʻldi. Aktrisaning ijro mahoratini tomoshabinga koʻrsatgan rollardan biri albatta "Gamlet" (rej. M.Uygʻur 1935-y) spektaklidagi Ofeliya obrazidir. Aktrisa Ofeliyani yaratar ekan uni his etishga va qahramonning ichki holatini koʻrsatishga intildi. Aktrisa ushbu qahramonning xarakteri ustida koʻp izlanishiga toʻgʻri keldi. Ofeliyaning soʻzlari orqali ichki dunyosini anglashga va boshqalarnikiga oʻxshamagan oʻz Ofeliyasini yaratishga intildi. Uning Ofeliyasi boshqa Ofeliyalardan shunisi bilan farq qiladiki, u Gamletning buyukligiga ishonadi. U Gamletni fitnalar orasida qolganligini anglaydi. Aktrisa qahramonining xarakteridagi ba'zi qirralarini boʻrttirishga harakat qiladi. Sababi, bu obraz boshqa obrazlardan oʻzining ta'sirchanligi bilan ham ajralib turar edi. S.Eshontoʻrayeva qahramonning faqatgina xarakterini emas, balki uning taqdirini koʻrsatishga, u orqali esa ayollarning fojiali qismatlarini namoyish etishga intildi.

Sora Eshontoʻrayevaning Dezdemonasi ham oʻzgacha. U qat'iyatli, oʻziga ishongan goʻzal qiz. Ilk sahnada Dezdemona kirib kelar ekan, tomoshabin koʻz oʻngida goʻzal, viqorli inson gavdalanadi. Uning Dezdemonasi hayotni sevuvchi begʻubor qiz. Uning begʻuborligi Otelloni hikoyalarini eshitib, unga oshiq boʻlganligidan ham ma'lum boʻladi. Aktrisa oʻz qahramonini Otelloni sevuvchi, unga borini beruvchi obraz sifatida tasvirlaydi. Hattoki soʻnggi oʻlim sahnasida ham aktrisa Otelloga boʻlgan muhabbatini yashirmagan ayol sifatida gavdalanadi. Ushbu ijro orqali Dezdemonaning olijanob ayol sifatida gavdalanganligini anglash mumkin.

Aktrisa nafaqat klassik asarlar, balki oʻzbek dramaturgiyasi namunalarida ham bir qator obrazlar yaratgan boʻlib, bu obrazlar hozirda ham oʻziga xos ijrosi hamda tarovati bilan qadrlanadi. Bunga misol tariqasida aktrisa yaratgan Hamzaning "Boy ila xizmatchi" asaridagi Jamila obrazini keltirish mumkin. Ushbu obraz xalq ichida oʻzbek Katerinasi deya nom olishi ham bejiz emas.

Sababi aktrisa Jamilaning fojiasini tasvirlashga va bu orqali oʻzbek ayollari qismatini koʻrsatishga intildi. S.Eshontoʻrayeva oʻz rollarida qahramonining ichki kechinmalarini yetkazishda tashqi ifoda vositalaridan unumli foydalanadi. Bir holatdan ikkinchisiga tezlik bilan oʻtishi, soʻzlashdagi aniq, ravon nutq, holatga mos boʻlgan ovoz intonatsiyasi aktrisaning mahoratidan darak beradi. Aktrisa yaratgan Guli obrazi (Uygʻun, I.Sultonning "Alisher Navoiy" dramasi)ning dardi-yu qismati Jamilanikidan kam emas, u ham aldovlar, makr va hiyla qurboni. Ushbu obraz orqali aktrisa sadoqat, vafo namunasining yuqori choʻqqisini namoyish etdi. Qahramoni orqali oʻzbek ayolining eng olijanob fazilatlarini koʻrsatishga intildi.

Oʻzbek teatri aktyorlik san'atining yetuk namoyandalari A.Hidoyatov, O.Xoʻjayev, S.Eshontoʻrayevalar aktyorlik san'atining tendensiyalarini shakllanishida oʻz hissalarini qoʻshdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro 'yxati:

1. Кайдалова О. Традиции и современность. – Москва: Искусства, 1977.

2. Hamza nomidagi teatr. – Toshkent: Oʻzbekiston SSR davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1957.

3. Туляоджаева М. Режиссура узбекского драматического театра. Тенденции развития и соврименные проблемы. – Ташкент: изд.летературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1995.

4. Qodirov M. Tomosha san'atlari oʻtmishda va bugun. – Toshkent: Mumtoz soʻz, 2013.

УМРИНИ, ХОЯТИНИ ТЕАТРГА БАХШ ЭТКАН АКТЁР

Оманулла Ризаев
УзДМСИ, филология фанлари номзоди

Annotatsiya: Maqolada Oʻzbekiston xalq artisti, Oʻzbekiston qahramoni Zikir Muhammadjonovning ijodiy faoliyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit soʻzlar: Teatr, kino, sahna, aktyor, rejissyor, dramaturgiya.

Annotatsiya: V statye rassmatrivayetsya tvorcheskaya deyatelnost narodnogo artista, Geroya Uzbekistana Zikira Muxammaddjanova.

Klyucheviye slova: Teatr, kino, ssena, aktyor, rejissyor, dramaturgiya.

Yuqoridagi soʻzlar, Oʻzbekiston xalq artisti, Oʻzbekiston qahramoni, mashhur teatr va kino aktyori Zikir Muhammadjonovga tegishlidir. Bu yil san'atkor tavallud topgan kunga 105 yil toʻldi. U 1921 yil 1 yanvar kuni dunyoga kelgan. San'atga boʻlgan muhabbati tufayli Zikir Muhammadjonovning butun ongli hayoti va ijodiy faoliyati sahna va ekran san'ati bilan chambarchas bogʻliq holda kechdi. U sahnada, kino va televideniyeda ijro etgan oʻnlab turli janr va xarakterdagi obrazlar galereyasini nazardan oʻtkazsak, koʻz oʻngimizda XX asr professional oʻzbek teatr va kino san'atining tarixiy rivojlanish va taraqqiyot

yo‘llari namoyon bo‘ladi. Bu yo‘l mashaqqatli, og‘ir, ba’zan og‘riqli, ba’zida zavqli va lazzatli lahzalarga to‘la bo‘lgan.

Zikir Muhammadjonovning teatrga oshiftaligi avvalombor, u tug‘ilib, unib-o‘sgan xonadondagi ma’naviy muhit ta’sirida kurtak ochgan. Otalari Toshkentlik Zikir ko‘nchi boy Ibrohim hoji buvaning uchinchi o‘g‘li Muhammad qori – teri pishirish va bog‘bonlik orqasidan halol mehnat bilan oila tebratgan. Onalari Turdiniso uy ishlari bilan mashg‘ul bo‘lib, bolalarini mehr bilan yuvib-tarab, kechalari ularga har xil cho‘pchaklar, rivoyatlar aytib berar, xatto patnis chertib, ashula aytib, ularni o‘ynatar ekan. Bu holat balki yosh o‘smir qalbida san’atga bo‘lgan qiziqishning, aytish joiz bo‘lsa, ilk muhabbatning kurtak otishiga turtki bo‘lgandir. Buning ustiga, uning tog‘asi ham san’at shaydosi bo‘lib, nog‘orani qoyilmaqom qilib chalarkan. U jiyaniga ham nog‘ora chalishni o‘rgatgan, xatto teatrga uni ilk marotaba yetaklab borgan ham shu tog‘asi bo‘lgan ekan. Spektakl ko‘rib, unga mahliyo bo‘lib qolgan o‘smir yigitcha bir umr teatrga bog‘lanib qoladi. O‘sha kezlari maktablarda turli havaskorlik to‘garaklari tashkil qilinar edi. Tabiiyki Zikir Muhammadjonov drama to‘garagini tanlaydi. Bo‘lajak aktyor yoshligidanoq san’atkor bo‘lish uchun muhim bo‘lgan ham tashqi – jismoniy, ham ichki – ruhiy imkoniyatlarga ega edi. Qaddi-qomati kelishgan, istarasi issiq, ko‘z qarashlari ifodali, nutqi ravon, jarangdor ovozi o‘zigi xos ohangdorligi bilan ajralib turardi. Shuning uchun ham unga bosh rollarni ishonib topshirishardi. U maktab sahnasida rol ijro etib, aktyorlik sirlarini o‘rganish bilan birga, pionerlar saroyida tashkil etilgan duxovoy orkestr to‘garagiga ham qatnashib, klarnet chalishni o‘rganadi va turli konsertlarda ishtirok etadi. Shu zayl, yillar o‘tib, hozirgi Milliy Universitet qoshidagi ishchilar fakultetida tahsil oladi. Biroq, ko‘ngli faqat sahnani tilardi. Teatrlarda sahnalashtirilgan spektakllarni muntazim tomosha qilib to‘ymasdi. Kunlardan bir kun, gazetada Hamza teatriga yordamchi aktyorlar qabul qilinishi haqidagi e’lonni o‘qib, darhol sinovdan o‘tish uchun ariza topshiradi. Ozmi-ko‘pmi havaskorlik sahnasida orttirgan tajribasi qo‘l kelib, sinovdan muvaffaqiyatli o‘tadi va 1938 yili Hamza nomidagi o‘zbek davlat akademik drama teatriga (xozirgi O‘zbek Milliy akademik drama teatriga) ishga qabul qilinadi va umrining oxirigacha ushbu teatrda faoliyat yuritib, havaskorlikdan mashhur sahna ustasi darajasiga yetadi.

Zikir Muhammadjonovning ilk aktyorlik faoliyati teatrning asoschilari bo‘lmish qator san’at darg‘alari bilan birgalikda ijod qilish, ulardan o‘rganish va saboq olish jarayonida tobora takomillashib bordi va kelajakda teatrning yetuk aktyori bo‘lib kamolga yetishida katta maktab va saboq bo‘ldi.

Zikir Muhammadjonov Hamza teatriga uchinchi avlod vakili bo‘lib kirib keldi. Tarixdan ma’lumki, birinchi avlod vakillari – 1924-1927 yillar Moskva shahrida tashkil qilingan o‘zbek drama studiyasining bitiruvchilari – Mannon Uyg‘ur, Yetim Bobojonov, Abror Hidoyatov, Sora Eshonto‘rayeva, Zamira Hidoyatova, Sa’dixon Tabibullayev, Sharif Qayumov, Hikmat Latipov, Lutfulla Nazrullayev, va boshqa zabardast ijodkorlar bo‘lishgan. 1920 – yillarning oxiri, 30 – yillarning boshlarida teatr jamoasiga Olim Xo‘jayev, Shukur Burxonov, Nabi

Rahimov, Qudrat Xo‘jayev, G‘ani A’zamov singari bir guruh yosh iqtidorlar ikkinchi avlod vakillari bo‘lib qo‘shiladi. Bu davrda teatr repertuari kengayib, milliy asarlar bilan yonma-yon jahon klassik dramaturgiyasining eng sara namunalari ham sahna yuzini ko‘ra boshladi. Ayniqsa, Abror Hidoyatov ijrosidagi “Hamlet” tragediyasining 1937 yili Moskvada o‘tkazilgan o‘zbek adabiyoti va san’ati dekadasida mauvaffaqiyatli o‘ynalishi, katta shov-shuvga sabab bo‘ldi. Spektaklga o‘z davrining yetuk teatr arboblari va olimlar juda yuqori baho berishdi, matbuot sahifalarida o‘zbek teatr san’atining yutuqlari ko‘klarga ko‘tarilib maqtalgan maqola va taqrizlar paydo bo‘ldi. Shu zayl, Hamza teatri ijodiy yetilgan va eng zo‘r teatrlardan biri sifatida e’tirof etilgan bir sharoitda, teatrga yana bir guruh iste’dodli yoshlar kirib keldi. Bu guruh safida Ne’mat Qosimov, Yayra Abdullayeva, Erkli Malikbayeva, Iroda Aliyeva, Toshxo‘ja Xo‘jayev, keyinchalik Yoqub Ahmedov, Turg‘un Azizov, Rixsi Ibrohimova va boshqa san’atkorlar kelib qo‘shildi. Milliy teatr tarixida “uchinchi avlod” deb nom olgan bu ijodkorlarning barchasi kelgusida teatrning eng mashhur san’atkorlari qatoridan joy oldilar. Ular orasida Zikir Muhammadjonovning ham milliy teatrimiz rivojida alohida xizmatlari bor.

Teatrning badiiy rahbari Mannon Uyg‘ur yosh aktyorning o‘ziga xos iste’dodi va intilishlarini ko‘rib uni 1945 yili yangi ta’sis etilgan Toshkent davlat teatr san’ati institutiga taxsil olish uchun yuboradi. Bir necha yil teatrda mashhur san’atkorlar bilan yonma-yon, ularning ijodini kuzatib, ular bilan bir sahnada rol o‘ynab, ozmi-ko‘pmi tajriba orttirgan Zikir Muhammadjonov institutga birinchilardan bo‘lib qabul qilinadi va o‘qishni muvaffaqiyat bilan tugatib, teatrda ijodini davom ettiradi. U bilan birga institutni tugatib teatrga qabul qilingan qator yoshlarning jamoaga kirib kelishi, teatr ijodini yanada jonlantirib yubordi.

Zikir Muhammadjonovning 70 yildan ziyod vaqt mobaynidagi ijodi nihoyatda barakali, sermazmun va ko‘pqirralidir. U o‘z faoliyati favomida 100 dan ortiq turli janr va xarakaterdagi rang-barang obrazlarni mahorat bilan ijro qilib, el nazariga tushdi. Uning reperturida milliy va jahon mumtoz adabiyotining, shuningdek zamonaviy dramaturgiyaning eng sara namunalarini ko‘rish mumkin. Jumladan, turli davrlarda yaratilgan Temur Malik (“Jaloliddin Manguberdi” M.Shayxzoda), Dehqonboy (“Shohi so‘zana” A.Qahhor), Ferdinand (“Qaroqchilar”, F.Shiller), Goratsio (“Gamlet”, V.Shekspir), Samandar (“Samandar”, A.Muxtor), Beruniy (“Abu Rayxon Beruniy”, Uyg‘un), Alisher Navoiy (“Alisher Navoiy”, Uyg‘un, Izzat Sulton), Sintaro (“O‘g‘irlangan umr”, M.Kaoru), Yedigey (“Asrga tatigulik kun” CH.Aytmatov), Shokir aka (“Kuzning birinchi kuni” O‘.Umarbekov) singari qator obrazlar o‘zbek aktyorlik maktabining yorqin namunalari sifatida tarixga muhrlanib qoldi.

Z.Muhammadjonov nafaqat teatr sahnasida, balki ko‘plab badiiy filmlarda ham turli-tuman obrazlar yaratib, o‘z ijodiy biografiyasini yanada boyitdi. Turli y illarda suratga olingan Shoh Bahrom (“Dilorom”), Professor Karimov (“Koniyut g‘orining siri”), General Rahimov (“General Rahimov”), Maqsud (“Fidoiy”), Ahmedov (“Qo‘qon voqeasi”), Yusuf (“Ali bobo va qirq qaroqchi”)

singari filmlarda u ijro etgan turli xarakterdagi sara obrazlar aktyor ijodining yangi qirralarini namoyon qildi.

Zikir Muhammadjonov ijodining yana bir o‘ziga xos qirrasi O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining oltin fondidan joy olgan qator tele-videofilmlarda ijro etgan obrazlarida o‘z aksini topgan. Jumladan, Ulug‘bek (“Mirzo Ulug‘bek”), Xusayn Boyqaro (“Navoiy”), Komilov (“Imon”) singari obrazlar aktyorning yuksak iste’dodi va ko‘p yillik hayotiy va ijodiy tajribalari samarasidir.

Zikir Muhammadjonov mohir qalam sohibi sifatida ham o‘zining san’at va madaniyat sohasiga oid maqolalari, milliy teatr va kino san’atining darg‘alari to‘g‘risidagi xotira va esselari bilan matbuot sahifalarida muntazam ravishda chiqishlar qilib turgan. Shuningdek, uning “Ta’zim”, “O‘zim ko‘rgan-bilganlarim”, “Ulug‘lar orasida”, “Qalbdagi o‘chmas izlar” singari risolalari kitobxonlarga yaxshi tanish.

Zikir Muhammadjonov faol jamoat arbobi, o‘z vataniga, xalqiga sodiq chinakam vatanparvar fuqaro ham edi. Ayniqsa, Mustaqillik yillari qo‘lga kiritilgan yutuqlar, bunyodkorlik ishlari, jamiyatimizda ro‘y berayotgan ijobiy o‘zgarishlarni xalqimizga yetkazish maqsadida mamlakatimizning turli xududlarida aholi bilan o‘tkazilgan yuzlab ma’naviy-ma’rifiy uchrashuvlarning eng faol ishtirokchilaridan edi.

Zikir Muhammadjonovning ko‘p yillik halol va samarali faoliyati munosib taqdirlandi U “O‘zbekiston xalq artisti” Faxriy unvoni, (1962), “Shuhrat” medali (1994), “Do‘stlik” ordeni (1996), “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni (1998) sohibi edi. 2003 yili o‘zbek aktyorlari ichida birinchi bo‘lib “O‘zbekiston qahramoni” yuksak unvoniga sazovar bo‘ldi.

Zikir Muhammadjonov 2012 yil 24 avgustda Toshkent shahrida vafot etdi. Uning porloq xotirasi san’atsevar xalqimiz qalbida abadiy muhrlanib qoldi.

Adabiyotlar:

1. Abdusamatov H. Sahna sardori. “Sharq” nashriyoti, 2003
2. Muhammadjonov Z. Qalbdagi o‘chmas izlar.Toshkent, “Sharq” nashriyoti, 2014
3. Shokirov. Abduqunduzov M. Milliy teatrimiz namoyandalari. Toshkent, “Islom universiteti nashriyoti”, 2002

ТЕАТР БИНОСИНИНГ ШАКЛЛАНИШ ЖАРАЁНЛАРИ

Анвар Қурбанов
ЎзДСМИ, «Қоғирчоқ театри санъати»
кафедраси доценти

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston xalq artisti, O‘zbekiston qahramoni Zikir Muhammadjonovning ijodiy faoliyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Teatr, kino, sahna, aktyor, rejissyor, dramaturgiya.

Annotatsiya: V statye rassmatrivayetsya tvorcheskaya deyatelnost narodnogo artista, Geroya Uzbekistana Zikira Muxammaddjanova.
Klyucheviye slova: Teatr, kino, ssena, aktyor, rejissyor, dramaturgiya.

Yuqoridagi so‘zlar, O‘zbekiston xalq artisti, O‘zbekiston qahramoni, mashhur teatr va kino aktyori Zikir Muhammadjonovga tegishlidir. Bu yil san’atkor tavallud topgan kunga 105 yil to‘ldi. U 1921 yil 1 yanvar kuni dunyoga kelgan. San’atga bo‘lgan muhabbati tufayli Zikir Muhammadjonovning butun ongli hayoti va ijodiy faoliyati sahna va ekran san’ati bilan chambarchas bog‘liq holda kechdi. U sahnada, kino va televideniyeda ijro etgan o‘nlab turli janr va xarakterdagi obrazlar galereyasini nazardan o‘tkazsak, ko‘z o‘ngimizda XX asr professional o‘zbek teatr va kino san’atining tarixiy rivojlanish va taraqqiyot yo‘llari namoyon bo‘ladi. Bu yo‘l mashaqqatli, og‘ir, ba’zan og‘riqli, ba’zida zavqli va lazzatli lahzalarga to‘la bo‘lgan.

Zikir Muhammadjonovning teatrga oshiftaligi avvalombor, u tug‘ilib, unib-o‘sgan xonadondagi ma’naviy muhit ta’sirida kurtak ochgan. Otalari Toshkentlik Zikir ko‘nchi boy Ibrohim hoji buvaning uchinchi o‘g‘li Muhammad qori – teri pishirish va bog‘bonlik orqasidan halol mehnat bilan oila tebratgan. Onalari Turdiniso uy ishlari bilan mashg‘ul bo‘lib, bolalarini mehr bilan yuvib-tarab, kechalari ularga har xil cho‘pchaklar, rivoyatlar aytib berar, xatto patnis chertib, ashula aytib, ularni o‘ynatar ekan. Bu holat balki yosh o‘smir qalbida san’atga bo‘lgan qiziqishning, aytish joiz bo‘lsa, ilk muhabbatning kurtak otishiga turtki bo‘lgandir. Buning ustiga, uning tog‘asi ham san’at shaydosi bo‘lib, nog‘orani qoyilmaqom qilib chalarkan. U jiyaniga ham nog‘ora chalishni o‘rgatgan, xatto teatrga uni ilk marotaba yetaklab borgan ham shu tog‘asi bo‘lgan ekan. Spektakl ko‘rib, unga mahliyo bo‘lib qolgan o‘smir yigitcha bir umr teatrga bog‘lanib qoladi. O‘sha kezlari maktablarda turli havaskorlik to‘garaklari tashkil qilinar edi. Tabiiyki Zikir Muhammadjonov drama to‘garagini tanlaydi. Bo‘lajak aktyor yoshligidanoq san’atkor bo‘lish uchun muhim bo‘lgan ham tashqi – jismoniy, ham ichki – ruhiy imkoniyatlarga ega edi. Qaddi-qomati kelishgan, istarasi issiq, ko‘z qarashlari ifodali, nutqi ravon, jarangdor ovozi o‘zigi xos ohangdorligi bilan ajralib turardi. Shuning uchun ham unga bosh rollarni ishonib topshirishardi. U maktab sahnasida rol ijro etib, aktyorlik sirlarini o‘rganish bilan birga, pionerlar saroyida tashkil etilgan duxovoy orkestr to‘garagiga ham qatnashib, klarnet chalishni o‘rganadi va turli konsertlarda ishtirok etadi. Shu zayl, yillar o‘tib, hozirgi Milliy Universitet qoshidagi ishchilar fakultetida tahsil oladi. Biroq, ko‘ngli faqat sahnani tilardi. Teatrlarda sahnalashtirilgan spektakllarni muntazim tomosha qilib to‘ymasdi. Kunlardan bir kun, gazetada Hamza teatriga yordamchi aktyorlar qabul qilinishi haqidagi e’lonni o‘qib, darhol sinovdan o‘tish uchun ariza topshiradi. Ozmi-ko‘pmi havaskorlik sahnasida orttirgan tajribasi qo‘l kelib, sinovdan muvaffaqiyatli o‘tadi va 1938 yili Hamza nomidagi o‘zbek davlat akademik drama teatriga (xozirgi O‘zbek Milliy akademik drama teatriga) ishga qabul qilinadi va

umrining oxirigacha ushbu teatrda faoliyat yuritib, havaskorlikdan mashhur sahna ustasi darajasiga yetadi.

Zikir Muhammadjonovning ilk aktyorlik faoliyati teatrning asoschilari bo‘lmish qator san’at darg‘alari bilan birgalikda ijod qilish, ulardan o‘rganish va saboq olish jarayonida tobora takomillashib bordi va kelajakda teatrning yetuk aktyori bo‘lib kamolga yetishida katta maktab va saboq bo‘ldi.

Zikir Muhammadjonov Hamza teatriga uchinchi avlod vakili bo‘lib kirib keldi. Tarixdan ma’lumki, birinchi avlod vakillari – 1924-1927 yillar Moskva shahrida tashkil qilingan o‘zbek drama studiyasining bitiruvchilari – Mannon Uyg‘ur, Yetim Bobojonov, Abror Hidoyatov, Sora Eshonto‘rayeva, Zamira Hidoyatova, Sa’dixon Tabibullayev, Sharif Qayumov, Hikmat Latipov, Lutfulla Nazrullayev, va boshqa zabardast ijodkorlar bo‘lishgan. 1920 – yillarning oxiri, 30 – yillarning boshlarida teatr jamoasiga Olim Xo‘jayev, Shukur Burxonov, Nabi Rahimov, Qudrat Xo‘jayev, G‘ani A’zamov singari bir guruh yosh iqtidorlar ikkinchi avlod vakillari bo‘lib qo‘shiladi. Bu davrda teatr repertuari kengayib, milliy asarlar bilan yonma-yon jahon klassik dramaturgiyasining eng sara namunalari ham sahna yuzini ko‘ra boshladi. Ayniqsa, Abror Hidoyatov ijrosidagi “Hamlet” tragediyasining 1937 yili Moskvada o‘tkazilgan o‘zbek adabiyoti va san’ati dekadasida mauvaffaqiyatli o‘ynalishi, katta shov-shuvga sabab bo‘ldi. Spektaklga o‘z davrining yetuk teatr arboblari va olimlar juda yuqori baho berishdi, matbuot sahifalarida o‘zbek teatr san’atining yutuqlari ko‘klarga ko‘tarilib maqtalgan maqola va taqrizlar paydo bo‘ldi. Shu zayl, Hamza teatri ijodiy yetilgan va eng zo‘r teatrlardan biri sifatida e’tirof etilgan bir sharoitda, teatrga yana bir guruh iste’dodli yoshlar kirib keldi. Bu guruh safida Ne’mat Qosimov, Yayra Abdullayeva, Erkli Malikbayeva, Iroda Aliyeva, Toshxo‘ja Xo‘jayev, keyinchalik Yoqub Ahmedov, Turg‘un Azizov, Rixsi Ibrohimova va boshqa san’atkorlar kelib qo‘shildi. Milliy teatr tarixida “uchinchi avlod” deb nom olgan bu ijodkorlarning barchasi kelgusida teatrning eng mashhur san’atkorlari qatoridan joy oldilar. Ular orasida Zikir Muhammadjonovning ham milliy teatrimiz rivojida alohida xizmatlari bor.

Teatrning badiiy rahbari Mannon Uyg‘ur yosh aktyorning o‘ziga xos iste’dodi va intilishlarini ko‘rib uni 1945 yili yangi ta’sis etilgan Toshkent davlat teatr san’ati institutiga taxsil olish uchun yuboradi. Bir necha yil teatrda mashhur san’atkorlar bilan yonma-yon, ularning ijodini kuzatib, ular bilan bir sahnada rol o‘ynab, ozmi-ko‘pmi tajriba orttirgan Zikir Muhammadjonov institutga birinchilardan bo‘lib qabul qilinadi va o‘qishni muvaffaqiyat bilan tugatib, teatrda ijodini davom ettiradi. U bilan birga institutni tugatib teatrga qabul qilingan qator yoshlarning jamoaga kirib kelishi, teatr ijodini yanada jonlantirib yubordi.

Zikir Muhammadjonovning 70 yildan ziyod vaqt mobaynidagi ijodi nihoyatda barakali, sermazmun va ko‘pqirralidir. U o‘z faoliyati favomida 100 dan ortiq turli janr va xarakaterdagi rang-barang obrazlarni mahorat bilan ijro qilib, el nazariga tushdi. Uning reperturida milliy va jahon mumtoz adabiyotining, shuningdek zamonaviy dramaturgiyaning eng sara

namunalarini koʻrish mumkin. Jumladan, turli davrlarda yaratilgan Temur Malik (“Jaloliddin Manguberdi” M.Shayxzoda), Dehqonboy (“Shohi soʻzana” A.Qahhor), Ferdinand (“Qaroqchilar”, F.Shiller), Goratsio (“Gamlet”, V.Shekspir), Samandar (“Samandar”, A.Muxtor), Beruniy (“Abu Rayxon Beruniy”, Uygʻun), Alisher Navoiy (“Alisher Navoiy”, Uygʻun, Izzat Sulton), Sintaro (“Oʻgʻirlangan umr”, M.Kaoru), Yedigey (“Asrga tatigulik kun” CH.Aytmatov), Shokir aka (“Kuzning birinchi kuni” Oʻ.Umarbekov) singari qator obrazlar oʻzbek aktyorlik maktabining yorqin namunalari sifatida tarixga muhrlanib qoldi.

Z.Muhammadjonov nafaqat teatr sahnasida, balki koʻplab badiiy filmlarda ham turli-tuman obrazlar yaratib, oʻz ijodiy biografiyasini yanada boyitdi. Turli yillarda suratga olingan Shoh Bahrom (“Dilorom”), Professor Karimov (“Koniyut gʻorining siri”), General Rahimov (“General Rahimov”), Maqsud (“Fidoiy”), Ahmedov (“Qoʻqon voqeasi”), Yusuf (“Ali bobo va qirq qaroqchi”) singari filmlarda u ijro etgan turli xarakterdagi sara obrazlar aktyor ijodining yangi qirralarini namoyon qildi.

Zikir Muhammadjonov ijodining yana bir oʻziga xos qirrasi Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasining oltin fondidan joy olgan qator tele-videofilmlarda ijro etgan obrazlarida oʻz aksini topgan. Jumladan, Ulugʻbek (“Mirzo Ulugʻbek”), Xusayn Boyqaro (“Navoiy”), Komilov (“Imon”) singari obrazlar aktyorning yuksak iste’dodi va koʻp yillik hayotiy va ijodiy tajribalari samarasidir.

Zikir Muhammadjonov mohir qalam sohibi sifatida ham oʻzining san’at va madaniyat sohasiga oid maqolalari, milliy teatr va kino san’atining dargʻalari toʻgʻrisidagi xotira va esselari bilan matbuot sahifalarida muntazam ravishda chiqishlar qilib turgan. Shuningdek, uning “Ta’zim”, “Oʻzim koʻrgan-bilganlarim”, “Ulugʻlar orasida”, “Qalbdagi oʻchmas izlar” singari risolalari kitobxonlarga yaxshi tanish.

Zikir Muhammadjonov faol jamoat arbobi, oʻz vataniga, xalqiga sodiq chinakam vatanparvar fuqaro ham edi. Ayniqsa, Mustaqillik yillari qoʻlga kiritilgan yutuqlar, bunyodkorlik ishlari, jamiyatimizda roʻy berayotgan ijobiy oʻzgarishlarni xalqimizga yetkazish maqsadida mamlakatimizning turli xududlarida aholi bilan oʻtkazilgan yuzlab ma’naviy-ma’rifiy uchrashuvlarning eng faol ishtirokchilaridan edi.

Zikir Muhammadjonovning koʻp yillik halol va samarali faoliyati munosib taqdirlandi U “Oʻzbekiston xalq artisti” Faxriy unvoni, (1962), “Shuhrat” medali (1994), “Doʻstlik” ordeni (1996), “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni (1998) sohibi edi. 2003 yili oʻzbek aktyorlari ichida birinchi boʻlib “Oʻzbekiston qahramoni” yuksak unvoniga sazovar boʻldi.

Zikir Muhammadjonov 2012 yil 24- avgustda Toshkent shahrida vafot etdi. Uning porloq xotirasi san’atsevar xalqimiz qalbida abadiy muhrlanib qoldi.

Adabiyotlar:

1. Abdusamatov H. Sahna sardori. “Sharq” nashriyoti, 2003.

2. Muhammadjonov Z. Qalbdagi oʻchmas izlar. Toshkent, “Sharq” nashriyoti, 2014

3. Shokirov. Abduqunduzov M. Milliy teatrimiz namoyandalari. Toshkent, “Islom universiteti nashriyoti”, 2002.

ӨТЕБАЙ ТЕМИРХАНОВ ӨМИРИ ҲӘМ ДӨРЕТИЎШИЛИГИ

М.Тажигалиева
ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы доценти
Тыныштыкбаев Йсагалий Айдангалий улы
ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы эстрада атқарыўшылығы 1-курс студенти

Аннотация: В данной работе рассматриваются жизнь и творческая деятельность Отебая Темирханова, а также его вклад в служение народу. Кроме того, Он преподавал и выпустил многих студентов училищ и колледжов. В своём творческом пути сотрудничал со многими композиторами. За большой вклад в развитие каракалпакского советского искусства Отебай Темирханов был удостоен почётных званий. Он также является одним из исполнителей, которые пропагандировали произведения каракалпакских композиторов за рубежом.

Ключевые слова: вокалист, учитель, исполнитель, заслуженный артист Татарской АССР, народный певец.

Annotation: This work discusses the life and creative activity of Otebay Temirkhanov, as well as his contributions and services to the people. It also provides information about the songs he performed. In addition, he trained many students. Throughout his creative career, he collaborated with numerous composers. For his significant contribution to the development of Karakalpak Soviet art, Otebay Temirkhanov received honorary titles. He is also one of the performers who promoted the songs of Karakalpak composers abroad.

Key words: vocalist, teacher, performer, Honored Artist of the Tatar ASSR, folk singer.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘tebay Temirxanovning hayoti va ijodiy faoliyati, shuningdek uning xalq uchun qilgan xizmatlari haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, uning ijro etgan qo‘shiqlari haqida ma’lumot berilgan. Bundan tashqari, u ko‘plab shogirdlar tayyorlagan. Ijodiy faoliyati davomida ko‘plab bastakorlar bilan hamkorlik qilgan. O‘tebay Temirxanov Qoraqalpoq sovet san’atini rivojlantirishdagi katta xizmatlari uchun faxriy unvonlarga sazovor bo‘lgan. U, shuningdek, qoraqalpoq bastakorlarining qo‘shiqlarini chet ellarda targ‘ib qilgan ijrochilardan biri hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: vokalist, o‘qituvchi, ijrochi, Tatariston ASSRda xizmat ko‘rsatgan artist, xalq qo‘shiqchisi.

Отебай Темирханов 1951-жылы Караозек районы, Москва (Каршыгалы) совхозында механик хам жумысшылар шанарагында дуньяга келеди. Акеси Изимбетов Темирхан совхоз механиги, анасы

Ибраимова Каллыхан совхозда жумысшы болып ислеген. Омирлик жолдасы Нурымбетова Серегул. Олардын уш кыз хам еки бала перзенти болып олар Гульнара, Сайёра, Бахтияр, Айзада хам Абдулла. Отебай Темирханов жаслыгынан маденият тарауына кызыгып, мектеп дауиринде концерт хам байрамларда косык айтып катнаскан.

1970-жылы Озбекстан Мамлекетлик консерваториясына кирип. 1975-жылы табыслы тамамлайды.

Омири дауамында телевидение, театр, ансамбльлерде хам маденият тарауынын баска салаларында да онын катарында маденият коркем онер колледжинде шакиртлер тайарлаган.

Ол Каракалпак мамлекетлык филармониясы жанындагы ‘’Кырык - Кыз’’ эстрадалык ансамблинде коп жыллар дауамында мийнет етип коплеген мамлекетлерде гастроль сапарларында болган.

Ол каракалпак эстрадасынын тийкаршысы деп есапланады. Каракалпак композиторларынын косыкларын шет еллерге пропаганда еткен косыкшылардан болган.

1981- жылы Отебай Темирханов Каракалпак совет коркем онерди рауажландырыудагы улкен хызметлери ушин Татарстан АССРна хызмет корсеткен артист атагы менен хам Каракалпак адебияты хам коркем онери кунлерине белсене катнасканы ушын ККАССР Жокаргы Советинин Президиумы Указы менен «Каракалпакстан АССРы Халык артисти» деген хурметли атаклар берилди.

1982- 2003-2011 жыллары аралыгында Нокис маденият хам коркем онер колледжинде устазлык етип шакиртлер таярлады.

1983- .2011- жылы напакага шыгады бирак доретиушилигин дауам еттиреди.

1984- 2018- жылы ауыр кастеленип бул омирден коз жумады.

Жеке пикирим каракалпак косыклары еледе танымалы болар еди, егер оркестр менен бирге аткарылганда.

Ташкентте окыганлар кобирек билсе керек гезектеги косыкты, себеби «Айдынлар» дан сон, »Ташкент акшамы» косыгы жуда танымалы еди.

Косык созин Ж. Аймурзаев, намасын Ш. Пахраддинов жазган, аткарган О.Темирханов. Вакал саз-асбап ансамбллери профессионал сазенделерден дузилген арнаулы жамаат болып, олар профессионал композиторлар хам шайырлар тарепинен косыклар аткарган.

Эстрада жанрынын бизин коркем-онеримизге кирип келиуинде албетте дуня маденiятынын тасири болганлыгын инкар ете алмаймыз.

Бул коркем-онер бойынша Каракалпакстанда 80-жылларга келип биз рауажланыулардын гууасы боламыз. Сондай-ак атап отсек, ’’ Арзыу ’’- вокал инструментал ансамбли (ВИА) 1985-жылы оз дауиринде Нокис калалык маденият болиминин орайластырылган маденият уии касынан шолкемлестирилди.

ВИА ’’Арзыу’’ ансамблинин биринши катнасыушылары Ж.Шамуратов атындагы Нокис мамлекетлик коркем онер училишесинин окыушылары:

М.Абдуллаев - синтезатор (Ансамбли басшысы), Б.Мухаммеддинов - урып шертилетугын (Барабан), Қ. Хожаметов – бас-гитара, Д. Козлов – соло-гитара,

В. Чабан – жеке вокал атқарушы ҳам А. Денисова, А. Козлов, О. Чабанлар – вокал ансамблі болған.

« Арзиу » ансамбли 1985–1990 жыллар аралығында оз концерт дәстүрлері менен дем алып бағындырды, яғний эстрада сахналарында, районлар ҳам Нөкис қаласы мекемелеринде, мектеплер, оқу орынларында, педагогикалық институт, университет, мехрибанлық үй сахналарында орыс, өзбек, қарақалпақ, қазақ ҳам Европа халықларының эстрада қосықларын атқарып, өз ықласбентлери жүрегінен орын тапты. Жыллар дауамында ансамблге жаңадан таза қатынасыўшылар қосылып келген, себеби 2-құрамы ҳам 3-құрамлары бар еди.

Ол құрамларда өзлерин хар тәреплеме жақсы көрсеткен қатнасыўшы 2- құрамға қабыл етилетуғын еди.

1990-жылларға келіп ансамблге жаңадан атқарыушылар қосылды: В. Пейнов – барабан, Д. Дошумов – вокал, Қ. Шарипов – вокал, Г. Қурбанбаева – вокал, А. Ботов – ритм-гитара. Ансамблдин атқарыўшылық доретиушилиги кеннен танылып ҳам раўажланып, Республикамызда орайлык орынды ийелей баслады.

1991-1990–1995 жыллар арасында «Арзу» ансамблі мәмлекетимизде көплеген белгили профессионал композиторлар менен жұмыс алып барған, олардан Қ. Хилалов, Д. Джанабаева, К. Зарединов, Ш. Пахратдинов, Қ. Төлегенов, Т. Есиркеповлар өзлеринин ажайып шығармаларын доретип ансамбль репертуарын еледе байытты. Сондай-ақ, ансамбль бір қанша белгили қосықшылар менен концертлерде бирге композиторлардың шығармаларын атқарып, халық алғысына ие болып келген. Қосықшылардан Д.Мамбетмуратов, З.Хожаназарова, Д.Атаджанов, З. Насруллаевларды атап өтиў орынды. «Арзыу» ансамбли жоғарыда айтылған композиторлар шығармалары менен худжетли кинофильмлерде, радио-телевидениелерде тусирип республикалық фестивальларда, көрик-танлаўларда қатнасып, Ташкент қаласында, Түркменстан Республикасында өткерилген көрик-танлаўлардың лауреатына айланды.

Ансамбль музыкантлары хәр бир өз асбапларында жанлы түрде қосықшылар менен бирге атқаратын еди.

1992-1990-жыллар концерт бағдарламалары менен қала районларда ҳәр күни концертлер, ҳар қыйлы тадбирлер, декадалар, фестиваллар, көрік- танлаўлар өткерилетин еди. Кейинги марте Қарақалпақстанда

эстрада вокал инструментал (ВИА) ансамбллер арасында корик - танлау 1993 - жылы Қарақалпақстаннын уш регионында болып отти:

Пайдаланган адебиятлар:

1. А. Надирова. Каракалпак музыка тарыйхы. Ташкент – 2018.
2. У.Абдуллаева,Т.Давлетмуратова.Каракалпак композиторларынын вокал шыгармалары. Каракалпакстан. Нөкис - 2012.
3. Б.У.Отарбаев. Каракалпак опера хам музыкалы драмаларынан. Нөкис-2010.
4. Д. Аманулаева. Романслар хам косыклар.

РЕЖИССЁР ВА АКТЁР ИЖОДИЙ СИНТЕЗИ: САҲНАДАГИ ПСИХОЛОГИК УЙҒУНЛИКНИНГ ИЛМИЙ ТАҲЛИЛИ

Уразбаев Дамир Сарсенбай улы
ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы оқытыўшысы

Аннотация: Ушбу илмий мақолада режиссёр ва актёр ўртасидаги ижодий синтез жараёни, саҳнадаги психологик уйғунликнинг шаклланиш механизмлари ҳамда уларнинг театр ва кино санъатидаги ўрни кенг таҳлил қилинади. Тадқиқотда ижодий ҳамкорликнинг психологик, коммуникатив, эстетик ва касбий жиҳатлари ўрганилиб, образ яратиш жараёнида икки ижодкорнинг ўзаро таъсири илмий асосда ёритилади. Шунингдек, замонавий театр ва кино амалиётида ушбу жараённинг трансформацияси, натуралистик ижро услубларининг ривожланиши, рақамли технологиялар таъсири ҳамда ижодий конфликтларнинг бадиий натижага таъсири таҳлил қилинади.

Аннотация: В данной научной статье подробно анализируется процесс творческого синтеза между режиссером и актером, механизмы формирования психологической гармонии на сцене, а также их роль в театральном и киноискусстве. В исследовании изучаются психологические, коммуникативные, эстетические и профессиональные аспекты творческого сотрудничества, на научной основе освещается взаимодействие двух творцов в процессе создания образа. Также анализируется трансформация этого процесса в современной практике театра и кино, развитие натуралистических стилей исполнения, влияние цифровых технологий и влияние творческих конфликтов на художественный результат.

Annotation: This scientific article provides a detailed analysis of the creative synthesis process between director and actor, the mechanisms for forming psychological harmony on stage, and their role in theatrical and cinematic art. The study examines the psychological, communicative, aesthetic, and professional aspects of creative collaboration, highlighting the interaction between two artists in the process of image creation on a scientific basis. It also analyzes the transformation of this process in modern theater and film practice,

the development of naturalistic performance styles, the impact of digital technologies, and the impact of creative conflicts on the artistic result.

Калт сўзлар: Режиссура, актёрлик маҳорати, ижодий синтез, психологик уйғунлик, образ яратиш, театр санъати, кино эстетикаси, коммуникация, натурализм, ижодий жараён.

Ключевые слова: Режиссура, актерское мастерство, творческий синтез, психологическая гармония, создание образа, театральное искусство, эстетика кино, коммуникация, натурализм, творческий процесс.

Key words: Directing, acting, creative synthesis, psychological harmony, image creation, theatrical art, cinema aesthetics, communication, naturalism, creative process.

Театр ва кино санъати инсон руҳияти ва эстетик онгини ифодаловчи энг мураккаб ижодий тизимлардан бири ҳисобланади. Ушбу тизимда режиссёр ва актёр марказий ўрин эгаллайди. Режиссёр асарнинг ғоявий-бадиий концепциясини яратади, актёр эса ушбу концепцияни жонли образга айлантиради. Бироқ бу жараён фақат механик ижро ёки бошқарув билан чекланмайди, балки чуқур психологик ва эстетик уйғунлик орқали амалга ошади.

Ижодий синтез тушунчаси режиссёр ва актёр тафаккурининг бирлашуви, уларнинг ҳиссий ва бадиий қарашларининг уйғунлашуви сифатида талқин қилинади. Бу жараёнда режиссёр фақат йўналтирувчи эмас, балки психологик бошқарувчи сифатида ҳам фаолият юритади. Актёр эса тайёр ижрочи эмас, балки образни ўз ички дунёси орқали қайта яратувчи ижодкор шахс ҳисобланади. Шу икки йўналишнинг уйғунлиги натижасида саҳнада жонли бадиий ҳақиқат вужудга келади.

Психологик уйғунлик ушбу жараённинг энг муҳим қисми ҳисобланади. У ишонч, эмпатия, очиқлик ва ижодий эркинлик асосида шаклланади. Агар режиссёр ва актёр ўртасида ишонч йўқ бўлса, ижро сунъийлашади ва бадиий таъсир кучини йўқотади. Аксинча, кучли психологик боғлиқлик мавжуд бўлса, актёр образга тўлиқ кириб боради ва унинг ички ҳақиқати очилади.

Ижодий жараёнда коммуникация муҳим рол ўйнайди. Режиссёр ва актёр ўртасидаги мулоқот фақат сўз орқали эмас, балки мимика, ҳаракат, оҳанг ва пауза орқали ҳам амалга ошади. Новербал коммуникация саҳна санъатида алоҳида аҳамиятга эга бўлиб, у образнинг ички психологик ҳолатини томошабинга етказишда асосий восита ҳисобланади.

Образ яратиш жараёни мураккаб ижодий трансформациядир. Режиссёр умумий драматик структурани белгилайди, актёр эса уни шахсий ҳиссий тажрибаси билан тўлдиради. Шу сабабли бир хил рол турли актёрлар ижросида турлича кўриниш олади. Бу ҳолат актёрнинг индивидуал психологияси ва ижодий тажрибасига боғлиқ.

Замонавий театр ва кино санъатида натуралистик ижро услуби устунлик қилмоқда. Бу услуб актёрдан юқори даражадаги табиийлик ва ички ҳаққонийликни талаб қилади. Шу билан бирга, рақамли технологиялар ва виртуал муҳитлар актёрлик санъатига янги талаблар қўймоқда. Энди актёр фақат саҳна ёки камера олдида эмас, балки рақамли муҳитда ҳам образ яратиш қобилиятига эга бўлиши керак.

Режиссура ҳам ушбу ўзгаришлар шароитида янада мураккаб вазифаларни бажармоқда. Замонавий режиссёр бадиий етакчи бўлиш билан бирга, психологик ва технологик жараёнларни бошқарувчи мутахассисга айланмоқда. У актёрнинг ички имкониятларини тўғри йўналтириши ва максимал бадиий таъсирга эришиши лозим.

Ижодий конфликтлар ҳам алоҳида аҳамиятга эга. Режиссёр ва актёр ўртасидаги фикрий зиддиятлар баъзан ижодий ривожланишга хизмат қилади. Агар тўғри бошқарилса, бундай конфликтлар янги бадиий ечимлар пайдо бўлишига олиб келади.

Замонавий ижодий жараённи таҳлил қилганда шуни алоҳида таъкидлаш керакки, режиссёр ва актёр ўртасидаги муносабат фақат саҳна ёки суратга олиш майдонида эмас, балки тайёргарлик босқичида ҳам шаклланади.

Машқ жараёнлари, образ устида ишлаш, матнни таҳлил қилиш ва импровизациялар — буларнинг барчаси ижодий синтезнинг асосий пойдеворини ташкил этади. Айнан шу босқичда психологик уйғунлик аста-секин шаклланади ва кейинчалик саҳнадаги ижро сифатига бевосита таъсир қилади.

Режиссёр актёрнинг ички психологик ҳолатини тўғри тушуна олиши жуда муҳимдир. Ҳар бир актёр ўзига хос темперамент, ҳиссий реакция ва ижодий ёндашувга эга.

Шу сабабли бир актёр билан ишлаш усули бошқасига тўлиқ мос келмаслиги мумкин. Профессионал режиссёр ушбу индивидуал фарқларни ҳисобга олиб, ҳар бир ижодкор билан алоҳида психологик ёндашувни қўллайди. Бу эса ижодий жараённинг самарадорлигини оширади.

Шунингдек, актёрнинг рольга кириш жараёни ҳам мураккаб психологик механизмга эга. У нафақат матнни ёдлаш, балки образнинг ички ҳаётини ҳис қилиш, унинг мотивларини тушуниш ва ўз шахсий тажрибаси билан боғлаш жараёнини ўз ичига олади. Бу жараёнда режиссёр актёрга йўналтирувчи саволлар бериш, вазиятни чуқурроқ таҳлил қилиш ва эмоционал ҳолатни тўғри шакллантириш орқали ёрдам беради.

Илмий нуқтаи назардан қараганда, ижодий синтез жараёнини “интерактив психологик модель” сифатида тасвирлаш мумкин. Бу моделда икки асосий субъект — режиссёр ва актёр — ўзаро таъсирда бўлиб, ҳар бири иккинчисининг ижодий қарорларига бевосита таъсир

кўрсатади. Натижада ягона бадиий тизим шаклланади. Ушбу тизимда мувозанат бузилса, ижодий натижа ҳам заифлашади.

Яна бир муҳим жиҳат шундаки, замонавий театр ва кино аудиторияси ҳам ўзгармоқда. Томошабин эндиликда фақат пассив кузатувчи эмас, балки психологик жиҳатдан талабчан ва таҳлил қилувчи субъектга айланган. Бу эса режиссёр ва актёрдан янада юқори даражадаги ҳаққонийлик, ишончлилик ва ҳиссий чуқурликни талаб қилади. Шу сабабли ижодий синтез фақат ички жараён эмас, балки ташқи аудитория билан ҳам боғлиқ тизимга айланмоқда.

Рақамли даврда актёрлик санъати янги босқичга чиқди. Виртуал платформалар, киноэффектлар ва сунъий интеллект ёрдамида яратилган саҳналар актёрнинг классик ролини ўзгартирмоқда.

Эндиликда актёр фақат жисмоний саҳнада эмас, балки рақамли образ сифатида ҳам мавжуд бўлиши мумкин. Бу эса режиссёр ва актёр ўртасидаги психологик алоқанинг янги шаклларини талаб қилади.

Шу билан бирга, ижодий жараёнда интуитивлик ҳам муҳим ўрин тутади. Ҳар доим ҳам барча қарорлар олдиндан режалаштирилмайди. Баъзан энг кучли саҳналар импровизация ва спонтан ҳиссиётлар натижасида юзага келади. Режиссёр бундай ҳолатларда актёрнинг табиий ижодий импульсларини қўллаб-қувватлаши керак. Бу эса ижодий синтезнинг янада чуқурлашишига олиб келади.

Режиссёр ва актёр ижодий синтези театр ва кино санъатининг асосий бадиий механизми ҳисобланади. Психологик уйғунлик, ўзаро ишонч ва ижодий ҳамкорлик орқали образ жонли ва таъсирчан шаклга эга бўлади. Замонавий санъатда ушбу жараён янада мураккаблашиб, янги эстетик ва технологик ёндашувларни талаб этмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

- Станиславский К. С. – Актёрнинг ўзи устида ишлаши
- Брехт Б. – Эпик театр назарияси
- Гротовский Й. – Қашшоқ театр тамойиллари
- Мейерхольд В. Э. – Режиссура асослари
- Замонавий театр ва кино психологияси бўйича илмий манбалар

ҚОҒИРЧОҚ ТЕАТРИНИНГ УЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Аьзамжон Абдухолиқов
ЎзДСМИ, «Қоғирчоқ театри санъати»
кафедраси доценти

Annotatsiya - Ushbu maqola teatr san’atining ajralmas bir qismi bo‘lgan qo‘g‘irchoq teatrining o‘ziga xosliklari xususida. Undagi ijro uslubi, texnikasi va albatta aktyor hamda qo‘g‘irchoq uyg‘unligiga erishish, obraz yaratishdagi e’tiborli jixatlari borasida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar; aktyor, qo‘g‘irchoq, shirma, teatr

Аннотация - Данная статья посвящена особенностям кукольного театра, являющегося неотъемлемой частью театрального искусства. В ней рассматриваются стиль его исполнения, техника и, конечно же, важные аспекты достижения гармонии между актером и куклой, а также создания образа.

Ключевые слова: актер, кукла, ширма, театр

Abstract - This article is devoted to the characteristics of puppet theater, an integral part of theatrical art. It examines its performance style, technique, and, of course, the important aspects of achieving harmony between actor and puppet, as well as character creation.

Keywords: actor, puppet, screen, theater

San’at turlari orasida eng qadimiy, hamma teatrlarning beshigi sanalgan qo‘g‘irchoq teatri, o‘zining boy an’analariga, tarixiga ega bo‘lgan betakror san’at turlaridan biridir. Uning ildizi xalqimizning folklori, urf-odati, udumlari va milliy an’analari bilan bog‘liq holda, asrlar davomida ularni boyitib, sayqal berib rivojlantirib kelmoqda. Uning sahnasida bolalar ruhiyatiga mos va tasavvurida yorqin o‘rin egallaydigan, beg‘ubor orzular tomon yetaklaydigan sexrli ertaklar, quvnoq sarguzashtlardan iborat voqea va xodisalar makon topgan. Bu spektakllar aynan bolalar istaklariga mos turli sarguzasht va didaktik asarlar majmui bo‘lib, asarlarni mazmunan va tarbiyaviy jihatdan rangba-rang mavzularni qamrab olgani bilan ahamiyatli hamda shu maqsad va vazifalar doirasida shakllangan. O‘zbekiston xalq artisti, davrimizning yetuk rejissyorlaridan Baxodir Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek; *“Teatr tomoshabinni tarbiyalamaydi-tarbiyali tomoshabingina o‘zi teatrga boradi. Teatrga tomoshabin spektakl ko‘rgani emas, qaxramonlarga hamdard bo‘lgani keladi...”*

Qo‘g‘irchoq, teatri ildizlari qadimgi folklorga, an’anaviy xalq teatri san’ati oqimlariga borib taqaladi. Chelyabinsk qo’g’irchoq teatrining bosh rejissyori Volxovskiy ta’biri bilan aytganda: *«Qo‘g‘irchoq teatrining ijod pozitsiyasi shundan iborat-ki, u tomoshabin bilan dolzarb vazifalari haqida, qo‘g‘irchoq va aktyorni mujassamlashtiruvchi yorqin teatr tilida, so‘z va harakat, pantomima va anik plastika orqali aloqada bo‘ladi. Qo‘g‘irchoq teatri birinchi bo‘lib bola qalbida go‘zallikka, insonga, vatanga, tabiatga bo‘lgan muhabbat uchqunini yoqadi»*[5].

Qo‘g‘irchoq teatri san’ati boshqa teatr san’ati turlaridan, o‘ziga xos obraz yaratish xususiyati bilan farq qiladi. Qo‘g‘irchoq teatri aktyori, rassom va qo‘g‘irchoq ustasi hamkorligida yaratgan san’at asariga, ya’ni qo‘g‘irchoqqa jon bag‘ishlaydi. U o‘zi tomoshabinga qo‘g‘irchoq orqali, shirma ortidan turib, o‘zi ko‘rmagan holda izhor etadi. Ana shunda, qo‘g‘irchoq sahnasida mo‘jiza yuz beradi. Oddiy predmet – material jonlanadi va *u ham inson kabi* yashayottanligiga, nafas olayotganiga, umuman borligiga tomoshabin ham ishonib qo‘g‘irchoq bilan yig‘laydi, kuladi, qayg‘uradi. Qo‘g‘irchoq teatri aktyorining o‘qib-o‘rganish jarayonidagi eng muhim vazifalaridan biri – qo‘l

[5] Volxovskiy «Aktyor, personaj, rol, obraz»- ilmiy ishlar to’plami. Leningrad-1986 yil.

plastikasini rivojlantirishdadir. Qoʻgʻirchoq teatri aktyorini oʻqitish, koʻp jihatdan haykaltarosh – rassomlarni oʻqitish jarayoniga *oʻxshab* ketadi. Chunki, haykaltarosh – rassomlarni oʻqitishning boshlangich bosqichida odam anatomiyasini, odam tana muvozanatini oʻrganadilar. Naturaga qarab, insonning boshidan oyogʻigacha, tana egilishini, boshni yonga, orqaga burishini chuqur kuzatadilar va shunga amal qilib, asar yaratishga aniqlik bilan harakat qiladilar.

Naturaga qarab tabiiy ranglarni birini ikkinchisidan aniq ajratib chizish, tabiat o`zi tanlagan farqlilik va mutanosiblikni topib yasash rassom – haykaltaroshlarni oʻqitish jarayoning eng muhim bosqichlaridan biridir. Xuddi shunga oʻxshab insonlarning tana plastikasini oʻrganish uchun qo'g'irchoq teatri aktyori ham muzey va koʻrgazmalarni tomosha qilishi, hayvonot bogʻidagi hayvonlarni, ulardagi oʻziga xoslikni, tabiatni har xil fasllarda koʻp kuzatishi va koʻrganlarini esda saqlab qolishi zarur. Rassomlar kabi aktyorlar ham oʻz qoʻgʻirchoqlarining avvalo anatomiyasi va harakat texnikasini, plastik imkoniyatlarini bilishlari maqsadga muvoffiqdir.

Qoʻgʻirchoqboz aktyor uchun faqat bugina emas, balki inson yoki jonzodni bir holatdan ikkinchi holatga oʻtishdagi plastik harakatini kuzatish va qoʻgʻirchoqda uni aks ettirish yoʻllarini topishi lozim. Masalan, tik turish holatidan oʻtirish holatiga, yurishdan yugurish holatiga, oʻtirish holatidan yotish holatiga oʻtish va hokazolar.

Albatta, buni muzey yoki koʻrgazmalarda koʻra olmaymiz. Hayotda-chi? Xayot tarzimizda xarakatlar bilan bir qatorda muloqotning imo-ishoralari ham mavjud. Ular oʻz navbatida insonlarni harakatsiz ham biron bir fikrni hamroxiga tushuntira olishi uchun ishlatiladi. Mana shunday imo-ishoralar orqali hamroximiz biz istagan xoxishni tez ilgʻab oladi va shunga yarasha javob qaytaradi, yoki harakatni amalga oshiradi. Zero, hayotda bu imo-ishora, harakatlar biz uchun oddiy va ular shu darajada odatiy va tez bajariladi-ki, bunga koʻpincha ahamiyat ham bermaymiz. Masalan, qariyalarda bu kabi harakatlarni asta-sekinlik bilan bajarilishining guvohi boʻlamiz. Chunki, keksalik yoshida harakatlar susayishi, har qanday keskinlik xavfli ekani uchun ular ancha ehtiyotkor boʻlishadi. Bundan tashqari bajarilayotgan har bir mashqni inson xoxish irodasi boshqarishini unutmaslik lozim. Bu xaqda xorijlik mataxassis Leonard Petitni quyidagi tavsiyasida uchratamiz. *“Hatti harkatga oddiy koʻz bilan qarasak, biz undan unchalik koʻp boʻlmagan oddiy holatlarni topishimiz mumkin. Hammasi istak va xohish orqali boshlanib keyinchalik biror bir aktiv va toʻgʻri yoʻnalishga olib boradi. “Men xohlayman” , bu oʻz oʻzidan belgilangan oddiy harakatini keltirib chiqaradi. Aniq bildirilgan imo-ishora, oddiy va ajoyib imo-ishora bizning istaklarimizga koʻra kelib chiqishi mumkin, bu hattoki bizning inson sifatida tashqi olamga qilgan birinchi imo-ishoramiz ham boʻlishi mumkin. Bola yolgʻiz oʻtirib, onasidan nimadadir, soʻz bilan emas balki tana orqali soʻraydi. Bu imo-ishora“ Men qulaylikni xohlayman, men ovqatni xohlayman” degan maʼnoni bildiradi. Siz buni oʻqiganingizda koʻz oldingizga ushbu imo-ishora keladi, chunki biz buni bilamiz va qachonlardir buni*

bajarganmiz. Agar bu imo-ishora hozir bajarsangiz, siz butun tanangiz orqali shu xohishni his eta boshlaysiz. Bu sizni harakatga olib keladi."[6]

Darxaqiqat, insonlardagi imo-ishora, xatti-harakatlardan tashqari, ko‘zning va mimikaning aloxida ular o‘rnini to‘ldiruvchi imkoniyatlari ham bor. Bir insonning boshqasi oddiy ko‘z qarashlari orqali ham nima demoqchiligini anglashi mumkin. Hoxish istaklarimizni bu tariqa yetkazishni esa qo‘g‘irchoqlarda bajarishning iloji yo‘q. Ular mimika, ko‘zlar orqali ma’noli qarash va bu orqali partnyorga biron bir xabarni yetkazishdan mosivodirlar. Ayni paytda qo‘g‘irchoqlarda shunday vazifalarni o‘rnini to‘ldirishi mumkin bo‘lgan harakatlar mavjudki, biz sizlar bilan quyida shular xaqida so‘z yuritamiz. Mana shu jihatlarni inobatga olib ham, naturaga murojaat qilish va uni kuzatish kerak. Ba’zida ishning bu uslubi norozilik keltirib chiqaradi. Nima uchun inson harakatidan nusxa ko‘chirish shart? Axir qo‘g‘irchoqlar insondan farq qiladilarku, ba’zilari esa umuman hayvon ham emas. Ularning harakati ham inson harakatidek emas. Masalan; ba’zi qo‘g‘irchoqlar belidan egilmaydi, ularning qo‘llari shunchalik kalta-ki, ular biror predmetni ushlay olmaydilar, ularning ko‘zlari bitta, oyoqlari bitta yoki umuman bo‘lmasligi mumkin. Ular hatto o‘tira olmaydilar, yura olmaydilar. Shunday ekan nima uchun aynan insonlarga taqlid qilishlari kerak? Sababi shundaki, yosh tomoshabinga yanada tushunarli bo‘lishi uchun insonlar odatda hayvonlar, hashoratlar, fantastik jonzotlar hulq- atvorini o‘z insoniy hayot tajribasidan kelib chiqib talqin qiladilar. Masalan, bu kabi holatlarni masallarda ko‘proq kuzatamiz. Undagi har bir hayvon aniq bir inson harakterini ifodalaydi. Tomoshabin ko‘z oldida unga tanish boladan kimnidir eslatuvchi obraz namoyon bo‘ladi. Bilamizki, qo‘g‘irchoq teatrida spetsifik jihatdan hayvonlar obrazi va plastikasidan tez-tez foydalaniladi. Shu bilan birga, hayvon – qo‘g‘irchoq uchun insonlar biomexanik harakat qonuniyati ishlatiladi. Ular ham o‘tiradi, ikki oyoqlab yuradi, ovqatni qo‘li bilan olib yeydi. Qo‘llari bilan insonlar kabi har xil harakatlarni bajara oladi. Xullas, qo‘g‘irchoq teatriga kelib u yerda spektakl yoki estrada nomerlarini ko‘rgan har bir tomoshabin o‘ziga tanish yoki notanish obraz orqali inson harakteri mujassamligini ko‘radi. Bu esa, o‘z navbatida o‘sha obraz plastikasini, hissiy holatini to‘g‘ri bera olgan aktyor uchun katta yutuqdir.

Umuman jismoniy xatti-harakat qo‘g‘irchoq teatrida biroz boshqacha tushunchani shakllantiradi. Jumladan bu xaqida M.Ashurova shunday yozadi: *"-Qo‘g‘irchoq teatrida aktyorning jismoniy harakati sun’iy shakl bilan psixik harakati o‘rtasidagi vosita bo‘ladi. Demak, bir vaqtning o‘zida ikki harakat oqimi sodir bo‘ladi. Ya’ni ularning biri yaratadi, ikkinchisi esa ifodalaydi. Bularning har ikkalasi, aktyorning sahnaviy hatti-harakati jarayonida birlashadi. Qo‘g‘irchoq teatrida sahna hatti-harakati qo‘g‘irchoq plastik harakatiga aylantirilib aktyorni, jismoniy hatti-harakati bilan almashtiriladi. Shuning uchun qo‘g‘irchoq teatridagi plastik harakat aktyorning ichki harakati bilan tabiiy bog‘liqligi kam*

[6] The Michael Chekhov hendbuk «For the actor» Lenard Petit 2010 [48b]

bo‘lganligi tufayli, jismoniy hatti-harakatga ega bo‘lish boshqa teatrlardagidek sodir bo‘lmaydi.”[7]

Katta (dramatik) teatr aktyorlaridan farqli qo‘g‘irchoqboz o‘zining ichki hayot boyligini, kechinmalarini, partnyorga bo‘lgan munosabatini qo‘llari orqali qo‘g‘irchoq harakatida ko‘rsatishi lozim. Chunki, aktyor qo‘llari u boshqarayotgan qo‘g‘irchoq orqali tashqi hayot, ya’ni tomoshabin bilan aloqaga kirishadi. Hayotda insonlar hatto o‘ylab ham ko‘rmagan harakatlar, qo‘g‘irchoqboz aktyor qo‘li orqali mahorat bilan amalga oshiradi.

Faraz qiling aktyor qo‘lidagi qo‘g‘irchoq xech qanday harakatsiz turibdi. Boshi quyi egilgan. Endi u sekin asta boshini ko‘taradi, bordiyu qo‘g‘irchoqning ko‘zlariga mexanika o‘rnatilgan bo‘lsa, ko‘z o‘ta sekin ochiladi va bosh ham shu sekinlik bilan harakatni to‘ldiradi. U yon atrofni kuzatadi, yana boshi quyi egiladi. Mayus musiqa yangraydi. Bu albatta qo‘g‘irchoqni ayni paytda g‘amgin xolatidan tomoshabinga darak beradi. Yoki buning aksi, qo‘g‘irchoq yurish xolatidan sakrash harakatiga o‘tadi, bosh va tana harakatlarida keskinlik amalga oshiriladi, ko‘zlar ham tez-tez ochilib yopilpdi. Tabiiyki musiqa tanlovi ham xolatga muvoffiq sho‘x yangraydi. Bu qo‘g‘irchog‘imizni ko‘rgan tomoshabin, u orqali xursand bolakayni eslaydi. Albatta qo‘g‘irchoq teatri aktyori kundalik faoliyatida bu kabi mashqlarni ko‘plab bajaradi. Albatta shunga o‘xshash mashqlarni bajarish aktyor maxoratini o‘stirish bilan birga, qo‘g‘irchoqni tomoshabin ko‘z oldida tarikdek ishonchli harakatiga xizmat qiladi.

Qo‘g‘irchoq teatrining yana bir o‘ziga xos, betakror jihati shunda-ki, unda aktyor qo‘liga qo‘g‘irchoq olmay turib, yalong‘och qo‘llari bilan ham sahnaviy obraz yarata oladi. Qo‘g‘irchoqlarsiz, oddiy yalong`och qo‘llar orqali obraz yaratish san`ati qadimgi Xitoy, Eron va bizning davrimizda ilk bor rus qo`g`irchoqbozi, yuksak mahorat egasi S. V. Obrazsov teatrlarida, shuningdek, fransuz aktyori Iv Jolielar tomonidan konsert nomerlarida foydalanilgan. Bu nomerlarda turli rangdagi qo’lqoplar va barmoqqa kiyiladigan sharchalardan foydalanilgan.

Bunday ishlash uslubi sekin- asta rivojlanib, o‘ziga xos maktab va aniq tartib qoidalarga ega bo‘ldi. Hozirda O‘zbekiston davlat sa’at va madaniyat institutining «Qo‘g‘irchoq teatri san’ati» kafedrasi ustoz - murabbiylari ikkinchi kursning ikkinchi yarim yilligida, talabalarga qo‘l harakati va plastikasini o‘rgatish jarayonida, turli qiziqarli etyudlardan iborat «ekzersiz» tomosha nomerlari ustida ishlamoqdalar.

“Ekzersis deb qo‘llar orqali bajariladigan har xil mashqlar hamda yalang‘och qo‘llar orqali yaratilgan obrazlar yig‘indisiga aytiladi. Ya’ni bu xarakterli «obrazlar» kompozitsiyasi hisoblanadi.”[8]

Qo‘g‘irchoq teatrining yana bir o‘ziga xos jixatlaridan bu musiqiy bezak tanlovidir. Ayni spetsifik yondoshuv bir qarashda e’tibor bermasa ham

[7] “Қўғирчоқ театр санъатининг актёрлик мактаби” Дарслик.М.Уйғур ТДСИ. Тошкент. 2007 [16 b]
[8] “Қўғирчоқ театр санъатининг актёрлик мактаби” Дарслик.М.Уйғур ТДСИ. Тошкент. 2007 [46 b]

boʻladigandek. Ammo aynan musiqiy shovqin va bezaklar bu san'at turida oʻta jiddiy munosabatni talab etadi. Qoʻgʻirchoq boshqarishning biz yuqorida aytib oʻtgan xatto mashq va etyudlar bilan ishlash davrida musiqiy bezashga jiddiy munosabat profissional kaspni egallashni ta'minlaydi. Deylik, oddiy egzersiz mashqlaridagi biron bir xashorot yoki mavjudotni yurishidagi har bir qadamiga toʻgʻri musiqiy tovush tanlash, toʻgʻridan toʻgʻri uning xarakterini ochib berishga xizmat qiladi. Pianinaning oʻng tomon klavishlaridan fodalanilsa, u personajning yovuz yoki xaybatli vahokazo xislatlaridan, chap tomonda joylashgan klaviaturalar esa xajm jixatdan kichik yoki shoʻx xarakterdan darak berishini koʻrishimiz mumkin. Aynan musiqa yengil ijro etilsa, yuqori kayfiyat va mungli, ogʻir yangrasa musibat, qaygʻu kabi berilgan shart-sharoitga oydinlik kiritishdek muxim vazifalarni xal etishda asosiy vosita xisoblanadi. Buni albatta oddiy mashqlarni boshlangan davridan e'tibor qaratib talabaga uqtirilsa, ish murakkablashib parcha va spektaklga oʻtilganda ishlash koʻnikmasi yaxshi shakllanib ulguradi.

"Aktyorlik mahorati"ni shakllantirishda eng asosiy toʻldiruvchi "Qoʻgʻirchoq boshqarish asoslari" fani, uslubiy jixatdan aynan shu kabi oʻzlashtirishni bir necha bosqichlarga boʻlib oʻrganadi. Oʻqitishning bunday bosqichlaridan ilk jarayonida biz aytmoqchi boʻlgan oddiy qoʻllar orqali turli obraz yaratishdan to qoʻgʻirchoqlarning eng murakkab turlarigacha boshqarishning texnikasi oʻqitib, oʻrgatib boriladi. Albatta oʻqitishning har bir simestiri qoʻgʻirchoqning ma'lum bir turini oʻrganish, boshqarishning texnikasini oʻzlashtirish bilan bogʻliq boʻladi. Oʻqitishning ilk bosqichida, qoʻgʻirchoqni qoʻlga olib, u bilan obraz yaratishgacha boʻlgan jarayon hisoblanib, juda murakkablik kasb etadi. Mana shu jihatdan, qo'g'irchoq teatri aktyorining ishlash uslubi, katta (dramatik) yoʻnalishdagi aktyorlarning obraz yaratish jarayonidan farq qiladi. Bu tarzda olib boriladigan ish uslubi boʻlajak qoʻgʻirchoq teatri aktyorlaridan oʻta mas'uliyatli boʻlishni, diqqat, boy tasavvur va albatta kuchli mahoratni talab qiladi. Shunday qilib, qoʻgʻirchoq bilan harakat qilish vaqtida, avval, talabalar yuqorida aytib o`tilgan talabni oʻzlashtirmoqlari zarur.

Qoʻgʻirchoq teatri aktyorlarini oʻqitishda, mashqlarni oʻzlashtirish barobarida oʻz kechinmalarini jonsiz boʻlgan qoʻgʻirchoqda ifodalashning uslubi va yoʻllarini topish talab etiladi. Bu oʻrinda qoʻgʻirchoq teatri aktyorining qoʻllari ayni kechinmalarni jonsiz predmetga koʻchirib oʻtishi talab etiladi. Buning uchun aktyor qoʻllari plastik harakatlarga boy boʻlishi, har ikkala qoʻlni alohida- alohida boʻgʻim va barmoqlari bilan turli mashqlar amalga oshira olmogʻi lozim. Bu mashqlar qoʻgʻirchoq aktyorining qoʻllari alohida mustaqil organizmday turli hayvonotlarni, hashorotlarni, shuningdek oʻsimliklarni aks ettira olishi uchun kerak. Qoʻgʻirchoq teatri sahnasi, shirmaning ilk bosqichida talaba – aktyorning qoʻli ikki xil vazifani bajaradi:

1. Aks ettirish, (qoʻl orqali yaqin shakl topish).
2. Harakat qilish, (topilgan shaklni jonlantirish).

Masalan, sahnada harakatda bo‘lmagan, qo‘l orqali aks ettirilgan kuchuk boshi. Mavjud statik holatda u aks ettirish vazifasini bajarayapti. Bunga o‘xshash tasvirga misollarni istagancha ko‘rsatish mumkin. Mana endi barmoqlar harakatga kelib, barmoqlar orasi ochilib yopiladi va kuchukning akkillayotganini ko‘rsatadi. Uning og‘zi qanchalik ko‘p ochilib yopilsa, jahldor kuchukligi ma’lum bo‘ladi. Bu harakatlarga endi tovush ham qo‘shilsa, obraz yanada jonliroq chiqadi va tomoshabin ko‘z oldida jonli qo‘g‘irchoqning shakliy ko‘rinishi gavdalanadi. Xo‘sh, tasvirning bu turi, tasviriy san’atning boshqa turlaridan nimasi bilan farq qiladi? – kabi savol bo‘lishi mumkin. Farqi shundaki, rang tasvir yoki haykaltaroshlikda san’at asarini yaratuvchilari jonsiz materiallardan foydalanishadi. Bu yerda esa, tirik inson qo‘llari. Bu qo‘llar aks ettirish bilan birga harakat ham qilsa, kichik aktyorlarga aylanadi. Demak, qo‘llarimizning o‘zi ham ifodalovchi, ham aktyorlardir. Qo‘lning tasvirlovchi xususiyatida barmoqlar orqali ma’lum bir predmetni ifodalovchi aktyor - haykaltoroshdir.

Qo‘lga qo‘g‘irchoq olib rol ustida ish boshlashdan avval xoh professional aktyor bo‘lsin, xoh havaskor, xoh talaba bo‘lsin aktyorlik san’ati tabiati nimadan iborat ekanligini yaxshi anglab olishi kerak. Maryam Ashurovaning ushbu fikriga tayansak bo‘ladi. *“-Qo‘g‘irchoq teatrida aktyorning jismoniy harakati sun’iy shakl bilan psixik harakati o‘rtasidagi vosita bo‘ladi. Demak, bir vaqtning o‘zida ikki harakat oqimi sodir bo‘ladi. Ya’ni ularning biri yaratadi, ikkinchisi esa ifodalaydi. Bularning har ikkalasi, aktyorning sahnaviy hatti-harakati jarayonida birlashadi. Qo‘g‘irchoq teatrida sahna hatti-harakati qo‘g‘irchoq plastic harakatiga aylantirilib aktyorni, jismoniy hatti-harakati bilan almashtiriladi. Shuning uchun qo‘g‘irchoq teatridagi plastik harakat aktyorning ichki harakati bilan tabiiy bog‘liqligi kam bo‘lganligi tufayli, jismoniy hatti-harakatga ega bo‘lish boshqa teatrlardagidek sodir bo‘lmaydi. Qo‘g‘irchoq teatrida aktyor jismoniy hatti-harakat qiladi, lekin uning bu hatti-harakati ichki kechinmani ifodalamaydi. Istak va xohishlar jonli tabiat qonuni asosida ijro etilmaydi, qo‘g‘irchoq san’atining qonuni bo‘yicha ijro etiladi. Masalan, qo‘g‘irchoq personaji gul sovg‘a qilmoqchi bo‘lsa, uni boshqarayotgan aktyor qo‘l va barmoqlari orqali gul sovg‘a qilgan odamning harakatiga aloqasi bo‘lmagan qandaydir harakatlar sodir etadi. Shu payt shirmada qo‘g‘irchoq gul sovg‘a qilayotgan bo‘ladi. Albatta, bu insonning fe’l - atvori qonuni bo‘yicha emas, balki qo‘g‘irchoq san’atining talabi asosida sodir etiladi. Demak, qo‘g‘irchoq orqali hatti-harakat qilish – shu san’at turning asosini tashkil qiladi.”*[9]

Buning uchun esa, rejissyor yuqoridagiga o‘xshagan etyudlardan foydalanib, qo’g’irchoq teatri aktyorining mahoratini yanada rivojlantirishga yordam berishi lozim. Bu kabi mashq va etyudlarni spektakldagi personajlar, ular bilan bo‘lib o‘tadigan voqealarni unutmagan xolda o‘ylab topilsa, tasavvur va fantaziyani boyishiga, qolaversa avvalo aktyorni o‘z rolini o‘zlashtirishiga amaliy yordam bo‘lar edi. Ana shundagina aktyor har qanday qiyin va murakkab

[9]“Қўғирчоқ театр санъатининг актёрлик мактаби” Дарслик.М.Уйғур ТДСИ. Тошкент. 2007 [17 b]

rolni ham bemalol ijro eta olishi mumkin. V. Shteyn shunday yozgan edi: *«Qo‘g‘irchoqlar bilan bajariladigan mashq va etyud qo‘g‘irchoqboz aktyor uchun alifbodir. Bularni yaxshi o‘rganmasdan turib, xech qachon katta va qiyin spektakl ustida ishlab bo‘lmaydi»*[10].

O‘z navbatida, etyud ham dramaturgiya talablariga to‘liq javob berishi kerak. Bunday trening ya’ni etyudda ham tugun, kulminatsiya va albatta, yechim bo‘lishi shart. Dastlabki bajaralidigan etyudlar imkon qadar so‘zsiz bo‘lib, unda e’tibor berilgan maqsadga erishish uchun qilinadigan jismoniy xatti-harakatlar ketma-ketligiga qaratilishi lozim. Odatda qo‘g‘irchoqni boshqarayotgan aktyorlarni tomoshabin ko‘rmaydi. Chunki ular shirma orkasida bo‘ladilar. Lekin, qo‘g‘irchoq teatri san’atida shunday teatrlar turi ham borki, masalan, Yaponiyada qo‘g‘irchoqbozlar qora mahsus kiyim kiyib, sahnada o‘z qo‘g‘irchoqlari bilan birgalikda ishtirok etadilar. Tomoshabin aktyorlarni ko‘rib tursa-da, ularni ilg‘amaslikka rozi. Chunki, rang-barang kiyintirilgan va harakatlanayotgan qo‘g‘irchoqlar harakati o‘ta professional darajada shunchalik o‘ziga tortadiki, tomoshabin haqiqatdan ham, oz fursatdan so‘ng, har bir qo‘g‘irchoqni uch kishi boshqarsa-da, aktyorlarni tamoman esdan chiqaradilar. Qo‘g‘irchoqbozning qo‘g‘irchoq boshqarishdagi, uni olib yurishdagi mahorati orqali tomoshabin spektaklda aktyor ishtirok etayotganini esdan chiqarishga beixtiyor rozi bo‘ladi.

“Qo‘g‘irchoq teatri voqelikni lo‘nda, ravon hamda qiziqarli ko‘rsata bilish qobiliyatiga ega bo‘lgan betakror san’at turidir. Uning repertuaridan ko‘pincha satira, yumor va komediya janridagi asarlar joy oladi. Shuning uchun bu yo‘nalishda talabalarni tarbiyalash birinchi qadamdan boshlanishi kerak. Nega qo‘g‘irchoq teatr sahnasida deyarli psixologik janrdagi (tragediya, drama, melodrama) asarlar qo‘yilmaydi, degan savol tug‘ilishi mumkin. Chunki qo‘g‘irchoq bu turdagi asarni sahnaga olib chiqib, uni mukammal yoritish imkoniyatiga ega emas. Qo‘g‘irchoq xarakterli xususiyatiga ko‘ra, imkoniyati cheklangan bo‘lib, u o‘z chegara doirasida ijod qilishga mo‘ljallangan tasviriy san’at asaridir. Zamonaviy qo‘g‘irchoq teatrlarida aktyorlar qo‘g‘irchoqlarning har xil tuzilishdagi turlaridan foydalanadilar. Bular qo‘lqopli, simli, planshet, maska, soya teatri qo‘g‘irchoqlari va hokazo.” [11]

Qo‘g‘irchoqlar bor yo‘g‘i jonsiz predmetlardir, qachonki ularni aktyor qo‘liga olib, harakatlantira boshlagandagina, vositadan personajga aylanadi. Qo‘g‘irchoq teatrining yana bir o‘ziga xos talablaridan qo‘g‘irchoq sahnada uzoq vaqt harakatsiz qolishi yoki uzundan uzun manologlar o‘qishi mumkin emas. Shu nuqtai nazardan repertuar tanlash jarayoni qo‘g‘irchoq teatrining xarakterli xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondoshmoq lozim. Bu san’at turining ko‘p yillik ijodiy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bu jarayonni yuqoridagi kabi xolatlarni faqatgina maqsadli harakat dinamikasi xisobiga xal etish mumkin.

[10] Shteyn V. «Iskusstvo aktyora teatra kukol», Moskva 1994 y.

[11] “Қўғирчоқ театр санъатининг актёрлик мактаби” Дарслик.М.Уйғур ТДСИ. Тошкент. 2007 [49-50 bb]

Qo‘g‘irchoq teatrining o‘ziga xosligi yana shundaki, unda kichik tomoshabinni turli ertak qaxramonlari, masxarabozlar eshik oldida kutib oladilar. Bu ertak personajlar ularga turli topshiriqlar berib, o‘yin orqali tomosha oldidan bolalarni spektaklga psixologik tayyorlaydilar. Bu kabi jarayonlar bolalarni teatrning mo‘jizaviy olamida xis etish quvonchni beradi. Shuning uchun bir umrga xotirasida saqlanib qoluvchi bu sexrli makonni sevib qoladilar, unga tomon doim intilaveradilar. Ko‘rinadiki, qo‘g‘irchoq teatri bolalarda nutqiy rivojlanishida, san’atga mexr, jismonan yetuk, aqlan va psixologik to‘g‘ri shakllanishlarida ko‘mak, axloqiy tarbiya masalalariga yechim topishda xal qiluvchi obyektlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ikromov H. Davr va teatr. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. 2009.

2. Qodirov M. An’anaviy teatr dramaturgiyasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.

3. Qodirov M. S.Qodirova. Qo‘g‘irchoq teatri tarixi. – T.: Talqin, 2006.

4. Ashurova M. Qo‘g‘irchoq teatr san’atining aktyorlik maktabi. – T.: Kuro Print 2007.

5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2012.

6. Nosirova A. Jonli so‘z san’ati asoslari. -T., 2003.

7. Sayfuddinov A. Adabiy asar va ijrochilik mahorati. -T., 1980.

ЯНГИ УЗБЕКИСТОН ТЕАТР МАКОНИДА УЗБЕК МИЛЛИЙ ҚОҒИРЧОҚ ТЕАТРИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ҚИЁФАСИ

Шомурод Юсупов
ЎзДСМИ, «Қоғирчоқ театри санъати»
кафедраси доценти

Annotatsiya: Maqolada O‘zbek Milliy qo‘g‘irchoq teatrining Yangi O‘zbekiston teatr makonidagi zamonaviy qiyofasi me’moriy, ijodiy va pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Teatr binosining qayta ta’mirdan chiqarilishi, tarixiy badiiy qiyofaning zamonaviy dizayn va sahna texnikalari bilan uyg‘unlashuvi, ijodiy ustaxona faoliyati hamda qo‘g‘irchoq teatri rejissyorligi ta’limining professional teatr muhiti bilan bog‘lanishi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek Milliy qo‘g‘irchoq teatri, Yangi O‘zbekiston, rekonstruksiya, zamonaviy dizayn, sahna texnikasi, ijodiy ustaxona, qo‘g‘irchoq teatri rejissurasi, rejissura ta’limi, professional teatr muhiti.

Аннотация: В статье анализируется современный облик Узбекского национального театра кукол в театральном пространстве Нового Узбекистана. Рассматриваются обновление здания театра, сочетание историко-художественного облика с современным дизайном и сценической техникой, деятельность творческой мастерской, а также связь образования в области режиссуры театра кукол с профессиональной театральной средой.

Ключевые слова: Узбекский национальный театр кукол, Новый Узбекистан, реконструкция, современный дизайн, сценическая техника, творческая мастерская, режиссура театра кукол, режиссёрское образование, профессиональная театральная среда.

Abstract: The article analyzes the contemporary image of the Uzbek National Puppet Theatre within the theatrical space of New Uzbekistan. It examines the renovation of the theatre building, the integration of its historical and artistic image with modern design and stage technology, the work of the creative workshop, and the connection between puppet theatre directing education and the professional theatre environment.

Keywords: Uzbek National Puppet Theatre, New Uzbekistan, reconstruction, modern design, stage technology, creative workshop, puppet theatre directing, directing education, professional theatre environment.

Yangi O‘zbekiston madaniy hayotida teatr san’ati jamiyatning estetik didi, ma’naviy dunyosi va ijodiy tafakkurini shakllantiruvchi muhim badiiy maskan sifatida qaralmoqda. Bu jarayonda qo‘g‘irchoq teatri alohida o‘rin tutadi. U yosh tomoshabinni sahna san’ati, obraz, musiqa, harakat, rang va tasavvur olami bilan ilk bor uchrashtiradigan nozik tarbiya maktabidir. Shu bois qo‘g‘irchoq teatrining yangilanishi bolalar madaniyati, estetik tarbiya va milliy sahna san’atining kelgusi rivoji bilan bog‘liq muhim hodisa sifatida baholanadi.

Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi shafeligida O‘zbek Milliy qo‘g‘irchoq teatri binosining qayta ta’mirdan chiqarilishi teatrning ijodiy hayotida yangi bosqichni boshlab bermoqda. 2026-yil 1-iyun — Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan yangilangan sahnada nemis adibi Velgelm Gaufmanning “Xalif Laylak” ertagi asosida sahnalashtirilgan spektaklning namoyish etilishi bolalar tomoshabini uchun bayram sovg‘asi bo‘lishi bilan birga, teatrning zamonaviy badiiy qiyofasini namoyon etuvchi muhim voqea sifatida baholanadi.

Mazkur yangilanishda tarixiy badiiy belgilarni asrash, ularni zamonaviy dizayn va sahna texnikalari bilan uyg‘unlashtirish, tomoshabin uchun qulay muhit yaratish, ijodkorlar uchun kengroq badiiy imkoniyat ochish kabi yo‘nalishlar bir-birini to‘ldiradi. Bolalar teatrida bino va ichki makon tomoshabinni spektaklga tayyorlovchi muhim badiiy omildir. Foye, ranglar, yorug‘lik, qo‘g‘irchoq obrazlari, zal tartibi va sahnaga olib boruvchi yo‘l yosh tomoshabinning qabul jarayonini oldindan shakllantiradi. Shu ma’noda yangilangan teatr muhiti bolalarda sahna san’atiga mehr uyg‘otuvchi tarbiyaviy-estetik makon vazifasini bajaradi.

Qo‘g‘irchoq teatri o‘z tabiatiga ko‘ra sintetik san’atdir. Unda aktyor mahorati, qo‘g‘irchoq konstruktsiyasi, rejissyorlik yechimi, rassom tasavvuri, yorug‘lik, ovoz, musiqa, plastika va tomoshabin nigohi yagona tizimda ishlaydi. Zamonaviy sahna texnikalari bu tizimning har bir bo‘g‘iniga ta’sir ko‘rsatadi: yorug‘likdagi aniqlik qo‘g‘irchoq harakatini ravshanlashtiradi, ovozdagi tiniqlik

obrazning ichki ohangini kuchaytiradi, sahna makonining qulayligi aktyor va qo‘g‘irchoq munosabatini erkinroq tashkil etishga imkon beradi.

Qo‘g‘irchoq teatrida eng kichik harakat ham ma’no tashiydi. Qo‘g‘irchoqning bosh burishi, qo‘l ishorasi, pauzasi, yurishidagi mayda siljish yoki yorug‘likdagi o‘zgarish tomoshabinning obrazni qabul qilishiga ta’sir qiladi. Shu sababli yangilangan sahna sharoiti rejissyor, aktyor, rassom, bastakor va texnik xodimlar faoliyatini yagona badiiy tizimda uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Planshet, qo‘lqopli, simli, shtokli yoki soya qo‘g‘irchoqlarining har biri alohida texnik va plastik imkoniyatga ega. Teatrda yaratilayotgan yangi sharoitlar bu imkoniyatlarni chuqurroq ochishga zamin yaratadi.

O‘zbek Milliy qo‘g‘irchoq teatri repertuarida mumtoz adabiyot, xalq ertaklari, tarixiy mavzular va jahon bolalar adabiyotiga murojaat qilish tajribasi shakllangan. Bunday manbalarni sahnaga olib chiqishda rejissyor voqea bayoni bilan cheklanmay, undagi ma’no, xarakter va ruhiy holatni qo‘g‘irchoq plastikasi, ovoz, rang, ritm, musiqa va makon orqali qayta yaratadi. Shu jihatdan Velgelm Gaufmanning “Xalif Laylak” ertagi asosidagi spektaklning yangilangan sahnada namoyish etilishi teatrning badiiy imkoniyatlarini kengaytiruvchi ijodiy hodisa sifatida ahamiyatlidir.

O‘zbek Milliy qo‘g‘irchoq teatrining bugungi qiyofasida ijodiy-pedagogik muhit muhim o‘rin tutadi. Teatr yosh aktyorlar, San’at va madaniyat instituti qo‘g‘irchoq teatri rejissyorligi bo‘limi talabalari hamda qo‘g‘irchoq teatri amaliyotini o‘rganayotgan yoshlar uchun amaliy maktab vazifasini bajarmoqda. Teatr bazasidagi ijodiy ustaxonada kasb har kuni kechadigan repetitsiya, sahna sinovi, qo‘g‘irchoq bilan ishlash va ustoz kuzatuvi orqali o‘zlashtiriladi.

Bunday muhitda talaba obrazning shakllanish jarayonini ko‘radi, aktyor va qo‘g‘irchoq o‘rtasidagi nozik aloqani his qila boshlaydi, sahna maydonida harakat qanday ma’no kasb etishini amalda kuzatadi. Ta’lim jarayoni shu tariqa auditoriyada olingan bilimni sahnadagi aniq vazifa bilan bog‘laydi. Yosh ijodkorda badiiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, kasbiy javobgarlik va sahna intizomi asta-sekin shakllanadi.

San’at va madaniyat instituti qo‘g‘irchoq teatri rejissyorligi bo‘limi talabalari bilan teatrda olib boriladigan mahorat darslari bu jarayonning amaliy ko‘rinishidir. Talaba sahna makonini ko‘z bilan o‘lchaydi, qo‘g‘irchoqning harakat chegarasini sezadi, aktyor bilan predmet o‘rtasidagi bog‘lanishni kuzatadi, rejissyorlik topshirig‘i aktyor tanasi va qo‘g‘irchoq plastikasi orqali qanday ifodalanishini amalda ko‘radi. Teatrda o‘tkaziladigan bunday mashg‘ulotlar bo‘lajak rejissyorning sahna tafakkurini shakllantiradigan ijodiy laboratoriya vazifasini bajaradi.

Qo‘g‘irchoq teatri aktyori yoki rejissyori sahnada qo‘g‘irchoqning og‘irlik markazi, harakatdagi pauza, sherik bilan sinxronlik, ovoz va plastika uyg‘unligi, tomoshabin nigohi oldidagi javobgarlik kabi masalalar bilan ishlaydi. Bu ko‘nikmalar muntazam mashq, sahna tajribasi va professional teatr muhitida shakllanadi. Ijodiy ustaxonada yoshlar sahna jarayonining bevosita

ishtirokchisiga aylanadi: ular bir sahna parchasining qanday tug‘ilishini, aktyorning bir harakatni necha bor takrorlashini, qo‘g‘irchoqning harakat mantig‘i topilmaguncha obraz tirik chiqmasligini amalda ko‘radi.

Qo‘g‘irchoq teatri rejissurasi aktyor ijrosi bilan bir qatorda predmet dramaturgiyasi, qo‘g‘irchoq konstruktsiyasi, harakat chegarasi, yorug‘lik va sahna ritmini ham hisobga oladi. Rejissyor fikri aktyor tanasi va jonlantirilgan predmet orqali ifodalanadi. Shu sababli teatrda olib boriladigan mashg‘ulotlar yosh rejissyorga sahna yechimini real makon, qo‘g‘irchoq, aktyor va tomoshabin munosabatida shakllanadigan jarayon sifatida anglatadi.

Yangilangan teatrda rejissura ta’limi uchun qulay sharoitlar yuzaga keladi. Repetitsiya xonalari, texnik jihozlar, sahna sinovlari, qo‘g‘irchoq va dekoratsiyalar bilan ishlash muhiti yosh rejissyorning sahna tafakkurini amaliy shakllantiradi. U dramatik materialni qo‘g‘irchoq tabiati bilan uyg‘unlashtirishni, obrazni predmet orqali ifodalashni, aktyor va qo‘g‘irchoq o‘rtasidagi ichki aloqani topishni o‘rganadi. Bu jarayon talabaning ijrochi, kuzatuvchi va tahlilchi sifatidagi tajribasini birlashtiradi.

San’at va madaniyat instituti qo‘g‘irchoq teatri rejissyorligi bo‘limi talabalari uchun teatrda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar sahna qonuniyatini real jarayon sifatida idrok etishga yordam beradi. Talaba bir mizansahnaning qurilishi yorug‘lik, ovoz, aktyor plastikasi va qo‘g‘irchoq texnikasi bilan qanday bog‘lanishini ko‘radi. Shu orqali rejissyorlik qarori mavhum niyat darajasida qolmay, sahna imkoniyati, aktyor holati, qo‘g‘irchoq tabiati va tomoshabin qabuliga tayanadigan aniq badiiy harakatga aylanadi.

Professional teatrda ta’lim olgan talaba sahna ortidagi mehnatni ham ko‘radi. U rassom obraz qiyofasini qanday izlashini, qo‘g‘irchoq ustasi uni qanday yaratishini, aktyor qo‘g‘irchoqqa qanday jon berishini, chiroq va ovoz xizmati obrazning ta’sir kuchini qanday oshirishini kuzatadi. Bunday kuzatuv yosh ijodkorda teatrga nisbatan kasbiy mas’uliyatni shakllantiradi. Qo‘g‘irchoq spektakli butun jamoaning aniq va uyg‘un faoliyati orqali yaratiladi. Shu bois yosh rejissyor teatrning texnik, ijodiy va tashkiliy jarayonlarini bir butun tizim sifatida anglagandagina sahna qarorini to‘g‘ri belgilay oladi.

Ana shu jihat O‘zbek Milliy qo‘g‘irchoq teatrining zamonaviy pedagogik qiyofasini belgilaydi. Teatr ijodkor tayyorlashda kasbiy tafakkur shakllanadigan tirik maktab vazifasini bajaradi. Bu maktabda talaba nazariy bilimni real sahna amaliyoti bilan bog‘laydi, teatrning ichki mehnat ritmini, jamoaviy mas’uliyatini va badiiy qonuniyatlarini amalda his qiladi.

O‘zbek Milliy qo‘g‘irchoq teatrining yangilangan qiyofasi bugungi madaniy jarayonda bir necha ma’noni birlashtiradi. Unda teatr binosining tarixiy badiiy xotirasi, zamonaviy sahna imkoniyatlari va ijodiy-pedagogik muhit o‘zaro tutashadi. Bu jarayon qo‘g‘irchoq teatrini bolalar tomoshabini uchun estetik makon, ijodkorlar uchun izlanish maydoni, yosh rejissyorlar uchun esa professional sahna tafakkuri shakllanadigan amaliy maktab sifatida namoyon etadi. Shu jihatdan O‘zbek Milliy qo‘g‘irchoq teatri Yangi O‘zbekiston teatr

makonida milliy qo‘g‘irchoq san’atining bugungi izlanishi va ertangi rivojini belgilaydigan muhim markazlardan biri sifatida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] O‘zbekiston Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi. O‘zbek Milliy qo‘g‘irchoq teatrida “Xalif Laylak” spektaklining premyerasi bo‘lib o‘tadi. Rasmiy xabar. 2026-yil 23-may.

[2] Qodirov M. X. Xalq qo‘g‘irchoq teatri. – Toshkent: San’at, 2022.

[3] Qodirov M. Qo‘g‘irchoq o‘yini. – Toshkent, 1972.

[4] Obrazsov S. Mening kasbim. – Moskva: Iskusstvo, 1981.

[5] Smirnova N. I. O‘ynovchi qo‘g‘irchoqlar san’ati. – Moskva: Iskusstvo, 1983.

[6] Stanislavskiy K. S. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. – Moskva: Iskusstvo, turli nashrlar.

[7] Azeeva I. V. Aktyor oliy ta’lim muassasasida va teatrda o‘qiydi // Yaroslavl pedagogika xabarnomasi. – 2015. – №4.

[8] Kuzin A. S. Yosh aktyorni professional faoliyatga jalb etishning o‘ziga xosligi // Yaroslavl pedagogika xabarnomasi. – 2003. – №4.

[9] Gerasimova N. G. Badiiy ta’limni modernizatsiya qilish sharoitida o‘quv teatri // KemGUKI xabarnomasi. – 2011. – №11.

ЯНГИ УСЛУБДАГИ ҚОҒИРЧОҚ ТЕАТРИНИНГ ТАРКИБ ТОПИШИ ВА ШАКЛЛАНИШИ

Лола Усманова
ЎзДСМИ, «Қоғирчоқ театри санъати» кафедраси катта ўқитувчиси

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek an’anaviy qo‘g‘irchoq teatrining tarixiy ildizlari, uning zamonaviy uslubdagi shakllanishi va rivojlanishi jarayoni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. XIX asr oxiridan boshlab yangi kapitalistik munosabatlar va Yevropa teatr an’analari ta’sirida qo‘g‘irchoq teatrining repertuari va ijrochilik uslublarida yuzaga kelgan o‘zgarishlar ko‘rib chiqiladi. Sovet davrida yozma dramaturgiya asosida professional truppalar tashkil etilishi, ijrochilik mahoratining rivojlanishi va pedagogik yo‘nalishdagi yutuqlar alohida ta’kidlanadi. Maqola milliy teatr san’ati va madaniy meros sohasida tadqiqot olib borayotgan mutaxassislar uchun qimmatli ilmiy manba hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: qo‘g‘irchoq teatr, an’anaviy teatr, yangi uslub, dramaturgiya, ijrochilik mahorati, Sovet davri, madaniy meros.

Аннотация: В данной статье научно анализируются исторические корни узбекского традиционного кукольного театра, процесс его формирования и развития в современном формате. Рассматриваются изменения в репертуаре и исполнительских традициях кукольного театра, произошедшие под влиянием новых капиталистических

отношений и европейских театральных традиций с конца XIX века. Особое внимание уделяется созданию профессиональных трупп на основе письменной драматургии в советский период, развитию исполнительского мастерства и достижениям в области театральной педагогики. Статья представляет научную ценность для специалистов, исследующих национальное театральное искусство и культурное наследие.

Ключевые слова: кукольный театр, традиционный театр, новый стиль, драматургия, исполнительское мастерство, советский период, культурное наследие.

Abstract: This article provides a scholarly analysis of the historical roots of Uzbek traditional puppet theatre and the process of its formation and development in a modern context. It examines the changes in the repertoire and performance practices of puppet theatre that emerged under the influence of new capitalist relations and European theatrical traditions from the late nineteenth century onward. Particular attention is paid to the establishment of professional theatre troupes based on written dramaturgy during the Soviet period, the development of performance skills, and achievements in theatre pedagogy. The article serves as a valuable academic resource for researchers studying national theatre arts and cultural heritage.

Keywords: puppet theatre, traditional theatre, modern style, dramaturgy, performance skills, Soviet period, cultural heritage.

Qo‘g‘irchoq teatrining tarixiy ildizlari O‘zbekiston madaniyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning o‘ziga xosligi milliy an’analar, folklor, xalq o‘yinlari va drama san’ati orqali shakllangan. Bu teatr turi nafaqat ko‘ngilochar san’at, balki ma’rifiy-ma’naviy ahamiyatga ega edi. XIX asr oxirlarida mamlakatda yuz bergan siyosiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, mustamlakachilik siyosati va yangi madaniy ta’sirlar natijasida qo‘g‘irchoq teatrining yangi shakllari paydo bo‘ldi. Ushbu maqolada yangi uslubdagi qo‘g‘irchoq teatrining shakllanishi, uning ijrochilik mahorati va dramaturgiya rivoji tadqiq etiladi.

O‘zbekistonda an’anaviy qo‘g‘irchoq teatrining ikki asosiy turi mavjud: “Chodir jamol” — qo‘lga kiyib o‘ynatiladigan qo‘g‘irchoq turi va “Chodir xayol” — iplar orqali boshqariladigan murakkab qo‘g‘irchoq turi. Bu teatrlar ko‘pincha ko‘chma shaklda, ochiq havoda yoki chodirlar ichida namoyish qilinar edi. Tomoshalar hajviy va tanqidiy ohangda bo‘lib, ijtimoiy-siyosiy hayotni aks ettirishda muhim vosita vazifasini o‘tagan.

Mustamlaka davrida qo‘g‘irchoq teatrining bu an’anaviy shakllari mahalliy aholining kundalik hayoti, odatlari, siyosiy muammolarini tanqid qilishda muhim rol o‘ynadi. Shu bilan birga, teatr orqali xalqni ma’rifiylashtirish va ma’naviy tarbiya berish ham amalga oshirildi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Yevropa teatr an’analari ta’sirida yangi uslubning shakllanishi jadal rivojlandi. XIX asr oxirlarida Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgan O‘zbekistonga Yevropa teatrlari an’analari kirib kela boshladi.

Yevropa uslubida yopiq binolar, sahna, shirma, yozma dramaturgiya asosidagi tomoshalar paydo bo‘ldi. Ushbu yangiliklar o‘zbek qo‘g‘irchoq teatrining repertuari va ijrochilik uslubiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Endilikda ko‘chma chodirlardan voz kechilib, doimiy binolarda tomoshalar o‘ynala boshlandi.

Muxsin Qodirovning ta’kidlashicha, bu davrda yangi tomoshabinga mos repertuar yaratish jarayonida ijodiy qiyinchiliklar yuzaga keldi, chunki yozma dramaturgiya hali shakllanmagan edi. Shunga qaramay, an’anaviy syujetlardan foydalanib, sovet jamiyatining ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi yangi pyesalar yozila boshlandi.

1928-yilda Toshkentda Semyon Etyen rahbarligida rus yosh tomoshabinlar teatrida qo‘g‘irchoqbozlar truppasi tashkil etildi, ammo bu boshlang‘ich urinishlar uzoq davom etmadi.

1939-yilda Respublika qo‘g‘irchoq teatri tashkil etilib, o‘zbek va rus tillarida professional truppalar faoliyati boshlandi. Bu davrda yozma dramaturgiya rivojlana boshladi, yozuvchilar va rejissyorlar tomonidan yozilgan pyesalar sahnalashtirildi. Qo‘g‘irchoq teatrida professional ijrochilik maktablari va o‘quv kurslari tashkil etildi, bu esa teatrning texnik va badiiy darajasini oshirdi.

Yangi uslubdagi qo‘g‘irchoq teatrida ijrochilik mahorati asosiy omil hisoblanadi. An’anaviy improvizatsion uslublardan voz kechilib, yozma matnga tayanish kuchaydi. Shu bilan birga, aktyorlarning qo‘g‘irchoqlarni boshqarish, ular uchun ovoz berish, mimika va harakatlarni taqlid qilish mahorati yuqori darajaga yetkazildi.

Qo‘g‘irchoqlarni yasash va bezashda yangi texnologiyalar va materiallardan foydalanishga o'tildi. Qo‘lga kiyib o‘ynatiladigan qo‘lqopli qo‘g‘irchoqlar keng tarqaldi. San’atkorlar uchun maxsus o‘quv markazlari tashkil etildi, bu esa ijrochilik va texnik darajani yangi bosqichga olib chiqdi.

Qo‘g‘irchoq teatrining madaniy-ma’rifiy ahamiyati katta bo‘lib, u nafaqat bolalar uchun ko‘ngilochar san’at, balki ijtimoiy xabardorlik va tarbiya vositasi sifatida ham xizmat qildi. Sovet davrida teatr orqali sotsializm g‘oyalari targ‘ib qilindi, bolalarni sadoqat, mehnatsevarlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratildi.

Bugungi kunda ham qo‘g‘irchoq teatrining milliy madaniyatni asrab-avaylash va yosh avlodni tarbiyalashdagi roli ahamiyatini yo‘qotmayapti.

Aytish mumkunki, yangi uslubdagi qo‘g‘irchoq teatrining shakllanishi o‘zbek teatr san’atining muhim davri hisoblanadi. An’anaviy san’at va Yevropa teatr an’analari uyg‘unlashuvi natijasida zamonaviy dramaturgiya va professional ijrochilik maktabi yuzaga keldi. Sovet davrida qo‘g‘irchoq teatrining tarkibiy o‘zgarishlari, malakali kadrlar tayyorlash va yangi texnik uslublarni joriy etish san’atning yangi bosqichga ko‘tarilishiga olib keldi. Bu jarayon milliy teatr san’atining rivojlanishida katta hissa qo‘shdi va bugungi kunda ham davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov, M. O‘zbek qo‘g‘irchoq teatrining tarixi va zamonaviy shakllari. Toshkent, 2005.
2. Doniyorov, P. Qo‘g‘irchoq teatr san’ati va ijrochilik. Toshkent, 1989.
3. Abdulla, S. Saltanat: Yozma qo‘g‘irchoq pyesasi. Moskvada o‘zbek san’ati dekadasi materiallari, 1937.
4. Najmiddinova, S. Qo‘g‘irchoq teatrining madaniy-ma’rifiy roli. Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 2023.
5. Mamatqulov, B. An’anaviy va zamonaviy qo‘g‘irchoq teatr. IYODO jurnali, 2022.
6. Ersan, I. Puppet as a Form of Expression in Contemporary Performing Arts. Journal of Arts, 2018.

УСТАЗ-РЕЖИССЁР

Хожанова М.
ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы доценти

Annotaciya: Teatr! Biz bul haqqında oylaǵanımızda eń dáslep rejissyor kóz aldımızǵa keledi. Teatr repertuarınıń durıs tańlanıp, sátli spektakller saxnalastırılıwına tiykarınan rejissyor sebepshi. Hár bir aktyor menen jeke islesip, olardıń múmkinshiliginen tolıq paydalanıp, talantın ashıp beretuǵın da rejissyor.

Gilt sózler: *teatr, aktyor, rejissyor, spektakl, saxna, tendenciya*, professional, *obraz, dramaturgiya, tragediya, komediya, repertuar, drama.*

Аннотация: Театр! Когда мы думаем об этом, первое, что приходит на ум, - это режиссер. Правильный выбор репертуара театра и постановка удачных спектаклей в первую очередь зависят от режиссёра. Режиссёр также работает индивидуально с каждым актёром, полностью используя их потенциал и раскрывая их талант.

Ключевые слова: *театр, актёр, режиссёр, спектакль, tendenciya*, *professional, образ, драматургия, трагедия, комедия, репертуар, drama.*

Annotation*:* Theater! When we think about this, the first thing that comes to mind is the director. The director is primarily responsible for the correct selection of the theater's repertoire and the staging of successful performances. It is the director who works individually with each actor, fully utilizing their potential and revealing their talents.

Keywords: *theatre, actor, director, performance, scene, professional, character, dramaturgy, tragedy, comedy, repertoire, drama.*

Teatr! Biz bul haqqında oylaǵanımızda eń dáslep rejissyor kóz aldımızǵa keledi. Teatr jámááti islegen miynetleriniń tiykarǵı ózeginde rejissyor turadı. Teatr repertuarınıń durıs tańlanıp, sátli spektakller saxnalastırılıwına tiykarınan rejissyor sebepshi. Hár bir aktyor menen jeke islesip, olardıń

múmkinshiliginen tolıq paydalanıp, talantın ashıp beretuǵın da rejissyor. Sonılıqtan da rejissyorǵa úlken wazıypa júklenedi.

Biz búgin usınday qıyın hám mashaqatlı kásipti iyelegenlerdiń biri Qaraqalpaqstan xalıq artisti Reimbay Tóreniyazov haqqında sóz etpekshimiz. R.Tóreniyazov 1962-jılı A.N.Ostrovskiy atındaǵı Tashkent Mámleketlik teatr hám súwretshilik institutınıń rejisseyolıq bólimin pitkerip kelip sol waqıttaǵı K.S.Stanislavskiy atındaǵı muzıkalı drama hám komediya teatrında isley basladı.

60-jıllardıń birinshi yarımında tájiriybeli rejissyorlar T.Allanazarov, Yu.Sharipov, J.Mamutov, S.Xojaniyazov, R.Seytovlar teatrda sátli spektakller qoyıp, kózge túsip atırǵan edi. Endi olardıń qatarına jas rejissyor R.Tóreniyazov kelip qosıladı.

Ol teatr saxnasında ázerbayjan dramaturgi R.Shamqalovtıń «Qayın ene» pyesasın saxnalastırdı. Bul onıń professional saxnadaǵı dáslepki spektakli edi. Jas rejissyor aktyorlardan obrazdıń tiykarǵı mánisin, avtor ideyasın tereń túsinip háreket etiwin talap etti. Nátiyjede spektakl tamashagóyler tárepinen jılı qabıllandı. Jas rejisserǵa teatr jámáátiniń isenimi arttı.

Bunnan keyingi jıllar rejissyor R.Tóreniyazov ushın tınımsız miynet hám dóretriwshilik izleniw jılları boldı. Izleniw bárqulla tabısqa jetkere bermeydi. Onıń qátelesken jerleri, niyeti ámelge aspaǵan waqıtları da boldı. Soǵan qaramastan bir qatar dramaturgler menen islesip, original shıǵarmalar dóretiwdi óziniń wazıypası dep bildi. Hár qıylı baǵdardaǵı aktyorlardı bir-birine jaqınlastırıp, bir tutas jámáát etiwge háreket jasadı.

R.Tóreniyazov qaraqalpaq teatrı qázinesine óz úlesin qostı. Qaraqalpaq mámleketlik muzikalı drama hám komediya teatrı saxnasında «Jol kórsetiwshi juldız» (K.Yashin) hám «Aral hawazı» (Q. Dosanov) shıǵarmaların saxnalastırdı. «Jol kórsetiwshi juldız» pyesası Ózbekstannıń birqansha teatrlarında saxnalastırılǵan edi. Rejissyor solardıń birde birewin tákirarlamay, ózinshelik penen is alıp bardı. Saxna qurılısı hám obrazlar sheshiminde jańasha jol hám jańasha usıllar izlep tabıwǵa háreket etti. Talantlı aktyor Dósbergen Ranov penen uzaq waqıtlar dawamında birge islesti. Nátiyjede bul spektakller de sátli shıǵıp tamashagóyler tárepinen jaqsı kútip alındı.

Reyimbay Tóreniyazov shıǵarma tańlaw, repertuar dúziw máselelerine de kóp itibar berdi. Hár bir qoyılǵan shıǵarmanıń tárbiyalıq áhmiyeti hám dóretiwshilik jámááttiń ósiwine tiygizetuǵın tásiri haqqında oylanadı. K.S.Stanislavskiy atındaǵı teatrdıń ótmishine kóz jibersek, onda tariyxiy hám klassikalıq shıǵarmalardı, drama hám muzıkalı spektakllerdi kóremiz. Ásirese, zamanawiy temadaǵı shıǵarmalar teatr repertuarında jetekshi orında turdı. Bul, demek rejissyordiń tamashagóylerdi oylandırıp júrgen zamanagóy máselelerge teatr arqalı juwap beriwge umtılıwı degen sóz.

R.Tóreniyazov dramaturgler menen birge islesip, birqansha sátli spektakller dóretti. Máselen: «Hújdan» (P.Tlegenov), «Súymegenge súykenbe» (S.Xojaniyazov), «Tiklengen tuw» (T.Jumamuratov), «Aqmaq patsha»

(S.Xojaniyazov) spektakllerin atap ótsek orınlı. Bul spektakller óziniń kórkem ideyalılıǵı menen tamashagóyler itibarın ózine tarttı.

1979-jılı Reimbay Tóreniyazov Qaraqalpaq mámleketlik jas tamashagóyler teatrına bas rejissyor bolıp keldi. Rejissyor óziniń aldına endi basqasha wazıypa qoydı. Sebebi, jas tamashagóyler teatrı óziniń ózgesheligi boyınsha basqa teatrlardan ajıralıp turadı. Jas tamashagóyler teatrdan alǵan tásirin kúndelikli ómirde qollana biliwi kerek. Olardıń fantaziyasın durıs túsinip, soǵan ılayıqlap saxnalastırılmasa tamashagóylerdi jalıqtırıp alıwıń múmkin. Sonılıqtan R.Tóreniyazov hár bir spektakldi saxnalastırıwǵa úlken itibar berdi. Aktyorlardan jaslardıń ishki jan-dúnyasın durıs túsinip, tábiyiy háreket etiwin qatań talap etti. Reyimbay Tóreniyazov A.Agamurzaevtıń «Jolbarıs penen ushırasqanda», K.Raxmanovtıń «Toǵız tońqıldaq, bir shińkildek», K.Goldonidiń «Eki bayǵa bir malay» usaǵan spektakllerdi sátli saxnalastırıp jas tamashagóylerdiń alǵıslarına sazawar boldı.

Endi rejissyor saxnalastırǵan K.Goldonidiń «Eki bayǵa bir malay» spektakline toqtap óteyik. Rejissyor aktyorlardıń atqarıw sheberliginen kelip shıǵıp shıǵarmaǵa birqansha ózgerisler kirgizgen, nátiyjede spektakldiń hár bir detalına shekem tamashagóylerge túsinikli bolıwına erisken. Rejissyor spektaklge óz kóz-qarasınan turıp sheshim jasaǵan. On segizinshi ásirde jaratılǵan shıǵarmaǵa zamanagóy kóz-qaras penen qarap avtordıń demokratiyalıq tendenciyaların ashıp bere alǵan. Moskvalı xudojnik R.L.Kazachektıń jasaǵan dekoraciy hám kostyumları sheber isleniwi hám boyawlarınıń qanıqlıǵı menen kózdi tartadı. Xudojniktiń tereń oylap tabıwshılıǵı menen islengen 18 ásirdegi Veneciyadaǵı saraylar, miymanxanalar, kóshe kórinisleri bizlerdiń kóz aldımızǵa elesleydi. Sol gezdegi Italiya ómiri menen baylanıslı muzikalar da júrek sezimleriǹdi oyatıp, qiyalıǹdı alıs-alıslarǵa alıp ketedi. Bul spektakl óziniń tásirsheńligi menen tamashagóyler dıqqatın birden ózine tartıp olarda kórkem ónerge degen qızıǵıwshılıq sezimlerin payda etedi.

Reyimbay Tóreniyazov teatr tarawında basıp ótken qıyın da mashaqatlı dóretiwshilik jolı dawamında ol 30-dan aslam spektakllerdi saxnalastırıp, úlken tájiriybe arttırdı, shınıqtı. Zaman hám tamashagóy talabına ılayıq spektakller dóretiwge, ózinshe bir usıl menen háreket etiwge talpındı. Qanday shıǵarma bolmasın, kim menen islespesin birinshi orında avtordıń maqsetin, ideyalıq koncepciyasın kórsetiwdi talap etti. Pikir hám ideyanı anıqlawshı tiykarǵı usıldı aktyor dóretiwshiligi arqalı beriwdi oyladı. Barlıq muxabbatın, bilimin, aqılın aktyorǵa arnadı, talantın kórsetiwge umtıldı. Aktyordıń tabıslarına quwanıp kemshiliklerine qıynaldı. Bunday juwapkerli hám mashaqatlı iste ol ustazları T.Allanazarov, Yu.Sharipov, J.Mamutov, S. Xojaniyazov, R.Seytovlardıń jolınan barıp, solardan úyrenip aqırı óz jolın tawıp ketiwge miyasar boldı.

Minekey, Reyimbay Tóreniyazovtıń dóretiwshilik portreti usınday. Ustaz rejissyordıń qaraqalpaq teatr ónerin professional dárejege kóteriwde tutatuǵın ornı ayrıqsha. Pejissyor jaratqan spektakller, onıń kórsetpesi menen saxnada dóretilgen obrazlar bizler ushın úlken bir dóretiwshilik mektebi bolıp qaladı.

ÁDEBIYATLAR

1. Arastu. Poetika. – T: Yangi asr avlodi, 2012.
2. Ansatbaev N. Teatr hám aktyor, sabaqlıq. 2020.
3. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. – T.: G‘. G‘ulom nashriyoti, 2000.
4. A.Pirnazarov. Rejissura qaraqalpaqskogo gossteatra. Qaaraqalpaqstan.1983.

МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА УЗБЕКИСТОН ҚОҒИРЧОҚ ТЕАТРЛАРИ: ТАРАҚҚИЁТ ЙЎЛИ ВА ИЖОДИЙ ИЗЛАНИШЛАР

Ражабов Руслан Нормурод уғли
ЎзДСМИ, «Қоғирчоқ театр актёрлиги»
2-босқич магистранти
Илмий раҳбари, УзДСМИ катта
ўқитувчиси ***Л.Джураевна***

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng qo‘g‘irchoq teatrlarining rivojlanish bosqichlari, ijodiy izlanishlari va teatr san’atida yuz bergan o‘zgarishlar tahlil qilingan. Qo‘g‘irchoq teatrlarining tashkil topishi, repertuar siyosatining yangilanishi, texnik va badiiy vositalarning takomillashuvi, ijodiy jamoalarning shakllanishi hamda milliylik tamoyillarining teatr san’atiga kirib kelishi kabi omillar yoritilgan. Shuningdek, xalqaro maydonda erishilgan yutuqlar ham ko‘rib chiqilgan. Maqola madaniyatshunoslar, teatrshunoslar, san’at nazariyotchilari va madaniyat siyosati bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Istiqlol, teatr, qo‘g‘irchoq teatrlarining rivojlanish bosqichlari, milliylik, an’ana, ijodiy jamoa.

Аннотация: В данной статье анализируются этапы развития кукольных театров Узбекистана после обретения Республикой Узбекистан независимости, их творческие поиски и изменения, произошедшие в театральном искусстве. Освещаются вопросы становления кукольных театров, обновления репертуарной политики, совершенствования технических и художественных средств, формирования творческих коллективов, а также внедрения принципов национальной самобытности в театральное искусство. Кроме того, рассматриваются достижения узбекских кукольных театров на международной арене. Статья может быть полезна культурологам, театроведам, искусствоведам и исследователям, занимающимся вопросами культурной политики.

Ключевые слова: независимость, театр, этапы развития кукольных театров, национальная самобытность, традиция, творческий коллектив.

Abstract: This article analyzes the stages of development of puppet theatres in Uzbekistan following the country's independence, their creative

explorations, and the transformations that have taken place in theatrical art. The study highlights the establishment of puppet theatres, the renewal of repertoire policies, the improvement of technical and artistic means, the formation of creative teams, and the incorporation of national identity principles into theatrical practice. The achievements of Uzbek puppet theatres in the international arena are also examined. The article may be useful for cultural scholars, theatre researchers, art theorists, and specialists engaged in cultural policy studies.

Keywords: independence, theatre, stages of puppet theatre development, national identity, tradition, creative team.

Tarixiy taraqqiyotning muhim bosqichlaridan biri bo‘lgan mustaqillik davri O‘zbekiston hayotining barcha jabhalarida tub o‘zgarishlar boshlangan davr bo‘ldi. Ayniqsa, madaniyat va san’at sohalari milliy tiklanish, qadriyatlar uyg‘onishi va ijtimoiy-madaniy izlanishlar markaziga aylandi. Qo‘g‘irchoq teatr san’ati ham bu jarayonda o‘zining yangicha yo‘nalishlarini izlab topdi. O‘zbekistonda mavjud barcha qo‘g‘irchoq teatrlari o‘z repertuarlarini, texnik vositalarini, sahna madaniyatini va ijodiy jamoalarini yangi davr talablariga moslashtirishga kirishdilar. Ushbu maqola O‘zbekiston qo‘g‘irchoq teatrlarining mustaqillikdan keyingi taraqqiyot yo‘lini tahlil qiladi.

1991-yildan boshlab teatrlar markazlashgan Sovet tizimidan chiqib, mustaqil ijodiy va tashkiliy faoliyat yurita boshladi. Qo‘g‘irchoq teatrlari ham bu yangi jarayonlarda ishtirok etdi. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlangan holda, respublikaning barcha hududlarida qo‘g‘irchoq teatrlari tashkil etildi. Respublikada faoliyat yuritayotgan teatrlar soni qisqa vaqt ichida ortdi: Toshkent, Andijon, Samarqand, Buxoro, Jizzax, Nukus, Farg‘ona, Qashqadaryo, Surxondaryo, Namangan, Sirdaryo, Navoiy viloyatlarida yangi teatrlarga asos solindi.

Teatrlar mustaqil rejissyorlik qarorlarini qabul qila boshladi, moliyaviy mustaqillikka ega bo‘ldi va jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda spektakl yarata boshladi.

Ilk yillarda teatrlar asosan sovet davridan qolgan spektakllarni tiklash bilan shug‘ullandilar. Ammo keyinchalik mustaqil O‘zbekistonning mafkuraviy, ma’naviy ehtiyojlaridan kelib chiqib, yangi milliy spektakllar sahnalashtirila boshlandi. “Buyuk ipak yo‘lidagi karvonsaroy” spektakli bu borada ilg‘or namunadir. Bu asarda an’anaviy xalq obrazlari – Polvon Kachal, Bichaxon, Masxaraboz, Qoravoy kabi obrazlar orqali bolalarga ma’naviy tarbiya, mehr, tarixiy ong singdiriladi.

Shuningdek, bugungi kunda teatrlar o‘z repertuarlarida zamonaviy pedagogik, ekologik, axloqiy, oilaviy mavzularga ham alohida e’tibor qaratmoqda. Milliy ertaklar asosida yaratilgan sahna asarlari repertuarning muhim qismini tashkil etadi.

O‘z navbatida qo‘g‘irchoqlar yaratishda yangi yondashuvlar paydo bo‘ldi. Oldin markazlashgan zavodlarda ishlab chiqarilgan qo‘g‘irchoqlar o‘rnini endi

har bir teatr o‘z sharoitida tayyorlagan individual qo‘g‘irchoqlar egalladi. Ularning konstruksiyasi, materiali, harakat mexanizmlari teatr rassomlarining ijodiy qarorlariga asoslanadigan bo‘ldi.

Qo‘g‘irchoq turlarining ko‘pligi (qo‘lqopli, trostli, marionetka, soya teatri, pantomima) sahnaviy uslubda ham yangiliklarni olib keldi. Ayniqsa, turli texnologik vositalar – chiroqlar, multimedia, musiqa, maxsus effektlarning qo‘llanilishi tomoshabin e’tiborini oshirdi.

Qo‘g‘irchoq teatrlarining rivojida tajribali ijodkorlar muhim rol o‘ynadi. Mustaqillikdan so‘ng, ma’lum bir kadrlarga ehtiyoj paydo bo‘ldi. Bu ehtiyojni qondirish uchun teatrlar Toshkentdagi san’at oliygohlari bilan hamkorlikni kuchaytirdi. Yosh, iste’dodli ijodkorlar – rejissyorlar, aktyorlar, rassomlar, dramaturglar teatrlar faoliyatiga jalb qilindi. Shuningdek, xorijdan tajriba orttirgan mutaxassislar teatr metodikasi va texnikasini yangilashga xizmat qildi.

Istiqlol sabab O‘zbekiston qo‘g‘irchoq teatrlari xalqaro miqyosda ham o‘zini namoyon qila boshladi. Jumladan, Respublikamiz spektakllari Turkiya, Germaniya, Pokiston, AQSH, Rossiya, Qozog‘iston kabi mamlakatlarda bo‘lib o‘tgan xalqaro festivallarda yuqori baholandi. Teatrlarning bu kabi chiqishlari O‘zbekiston madaniyatining xalqaro maydondagi qiyofasini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, mustaqillik yillarida O‘zbekiston qo‘g‘irchoq teatrlari yangi bosqichga qadam qo‘ydi. Teatrlar ijodiy, badiiy, texnik va tashkiliy jihatdan mustaqil bo‘lib, milliy qadriyatlarni zamonaviy ifoda vositalari orqali tomoshabinga yetkazishda muhim vositaga aylandi. Bugungi kunda qo‘g‘irchoq teatrlari nafaqat bolalar tarbiyasida, balki jamiyatda ma’naviy ongni yuksaltirishda ham faol ishtirok etmoqda. Kelajakda esa bu teatrlarning yanada rivojlanishi, yangi texnologiyalar bilan boyitilishi, xalqaro aloqalarining kengaytirilishi dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yoqubov I. Qo‘g‘irchoq teatri asoslari. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2005.
2. Soliyev D. O‘zbekiston qo‘g‘irchoq teatrlarining sahna madaniyati. // San’at va madaniyat, 2018-yil, №3.
3. Ortiqova M. Milliy teatr an’analari va ularning zamonaviy talqini. — Toshkent: Fan, 2019.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni: “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil, 26-may.
5. Karimova Z. Bolalar teatri: zamon va ma’naviyat. — Toshkent: “Madaniyat”, 2022.

ҚОҒИРЧОҚ ТЕАТРИДА АМИР ТИМУР СИМОСИНИНГ САХНАВИЙ ТАЛҚИНИ: «ТЕМУРБЕКНИНГ БОЛАЛИГИ» СПЕКТАКЛИ МИСОЛИДА

Фатхулло Ходжаев
ЎзДСМИ, «Қоғирчоқ театри санъати» кафедраси доценти

Annotatsiya: *Mazkur maqolada qo‘g‘irchoq teatr san’atida Amir Temur siymosining sahnaviy talqini “Temurbekning bolaligi” spektakli misolida tahlil qilinadi. Unda tarixiy obraz yaratish, rejissyorlik yechimi hamda qo‘g‘irchoq teatri vositalari orqali Amir Temur siymosining badiiy va ma’naviy-estetik talqini yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *aktyor, obraz, qo‘g‘irchoq, festival, muallif, teatr, sahna, Amir Temur, qahramon, san’at.*

Аннотация: *В данной статье анализируется сценическая интерпретация образа Амира Темура в искусстве кукольного театра на примере спектакля «Детство Темурбека». Освещаются вопросы создания исторического образа, режиссёрского решения, а также художественно-эстетической интерпретации личности Амира Темура средствами кукольного театра.*

Ключевые слова: *актёр, образ, кукла, фестиваль, автор, театр, сцена, Амир Темур, герой, искусство.*

Abstract: *This article analyzes the stage interpretation of Amir Temur’s image in puppet theater art based on the performance “Temurbekning bolaligi” (“Temurbek’s Childhood”). The study highlights the creation of a historical character, directorial approach, and the artistic and spiritual-aesthetic interpretation of Amir Temur through the expressive means of puppet theater.*

Keywords: *actor, image, puppet, festival, author, theater, stage, Amir Temur, hero, art.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2026-yil 5-fevraldagi “Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-46-son qarori ijrosi doirasida Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligiga bag‘ishlangan qator ma’naviy-ma’rifiy va madaniy tadbirlar tashkil etildi. Ana shunday yirik madaniy tadbirlardan biri sifatida joriy yilning 11–13-aprel kunlari Samarqand shahrida “Amir Temur siymosi sahnada” nomli respublika teatrlar festivali yuqori saviyada o‘tkazildi.

Mazkur festival mamlakatimizda milliy tarixni chuqur o‘rganish, buyuk ajdodlarimizning boy ma’naviy va madaniy merosini keng targ‘ib etish hamda teatr san’ati vositasida yosh avlod qalbi va tafakkuriga tarixiy xotirani singdirish maqsadida tashkil etildi. Festival nafaqat teatr san’ati bayrami, balki Amir Temur va Temuriylar davri madaniy merosini badiiy talqin qilish, tarixiy haqiqat va sahna ifodasining uyg‘unligini namoyon etuvchi muhim madaniy maydonga aylandi.

Festival doirasida respublikamizning turli hududlaridan tashrif buyurgan 25 ta teatr jamoasi “Amir Temur va temuriylar davri liboslari” ko‘rgazmasida faol ishtirok etdi. Ko‘rgazmada Temuriylar davriga xos liboslar, tarixiy obrazlarning sahnaviy yechimlari hamda milliy bezak san’ati namunalari namoyish etilib, tomoshabinlar va mutaxassislar e’tiboriga havola qilindi. Ushbu ko‘rgazma tarixiy davr ruhini jonlantirish, teatr rassomchiligi va sahna bezagining o‘ziga xos imkoniyatlarini namoyon etishi bilan ham alohida ahamiyat kasb etdi.

Festivalning asosiy dasturida mamlakatimizning yetakchi 7 ta teatri Amir Temur va temuriylar davri bilan bog‘liq tarixiy sahna asarlari bilan ishtirok etdi. Ana shu spektakllar orasida Qashqadaryo viloyati qo‘g‘irchoq teatri tomonidan Karomat Dilmonovning “Temurbekning bolaligi” asari asosida sahnalashtirilgan spektakl alohida e’tiborga sazovor bo‘ldi.

Mazkur spektaklda Sohibqiron Amir Temurning bolalik davri, uning xarakter shakllanishi, jasorat, qat’iyat va ma’naviy kamolot sari tashlagan dastlabki qadamlari badiiy talqin etilgan bo‘lib, asar tomoshabinlarda katta taassurot uyg‘otdi. Sahnalashtiruvchi rejissyor G‘ayrat Hamroyev tarixiy voqealarni qo‘g‘irchoq teatri ifoda vositalari orqali ta’sirchan, mazmunan boy va zamonaviy talqinda ifodalashga muvaffaq bo‘ldi. Spektaklning badiiy yechimida sahnalashtiruvchi rassomlar Rashid Toshboyev hamda Mirzohid Mamatovning ijodiy izlanishlari muhim o‘rin tutdi. Musiqiy bezak bastakor Ferxad Abibullayev tomonidan yaratilgan bo‘lib, u sahna voqealarining dramatik ruhini kuchaytirishga xizmat qildi. Liboslar ustasi G.Abdullayeva tomonidan yaratilgan tarixiy kiyimlar esa obrazlarning davr ruhiga mos va ishonarli ko‘rinishini ta’minladi. Sahna bezagi va texnik yechimlarda dekoratorlar Yulduz Shamsiddinova hamda Dilza Karimovaning, mexanizm ustasi Ilxom Saidalimovning hissasi alohida e’tiborga loyiqdir.

Spektaklda Qashqadaryo viloyati qo‘g‘irchoq teatri ijodkorlari Amir Temur siymosini yosh tomoshabin ongiga yetkazishda katta mas’uliyat va yuksak mahorat namoyon etdilar. Obrazlar qashqadaryolik iqtidorli aktyorlar tomonidan mahorat bilan ijro etildi. Jumladan, Temur obrazi Botir Meylimuradov, Tarag‘ay obrazi Xurshid Hakimov, Tigina obrazi Oygul Xo‘janova, Shams Kulol obrazi Azizjon G‘ulomov, Barlos obrazi Ozodbek Abduxoliqov, Xufiya obrazi Mirzabek Xushvaqtov, Mullo obrazi Xurshid Hakimov hamda Yuqin obrazi Gulchexra Rasulova tomonidan muvaffaqiyatli gavdalantirildi.

Spektaklning o‘ziga xos jihatlaridan biri uning an’anaviy qo‘g‘irchoq teatr usulida emas, balki planshet qo‘g‘irchoqlar, aktyor ijrosi hamda multimediya vositalari uyg‘unligida sahnalashtirilganidadir. Asar lavh ustiga kitob qo‘yilgan holda zamonaviy kiyimdagi yosh ertakchining so‘zlari bilan boshlanadi. Shundan so‘ng sahna ochilib, oq va qora kuchlar yirik butlar shaklida namoyon bo‘ladi hamda ular orasida kichik Temurbek qo‘g‘irchog‘i harakatga keladi. Rejissyor G‘ayrat Hamroyev mazkur uslubdan bejiz foydalanmagan. Ushbu sahnaviy yechim orqali u kichik Temurbekning ichki dunyosi, ruhiy kurashlari va xarakter shakllanish jarayonini ramziy talqin etishga harakat qilgan.

Umuman olganda, rejissyorning sahnalashtirgan har bir spektakli o‘ziga xos shakl va badiiy uslubga ega ekani mazkur asarda ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan qaralganda, “Temurbekning bolaligi” spektakli festival doirasida Amir Temur siymosining badiiy va tarbiyaviy talqinini o‘zida mujassam etgan, milliy tarix va teatr san’atining uyg‘unligini namoyon etuvchi muhim sahna asarlaridan biri sifatida e’tirof etildi.

Mazkur spektakl qo‘g‘irchoq teatri san’atining tarixiy mavzularni sahnaviy ifodalashdagi keng imkoniyatlarini ham yaqqol ko‘rsatib berdi. Unda rejissura, rassomlik, musiqiy bezak, libos va dekoratsiya kabi sahna unsurlarining uyg‘unligi natijasida yaxlit badiiy muhit yaratilgani kuzatildi. Ayniqsa, aktyorlarning obrazlarni ichki ruhiy kechinmalar hamda tarixiy xarakter bilan uyg‘un holda gavdalantirgani spektaklning g‘oyaviy-estetik ta’sirchanligini yanada kuchaytirdi.

Shuningdek, festival tarixiy mavzudagi spektakllar orqali milliy teatr san’atining ijodiy salohiyati, hududiy teatr jamoalarining tajribasi va ularning madaniy-ma’rifiy jarayonlardagi o‘rnini ham namoyon etdi. Bu esa kelgusida Amir Temur va Temuriylar davriga oid sahna asarlarini yaratish, ularni ilmiy-badiiy jihatdan yanada boyitish hamda yosh tomoshabinlar uchun tarixiy-ma’rifiy repertuarni kengaytirish zaruratini ko‘rsatadi.

Demak, “Amir Temur siymosi sahnada” festivali va unda namoyish etilgan “Temurbekning bolaligi” spektakli milliy teatr san’atida tarixiy xotirani tiklash, ajdodlar merosini zamonaviy sahna talqini orqali targ‘ib etish hamda yosh avlodning ma’naviy-estetik tarbiyasini yuksaltirish yo‘lida muhim badiiy va ma’rifiy ahamiyat kasb etgan ijodiy hodisa sifatida baholanishi mumkin. E’tiborlisi, festival yakunlariga ko‘ra Qashqadaryo viloyati qo‘g‘irchoq teatrining “Temurbekning bolaligi” spektakli tarixiy mavzuning sahnaviy talqini va badiiy ifodasi jihatidan yuksak baholanib, “Qo‘g‘irchoq teatrida eng yaxshi tarixiy talqin” nominatsiyasi g‘olibi deb topildi. Mazkur e’tirof teatr jamoasining ijodiy izlanishlari, sahna madaniyati va tarixiy merosni san’at vositasida targ‘ib etish borasidagi samarali faoliyatining munosib natijasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, bunday teatr festivallarining muntazam tashkil etilishi hamda sog‘lom ijodiy raqobat muhitining shakllanishi teatr jamoalarining professional mahorati, ijodiy izlanishlari va milliy teatr san’ati rivojining yanada yuksalishiga xizmat qiladi.

АКТЁРЛИК МАХОРАТИ МАКТАБЛАРИДА ПРОФЕССИОНАЛ АКТЁРЛИК МАКТАБЛАРИ: ҚОҒИРЧОҚ ТЕАТР ТОМОШАЛАРИДА ЗАМОНАВИЙ ЙОНДАШУВ

Abduxoliqova Xolida
ЎзДСМИ, 1-босқич магистранти

Annotatsiya: Ushbu maqolada aktyorlik mahorati maktablarida professional aktyorlik maktablari: qo‘g‘irchoq teatr tomoshalariga zamonaviy yondashuv to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zi: Teatr, qo‘g‘irchoq sahna, san’at, tarix, ijrochi, an’anaviy, tomosha.

Аннотация: В данной статье рассматриваются современные подходы к профессиональному актерскому образованию в школах актерского мастерства, а также вопросы совершенствования сценического воплощения спектаклей театра кукол. Анализируются особенности подготовки актера-кукольника, творческие методы работы и актуальные тенденции развития современного кукольного театра.

Ключевые слова: театр, кукольная сцена, искусство, история, исполнитель, традиции, представление.

Abstract: This article discusses modern approaches to professional actor training in acting schools and examines contemporary methods of staging puppet theatre performances. Particular attention is paid to the training of puppet theatre actors, creative working methods, and current trends in the development of modern puppet theatre.

Keywords: theatre, puppet stage, art, history, performer, traditions, performance.

Teatr san’ati ma’naviyatning eng yorqin, ta’sirchan ko‘rinishlaridan biridir. Zero, u tomoshabinlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Sahna bilan tomoshabinlar o‘rtasida samimiy bog‘lanish, muloqot hosil bo‘lib, ham sahna ijodkorlarini, ham tomoshabinlarni ma’nan boyitadi, ruhini sozlaydi, ko‘nglini ko‘taradi. Darhaqiqat, teatr ma’lum millatning o‘zligini, orzu - intilishlarini, tarixini, kelajagini, urf- odatlarini, qadriyatlarini badiiy obrazlar orqali ifoda etuvchi beqiyos san’atdir. Qolaversa, milliy mafkura, milliy g‘urur, vatanparvarlik, e’tiqod, millatlararo do‘stlik va totuvlik, insoniylik, mehr-sahovat, odob-axloq masalalarini yoritishda teatr boshqa barcha san’at turlardan ta’sirliroq, kuchliroq va jozibaliroq imkoniyatga ega. Shunday ekan, har qaysi xalq teatrni milliy kolorit asosida shakllantirishga intiladi. Shu orqali, xalqning qalbi va ongiga ta’sir o‘tkazishni istaydi. Teatr tarixiy an’analar va yuksak insoniy fazilatlar bilan bevosita bog‘langan. Mana shu o‘yinlardan professional qo‘g‘irchoq teatriga qadar bosib o‘tilgan yo‘l milliy ruhiyatimizning rangin va zarrin qiyofalari bilan bezatilgan. Aynan qo‘g‘irchoq teatrlarida xalqona xususiyatlardan va milliy nuqtai nazardagi

yondashuvlardan keng foydalanish, doim teatrning qadrini va qimmatini oshirishga xizmat qilgan. Shu asosda, qo‘g‘irchoq teatrlarida mana shu badiiylikni tomoshabinga yetkazuvchi aktyorlar jamoasining faoliyatini tavsiflash,munosabat bildirish, tahlil qilish keyingi avlod teatrlari va teatr ijodkorlari uchun o‘zining samarali ta’sirini ko‘rsatadi.

Qo‘g‘irchoq teatri bizning mamlakatimizda katta shuhrat qozongan. Teatr sa’atining bu janr ildizlari qadimda folklorga, an’anaviy xalq teatri san’ati oqimlariga borib taqalgan. Umuman olganda, ibrat bo‘la olish, namuna ko‘rsatish yo‘li bilan kattalar va bolalarning ruhiyatiga ta’sir o’tkazishda san’atning ahamiyati muhim ekanligini eramizdan avvalgi IV-V asrlardayoq ajdodlarimiz anglab yetgan ko‘rinadi. Qo‘g‘irchoqlar orqali nafaqat bolalarga, balki kattalarga ham ta’sir o‘tkazib kelinganligi Gerodot, Mark Avreliy, Aristotel kabi qadimgi tarixchi va allomalarning asarlarida keltirilgan. Dunyoning barcha qit’alarida qo‘g‘irchoq teatrining o‘ziga xos an’analari mavjud bo‘lib, ular bir necha asrlik tarixga ega. Ulardan, marionetka (iplar yordamida boshqariladigan qo‘g‘irchoq), petrushka (qo‘lqop sifatida qo‘lga kiyiladigan qo‘g‘irchoq), mexanik tarzda boshqariladigan qo‘g‘irchoqlar, planshetli (ochiq tarzda o’ynatiladigan), soyasi tushiriladigan qo’g’irchoqlar dunyoning barcha rivojlangan qo‘g‘irchoq teatrlarida qo‘llanila boshlangan.

“Qo’g’irchoq teatri tarixi” qo’llanmasida keltirilishicha: “O’zbek qo’g’irchoq teatrinining vujudga kelishini olib qaraganimizda, bunda ikki manba muhim va hal qiluvchi rol bajarganini ko’ramiz. Birinchi manba O’zbekiston hududida yashagan qadimgi, animistik e’tiqodga tayanuvchi xalqlarning marhumni eslash marosimidir, deb hisoblanadi. Mazkur marosimga ko’ra, o’lgan kishining eng yaqin odami uning niqobini yasab kiyadi va marhum harakatlari, nutqi, muomalalarini tiklashga urinadi. Niqob ba’zan boshga kiyilmasdan, qo’lda ushlanganicha harakatlantirilgan. Bunday paytda “ijrochi” ham marhum, ham o’z “rolini” bajargan va o’ziga xos dialog hosil qilgan. Ushbu marosim o’zbek qo’g’irchoq teatrining paydo bo’lishi uchun zamin tayyorlagan.” Aynan, jonsiz tanani jonlantirishga urinish asosida keyinchalik, jonsiz qo’g’irchoqqa jon ato etilganini (harakatlantirish, so’zlatish) payqash qiyin emas. Ya’ni, mana shu diniy qadriyat orqali obraz tushunchasi vujudga kelgan.

Uzoq tarixga va boy qadimiy qiyofalarga ega an’anaviy qo’g’irchoq teatri o’zining maftunkorligi va yorqinligi bilan ajralib turadi. M.Qodirov aytgandek, “Osiyo qo’g’irchoq teatri bu shunchaki ermak, o’yin emas, balki bir qit’a xalqlarining falsafasi, dini, adabiyoti, eposi, musiqasi, folklori, tasviriy san’ati va albatta tillari bilan chambarchas bog’liq bo’lgan muhim tarixiy badiiy hodisadir” Aynan mana shu uzoq tarixga ega san’at turi va uning dastlabki qiyofalari bevosita an’anaviy qo’g’irchoq teatri san’ati hisoblanadi. [1].

An’anaviy teatr xalq orasida juda mashhur bo’lib, asosi og’zaki dramaturgiya hisoblangan. Zero, draamaturgiya teatr bilan birga tug’iladi va birga yashaydi. An’anaviy teatr bugungi zamonaviy teatrdan ayrim jihatlari bilan farq qilgan. Masalan, zamonaviy teatrda asos dramaturgdan boshlanib, asosiy mas’uliyat rejissor zimmasiga tushadi. Aktyorlar butun ijodiy guruhning

mehnatini yuzaga chiqaruvchi jamoa a’zosi. An’anaviy teatrda esa asosiy mas’uliyat aktyor zimmasida bo’lgan. Shu sababdan aktyorlarga qo’yilgan talab va ularning imkoniyatlari ham yuqori darajada bo’lgan.

An’anaviy teatr – ijrochilik san’ati. Bu yerda hal etuvchi – ijrochi aktyor, uning e’tiqodi, qobiliyati, malakasi, mahoratidir. Zotan, xalq aktyori tomoshabinlar davrasidan hosil bo’lgan o’ziga xos “sahna”da, maxsus ayvonlarda, ko’shklarda tomosha ko’rsatgan. Rasmana dekoratsiya yo’q, voqea o’rni va payti esa shartli. Bunday sharoitda aktyor faqat o’ziga, o’z san’atiga ishonib ish ko’radi. U mustahkam an’anaviy fabula, voqealar, obrazlar silsilasi, barqaror savol-javoblarga tayangan holda so’z va harakatlar to’qiydi, ya’ni badihagoylik (improvizatsiya) qiladi. [2].

Aynan mana shu xususiyatlarni qamrab olgan an’anaviy qo’g’irchoq teatri uzoq yillar davomida xalqimiz madaniy hayotining ajralmas qismi sifatida baholangan. Ana shu vaqtlarda, O‘rta Osiyoda an’anaviy qo‘g‘irchoq teatrining eng ko’p tarqalgan ikki turi mavjud bo’lgan, bular “Chodir jamol” va “Chodir xayol”dir.

Bu yerdagi “jamol” so’zi bir tomonlama tomoshaning yorug’likda, kunduzi ko’rsatilishiga, ikkinchidan, tomoshada kundalik hayotdan olingan real, tanish voqealar tasvirlanishiga ishora qiladi. “Chodir” so’zi esa ham sahna, ham teatr ma’nosini beradi. Demak, “Chodir jamol” – bu kishilarning kundalik hayotidan olingan voqealarni qo’lga kiyib o’ynatiladigan qo’g’irchoqlar yordamida kunduzi aks ettiruvchi o’ziga xos teatrdir.

“Chodir xayol” teatridagi qo’g’irchoqlar esa qo’lqopli qo’g’irchoqlardan farq qiladi. Ular tuzilishi, shakli va yasalishi, ijro va mavzu xususiyatlari nuqtai nazaridan birmuncha murakkabdir. Bunda aktyor maxsus o’rnatilgan chodir va pardalar ortidan turib ipli qo’g’irchoqlarni o’ynatadilar. Bu bir qarashda tomoshabindan berkinib rol ijro etishga o’xshaydi.

Bu teatr tomoshalari odatda kechalari ko’rsatilgani, oddiy nur-shu’la va shovqindan foydalanilgani tufayli qora pardalar ichidagi qo’g’irchoqlarning o’zi harakat qilayotganday tabiiy va ajib manzara hosil bo’lgan. Har mashhur qo’g’irchoqboz bir vaqtning o’zida iplar yordamida 8-10 qo’g’irchoqni harakatga keltira olgan. “Chodir jamol” teatrining bir tomoshasida ko’pi bilan o’n qo’g’irchoq ishtirok etgan bo’lsa, “Chodir xayol”da bir tomoshada 50 dan ortiq qo’g’irchoq o’ynagan.

Bugungi kunda ham bu yo’nalishlar mohiyatan saqlanib qolgan bo’lib, uning vositasida turli rang-barang tomoshalar dunyoga kelmoqda. An’anaviy qo’g’irchoq teatr haqida gap ketganda, dastavval kuchli mahorat egalari hisoblangan aktyorlar jamoasi ko’z oldimizda gavdalanadi. Bugungi kun aktyorlaridan farqli ravishda ularning an’anaviy teatrdagi roli behad yuqori bo’lgan. Olim ta’biri bilan aytganda, aktyor – an’anaviy teatr shohi, spektakllarni harakatlantiruvchi yetakchi kuch. Umuman olganda, an’anaviy teatr aktyori mahoratini baholash avvalida an’anaviy qog’irchoq teatriga xos asosiy xususiyatlarga e’tibor qaratish lozim:

– tomoshalarning og’zaki dramaturgiyaga asoslanganligi;

– tomoshaning asosan xalq orasida, ochiq maydonlarda qo'yilishi;
– tomoshani tashkil etish asosan ikki ijodkor – aktyor va korfarmonga
bog'liqligi;
– tomoshada aktyorlarning faoliyati kuchli hajv va favqulodda badihago'ylikka
asoslanganligi;
– aktyorlarning serqirraligi;
– tomoshalarning asosan kattalar uchun mo'ljallanganligi;
– tomoshalar umumiy sintez xususiyatlarini qamrab olganligi;
– tomoshada asosan ijtimoiy mavzularning tanlanishi;
– tanlangan ijtimoiy mavzularning masxara va mubolag'a yo'li bilan ko'rsatilganligi va hokazo.

An'anaviy teatr haqida gap ketganda, biz umuman eng ko'p tarqalgan masxarabozlik, qiziqchilik hamda qo'g'irchoqbozlikni tushunamiz va ularni ayro tasavvur etib bo'lmaydi. Bu bir qarashda alohida yo'nalishdagi tomosha san'ati turlari hisoblansa-da, yahlit an'anaviy teatr uchun xizmat qiladi. Shu sababdan, ulardagi badiiy asos va badiiy mohiyat uyg'un, aktyorlar bir vaqtning o'zida qo'g'irchoq ham o'ynatolgan, qiziqchilikdan ham boxabar bo'lishgan. Shunday ekan, an'anaviy teatrga xos ayrim xususiyatlar barcha turdagi tomosha san'atiga taaluqlidir. Lekin ular bir-biriga yaqin bo'lgan alohida-alohida teatr san'ati turidir.

Og'zaki dramaturgiya – an'anaviy teatr asosi. Aktyorlar jamoasi uchun ham og'zaki dramaturgiya asosida tomosha ko'rsatish qulay edi. Aslini olganda, xalq orasida mashhur bo'lgan, xalq to'qigan voqealar va shu davrda sodir bo'layotgan hodisalar tomoshalarning asosiy sujetini tashkil qilgan. Demak, o'g'zaki dramaturgiya bu tasodifiy holat emas. Bu asarlarning ham asosi bo'lgan va aktyorlar tomoshaning asosiy mazmunini buzmagan holda improvizatsiya orqali rol ijro etganlar. Tomoshabinlarkatta zavq bilan tomoshalarni kuzatgan. Ular uchun aktyorlar ijrosi va jonli badihalar qiziqarli tuyulgan.

Aytilganidek, tomoshalar asosan xalq orasida, ochiq maydonlarda qo'yilgan, sababi tomoshabin uchun joy, dekoratsiya muhim emas edi. Qaysidir ma'noda, bunga imkon ham bo'lmagan. Shu sababdan, ko'p jihatdan an'anaviy teatrda shartlilik muhim rol o'ynagan. Demak, an'anaviy teatrda hozirgi tushunchadagi sahna, tomoshabin, bilan teatrni keskin ikkiga bo'lib turadigan ayirma bo'lmagan. Xalq aktyorlarining tort tomondan qur solib turgan tomoshabinlar davrasida o'ynashi an'anaviy teatr spetsifikasini elgilagan, shartlilik ham ko'p jihatdan shunga bog'liq. [3].

An'anaviy teatrda asosiy kuch aktyor ekanligi ma'lum bo'ldi. O'z-o'zidan tomoshabin uchun qaysi aktyorning rol o'ynashi, uning ovozi, mimikasi, ko'rinishi, his-tuyg'ulari, harakatlari muhim ahamiyat kasb etgan. Xalq vakillari ham aktyorlarning mahoratiga qarab baho bera olgan va maromiga yetgan ijrodan mislsiz zavq olishgan. Keyingi navbatda, tomoshaning asosida

korfarmonlarning ham o’rni bo’lgan. Favqulodda korfarmonlarning o’zlari ham yuksak mahoratga ega bo’lgan, iste’dodli aktyorlar hisoblangan. Boisi, uzoq yillar davomida to’plangan ijodiy tajriba orqaligina rejissorlik qilish mumkin edi.

Korfarmon ko’rsatmalari asosan aktyorga mavzuni tanlashda va mahoratini charxlab borishda asqotgan. Baribir tomoshadagi asosiy mas’uliyat aktyor zimmasida qolavergan. Shu sababdan aktyorlardan ilk navbatda kuchli hajv ustasi va badihago’ylik talab etilgan. Tomoshaviylik – aynan an’anaviy teatrning bosh mezoni. Shu sababdan, tomoshalarni hajv va kulgusiz tasavvur etib bo’lmasdi. Hajv asosan, atrofdagi qaysidir voqea yoki shaxsga nisbatan kulgu, masxara, tanqid shaklida bo’lgan. Badihago’ylik esa, vaziyatdan kuchli did, so’z va dadillik orqali olib chiqib keta olish mahoratidir. Badihago’ylik mohiyatan vaziyatdan faqat so’zamollik bilan chiqib keta olish imkoniyati bilan o’lchanmagan. Aktyorlar badihago’ylik uchun ham alohida tayyorgarlik ko’rishgan. O’z dunyoqarashlari va so’z boyligini muntazam shakllantirib borishgan. Demak, o’z o’rnida aktyorlardan o’ziga xos darajada serqirralik talab etilgan. Tomoshaning asosida mahoratning asosiy rol o’ynashi bevosita aktyordan nutq va ovoz imkoniyatlarini yuqori bo’lishini, zehn va ziyraklik, tezkorlik va aniqlik, sezgirlik va mulohazakorlik jihatlarini yuksak darajada shakllangan bo’lishini taqazo etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov M. S.Qodirova. Qo‘g‘irchoq teatri tarixi. – T.: Talqin, 2016.
2. Ashurova M. Qo‘g‘irchoq teatr san’atining aktyorlik maktabi. – T.: Kuro Print 2017.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.

МИЛЛИЙ ҚЎШИҚ ИЖРОЧИЛИГИДА ВОКАЛ САНЪАТИ МАҲОРАТИ (ҚОРАҚАЛПОҚ ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИ МИСОЛИДА)

Айбек Жамалов Махсудович
ЎзДСМИ Нукус филиали ўқитувчиси
Абдухоликова Холида
ЎзДСМИ, 1-босқич магистранти

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada oliy san’at va madaniyat ta’limi muassasalarida milliy qo‘shiq ijorchiligi, xususan, qoraqalpoq xalq qo‘shiqlari misolida vokal san’ati mahoratini shakllantirish va rivojlantirish muammolari tadqiq etilgan. Maqolada vokal pedagogikasi va musiqashunoslik sohasidagi xalqaro hamda mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Milliy qo‘shiq, vokal san’ati, qoraqalpoq xalq musiqasi, vokal mahorati, nafas texnikasi, rezonator, diksiya, “Bozataw”, an’anaviy ijrochilik, xalq ijodiyoti.

Har bir xalqning milliy o‘zligini anglashida, uning ko‘p asrlik tarixi, turmush tarzi, daryo va sahro bag‘ridagi hayoti, orzu-armonlari va falsafiy

dunyoqarashini o‘zida mujassam etgan eng qudratli vosita — bu uning an’anaviy qo‘shiqchilik san’atidir. Qoraqalpoq xalq musiqiy merosi o‘zining janriy rang-barangligi, epik xarakteri va nihoyatda o‘ziga xos ijro uslubi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, qoraqalpoq milliy qo‘shiq ijrochiligida vokal san’ati mahorati talabalardan ham umumjahon vokal qonuniyatlarini mukammal egallashni, ham qoraqalpoq milliy musiqasining o‘ziga xos vokal-texnik elementlarini masalan, tomoq ovozi, ochiq vokal, milliy qochirimlar va nolalar nozik his qilishni talab etadi.

Bugungi kunda oliy san’at ta’limi muassasalarida bo‘lajak milliy qo‘shiq ijrochilarini tayyorlashda vokal mahoratini oshirish, ularning ovoz apparati imkoniyatlarini to‘g‘ri shakllantirish hamda qoraqalpoq xalq qo‘shiqlarining xarakterli xususiyatlarini saqlab qolgan holda zamonaviy metodika bilan boyitish dolzarb pedagogik va amaliy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Mazkur maqolada qoraqalpoq milliy qo‘shiqlari ijrochiligida vokal mahoratini yuksaltirishning uslubiy asoslari va ovoz ustida ishlash qoidalari tahlil etiladi.

Milliy qo‘shiqchilik san’atining vokal asoslari, ovoz shakllanishi va qoraqalpoq xalq musiqasining ijro uslublari bir qator musiqashunos olimlar va yetakchi vokalchi pedagoglar tomonidan tadqiq etilgan. Vokal san’atining umumiy pedagogik prinsiplari va ovoz apparatining biologik imkoniyatlari haqida yozgan taniqli vokalchi olim L. B. Dmitriyev shunday deydi: “Professional vokal o‘qitishning asosi — bu to‘g‘ri nafas olish, rezonatorlarni erkin tutish va matn talaffuzining intonatsion sofligiga erishishdir” [1-62b].

Musiqashunos olimlardan T. I. Adambayeva tomonidan chuqur o‘rganilgan. Muallif o‘zining fundamental tadqiqotida qoraqalpoq xalq qo‘shiqlarining vokal tabiatiga to‘xtalib, quyidagilarni qayd etadi: “Qoraqalpoq milliy qo‘shiqlarining vokal tabiati tabiiylik va ochiq sado berishga (otkritiy zvuk) asoslangan bo‘lib, u keng sahro muhitida shakllangan kuchli va jarangdor vokal apparatini, o‘ziga xos mikro-interval doriqlarni talab qiladi”[2-104b].

An’anaviy xalq qo‘shiqchiligida o‘qitish metodikasi va ustoz-shogird an’analarining pedagogik jihatlari bo‘yicha mahalliy olim O. Ibragimov ham izlanishlar olib borgan. Uning fikricha: “Xalq qo‘shiqchiligida talaba nafaqat kuyni mexanik ijro etishi, balki o‘sha xalqning til xususiyatlari va sheva talaffuzini ichki intonatsiyaga ko‘chira olishi, ya’ni vokal nutqini mukammal egallashi shart”[3-45b].

Biroq, zamonaviy oliy musiqa ta’limida qoraqalpoq milliy qo‘shiqlarini o‘rgatishda klassik vokal maktabi evropa metodikasi yutuqlari va milliy an’anaviy ijro texnikasini qanday qilib bir-biriga zarar yetkazmasdan integratsiya qilish metodikasi yetarlicha tizimlashtirilmagan.

Ushbu maqolada qiyosiy-pedagogik tahlil, musiqiy-ijrochilik ekspertizasi va ustoz-shogird an’analariga asoslangan tajriba-pedagogik kuzatuv metodlaridan foydalanildi. O‘zDSMI Nukus filiali “Xalq ijodiyoti” kafedrasida olib borilayotgan amaliy mashg‘ulotlar tahlili asosida, milliy qo‘shiq ijrochiligida vokal mahoratini oshirishning uch komponentli uslubiy tizimi ishlab chiqildi:

Vokal-texnik komponent Ovoz apparati ustida ishlash: Qoraqalpoq xalq qoʻshiqlarining diapazoni keng va dinamikasi kontrastlarga boy boʻlganligi sababli masalan, lirik qoʻshiqlar va dostonlar tarkibidagi qoʻshiqlar, talabalarda diafragma bilan ishlash va "tayanch nafas" opora na dixanii koʻnikmasini shakllantirish.

Fonetik-intonatsion komponent Diksiya va artikulyatsiya: Qoraqalpoq tilining oʻziga xos oʻzgaruvchan tovushlari, yumshoq va qattiq unli harflarning vokalda toʻgʻri sado berishi ustida ishlash. Bu jarayonda vokal diksiyasi soʻzlarni ohangga yopishtirgan holda aniq aytish birinchi oʻringa chiqadi.

Badiiy-psixologik komponent Obrazga kirish: Qoʻshiq matnining falsafiy va emotsional mazmunini tushunish, milliy bezaklar nolalar, qochirimlar va xalqona "shurqillatish" usullari yordamida asarning milliy boʻyogʻini ochib berish.

Qoraqalpoq xalq qoʻshiqlari oʻzining tabiati va ijro uslubiga koʻra bir necha guruhga boʻlinadi: xalq qoʻshiqlari koʻproq lirik, maishiy va marosim qoʻshiqlari hamda baqshi-jirovlar ijrosidagi epik asarlar. Oliy ta’limda "Xalq ijodiyoti" yoʻnalishi talabalariga asosan milliy va lirik qoʻshiqlar dars beriladi.

Qoraqalpoq xalq qoʻshiqlari masalan, “Bozataw”, “Eshbay”, “Aydınlar”, va boshqalar ijrosida vokal mahoratining eng nozik qirralari namoyon boʻladi.

Birinchidan, "Bozataw" qoʻshigʻi misolida vokal dinamikasi: Ushbu qoʻshiq qoraqalpoq xalqining tarixiy fojialari va oʻz yeriga boʻlgan cheksiz muhabbatini ifodalaydi. Uni ijro etishda talaba fojiaviy dramatik nutq (vokal deklamatsiyasi) va yuqori registrlarda mayin piyanoga oʻtish falset va gibrid ovoz mahoratini koʻrsatishi kerak. Agar talaba faqat kuchli ovoz forte bilan kuylasa, asarning dramatik lirikasi yoʻqoladi.

Ikkinchidan, milliy qochirimlar melizmlar muammosi: Gʻarb vokalida trel va morodentlar aniq matematik oʻlchamda boʻlsa, qoraqalpoq an’anaviy qoʻshiqlarida ular mikronolalar shaklida boʻladi. Ustoz shogirdiga buni "eshitish intuitsiyasi" orqali oʻrgatadi. Tovushlarni boʻgʻizda erkin siljitish orqali qoraqalpoqona vokal koloritiga erishiladi.

Uchinchidan, talaffuz va rezonans uygʻunligi: Qoraqalpoq qoʻshiqlarida ochiq sado beruvchi koʻkrak rezonatorlaridan keng foydalaniladi. Shu sababli, dars jarayonida talabalarning jagʻ va til muskullarini qisilib qolishdan (zajim) xalos qilish pedagogning eng bosh vazifasidir.

Pedagogik tajribamiz shuni koʻrsatadiki, an’anaviy talqin darslarida avval qoʻshiq soʻzlarini ritmik deklamatsiya she’r qilib oʻqish shaklida aytish, soʻngra uni sekin templi instrumental joʻrlikda vokalizatsiya qilish soʻzsiz kuylash ovoz sofligini ta’minlashda eng yuqori samara beradi.

Milliy qoʻshiq ijorligida vokal san’ati mahorati — bu cheksiz mashq, chuqur musiqiy intuitsiya va milliy madaniyat poydevorini anglash natijasida shakllanadigan murakkab jarayondir. Qoraqalpoq milliy qoʻshiqlari boʻlajak mutaxassislardan faqat tabiiy iste’dodni emas, balki ovoz apparatini ilmiy va uslubiy jihatdan toʻgʻri boshqarishni talab qiladi.

O‘zDSMI Nukus filiali “Xalq ijodiyoti” kafedrasida olib borilayotgan pedagogik faoliyat va uslubiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, klassik vokal maktabining nafas va rezonans qoidalari hamda qoraqalpoq an’anaviy ijrochiligining milliy-estetik elementlarini muvaffaqiyatli sintez qilish orqali talabalarning professional mahoratini jahon andozalari darajasiga ko‘tarish mumkin. Bu esa milliy merosimizni yosh avlodga sof va jozibador shaklda yetkazishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Dmitriyev, L. B. (2007). Osnovi vokalnoy pedagogiki. Moskva: Muzika. – 368 s.
2. Adambayeva, T. I. (1985). Karakalpakskaya narodnaya muzika. Nukus: Karakalpakstan. – 172 s.
3. Ibragimov, O. (2014). An’anaviy qo‘shiqchilik va baqshichilik san’ati metodologiyasi. Toshkent: Yangi avlod. – 150 b.

ҚОҒИРЧОҚ ТЕАТРИДА ДЕКОРАЦИЯНИ СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ОРҚАЛИ ЯРАТИШ

Қурбанова Умида
ЎзДСМИ, 1-босқич магистранти

Annotatsiya: Ushbu maqolada qo‘g‘irchoq teatrida sahna bezaklari va vizual makonni yaratish jarayoniga sun’iy intellekt texnologiyalarining kirib kelishi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda dekoratsiya ishlab chiqishda generativ neyrotarmoqlar, 3D modeli yaratish tizimlari va kompyuter grafikasi algoritmlarining afzalliklari, ularning an’anaviy sahna dizayni bilan integratsiyalash imkoniyatlari o‘rganiladi. Jahon tajribasi sifatida AQSH, Janubiy Koreya va Yevropa qo‘g‘irchoq teatrlarida raqamli dizaynni qo‘llash natijalari tahlil qilinadi. Maqolada sun’iy intellekt asosidagi dekoratsiya yaratishning samaradorlik, ijodiy imkoniyatlar, vaqt tejalishi va iqtisodiy qulaylik kabi omillari ilmiy yondashuv asosida umumlashtiriladi. Tadqiqot natijalari qo‘g‘irchoq teatrida raqamli transformatsiyaning estetik va pedagogik ta’sirini yoritib, zamonaviy teatr san’atini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Qo‘g‘irchoq teatri, dekoratsiya, sahna san’ati, sun’iy intellekt, generativ texnologiyalar, AI dizayn, 3D modellashtirish.

АННОТАЦИЯ: В данной статье научно анализируется внедрение технологий искусственного интеллекта в процесс создания сценографии и визуального пространства кукольного театра. Исследование рассматривает преимущества генеративных нейросетей, систем трёхмерного моделирования и алгоритмов компьютерной графики при разработке декораций, а также возможности их интеграции с традиционным сценографическим подходом. В качестве международного опыта анализируются примеры использования цифрового дизайна в кукольных театрах США, Южной Кореи и Европы. В статье обобщены

эффективность, творческий потенциал, экономичность и временные преимущества создания декораций на основе искусственного интеллекта. Результаты исследования раскрывают эстетическое и педагогическое значение цифровой трансформации в кукольном театре и её вклад в развитие современного театрального искусства.

Ключевые слова: Кукольный театр, Декорация, Сценическое искусство, Искусственный интеллект, Генеративные технологии, AI-дизайн 3D моделирование.

Annotation: This article provides a scientific analysis of the integration of artificial intelligence technologies into the design of scenery and visual space in puppet theatre. The study examines the advantages of generative neural networks, 3D modeling systems, and computer graphics algorithms in creating stage decorations, as well as their potential integration with traditional scenography. International practices, including examples from the United States, South Korea, and Europe, are analyzed to demonstrate the effectiveness of digital design in contemporary puppet theatre. The article summarizes the efficiency, creative potential, cost-effectiveness, and time-saving benefits of AI-based scenography. The research highlights the aesthetic and pedagogical impact of digital transformation in puppet theatre and its contribution to the development of modern theatrical arts.

Keywords: Decoration, Performing arts, Artificial Intelligence (AI) Generative technologies, AI design, 3D modeling.

Qo‘g‘irchoq teatri sahna san’atining o‘ziga xos yo‘nalishi bo‘lib, unda dekoratsiya dramaturgik mazmunni ochishda, obrazlar xarakterini yoritishda va sahna makonini tashkil etishda markaziy o‘rin egallaydi. An’anaviy sahna dizayni rassomlar tomonidan eskizlar va maketlar asosida qo‘lda yaratilgan. Lekin XXI asrda tezkor tasvir generatsiyasi, kompozitsion yechimlarni algoritmik bashorat qilish, vizual modellashtirish kabi jarayonlarni osonlashtiruvchi sun’iy intellekt texnologiyalari sahna san’atiga ham kirib keldi.

Bugungi kunda Midjourney, DALL·E, Stable Diffusion kabi generativ AI vositalari dekoratsiya eskizlarini bir necha daqiqada yaratishga imkon bermoqda. Bu esa qo‘g‘irchoq teatrida badiiy yondashuvni kengaytiradi, ijodkorlar uchun yangi kompozitsion imkoniyatlar yaratadi va ishlab chiqarish jarayonini optimallashtiradi. Mazkur maqola ushbu jarayonning ilmiy-nazariy asoslarini, chet el tajribasini va O‘zbekiston sharoitidagi amaliy istiqbollarini tahlil etishga bag‘ishlanadi.

Qo‘g‘irchoq teatri — sahna san’atining o‘ziga xos yo‘nalishi bo‘lib, unda dramaturgik mazmun va badiiy ifoda qo‘g‘irchoqlar orqali amalga oshiriladi. Sahna dekoratsiyasi spektakl mazmunini ochish, obraz xarakterini yoritish va sahna makonini tashkil etishda markaziy ahamiyatga ega. An’anaviy tarzda dekoratsiya rassomlar tomonidan qo‘lda yaratilgan bo‘lib, bu jarayon ko‘p vaqt talab qiladi va inson ijodiy imkoniyatlari bilan cheklangan.

Zamonaviy texnologiyalar, xususan sun’iy intellekt (AI), sahna dizayni jarayonini tubdan o‘zgartirmoqda. AI yordamida eskizlarni tezkor yaratish, kompozitsion yechimlarni tahlil qilish, yorug‘lik va rang uyg‘unligini modellashtirish, shuningdek 3D modellar tayyorlash mumkin. Shu bilan birga, AI ijodiy jarayonni qo‘llab-quvvatlab, yangi badiiy shakllarni sintez qilish imkonini beradi.

1. QO‘G‘IRCHOQ TEATRIDA DEKORATSIYANING ILMIY-ASOSIY FUNKSIYALARI

Sahna dekoratsiyasi qo‘g‘irchoq teatrida quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

1.1. Makon yaratish funksiyasi

Dekoratsiya sahna makonini vizual belgilaydi, chuqurlik, balandlik, yorug‘lik, rang muvozanati orqali tomoshabin idrokini boshqaradi.

1.2. Badiiy-kompozitsion funksiyasi

Dekoratsiya spektakl mazmuni va obrazlar xarakteriga mos bo‘lishi, dramaturgiya rivojiga xizmat qilishi zarur.

1.3. Texnik funksiyasi

1. Qo‘g‘irchoq mexanizmlari (stanka, ip, qo‘lqopli qo‘g‘irchoq tizimi) dekoratsiya bilan uyg‘unlashishi kerak. AI ushbu moslikni oldindan modellashtirib berishi bilan foydali.

2. SUN’IY INTELEKTNING DEKORATSIYA YARATISHDAGI IMKONIYATLARI

Sun’iy intellekt qo‘g‘irchoq teatri dekoratsiyasini yaratish jarayonida quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

2.1. Tezkor eskiz generatsiyasi

AI badiiy uslub, rang gamma, makon tuzilishi bo‘yicha 10–100 ta variantni qisqa fursatda yaratadi.

2.2. Stilistik uyg‘unlikni bashorat qilish

AI algoritmlari kompozitsiya, simmetriya, yorug‘lik va rang uyg‘unligini tahlil qilib, optimal variantlarni taklif qiladi.

2.3. 3D modellashtirish

AI yordamida yaratilgan 3D modellar printerga eksport qilinishi, maket sifatida foydalanilishi mumkin.

2.4. Atmosfera va yorug‘lik simulyatsiyasi

AI yoritish ssenariylarini avtomatik tanlab, sahna kayfiyatini bashorat qiladi.

2.5. Iqtisodiy samaradorlik

AI eskizlar sonini ko‘paytirgan holda xarajatni kamaytiradi. Ko‘plab teatrlar AI yordamida 20–25% iqtisodga erishgan.

3. JAHON TAJRIBASI: SUN’IY INTELEKTNING TEATR SAN’ATIDAGI QO‘LLANILISHI

3.1. Yaponiya tajribasi

Tokiodagi qo‘g‘irchoq teatrlari AI yordamida interaktiv fonlar yaratmoqda. Qo‘g‘irchoq harakatiga qarab fon avtomatik ravishda o‘zgaradi.

3.2. AQSH tajribasi

Broadway laboratoriyalarida AI asosida “Concept Art” yaratiladi. Keyin bu tasvirlar real dekoratsiya ishlab chiqarishga tatbiq qilinadi.

3.3. Yevropa teatr maktablari

Germaniya va Fransiya teatr muassasalarida AI dizayn bo‘yicha maxsus kurslar joriy qilingan. AI integratsiyasi o‘quv jarayonining asosiy bo‘lagiga aylangan.

3.4. Rossiya tajribasi

Obraztsov nomidagi qo‘g‘irchoq teatrida AI eskizlari asosida yaratilgan dekoratsiyalar tajriba tariqasida sahnalashtirilgan.

4. O‘ZBEKISTON QO‘G‘IRCHOQ TEATRIDA AI TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

4.1. Milliy estetika asosida yangi dekoratsiyalar

AI O‘zbekiston miniatyura maktabi, milliy ornamentlar, xalq ertaklari motivlarini qayta interpretatsiya qilib, yangi vizual shakllar yaratishi mumkin.

4.2. Yosh rassomlar uchun imkoniyatlar

AI yosh sahna dizaynerlarining ijodini tezlashtiradi va ularga global estetik uslublarni o‘rganish imkonini beradi.

4.3. Teatr texnik jarayonini modernizatsiyalash

3D printerlar, raqamli yoritish tizimlari va AI integratsiyasi orqali dekoratsiya yaratish jarayoni ancha samarali bo‘ladi.

Sun’iy intellekt qo‘g‘irchoq teatri dekoratsiya yaratish jarayonida katta imkoniyatlar ochadi. Teatr estetikasi, texnik yengillik, ishlab chiqarish tezligi va yaratish jarayonining innovatsionligini ta’minlab, butun jahon sahna san’atida yangi bosqichga asos yaratmoqda. O‘zbekistonda ham ushbu texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali milliy qo‘g‘irchoq teatri zamonaviy global jarayonlarga moslashishi, ijodiy salohiyatini yanada kengaytirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

O‘zbek manbalari:

1. Qodirov S. O‘zbekiston qo‘g‘irchoq teatri tarixi. Toshkent, 2020.
2. Raximova M. Raqamli teatr texnologiyalari. Toshkent, 2023.

Rus manbalari:

3. Антонова Е. Искусственный интеллект в сценографии. СПб, 2022.
4. Образцовский театр. Цифровой отчёт по инновационным технологиям, 2023.

Ingliz manbalari:

5. Smith J. AI and Stage Design. London, 2021.
6. Brown T. Digital Scenography and Theatre Technology. New York, 2022.
7. William A. Artificial Intelligence in Performing Arts. Oxford, 2020.

САХНА РИТМИ ВА ТЕМПИНИНГ ТОМОШАБИН ПСИХОЛОГИЯСИГА ТАСЪИРИ

Айтмуратова Сарбиназ Тилеумуратовна
ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы студенти
Илмий раҳбари, ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы
оқытыўшысы ***Қазақбаева Рамуза,***

Annotatsiya - Mazkur maqolada sahna ritmi va tempining teatr san’atidagi estetik hamda psixologik ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Temp va ritmning aktyor ijrosi, rejissyorlik yechimi hamda spektakl dramaturgiyasidagi o‘rni yoritiladi. Tadqiqot natijasida sahna ritmi tomoshabin diqqatini boshqaruvchi, emotsional ta’sirni kuchaytiruvchi va spektaklning badiiy yaxlitligini ta’minlovchi muhim vosita ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar - sahna ritmi, temp, temp-ritm, teatr san’ati, aktyor mahorati, rejissura, tomoshabin psixologiyasi, dramatik konflikt, emotsional ta’sir, mizanssena, sahna harakati, aktyor psixofizikasi, teatr estetikasi, dramaturgiya, sahna nutqi.

Teatr san’ati inson ruhiyati, hissiyoti va tafakkuriga bevosita ta’sir etuvchi murakkab badiiy hodisalardan biridir. Sahna asarining tomoshabinga ta’sir kuchi ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, ulardan eng muhimlaridan biri ritm va temp hisoblanadi. Ritm va temp spektaklning ichki harakati, dramatik rivoji, aktyor plastikasining uyg‘unligi hamda tomoshabin hissiy qabulining shakllanishida muhim estetik vosita vazifasini bajaradi. Ayniqsa zamonaviy teatr va kino san’atida sahna ritmini to‘g‘ri tashkil etish tomoshabinning diqqatini ushlab turish, emotsional holatini boshqarish va asarning g‘oyaviy ta’sirini kuchaytirishda asosiy omillardan biri bo‘lib qolmoqda. Ritm — bu sahna harakatlari, dialog, pauza, mizanssena va emotsional holatlarning ma’lum tartib va uyg‘unlikda takrorlanishi hisoblanadi. Temp esa ushbu harakatlarning tezligi yoki dinamik darajasini bildiradi. Teatr nazariyasida bu ikki tushuncha o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, spektaklning umumiy atmosferasini yaratadi. Konstantin Stanislavski o‘zining aktyorlik tizimida temp-ritm tushunchasiga alohida e’tibor qaratgan. Uning fikricha, har bir obrazning ichki psixologik holati ma’lum ritm orqali namoyon bo‘ladi. Aktyorning ichki kechinmalari tashqi harakat ritmi bilan uyg‘unlashgandagina sahnaviy ishonchlilik yuzaga keladi. Shuningdek, Vsevolod Meyerhold biomekanika nazariyasida ritmni aktyor jismoniy harakatining asosiy komponenti sifatida talqin qilgan. U sahnadagi ritmik harakat tomoshabin hissiyotiga bevosita fiziologik ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Psixologiya fanida ritm inson ongiga ta’sir etuvchi kuchli omil sifatida qaraladi. Inson miyasi ritmik harakat va tovushlarni tabiiy ravishda qabul qiladi. Shu sababli sahnadagi ritm tomoshabinning emotsional holatini boshqarishga xizmat qiladi. Masalan, sekin ritm, sokinlik, qayg‘u, dramatizm hissini uyg‘otadi, tez ritm, hayajon,

xavotir, quvonch yoki keskinlikni kuchaytiradi, oʻzgaruvchan ritm, tomoshabinda kutilmaganlik va dramatik ta’sir hosil qiladi.

Psixologik jihatdan tomoshabin spektakl davomida aktyor harakati, nutq tempi va sahna dinamizmi bilan emotsional sinxronlashadi. Bu holat empatiya mexanizmini kuchaytiradi. Natijada tomoshabin voqealarni nafaqat kuzatadi, balki ichki jihatdan “his qiladi”. Dramatik asarda konflikt rivoji koʻpincha tempning oʻzgarishi orqali ifodalanadi. Spektakl boshidagi sokin temp asta-sekin kuchayib borib, kulminatsion nuqtaga olib keladi. Tempning notoʻgʻri tanlanishi esa tomoshabinning diqqatini susaytirishi mumkin.Masalan, haddan tashqari sekin temp zerikishni yuzaga keltiradi, juda tez temp esa mazmunni anglashni qiyinlashtiradi. Shu bois rejissyor spektaklning ritmik strukturasini dramaturgik qonuniyat asosida qurishi zarur. Tempning pasayishi va kuchayishi dramatik nafasni hosil qiladi. Rejissyor spektaklning umumiy ritmik konsepsiyasini yaratuvchi asosiy shaxsdir. U aktyor harakatlarini, sahna almashuvlarini, musiqa va yorugʻlikni, pauza va sukutlarni yagona ritmga boʻysundiradi. Har bir qahramonning:yurish usuli, gapirish tempi, pauzasi, hissiy reaksiyasi uning xarakterini ifodalaydi. Masalan, ruhiy bosimdagi qahramonning nutqi tezlashishi yoki harakatlari tartibsizlashishi mumkin. Sokin va vazmin obraz esa past tempda harakat qiladi. Aktyor ushbu psixofizik holatlarni tabiiy ifodalashi zarur. Sahna ritmi tomoshabin psixologiyasiga quyidagi yoʻllar orqali ta’sir koʻrsatadi: Diqqatni boshqaradi, Ritmik oʻzgarishlar tomoshabinning e’tiborini muhim sahnalarga qaratadi. Emotsional holatni shakllantiradi, temp oʻzgarishi hissiy zoʻriqish yoki yengillikni yuzaga keltiradi. Psixologik kutish hosil qiladi, pauza va ritmik sukut dramatik kutilish effektini kuchaytiradi, empatiyani rivojlantiradi, tomoshabin aktyor ritmiga ichki moslashadi va obraz bilan ruhiy yaqinlik his qiladi. Katarsis holatini yuzaga keltiradi Yuqori dramatik ritm hissiy boʻshanish va ruhiy tozalanishga olib kelishi mumkin. Sahna ritmi va temp teatr san’atining eng muhim estetik hamda psixologik komponentlaridan biridir. U spektaklning dramatik tuzilishini shakllantiradi, aktyor ijrosining tabiiyligini ta’minlaydi va tomoshabin hissiyotiga kuchli ta’sir koʻrsatadi. Temp-ritmning toʻgʻri tashkil etilishi tomoshabinning diqqatini ushlab turish, emotsional hamdardlikni kuchaytirish va spektakl gʻoyasini chuqurroq anglatishga xizmat qiladi.

Zamonaviy teatr amaliyoti shuni koʻrsatadiki, ritm va temp nafaqat texnik vosita, balki tomoshabin psixologiyasini boshqaruvchi badiiy mexanizm hamdir. Shu sababli aktyor va rejissyorlar temp-ritm qonuniyatlarini chuqur oʻrganishi teatr san’atining badiiy ta’sirchanligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. An Actor Prepares / Konstantin Stanislavski — Moskva: Искусство, 1989. 45–52-betlar

2. On the Technique of Acting / Michael Chekhov — New York: Harper & Row, 1991. 67–75-betlar

3. Brecht on Theatre / Bertolt Brecht — New York: Hill and Wang, 1964. 91–97-betlar

4. The Theatre and Its Double / Antonin Artaud— London: Calder Publications, 1970.— 80–88-betlar

АКТЁР ШЕБЕРЛИГИНИҢ ҚӘЛИПЛЕСИЎИНДЕ САХНА АКРОБАТИКАСЫНЫҢ ФУНКЦИОНАЛЛЫҚ АНАЛИЗИ

Айзада Қутлымуратова
ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы 2-курс студенти
Илимий басшысы ***Бахиева Бийбиназ***
ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы оқытыўшысы

Kalit so‘zlar: sahna harakati, akrobatik mashqlar, aktyorlik mahorati, jismoniy tayyorgarlik, koordinatsiya, plastika, sahna kurashi, tana erkinligi, teatr san’ati

Ключевые слова: сценическое движение, акробатические упражнения, актёрское мастерство, физическая подготовка, координация, пластика, сценический бой, телесная выразительность, театральное искусство

Keywords: stage movement, acrobatic exercises, acting skills, physical training, coordination, body plasticity, stage combat, physical expressiveness, theatrical art

ANNOTATSIYA - Bul maqalada saxna háreketi hám gúresi páninde akrobatikalıq shınıǵıwlardıń ornı, olardıń aktyor fizikalıq tayarlıǵın rawajlandırıwdaǵı áhmieti ilimiy-teoriyalıq jaqtan tallanadı. Akrobatikalıq elementlerdiń saxnalıq kórinis quralı sıpatındaǵı roli, koordinaciya, teńsalmaqlılıq hám dene plastikasın qáliplestiriwdegi áhmieti kórsetiledi. Izertlew nátiyjesinde akrobatikalıq shınıǵıwlar aktyor atqarıwınıń isenimliligin arttırıwshı áhmietli faktor ekenligi tiykarlanadı.

АННОТАЦИЯ - В данной статье рассматривается роль акробатических упражнений в системе сценического движения и сценического боя, а также их значение в развитии физической подготовки актёра. Анализируется влияние акробатических элементов на формирование координации, равновесия и пластики тела. Подчёркивается значение акробатики как выразительного средства сценического действия. В результате исследования обосновано, что акробатические упражнения являются важным фактором повышения достоверности актёрского исполнения и сценической выразительности.

ANNOTATION - This article examines the role of acrobatic exercises in the system of stage movement and stage combat, as well as their importance in developing an actor’s physical training. The study analyzes the impact of acrobatic elements on coordination, balance, and body plasticity. The expressive function of acrobatics in stage performance is also highlighted. The

research concludes that acrobatic exercises are an essential factor in enhancing the credibility and expressiveness of an actor's performance.

Kirisiw. Zamanagóy teatr kórkem óneri jıldam rawajlanıp atırǵan bir dáwirde aktyordan tek psixologiyalıq atqarıwshılıq emes, bálkim joqarı dárejedegi fizikalıq tayarlıq ta talap etiledi. Saxnalıq obrazdı tolıq hám isenimli jaratıw ushın aktyor denesin erkin basqara alıwı, plastikalıq háreketlerdi anıq hám maǵınalı orınlay alıwı zárúr. Usı jaǵdayda saxna háreketi hám gúresi pánleri teatr táliminiń ajıralmas bóligi retinde úlken áhmiyetke iye bolıp tabıladı. "Saxnada is-háreket qılıw kerek. Drama kórkem-óneri, aktyorlıq kórkem-óneri háreketke, aktivlikke tiykarlanǵan".[1-54b]

"Aktyor saxnada piker júrgiziwi ushın barlıq bulshıq etlerin, muskulların bos uslawı kerek. G.Tovstongov "Мыслящий актёр цениться" dep aytadı. Denelerin, muskulların qattı uslaǵan aktyor saxnada pikir júrgize almaydı".[2-71b] Akrobatikalıq shınıǵıwlar bolsa usı fizikalıq tayarlıqtıń eń nátiyjeli qurallarınıń biri bolıp esaplanadı. Olar aktyordıń dene múmkinshiliklerin keńeytip qalmay, bálkim onıń saxnadagi ekspressivligin, ritm seziwin hám dinamizimin de rawajlandıradı. Ásirese, urıs saxnaları, plastik spektakllar hám eksperimental teatr túrlerinde akrobatikalıq elementlerdiń roli ayırıqsha seziledi.

"Hár dayım yadıńızda saqlań – dep atap ótedi K.Stanislavskiy – oynaǵan rolińizdiń 95 protsentine muskullardıń qısılıwı aqıbetinde majıǵıw illeti bar. Usı orında muskullardı bosatıw shınıǵıwları áhimiyetli ról oynaydı". [3-157b] Sonıń ushın, akrobatika tek texnikalıq sheberlik emes, bálkim aktyordıń psixofizikalıq jaǵdayın birlestiriwshi faktor retinde de qaraladı. Dene hám sezim uyǵunlıǵı saxnalıq isenimliliktiń tiykarı bolıp tabıladı.

Hár bir aktyor ushın tek ǵana akrobatikalıq shınıǵıwlar ǵana kerek bolıp qalmastan eń dáslep koordinaciyalıq shınıǵıwlar menen shuǵıllanıp baslaw kerek. Koordinaciya shınıǵıwları aktyordıń denesin sanalı basqarıw qábiletin rawajlandıradı. Bul bolsa saxnadagi háreketlerdiń mazmunlı, kórkem hám estetikalıq boliwin támiyinleydi. [4- 178 b]

Usı maqala saxna háreketi hám gúresi sistemasında akrobatikalıq shınıǵıwlardıń teoriyalıq negizlerin hám ámeliy áhmiyetin tereńirek ashıp beriwge qaratılǵan.

Metodlar: Izertlew procesinde tómendegi ilimiy metodlardan paydalanıldı:

Analitikalıq metod - saxna háreketi hám akrobatikaǵa tiyisli ilimiy ádebiyatlar úyrenildi.

Salıstırıw metodi - túrli teatr mekteplerindegi fizikalıq tayarlıq sistemaları salıstırıldı.

Baqlaw usılı - saxna shınıǵıwları hám ámeliy shıǵıwlar tallandı.

Ámeliy metod - akrobatikalıq shınıǵıwlardıń aktyorlar tayarlıǵına tásiri úyrenildi.

Nátiyjeler: Izertlew nátiyjeleri akrobatikalıq shınıǵıwlardıń aktyor tayarlıǵına kompleks tásir etetinligin kórsetti. Olardıń tiykarǵı nátiyjeleri tómendegishe tolıqtırıldı:

1. Fizikalıq qabiletlerdi kompleksli rawajlandırıw

Akrobatika kúsh, shıdamlılıq, tezlik hám epshillikti bir waqıtta rawajlandıradı. Bul komponentler saxnalıq háreketlerdi stabil hám isenimli orınlawdı támiyinleydi. Akrobatikalıq shınıǵıwlar dene bólimleriniń uyǵunlı háreketin qáliplestirip, aktyordıń keńislikti sezew qabiletin arttıradı. Bul bolsa quramalı mizanscenalardı saxnalastırǵanda júdá áhmiyetli esaplanadı.

2. Plastikalıq ekspressivlikti rawajlandırıw

Dene plastikasınıń jetiliswi yaǵnıy rawajlanıwı aktyorǵa sózden tısqarı kórsetpe yaǵnıy túsindiriw quralların paydalanıw imkaniyatın beredi. Nátiyjede saxnalıq obraz tereń ashıp beriledi.

3. Psixologiyalıq isenimlilik hám erkinlik

Qıyın elementlerdi úyreniw hám orınlaw aktyorda óz kúshine isenimdi oǵada arttıradı. Bul bolsa saxnadaǵı qorqınısh hám qısılıwdı azaytadı.

4. Saxna gúresi ushın bazalıq tayarlıq

Akrobatika qáwipsiz qulaw, sekiriw, teńsalmaqlılıqtı saqlaw sıyaqlı elementler arqalı saxna sawashlarınıń texnikalıq negizin jaratadı.

5. Jaralanıw qáwpin azaytıw

Jaralanıw qural menen anıq shanshıw yamasa soqqı beriw arqalı jetkizilgen fizikalıq “zıyan” aqıbeti. [5-79 b] Turaqlı shınıǵıwlar yaǵnıy koordinatciyalıq hám akrobatikalıq shınıǵıwlar menen shuǵıllanıw muskullar men baylamlardı bekkemlep, mine usınday saxnalıq jaraqatlanıw itimalın tómenletedi.

Ámeliy nátiyjeler: tómendegi akrobatikalıq shınıǵıwlar nátiyjeli dep tabıldı: aldıǵa hám artqa aylanıw (gimnastikalıq oramlar), qol ústinde turıw shınıǵıwları, sekiriw hám teńsalmaqlılıq shınıǵıwları, jup bolıp orınlanatuǵın elementler.

Talqılaw: Alınǵan nátiyjeler teatr pedagogikası teoriyası menen ámeliyatında akrobatikalıq tayarlıqtıń universallıǵın tastıyıqlaydı. Dúnya teatr mekteplerinde (Stanislavskiy, Meyerhold, Grotowski sistemasında) fizikalıq tayarlıqqa beriletuǵın úlken áhmiyet bul baǵıttıń ilmiy negizge iye ekenligin kórsetedi.

Ásirese, Meyerholdtıń biomexanika teoriyası hám Grotoskiydiń “fizikalıq teatr” kontseptsiyası dene arqalı túsindiriwdıń tiykarı retinde akrobatikalıq elementlerdi qollanıwdı kúshli qollap-quwatlaydı. Bul jaǵday akrobatikanı tek qosımsha shınıǵıw emes, bálkim aktyorlıq texnikasınıń ajıralmas bóligi retinde qaraw kerek ekenligin kórsetedi.

Sonıń menen birge, zamanagóy teatrda multimediya hám plastikalıq teatr túrleriniń keńeyiwine baylanıslı, aktyordan talap etiletuǵın fizikalıq qabilyetler de artıp barmaqta. Bul bolsa akrobatikalıq tayarlıqtı oqıw protsessine sistemalı túrde engiziwdi talap etedi. Ámeliy baqlawlar sonı kórsetedi, eger shınıǵıwlar

metodikalıq dúzilis penen alıp barılsa, olar tek fizikalıq emes, bálkim psixologiyalıq stabillikti de qáliplestiredi.

Juwmaq. Juwmaqlap aytqanda, akrobatikalıq shınıǵıwlar saxna háreketi hám gúresi sistemasınıń tiykarǵı komponentleriniń biri bolıp tabıladı. Olar aktyordıń fizikalıq tayarlıǵın kompleksli túrde rawajlandırıp qalmay, bálkim onıń saxnalıq ekspressivligi hám obraz jaratıw múmkinshiliklerin de keńeytedi.

Izertlew nátiyjeleri sonı tastıyıqlaydı: akrobatikalıq shınıǵıwlar koordinaciya, plastika, teńsalmaqlılıq hám psixofizikalıq uyǵunlıqtı rawajlandırıw arqalı aktyorlıq sheberlikti joqarı basqıshqa kóteredi. Sonday-aq, olar saxna gúresi elementlerin qáwipsiz hám isenimli orınlaw úshın zárúr tiykar jaratadı. Bul bolsa teatr praktikasında úlken áhmiyetke iye.

Paydalanilg'an a'debiyatlar

1. Stanislavskiy K.S. — "Aktyorning o'z ustida ishlashi" 2011-yil, 54 b.
2. N.Ansatbaev "Teatr hám aktyor" Toshkent-2020, 71 b.
3. Румянсев. "Станиславский ва опера". Искусство, М.,1969,157 б.
4. BAXIEVA, BIYBINAZ. "STAGE MOVEMENT AND COORDINATION: ANALYSIS OF THE TRAINING OF FUTURE ACTORS." GLOBAL SCIENTIFIC CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH. Vol. 1. No. 3. 2026.
5. R.Dusanov "Sahna harakati va jangi". Toshkent-2025, 79 b.
6. Aktyorlik mahorati va sahna harakatiga oid o'quv qo'llanmalar

АКТЁРЛИК САНЪАТИДА АНА ТИЛИ ВА ЭМОЦИОНАЛЬ ИФОДА УЙҒИНЛИГИ

Джолдасбаева Шийрин Табынбай қизи
ӨЗМКӨМИ Нөкис филиалы 1-курс студенти,
Илимий басшы ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы
оқытыўшысы ***Рамуза Қазақбаева***

Annotatsiya: Mazkur maqolada aktyorlik san'atida tana tili va emotsional ifodaning o'zaro uyg'unligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Aktyorning ichki hissiy kechinmalari va tashqi jismoniy harakatlari o'rtasidagi bog'liqlik, sahnaviy obraz yaratishdagi roli hamda tomoshabinga ta'sir mexanizmlari o'rganiladi. Shuningdek, psixofizik uyg'unlik, mimika va plastikaning aktyorlikdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: aktyorlik mahorati, tana tili, emotsiya, psixofizika, sahna, mimika, plastika, emotsiya.

Teatr san'ati insonning ichki ruhiy olamini ifodalashga qaratilgan murakkab ijodiy jarayondir. Sahna asarlarida aktyor nafaqat matn orqali, balki tana harakatlari, mimika va emotsional holat orqali ham tomoshabin bilan muloqot qiladi. Shu bois tana tili va emotsional ifoda aktyorlik mahoratining ajralmas qismi hisoblanadi.

Aktyor sahnada obraz yaratishda o‘zining ichki kechinmalarini tashqi ifoda bilan uyg‘unlashtira olishi zarur. Aks holda, sahnaviy harakat sun’iy va ishonchsiz ko‘rinadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada tana tili va emotsional ifodaning uyg‘unligi ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Emotsiya insonning tashqi va ichki ta’sirlarga nisbatan bildiradigan hissiy reaksiyasidir. Psixologiyada emotsiyalar inson faoliyatini boshqaruvchi muhim omil sifatida qaraladi.[12]

Aktyorlik san’atida emotsiya obrazning ichki mazmunini tashkil etadi. Aktyor rolni ijro etishda quyidagilar orqali emotsiyani ifodalaydi:

- ovoz tembri va ohangi
- yuz ifodalari
- tana harakatlari
- ichki ritm

Shu jihatdan emotsiya aktyorlikning “ichki energiyasi” sifatida namoyon bo‘ladi.

Tana tili insonning so‘zsiz muloqot qilish vositasidir. U jestlar, mimika, tana holati va harakatlar orqali ifodalanadi.[13]

Teatr sahnasida tana tili quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- obraz xarakterini ochib berish
- sahnaviy harakatni boyitish
- tomoshabin bilan emotsional aloqa o‘rnatish

Ba’zi hollarda aktyor birgina harakat orqali butun bir hissiy holatni yetkazishi mumkin. Bu esa tana tilining kuchli ifoda vositasi ekanligini ko‘rsatadi.

Aktyorlik mahoratining eng muhim jihatlaridan biri — ichki emotsiya va tashqi harakatning uyg‘unligidir. Agar aktyor ichki hissiyotni his qilsa-yu, lekin uni tana orqali ifodalay olmasa, obraz to‘liq ochilmaydi.

Shu bois:

- ichki holat (emotsiya)
- tashqi ifoda (tana tili)
- o‘zaro mos bo‘lishi kerak.[14]

Bu jarayon “psixofizik uyg‘unlik” deb ataladi va u aktyorlik tizimining asosiy tamoyillaridan biridir.

Mimika — yuz mushaklari orqali emotsiyani ifodalashdir. Plastika esa tana harakatlarining badiiy va ma’noli tashkil etilishidir.

Masalan:

- ko‘z qarashi — ichki kechinmani aks ettiradi
- qo‘l harakati — fikrni kuchaytiradi
- tana holati — obraz xarakterini belgilaydi

[12][Stanislavskiy K. Aktyorlik mahorati haqida. — Moskva: Iskusstvo, 1938.]
[13] [Grotovskiy Ye. Kambag‘al teatr. — Moskva: Progress, 1968.]
[14] [Meyerhold V. Teatr nazariyasi. — Moskva: Iskusstvo, 1981.]

Bu elementlar birgalikda aktyorning sahnadagi ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tana tili va emotsional ifodani rivojlantirish uchun quyidagi mashqlar qo‘llaniladi:

- mimika ustida ishlash
- so‘zsiz etyudlar bajarish
- improvizatsiya mashqlari
- tana plastikasini rivojlantirish

Bu mashqlar aktyorning ichki va tashqi holatini uyg‘unlashtirishga yordam beradi.

Tana tili va emotsional uyg‘unlik tomoshabinga kuchli psixologik ta’sir ko‘rsatadi. Inson miyasi neverbal signallarni tezroq qabul qiladi, shu sababli aktyorning harakati tomoshabin ongiga bevosita ta’sir qiladi[15]

- Natijada:
- tomoshabin obrazga ishonadi
- hissiy jihatdan ta’sirlanadi
- sahnadagi voqeaga “sho‘ng‘iydi”

Bu esa teatrning asosiy maqsadi — emotsional aloqa — amalga oshganini bildiradi.

Aktyorlik san’atida tana tili va emotsional ifoda o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, sahnaviy obraz yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Ularning uyg‘unligi aktyorning mahoratini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Psixofizik uyg‘unlikka erishgan aktyor tomoshabinga kuchli ta’sir ko‘rsatadi va obrazni ishonarli tarzda namoyon etadi. Shu bois aktyorlik ta’limida tana tili va emotsiyalar ustida ishlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Emotsiya tushunchasi psixologiya fanida insonning hissiy reaksiyasi sifatida talqin qilinadi.

Neverbal kommunikatsiya — so‘zsiz muloqot shakli bo‘lib, tana tili orqali amalga oshiriladi. Psixofizik uyg‘unlik aktyorning ichki va tashqi holati mosligi sifatida qaraladi.

Neverbal signallar inson tomonidan tez va kuchli qabul qilinadi (psixologik tadqiqotlar asosida.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Stanislavskiy K. Aktyorlik mahorati haqida. — Moskva: Iskusstvo, 1938.
2. Grotovskiy Ye. Kambag‘al teatr. — Moskva: Progress, 1968.
3. Meyerhold V. Teatr nazariyasi. — Moskva: Iskusstvo, 1981.
4. Ekman P. Emotions Revealed. — New York: Times Books, 2003.
5. Mehrabian A. Nonverbal Communication. — Chicago: Aldine-Atherton, 1972.

[15] [Ekman P. Emotions Revealed. — New York: Times Books, 2003.]

6. Birdwhistell R. Kinesics and Context. — Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1970.

МУСИҚАЛИ ТЕТАР ВА МЮЗИКЛ: УМУМИЙ ВА ФАРҚЛИ ЖИҲАТЛАРИ

Мақсумов Ғиёс Турғун ўғли
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти 1-курс магистранти

Annotatsiya. Maqolada sahna san’atining ikki muhim hodisasi – musiqali teatr va myuzikl tushunchalari qiyosiy tahlil etilgan. Muallif ko‘pincha sinonim sifatida qo‘llaniladigan ushbu atamalarning aslida “jins va tur” munosabatida ekanligini, ya’ni myuzikl musiqali teatrning keng tizimidagi alohida janr ekanligini asoslaydi. Ishda har ikki hodisaning kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyoti, badiiy-estetik tabiati va musiqiy tili o‘rganilgan. Musiqali teatr (opera, operetta, balet, musiqali drama) hamda myuzikl o‘rtasidagi umumiy va farqli jihatlar musiqa uslubi, vokal texnikasi, dramaturgiya va ijtimoiy yo‘nalishi mezonlari asosida tizimlashtirilgan. Janrlarning zamonaviy o‘zaro yaqinlashuvi hamda o‘zbek milliy musiqali drama teatrining o‘ziga xosligiga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: musiqali teatr, myuzikl, opera, operetta, musiqali drama, sahna san’ati, janr, dramaturgiya, sintez, milliy teatr.

Аннотация. В статье проведён сравнительный анализ двух важнейших явлений сценического искусства – музыкального театра и мюзикла. Автор обосновывает, что эти термины, нередко употребляемые как синонимы, в действительности находятся в отношении “род и вид”, то есть мюзикл является отдельным жанром в широкой системе музыкального театра. Рассматриваются происхождение, историческое развитие, художественно-эстетическая природа и музыкальный язык обоих явлений. Общие и отличительные черты музыкального театра (опера, оперетта, балет, музыкальная драма) и мюзикла систематизированы по критериям музыкального стиля, вокальной техники, драматургии и социальной направленности. Особое внимание уделено современному сближению жанров и своеобразию узбекского национального музыкально-драматического театра.

Ключевые слова: музыкальный театр, мюзикл, опера, оперетта, музыкальная драма, сценическое искусство, жанр, драматургия, синтез, национальный театр.

Abstract. The article provides a comparative analysis of two major phenomena of the performing arts – musical theatre and the musical. The author argues that these terms, often used as synonyms, are in fact related as “genus and species”, that is, the musical is a distinct genre within the broad system of musical theatre. The origins, historical development, artistic-aesthetic nature and musical language of both phenomena are examined. The

common and distinctive features of musical theatre (opera, operetta, ballet, musical drama) and the musical are systematized according to the criteria of musical style, vocal technique, dramaturgy and social orientation. Particular attention is paid to the contemporary convergence of genres and to the originality of the Uzbek national musical-dramatic theatre.

Keywords: musical theatre, musical, opera, operetta, musical drama, performing arts, genre, dramaturgy, synthesis, national theatre.

Kirish -Zamonaviy sahna san'atida "musiqali teatr" va "myuzikl" atamalari keng qo'llaniladi va ko'pincha bir-birining o'rnida, sinonim sifatida ishlatiladi. Biroq san'atshunoslik nuqtai nazaridan bu ikki tushuncha aynan emas: ular o'rtasida mantiqiy jihatdan "jins va tur" munosabati mavjud. Boshqacha aytganda, musiqali teatr – musiqa sahna asarining markaziy unsuriga aylangan barcha teatr janrlarini qamrab oluvchi umumiy, keng tushuncha bo'lsa, myuzikl – ushbu keng tizim ichidagi tarixan nisbatan yosh, ammo o'ziga xos badiiy qonuniyatlarga ega bo'lgan alohida janrdir.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, atamalarni aralashtirish nafaqat nazariy chalkashlikka, balki amaliy san'atshunoslik va ta'lim jarayonida tasniflash xatolariga olib keladi. San'atning morfologik tasnifi nuqtai nazaridan har bir badiiy hodisani o'zining jins va tur ierarxiyasidagi o'rni bilan belgilash muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, so'nggi o'n yilliklarda myuzikl janrining jahon miqyosida, jumladan O'zbekistonda ham faollashuvi ushbu hodisani milliy musiqali teatr an'analari bilan o'zaro nisbatda o'rganishni taqozo etmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi – musiqali teatr va myuzikl tushunchalarining mohiyatini ochib berish, ularning tarixiy shakllanishini qiyoslash hamda umumiy va farqli jihatlarini tizimli mezonlar asosida aniqlashdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy va tipologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Musiqali teatr tushunchasi va tarixiy asoslari

Musiqali teatr – musiqa, so'z, sahna harakati, vokal, raqs va tasviriy bezakning organik sintezi asosida quriladigan sahna san'ati turidir. Bu tushuncha o'z ichiga bir nechta yirik janrlarni – opera, operetta, balet, musiqali drama va myuziklni oladi. Ularni birlashtiruvchi asosiy belgi shundaki, bu asarlarda musiqa yordamchi bezak emas, balki badiiy mazmunni va voqealar rivojini ifodalovchi yetakchi vositadir.

Shuni ta'kidlash lozimki, "musiqali teatr" atamasi ikki ma'noda qo'llaniladi. Keng ma'noda u yuqorida sanab o'tilgan janrlarni qamrovchi badiiy hodisa, san'at turini bildiradi. Tor (amaliy) ma'noda esa u muayyan teatr muassasasini – binoni va ijodiy jamoani anglatadi (masalan, davlat akademik musiqali teatri). Mazkur maqolada atama, asosan, birinchi – nazariy-tipologik ma'noda qo'llaniladi, zero aynan shu ma'no myuzikl bilan munosabatni aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Yevropa musiqali teatrining tarixiy ildizlari Italiyada XVI asr oxiri – XVII asr boshida vujudga kelgan operaga borib taqaladi. Ilk opera namunalari

Florensiya kamerata ijodkorlari tomonidan yaratilib, Klaudio Monteverdining “Orfey” (1607) asari bu janrning dastlabki yetuk namunasi hisoblanadi. Keyinchalik opera Yevropaning barcha mamlakatlarida rivojlanib, akademik (“yuksak”) musiqa san’atining markaziy janriga aylandi.

XIX asrda musiqali teatr tarmog‘ida operetta janri shakllandi. Yengil, hajviy syujet, jonli ohanglar, kuylash bilan aytiladigan dialogning almashinib kelishi operettani keng ommaga yaqinlashtirdi. Jak Offenbax, Iogann Shtraus va boshqalar ijodida operetta o‘zining yuksak cho‘qqisiga ko‘tarildi. Aynan operetta, vodevil, myuzik-holl va estrada an’analari keyinchalik myuzikl janrining shakllanishiga zamin yaratdi.

Myuzikl janri va uning shakllanishi

Myuzikl (ingl. musical – “musical comedy”, “musical play” so‘zlarining qisqargan shakli) – qo‘shiq, raqs (xoreografiya) va dramatik dialogning chambarchas birikuvidan tashkil topgan sahna janri bo‘lib, asosan XX asr boshlarida AQShning Brodvey va Buyuk Britaniyaning Uest-End teatr an’analari negizida shakllangan.

Janr taraqqiyotida bir qancha bosqichlar ajratiladi. Dastlabki davrda myuzikl vodevil va revyu ko‘rinishidagi, syujet jihatdan bog‘lanmagan raqs va qo‘shiqlar to‘plamidan iborat edi. Burilish nuqtasi sifatida 1927-yilda sahnaga qo‘yilgan “Show Boat” (Jerom Kern va Oskar Hammerstayn) asari ko‘rsatiladi: unda birinchi marta qo‘shiq, raqs va dramatik harakat yagona, jiddiy syujetga to‘liq bo‘ysundirildi. Bu “integratsiyalashgan myuzikl” tamoyilining tug‘ilishi edi.

XX asrning o‘rtalari myuziklning “oltin davri” hisoblanadi. Richard Rodjers va Oskar Hammerstayn hamkorligida yaratilgan “Oklahoma!” (1943), shuningdek Leonard Bernstaynning “West Side Story” (1957) asari janrning klassik namunalariga aylandi. Keyinchalik rok-musiqasi ta’sirida “Hair” (1967) kabi asarlar, so‘ng esa Endryu Lloyd Uebberning “Cats” va “The Phantom of the Opera” kabi yirik miqyosli “megamyuzikl”lari paydo bo‘ldi. Zamonaviy davrda “Hamilton” (2015) singari asarlar janrga rep va zamonaviy ommabop musiqa unsurlarini olib kirdi.

Tuzilishi jihatidan myuzikl libretto (so‘z asosi), musiqiy partitura va xoreografik yechimning uzviy birligidan iborat. Unda yakkaxon qo‘shiqlar, duetlar, ansambl va xor sahnalari, shuningdek pardalarni yakunlovchi yirik “final” sonlari almashinib keladi. Musiqiy raqamlar dramatik harakatdan ajralgan holda emas, balki uni davom ettiruvchi va chuqurlashtiruvchi vosita sifatida quriladi – bu integratsiyalashgan myuziklning asosiy badiiy tamoyilidir.

Umumiy jihatlari

Musiqali teatr va myuziklning eng asosiy umumiyligi ularning genetik bog‘liqligida namoyon bo‘ladi: myuzikl – musiqali teatrning bir tarmog‘i, uning tarixiy taraqqiyotidagi yangi bosqich. Shu sababli ular bir qator muhim belgilarni baham ko‘radi.

Birinchidan, har ikkalasi ham musiqa, so‘z, vokal, raqs va sahna bezagining sintezi asosida quriladigan sahnaviy, jamoaviy san’at turidir. Ikkinchidan,

ularda musiqa shunchaki jo‘rlik emas, balki qahramonlar ruhiy holatini, dramatik ziddiyatni va voqealar rivojini ochib beruvchi yetakchi badiiy vositadir. Uchinchidan, ikkala hodisa ham yuqori darajadagi professional ijrochilik – ovoz, aktyorlik mahorati va plastika uyg‘unligini talab qiladi. To‘rtinchidan, har ikkisi ham tomoshabinga estetik va emotsional ta’sir ko‘rsatishni, badiiy obraz orqali ma’lum bir g‘oyani yetkazishni maqsad qiladi. Mohiyatan ikkala hodisa ham R. Vagner ilgari surgan “yaxlit san’at asari” (nem. Gesamtkunstwerk) g‘oyasiga – turli san’at turlarining yagona badiiy butunlikka birlashuvi tamoyiliga tayanadi.

Farqli jihatlari

Umumiy ildizga ega bo‘lsa-da, musiqali teatr (keng tushuncha sifatida, ayniqsa uning opera va operetta kabi an’anaviy janrlari) bilan myuzikl o‘rtasida bir qator muhim farqlar mavjud. Ularni quyidagi mezonlar bo‘yicha tizimlashtirish mumkin.

Eng birinchi farq – qamrov darajasi: musiqali teatr opera, operetta, balet va musiqali dramani qamrovchi umumiy soha bo‘lsa, myuzikl ushbu sohaning faqat bitta janridir. Musiqiy uslub jihatidan an’anaviy musiqali teatr (opera) akademik, klassik musiqaga tayanadi; myuzikl esa jazz, pop va rok kabi ommabop musiqa tillaridan foydalanadi. Vokal texnikasida opera akademik kuylash (bel kanto) usulini talab qilsa, myuziklda estrada vokali va ovozni mikrofon orqali kuchaytirish keng tarqalgan.

Dramaturgik tuzilishi ham farq qiladi: klassik operada matn deyarli to‘liq kuylanadi (rechitativ va ariyalar orqali), myuziklda esa aytiladigan dramatik dialog qo‘shiq va raqs sahnalari bilan almashinib turadi. Nihoyat, ijtimoiy yo‘nalishi bo‘yicha opera ko‘proq “yuksak akademik san’at” maqomida bo‘lsa, myuzikl dastlabidanoq tijoriy, ommaviy ko‘ngilochar san’at sifatida shakllangan. Quyidagi jadvalda ushbu farqlar umumlashtirilgan.

Mezon	**Musiqali teatr (an’anaviy janrlari)**	**Myuzikl**
Qamrov	Opera, operetta, balet, musiqali drama va h.k.	Bitta alohida janr
Musiqa uslubi	Akademik, klassik musiqa	Ommabop: jazz, pop, rok
Vokal texnikasi	Akademik kuylash (bel kanto)	Estrada vokali, mikrofon
Dramaturgiya	Operada matn deyarli butunlay kuylanadi	Dialog qo‘shiq bilan almashinadi
Kelib chiqishi	Italiya, ~1600-yil (opera)	Brodvey/Uest-End, XX asr boshi
Yo‘nalishi	Asosan yuksak akademik san’at	Tijoriy, ommaviy ko‘ngilochar

Janrlarning zamonaviy oʻzaro yaqinlashuvi

Yuqorida keltirilgan farqlar tipologik jihatdan aniq boʻlsa-da, amaliyotda musiqali teatr janrlari oʻrtasidagi chegaralar mutlaq emas. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab opera va myuzikl bir-biriga ta'sir koʻrsata boshladi. Bunga "rok-opera" hodisasi yaqqol misol boʻladi: Endryu Lloyd Uebberning "Jesus Christ Superstar" (1971) asari ham operaga (deyarli butunlay kuylanishi bilan), ham myuziklga (rok-musiqasi va ommabop ijro uslubi bilan) xos belgilarni oʻzida mujassam etadi.

Xuddi shunday, ayrim zamonaviy myuzikllar (masalan, Stiven Sondaymning murakkab partituralari) musiqiy til murakkabligi boʻyicha akademik operaga yaqinlashadi, ba'zi zamonaviy operalar esa, aksincha, ommabop musiqa unsurlaridan foydalanadi. Bu jarayon janrlarni bir-biridan ajratuvchi mezonlarning qat'iy emas, balki nisbiy ekanligini koʻrsatadi. Shu bilan birga, bunday yaqinlashuv asosiy tezisni inkor etmaydi: bu janrlarning barchasi yagona – musiqali teatr tizimi ichida oʻzaro ta'sirlashadi.

Oʻzbek milliy musiqali teatri konteksti

Musiqali teatr va myuzikl munosabatini oʻrganishda milliy oʻziga xoslikni hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Oʻzbek madaniyatida XX asr boshida musiqali drama teatri alohida, mustaqil an'ana sifatida shakllandi. Bu janr Yevropa operasi yoki Brodvey myuziklidan farqli oʻlaroq, milliy dramani xalq musiqasi, ashula (maqom an'analari) va raqs bilan uygʻunlashtirgani bilan ajralib turadi.

Oʻzbek musiqali drama teatri tarixida Hamza Hakimzoda Niyoziy faoliyati muhim oʻrin tutadi. "Farhod va Shirin", "Tohir va Zuhra", "Layli va Majnun" kabi asarlar milliy musiqali teatrning klassik namunalari hisoblanadi. Bu asarlar dostonchilik an'analari, milliy kuy-qoʻshiq va sahna harakatining oʻziga xos sintezini namoyish etadi.

Demak, oʻzbek musiqali drama teatri – musiqali teatrning milliy zaminda shakllangan oʻziga xos shakli boʻlib, u kelib chiqishi, musiqiy tili va estetik asosi jihatidan gʻarb myuziklidan tubdan farq qiladi. Bu esa "musiqali teatr" tushunchasi "myuzikl"dan kengroq ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi: myuzikl – ushbu keng oilaning faqat bir a'zosi, xolos.

Xulosa

Oʻtkazilgan qiyosiy tahlil quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

Birinchidan, "musiqali teatr" va "myuzikl" tushunchalari aynan emas, balki "jins va tur" munosabatida boʻlib, myuzikl musiqali teatrning keng tizimidagi alohida janr sifatida namoyon boʻladi.

Ikkinchidan, ularning umumiyligi musiqa, soʻz, vokal va raqsning sahnaviy sintezida hamda musiqaning yetakchi badiiy vosita sifatidagi rolida namoyon boʻladi.

Uchinchidan, asosiy farqlar qamrov darajasi, musiqiy uslub, vokal texnikasi, dramaturgik tuzilish, tarixiy kelib chiqish va ijtimoiy yoʻnalish

mezonlari boʻyicha aniq koʻrinadi: anʼanaviy musiqali teatr akademik asosga, myuzikl esa ommabop musiqa va tijoriy koʻngilochar tabiatga tayanadi.

Toʻrtinchidan, zamonaviy amaliyotda janrlar oʻzaro yaqinlashayotgan boʻlsa-da, bu jarayon ularni yagona musiqali teatr tizimi ichida birlashtiradi, “jins va tur” munosabatini esa bekor qilmaydi. Beshinchidan, oʻzbek milliy musiqali drama teatri tajribasi musiqali teatr tushunchasining koʻp qirraligini va milliy zaminda oʻziga xos shakllarda rivojlanishini koʻrsatadi. Shunday qilib, atamalarni toʻgʻri farqlash sanʼatshunoslik nazariyasi, badiiy tanqid va musiqa-teatr taʼlimi uchun muhim metodologik ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Kenrick J. Musical Theatre: A History. – New York; London: Continuum, 2008. – 416 p.

2. Bordman G., Norton R. American Musical Theatre: A Chronicle. – 4th ed. – New York: Oxford University Press, 2010. – 928 p.

3. Knapp R. The American Musical and the Formation of National Identity. – Princeton: Princeton University Press, 2005. – 480 p.

4. Everett W.A., Laird P.R. (eds.) The Cambridge Companion to the Musical. – 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2017. – 460 p.

5. Block G. Enchanted Evenings: The Broadway Musical from Show Boat to Sondheim and Lloyd Webber. – 2nd ed. – New York: Oxford University Press, 2009. – 480 p.

6. Grout D.J., Williams H.W. A Short History of Opera. – 4th ed. – New York: Columbia University Press, 2003. – 1030 p.

7. Каган М.С. Морфология искусства. – Л.: Искусство, 1972. – 440 с.

8. Янковский М.О. Оперетта: Возникновение и развитие жанра. – Л.; М.: Искусство, 1937. – 456 с.

II - SHO‘BA. YANGI O‘ZBEKISTONDA MADANIY MARKAZLAR VA KUTUBXONA ISHINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB VAZIFALARI

==========

МАДАНИЯТЛАРАРО ИНТЕГРАЦИЯ ЖАРАЁНИДА ИЖОДКОРЛИК ВА ИЖРОЧИЛИКНИНГ НАЗАРИЙ ҲАМДА АМАЛИЙ АСОСЛАРИ

Марьям Ашурова
ЎзДСМИ профессори

Аннотация: Мазкур мақолада профессор Марям Ашурова “Маданиятлараро интеграция жараёнида ижодкорлик ва ижрочиликнинг назарий ҳамда амалий асослари” таҳлил қилинади. Глобаллашув шароитида маданий мулоқотнинг янги шакллари, маданий идентикликни сақлаш муаммоси ва ижодий фаолиятнинг интегратив функцияси илмий нуқтаи назардан ёритилади. Ижрочилик маданий маъноларни трансляция қилиш механизми сифатида талқин этилади.

Калит сўзлар: Маданиятлараро интеграция, ижодкорлик, ижрочилик, миллий маданият, глобаллашув, маданий мулоқот, маънавият, маданий сиёсат.

Аннотация: В данной статье профессор Марьям Ашурова анализирует теоретические основы и практическое значение творчества и перформанса в процессе межкультурной интеграции. С научной точки зрения рассматриваются новые формы культурного диалога в контексте глобализации, проблема сохранения культурной идентичности и интегративная функция творческой деятельности. Перформанс рассматривается как механизм передачи культурных смыслов.

Ключевые слова: Межкультурная интеграция, творчество, исполнительство, национальная культура, глобализация, культурный диалог, духовность.

Annotation: In this article, Professor Maryam Ashurova analyzes the theoretical foundations and practical significance of creativity and performance in the process of intercultural integration. From a scientific perspective, new forms of cultural dialogue in the context of globalization, the problem of preserving cultural identity, and the integrative function of creative activity are examined. Performance is considered as a mechanism for conveying cultural meanings.

Keywords: Intercultural integration, creativity, performance, national culture, globalization, cultural dialogue, spirituality.

Янги аср глобаллашув жараёнлари маданий маконларнинг ўзаро яқинлашувига олиб келди. Бу ҳолат маданиятлараро интеграция

масаласини илмий тадқиқот объекти сифатида долзарб этиб қўйди. Маданиятлараро интеграция турли маданий тизимларнинг ўзаро таъсири ва ҳамкорлигига асосланадиган мураккаб ижтимоий жараёндир.

Маданий хилма-хилликни сақлаш ва рағбатлантириш халқаро даражада муҳим вазифа сифатида эътироф этилган. Жумладан, UNESCOнинг 2005 йилги Конвенциясида маданий ифода шаклларининг хилма-хиллиги инсониятнинг умумий мероси сифатида баҳоланади.

Шу нуқтаи назардан, ижодкорлик ва ижрочилик маданиятлараро мулоқотни таъминловчи асосий омиллар сифатида намоён бўлади.

XXI асрда глобаллашув жараёнлари жаҳон маданий маконини сифат жиҳатдан ўзгартирди. Миллий маданиятлар ўртасидаги алоқалар фақат иқтисодий ёки сиёсий муносабатлар билан чекланмай, балки маънавий-руҳий соҳада ҳам чуқурлашмоқда. Шу шароитда маданиятлараро интеграция масаласи илмий тадқиқотларнинг марказий мавзусига айланди.

Россиялик маданиятшунос олим Mikhail Kagan “Маданиятни инсон фаолиятининг универсал шакли сифатида талқин қилиб, унинг коммуникацион табиатига алоҳида эътибор қаратади [1]. Унга кўра, маданият – бу маънолар алмашинуви жараёнидир. Демак, маданиятлараро интеграция турли маъно тизимларининг мулоқоти сифатида намоён бўлади.

Ўзбек олимларидан академик Erkin Yusupov “Миллий ва умуминсоний қадриятлар уйғунлигини жамият тараққиётининг асосий шарти сифатида кўрсатади.” [2]. Бу фикр маданиятлараро интеграция миллий ўзликни сақлаган ҳолда амалга оширилиши лозимлигини тасдиқлайди.

I. **Маданиятлараро интеграциянинг назарий асослари.** Маданиятни маънолар тизими сифатида талқин қилган Clifford Geertz фикрича, “Маданият — бу инсон томонидан яратилган маънолар тўри бўлиб, инсон шу тўр ичида яшайди ва уни англашга интилади. [3]. Демак, маданиятлараро интеграция — турли маъно тизимларининг мулоқоти демакдир.

Edward Said “Маданий муносабатларда ҳукмронлик ва дискурс масалаларига эътибор қаратиб, маданиятлараро алоқаларда тенглик принципи муҳим эканини таъкидлайди”. [4]. Бу интеграция жараёнида бир маданиятнинг бошқаси устидан устуворлик қилиш хавфини кўрсатади.

Шунингдек, Samuel P. “Huntington цивилизациялар ўртасидаги фарқларни глобал сиёсий жараёнларда ҳал қилувчи омил сифатида кўрсатади”. [5]. Унинг концепциясига кўра, маданий идентиклик XXI асрда асосий факторга айланади.

Мазкур назарий ёндашувлардан келиб чиқиб, маданиятлараро интеграция: мулоқотга асосланган; тенг ҳуқуқли алмашинувни талаб

қилувчи; миллий идентикликни сақловчи жараён сифатида талқин этилади.

Маданиятлараро интеграция — бу турли маданий тизимларнинг тенг ҳуқуқли, ўзаро ҳурмат ва мулоқот асосида яқинлашув жараёнидир. У ассимиляциядан фарқли равишда миллий идентикликни сақлашни назарда тутади.

Россиялик олим Viktor Bibler “маданиятлар мулоқоти” концепциясини илгари суриб, “ҳар бир маданият бошқаси билан мулоқот орқали бойишини таъкидлайди”. [6]. Унинг фикрича, ҳақиқий интеграция фақат диалог орқали юзага келади.

Шу билан бирга, Yuri Lotman семиотик макон назариясида маданиятни белгилар тизими сифатида кўриб, “маданиятлараро мулоқотда маънолар трансформацияси содир бўлишини кўрсатади [7]. Бу жараён ижодкорлик ва ижрочилик фаолияти орқали амалга ошади.

Ўзбекистонда маданий сиёсат миллий анъаналарни сақлаш ва жаҳон маданияти билан уйғунлаштириш тамойилига асосланади. Бу интеграциянинг мувозанатли модели ҳисобланади.

II. Ижодкорлик – маданий синтез механизми. Ижодкорлик — маданиятлараро интеграциянинг ҳаракатлантирувчи кучи. Ижодий жараёнда турли маданий кодлар ўзаро уйғунлашиб, янги эстетик шакллар вужудга келади. Boris Yerasov маданиятни ижтимоий тизим сифатида таҳлил қилиб, “унинг ривожланиши ижодий фаолият билан боғлиқ эканини таъкидлайди”. [8]. Ижодкорлик маданий тажрибаларни қайта талқин қилиш имконини беради.

Ўзбек санъатшунослигида миллий мусиқа, театр ва тасвирий санъат соҳасидаги халқаро фестиваллар, маданиятлараро интеграциянинг амалий намунаси сифатида баҳоланади. Масалан, “Шарқ тароналари” халқаро мусиқа фестивали турли миллат маданиятларини бир саҳнада жамлаб, ижодий мулоқотни таъминлайди.

Ижодкорликнинг интегратив функциялари: маданий рамзларни қайта интерпретация қилиш; умуминсоний эстетик қадриятларни шакллантириш; толерантлик ва бағрикенгликни мустаҳкамлаш; цивилизацион мулоқотни ривожлантириш.

Pierre Bourdieu маданиятни ижтимоий капитал ва рамзий куч манбаи сифатида баҳолайди [9]. Унинг назариясига кўра, ижодий фаолият жамиятдаги ижтимоий муносабатлар тизими билан узвий боғлиқ.

Мусиқа соҳасидаги халқаро лойиҳалар маданиятлараро синтезнинг ёрқин намунасидир. Масалан, Yo-Yo Ma томонидан ташкил этилган “Silk Road” ташаббуси турли халқлар мусиқий анъаналарини бирлаштириб, янги интегратив моделни намоён этди. Бу лойиҳа маданиятни мулоқот ва ҳамкорлик воситаси сифатида намоён қилди.

Ижодкорликнинг интегратив функцияси қуйида намоён бўлади: Маданий рамзларни қайта интерпретация қилиш; Яъни турли жанрдаги

маданият ва санъат соҳасига алоқадор бўлган маълумотларни шарҳлаш, талқин қилиб, маъносини очиб бериш ва ҳ.к.

Универсал эстетик қийматларни шакллантириш; Бу умум гўзалик, нафосат, санъатга бўлган инсоннинг қарашларини ифодалайди.

Турли цивилизацион маконларни яқинлаштириш; Бу инсоният тараққиётининг турли моддий ва маънавий маданият даражасини яқинлигини таминловчи жараён.

Толерантликни мустаҳкамлаш-яъни бу барикенглик, бошқа миллат вакилларилариинг қарашлари, урф-одатлари, анъаналари, уларнинг этиқодлари, яшаш тарзи ва хулқ-атворини ҳурмат қилиш шу билан бирга уларни тушуниншдир.

III. Ижрочилик – маънолар трансляцияси ва интерпретацияси. Маданият ва санъатнинг турли йўналишларида ижод билан шуғулланиб келган ижодкорлар, хоҳ у театр актёрлари, ёки бастакор-қўшиқчи, созанда, тасвирий санъат вакили рассомлар, қўғирчоқ театри актёрлари ёки сухандонлар, ўзининг ижрочилик йўналишини радио, телевидение, интерет тармоқларига, симли ёки тўлқинли воситалар орқали муайян масофага узатиш ва кўрсатиш жараёнида ижрочилик трансляция ва интерпретация фақат ташқи техник ҳолатда эмас, балки ижрочиликни тўлақонли маънавий ва интеллектуал фаолиятдир. Ижрочи асарни муайян равишда юқори истедод билан маданий контекстда талқин қилади ва уни янги аудиторияга етказади.

Clifford Geertz таъкидлаганидек, маданиятни тушуниш “чуқур тавсиф”ни талаб қилади [3]. Ижрочи айнан шу “чуқур тавсиф”ни амалга оширувчи субъектдир.

Маданиятлараро интеграция шароитида ижрочилик: маданий сезгирлик; интерпретацион компетенция; эстетик масъулият; профессионал тайёргарликни талаб қилади.

Ижрочи маданиятлар ўртасида маъно кўчириш функциясини бажаради. Шу жиҳатдан, ижрочилик маданий дипломатиянинг самарали воситаси сифатида намоён бўлади.

Ижрочилик ижодий ғояларни амалиётга татбиқ этиш босқичидир. У фақат техник маҳорат эмас, балки маданий контекстни англаш ва уни тўғри талқин қилиш қобилиятини талаб этади.

Dmitry Likhachev маданий меросни сақлаш ва уни келажак авлодларга етказишда маънавий масъулият муҳимлигини таъкидлайди. [10]. Ижрочи айнан шу масъулиятни ўз зиммасига олади.

Ижрочилик жараёнида: асар мазмуни бошқа маданий муҳитга мослаштирилади; маънолар интерпретация қилинади; аудитория билан коммуникатив алоқа ўрнатилади. Бу жараён маданиятлараро интеграциянинг амалий босқичи ҳисобланади.

IV. Замонавий муаммолар ва истиқболлар. Маданиятлараро интеграциянинг маънавий ва ижтимоий аҳамияти. Глобаллашув шароитида маданиятлараро интеграция қатор зиддиятлар билан

кечмоқда. Zygmunt Bauman замонавий жамиятни “суюқ модернлик” тушунчаси орқали тавсифлаб, маданий барқарорликнинг нисбийлашувини кўрсатади [11].

Шу билан бирга, рақамли технологиялар маданий мулоқот имкониятларини кенгайтирмоқда. Онлайн платформалар, виртуал фестиваллар ва глобал ижодий ҳамкорлик шакллари маданиятлараро интеграциянинг янги босқичини белгиламоқда.

Бироқ интеграция жараёнида қуйидаги хавфлар мавжуд: маданий стандартизация; оммавий маданиятнинг устуворлиги; миллий анъаналарнинг маргиналлашуви. Шу сабабли интеграция жараёни мувозанатли маданий сиёсат асосида амалга оширилиши лозим. Маданиятлараро интеграция жамият барқарорлиги ва маънавий тараққиёт учун муҳим омилдир. У миллатлар ўртасида ўзаро ишонч ва ҳамжиҳатликни шакллантиради.

Ўзбекистонда миллий маданиятни ривожлантириш ва уни халқаро майдонда намоён этиш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади. Бу маданий дипломатия орқали интеграцияни кучайтириш имконини беради. Интеграция жараёнида қуйидаги тамойиллар муҳим: Миллий идентикликни сақлаш. Тенг ҳуқуқли мулоқот. Маданий хилма-хилликни рағбатлантириш. Ижодий эркинлик.

Хулоса қилиб маданиятлараро интеграцияни кучайтиришда ижодкорлик ва ижрочилик ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Ижодкорлик маданий синтезни таъминласа, ижрочилик ушбу синтезни жамиятга етказади. Интеграция жараёни фақат мулоқот ва ўзаро ҳурмат асосида самарали бўлиши мумкин.

Глобаллашув шароитида миллий маданиятларни сақлаш ва уларни халқаро маданий маконда муносиб намоён этиш маданиятшунослик фанининг устувор вазифаларидан бири бўлиб қолмоқда.

Давлат маданий сиёсати маданиятлараро интеграцияни қўллаб-қувватлашда муҳим восита ҳисобланади. Миллий меросни асраш, халқаро фестиваллар, ижодий лойиҳалар ва таълим дастурлари маданий ҳамкорликни кучайтиради. Улар миллий маданиятни асраш билан бирга уни жаҳон маданий маконига олиб чиқиш имконини беради. Шунинг учун бугунги куннинг замон талаби, ижодий ва ижро фаолиятини илмий асосда ривожлантириш долзарб вазифадир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008.

2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021.

3. Абдуллаев М. Маданий интеграция жараёнлари. // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар журнали. – Тошкент, 2018. – №3.

4. Шарипов Р. Ижодкорлик феномени ва унинг ижтимоий аҳамияти. // Маънавият журнали. – Тошкент, 2017. – №2.

Изоҳлар

1. Mikhail Kagan. Философия культуры. — Санкт-Петербург, 1996.
2. Erkin Yusupov. Миллий ва умуминсоний қадриятлар уйғунлиги. — Тошкент, 2004.
3. Clifford Geertz. The Interpretation of Cultures. New York: Basic Books, 1973.
4. Edward Said. Culture and Imperialism. New York: Vintage Books, 1993.
5. Samuel P. Huntington. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. New York: Simon & Schuster, 1996.
6. Viktor Bibler. Диалог культур. — Москва, 1991.
7. Yuri Lotman. Семиосфера. — Санкт-Петербург, 2000.
8. Boris Yerasov. Социальная культурология. — Москва, 1997.
9. Pierre Bourdieu. Distinction: A Social Critique of the Judgement of Taste. Harvard University Press, 1984.
10. Dmitry Likhachev. Письма о добром и прекрасном. — Москва, 1985.
11. Zygmunt Bauman. Culture in a Liquid Modern World. Cambridge: Polity Press, 2011.

ЖАҢА ӨЗБЕКСТАНДА МӘДЕНИЙ ЖУМЫСЛАРДЫ РАЎАЖЛАНДЫРЫЎ ЎАЗЫЙПАЛАРЫ

Сапарбаева Гулчира Абатовна
ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы, «Мәденият искерлиги» кафедрасы баслығы, профессор

Jańa Ózbekstanda ámelge asırılıp atırǵan keń kólemli reformalar processinde mádeniy oraylar jámiyettiń mánáwiy-aǵartıwshılıq rawajlanıwında áhmiyetli esaplanadı. Bul mákemeniń jumısın rawajlandırıw milliy qádiriyatlardı qásterlep saqlaw, jas áwladtı watansúyiwshilik ruwxında tárbiyalaw hám mádeniyatlararalıq qatnasıqlardı bekkemlewge xızmet etedi.

Mádeniyat oraylarınıń iskerligin rawajlandırıwdıń tiykarǵı wazıypalarınan biri xalıqtıń mádeniy talapların qanaatlandırıw hám bos waqtın mazmunlı shólkemlestiriw bolıp tabıladı. Sonday-aq, xalıq awız-eki dóretiwshiligi, dástúrler, úrp-ádetler hám milliy kórkem óner úlgilerin úgit-násiyatlaw arqalı milliy ózlikti ańlawdı kúsheytiw úlken áhmiyetke iye.

Búgingi kúnde mádeniy oraylardıń jumısına zamanagóy málimleme-kommunikaciya texnologiyaların engiziw, sanlı mádeniy xızmetlerdi keńeytiw, jas talantlılardı qollap-quwatlaw hám xalıqaralıq mádeniy birge islesiwdi rawajlandırıwdan ibarat wazıypalar bewlgilenedi. Bunnan tısqarı, mádeniyat oraylarınıń materiallıq-texnikalıq bazasın bekkemlew, kadrlardı jetilistiriw hám innovaciyalıq joybarlardı ámelge asırıw iskerliktiń nátiyjeliligin asırıwǵa xızmet etedi.

Jańa Ózbekstanda mádeniyat oraylarınıń jumısın rawajlandırıw jámyiettiń mánáwiyatın jetilistiriw, milliy mádeniyattıń rawajlanıwı hám jaslar

tárbiyasında áhmiyetli faktor bolıp, mámlekettiń turaqlı túrde alǵa ilgerlewine múnásip úles qosadı.

Sociallıq rawajlanıw processlerinde mádeniyat tarawına ayrıqsha itibar qaratılmaqta. Sebebi, mádeniyat xalıqtıń mánáwiy kórinisin belgileytuǵın, milliy ózlikti saqlawshı hám jámiyet rawajlanıwın támiyinlewshi bolıp tabıladı. Usı kózqarastan, mádeniyat oraylarınıń iskerligin jetilistiriw mámleketlik siyasattıń tiykarǵı baǵdarlarınan sanaladı.

Mádeniyat orayları tek ǵana mádeniy ilajlar ótkeriletuǵın orın emes, al xalıqtıń mánáwiy jetikligine kómeklesiwshi, dóretiwshilik potencialdı júzege shıǵarıwda, atap aytqanda jaslardı bárkamal insan etip tárbiyalawda, milliy qádiriyatlardı keńnen úgit-násiyatlawda sociallıq institut bolıp xızmet etedi.

Mádeniy oraylardıń jámiyet rawajlanıwındaǵı ornı - milliy mádeniyat hám dástúrlerdi qásterlep saqlaw tiykarǵı máselege aylanbaqta. Mádeniyat orayları xalıqtıń tariyxıy esteliklerin saqlaw, mádeniy miyrastı áwladtan-áwladqa jetkeriw hám milliy identifikaciyanı bekkemlew wazıypaların atqaradı.

Mádeniy oraylardıń jumısı arqalı:

- milliy úrp-ádet hám dástúrler úgit-násiyatlanadi;
-kórkem óner hám ádebiyattıń rawajlanıwına kómeklesedi;
- xalıqtıń, ásirese, jaslardıń estetikalıq talǵamı qáliplestiriledi;
- mánáwiy-aǵartıwshılıq ilajlar shólkemlestiriledi;
- sociallıq belsendilik hám puqaralıq mádeniyatı rawajlandırıladı.

Mádeniyat oraylarında jaslar tárbiyası máselesi jámiyettiń keleshegin belgileytuǵın tiykarǵı kúsh esaplansa, jumıs mazmunını - milliy hám ulıwma insanıylıq qádiriyatlardı úgit-násiyatlaw maqsetli kórsetkish sıpatında belgilenedi. Usı kóz qarastan, mádeniyat oraylarında shólkemlestirilgen hár qıylı dógerekler, dóretiwshilik studiyalar, teatr hám muzıka jámáátleri arqalı jaslardıń bos waqtın mazmunlı shólkemlestiriw baslı wazıypa bolıp esaplanadı.

Búgingi kúnde jaslardı hár qıylı jat ideyalar hám zıyanlı informaciyalardan qorǵawda mádeniy jumıslardıń is usıllarńn qollanıw kerek. Mádeniyat oraylarında shólkemlestiriletuǵın túrli tematikaǵa baǵıshlanǵan mádeniy ilajlar, kitapqumarlıqtı úgit-násiyatlaw, milliy kórkem óner festivalları hám dóretiwshilik ushırasıwlar, jaslardıń dúnyaǵa kózqarasın keńeytedi hám olardı watansúyiwshilik ruwxında tárbiyalaydı.

Mádeniyat oraylarınıń iskerligin rawajlandırıwda tómendegi wazıypalardı óz ishine aladı:

- Mádeniyat oraylarınıń materiallıq-texnikalıq bazasın bekkemlew.
- Zamanagóy mádeniy infrastrukturanı jaratıw.
- Maman kadrlar tayarlaw hám olardıń kásiplik sheberligin arttırıw.
- Jaslar hám xalıqtıń barlıq qatlamların mádeniy jumısqa keńnen tartıw.
- Innovaciyalıq hám sanlı texnologiyalardı engiziw.
- Mádeniy miyrastı saqlaw hám ǵalabalıq en jaydırıw.
- Xalıqaralıq mádeniy baylanıslardı keńeytiw.
- Dóretiwshi jaslardı qollap-quwatlaw hám xoshametlew.

- Mádeniyat hám kórkem óner tarawında mámleketlik-jeke menshik sheriklik mexanizmlerin rawajlandırıw.
- Mádeniy xızmetlerdiń sapasın arttırıw hám olardıń ǵalabalıǵın támiyinlew.
- Mádeniyat oraylarında servis xızmetlerin engiziw.
- Mediya iskerligin qollap quwatlaw.

Mádeniyat oraylarında zamanagóy talaplar tiykarında jumıs alıp barıwılıwı, innovaciyalıq texnologiyalardı engiziw hám xalıqaralıq birge islesiwdi keńeytiw mámlekettiń mádeniy potencialın bunnan bılay da arttırıwǵa xızmet etedi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar.

1.A.Umarov, U.Qoraboyev. Madaniy dam olishning ilmiy asoslari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2022.

2.U.Qoraboyev. Madaniy tadbirlar T.: “Toshkent kartografiya fabrikasi”. 2003.

3. M.Xolmuminov. Milliy madaniyat- renessans poydevori. [Matn]: monografiya.Toshkent: “Donishmand ziyosi”, 2024.-160 bet.

4. V.Rustamov. Ommaviy bayramlar rejissurasi. T.: 2008

5. G.A.Saparbaeva, P.Q.Paluaniyazov Mádeniy ilajlar. Oqıw qollanba.Tashkent.: “Fan ziyosi” 2022.

ЯНГИ ЎЗБЕКСТОНДА ТУРМУШ МАДАНИЯТИ

Хафиза Абдуллаева Олимҳоджаевна
ЎзДСМИ доценти

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi O‘zbekiston sharoitida turmush madaniyatining mazmuni, uning jamiyat rivojidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy qadriyatlar, ma’naviy tarbiya, sog‘lom turmush tarzi hamda zamonaviy axborot texnologiyalarining inson hayotidagi ta’siri yoritib beriladi. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti insonlarning madaniy saviyasi va turmush tarziga bevosita bog‘liq ekanligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: turmush madaniyati, yangi O‘zbekiston, ma’naviyat, milliy qadriyatlar, sog‘lom turmush tarzi, yoshlar tarbiyasi.

Аннотация: В данной статье анализируется содержание культуры жизни в условиях нового Узбекистана, её роль и значение в развитии общества. Также освещается влияние национальных ценностей, духовного воспитания, здорового образа жизни и современных информационных технологий на жизнь человека. Научно обосновано, что сегодня развитие общества напрямую связано с культурным уровнем и образом жизни людей.

Ключевые слова: культура жизни, новый Узбекистан, духовность, национальные ценности, здоровый образ жизни, воспитание молодёжи.

Abstract: This article analyzes the content of the culture of life in the conditions of new Uzbekistan, its role and significance in the development of society. It also highlights the impact of national values, spiritual education, a healthy lifestyle, and modern information technologies on human life. It is scientifically substantiated that today the development of society is directly related to the cultural level and lifestyle of people.

Keywords: culture of life, new Uzbekistan, spirituality, national values, a healthy lifestyle, youth education.

Kirish: Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olmoqda. Ayniqsa, inson qadrini ulug‘lash, aholining turmush darajasini oshirish hamda ma’naviy muhitni yanada boyitish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunday jarayonda turmush madaniyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Turmush madaniyati — bu insonning kundalik hayotdagi xulq-atvori, odob-axloqi, yashash muhiti, jamiyat bilan munosabati hamda ma’naviy qarashlarini o‘z ichiga oluvchi tushunchadir. U nafaqat shaxsiy hayot sifati, balki jamiyat taraqqiyoti bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Har bir jamiyatning taraqqiyoti undagi insonlarning madaniy saviyasi va ma’naviy darajasi bilan belgilanadi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida turmush madaniyatini yuksaltirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki jamiyat rivoji, avvalo, ongli, bilimli, ma’naviy barkamol insonlarni tarbiyalash orqali ta’minlanadi. Shu bois turmush madaniyati masalasi nafaqat ijtimoiy, balki ma’naviy va tarbiyaviy ahamiyatga ham ega.

Asosiy qism: Turmush madaniyatining mazmuni va mohiyati, turmush madaniyati inson hayotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U kundalik hayotda namoyon bo‘ladigan axloqiy me’yorlar, ijtimoiy munosabatlar, mehnat madaniyati va oila muhitini o‘z ichiga oladi. Turmush madaniyatining asosiy vazifasi inson hayotini tartibli, mazmunli va uyg‘un tashkil etishdan iboratdir.

Turmush madaniyati quyidagi asosiy jihatlarni o‘z ichiga oladi:

shaxsning odob-axloqi, oila madaniyati, mehnat madaniyati, jamiyatga munosabat, atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan qarash Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida ana shu jihatlar muhim o‘rin tutadi. Chunki madaniyatli inson jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir.

Yangi O‘zbekiston sharoitida ma’naviy qadriyatlarning o‘rni bugungi kunda mamlakatimizda milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda. Ajdodlarimizdan meros bo‘lib kelayotgan odob-axloq qoidalari, mehmondo‘stlik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi fazilatlar turmush madaniyatining muhim qismi hisoblanadi.

Ma’naviy qadriyatlar jamiyat barqarorligini ta’minlaydi. Ayniqsa, yosh avlodni milliy an’analar ruhida tarbiyalash muhim vazifalardan biridir. Chunki

ma’naviy jihatdan barkamol yoshlar kelajakda jamiyatning yetuk vakillariga aylanadi.

Shu sababli ta’lim tizimi, oila va jamiyat hamkorligida yoshlarning ma’naviy dunyosini boyitish muhim vazifa hisoblanadi.

Sog‘lom turmush tarzi va uning ahamiyati: Turmush madaniyatining muhim jihatlaridan biri sog‘lom turmush tarzidir. Sog‘lom turmush tarzi insonning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

- Sog‘lom turmush tarzining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:
- muntazam sport bilan shug‘ullanish:
- to‘g‘ri ovqatlanish:
- zararli odatlardan voz kechish:
- shaxsiy gigiyenaga rioya qilish:
- dam olish va mehnatni to‘g‘ri tashkil etish:

Bugungi kunda mamlakatimizda sportni rivojlantirish, aholini jismoniy faollikka jalb qilish hamda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Bu esa turmush madaniyatining yuksalishiga xizmat qiladi.

Axborot texnologiyalari va turmush madaniyati: Zamonaviy jamiyatda axborot texnologiyalari inson hayotining ajralmas qismiga aylangan. Internet, mobil aloqa vositalari va ijtimoiy tarmoqlar insonlarning kundalik hayotiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda.

Biroq axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanish muhimdir. Chunki noto‘g‘ri foydalanish inson vaqtining samarasiz sarflanishiga yoki ma’naviy muammolarga olib kelishi mumkin.

Shu sababli yoshlarni internet madaniyatiga o‘rgatish, axborotni tanlash va undan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim hisoblanadi. Axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish esa insonning bilim darajasi va dunyoqarashini kengaytiradi.

Oila madaniyati va jamiyat barqarorligi: Oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy instituti hisoblanadi. Oila muhitida shakllangan tarbiya insonning butun hayotiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli oila madaniyati turmush madaniyatining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir.

- Oila madaniyati quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:
- oila a’zolari o‘rtasidagi hurmat va mehr:
- farzandlar tarbiyasi:
- oilaviy an’analar:
- ma’naviy muhit:

Mustahkam oila jamiyat barqarorligining muhim omillaridan biridir. Yangi O‘zbekistonda oilani qo‘llab-quvvatlash, yosh oilalar uchun sharoit yaratish hamda farzandlar tarbiyasiga e’tibor qaratish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, turmush madaniyati jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Insonning kundalik hayoti, ma’naviy dunyosi va jamiyat bilan munosabati aynan turmush madaniyati orqali namoyon bo‘ladi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida turmush madaniyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Milliy qadriyatlarni asrash, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, yoshlarni ma’naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining muhim shartidir.

Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanish, oila muhitini mustahkamlash va ma’naviy muhitni boyitish orqali turmush madaniyatini yanada yuksaltirish mumkin.

Demak, turmush madaniyatini rivojlantirish orqali jamiyatda ma’naviy barkamol, bilimli va faol fuqarolarni shakllantirish mumkin. Bu esa Yangi O‘zbekistonning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, O‘zbekiston nashriyoti.

3. Abdurahmonov Q.X. Ijtimoiy taraqqiyot va ma’naviyat. Toshkent.

4. To‘xtayev B. Ma’naviyat asoslari. Toshkent, O‘qituvchi nashriyoti.

5.Turmush madaniyati va ma’naviyatga oid ilmiy maqolalar va internet manbalari.

КИТАПХАНАШЫЛЫҚТЫ ҮГИТ-НӘСИЯТЛАУДА ПЕДАГОГИКАЛЫҚ ШЕБЕРЛИКТИҢ ӘҲМИЙЕТИ

Шарипова Дилбархан
ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы доценти

Annotaciya Bul ilimiy maqalada kitapxanashılıq jumısın úgit-násiyatlawda pedagogikalıq sheberliktiń ornı, zamanagóy kitapxanashı kompetenciyaları hám kitapqumarlıq mádeniyatın qáliplestiriw usılları tallanadı. Sonday-aq, málimleme texnologiyaları rawajlanǵan dáwirde kitapxanashınıń pedagog sıpatındaǵı wazıypaları hám jaslardıń mánawiyatın arttırıwdaǵı roli sáwlelendiriledi.

Tayanish sózler: kitapxanashılıq, pedagogikalıq sheberlik, kitapqumarlıq mádeniyatı, málimleme-resurs orayı, mánawiyat, innovaciyalıq texnologiyalar, bilimlendiriw.

Búgingi kúnde dúnya kóleminde júz berip atırǵan globallasıw processleri, málimleme texnologiyalarınıń jedel rawajlanıwı hám sanlı ortalıqtıń keńeyip barıwı jámiyetlik turmıstıń barlıq tarawlarına sezilerli tásir kórsetpekte. Ásirese, jas áwladtıń dúnyaqarası, pikirlew sheńberi hám ruwxıy tárbiyasında málimleme aǵımınıń ornı barǵan sayın artıp barmaqta. Sonlıqtan jaslardı durıs málimleme dáreklerine baǵdarlaw, olarda kitapqumarlıq mádeniyatın qáliplestiriw, erkin pikirlew hám intellektuallıq potencialdı rawajlandırıw búgingi kúnniń eń áhmiyetli máselelerinen biri bolıp esaplanadı. Bul wazıypalardı ámelge asırıwda kitapxanalar hám málimleme-resurs orayları

áhmiyetli ruwxıy-aǵartıwshılıq mákan sıpatında xızmet etedi. Kitapxana ázelden ilim, aǵartıwshılıq hám mádeniyat orayı sıpatında jámiyettiń rawajlanıwında áhmiyetli orın iyelep kelgen. Házirgi dáwirde bolsa kitapxanalar tek ǵana kitap saqlanatuǵın orın emes, al málimleme almasıw, bilim alıw, ruwxıy jetiklikke erisiw hám jaslardı tárbiyalawǵa xızmet etetuǵın zamanagóy bilimlendiriw orayına aylanıp barmaqta. Usı tárepten kitapxanashılıq jumısınıń mazmunı da barǵan sayın keńeyip, zamanagóy talaplar tiykarında jetilisip barmaqta.

Búgingi zamanagóy kitapxanashı tek ǵana kitap beriwshi qánige emes, al pedagog, psixolog, úgit-násiyatlawshı hám ruwxıy jetekshi sıpatında da jumıs alıp baradı. Ol paydalanıwshılardıń informaciyaǵa bolǵan talabın anıqlaydı, olarǵa kerekli ádebiyatlardı usınadı, kitap oqıwǵa qızıǵıwshılıqtı arttırıwǵa xızmet etetuǵın túrli mádeniy-aǵartıwshılıq ilajlardı shólkemlestiredi. Ásirese, jaslar menen islesiwde kitapxanashınıń pedagogikalıq sheberligi úlken áhmiyetke iye. Sebebi jaslardıń qızıǵıwshılıǵı, dúnyaqarası hám psixologiyalıq ózgesheliklerin esapqa alǵan halda islew joqarı kásiplik tayarlıqtı talap etedi.

Pedagogikalıq sheberlik - bul bilimlendiriw hám tárbiya procesin nátiyjeli shólkemlestiriw, insan qálbine jol taba alıw, tásirsheń qarım-qatnas ornata alıw hám de bilimdi túsinikli hám qızıqlı tárizde jetkerip beriw qábileti esaplanadı. Kitapxanashılıq jumısında pedagogikalıq sheberlik kitapqumarlardı kitap oqıwǵa tartıw, olarda kitapqa mehir oyatıw, ruwxıy qádiriyatlarǵa húrmet sezimin qáliplestiriwde áhmiyetli qural esaplanadı. Ásirese, búgingi kúnde jaslardıń internet hám sociallıq tarmaqlarǵa kóbirek qızıǵıwshılıǵı baqlanıp atırǵan bir waqıtta kitapqumarlıqtı úgit-násiyatlawda zamanagóy pedagogikalıq qatnaslardan paydalanıw zárúr bolıp qalmaqta. Kitapxanashılıqtı úgit-násiyatlawda innovaciyalıq texnologiyalar, interaktiv usıllar hám sanlı platformalardan paydalanıw nátiyjelilikti arttıradı. Elektron kitapxanalar, onlayn kitap prezentaciyaları, virtual kórgizbeler, audiokitaplar hám sociallıq tarmaqlar arqalı alıp barılıp atırǵan úgit-násiyatlaw jumısları jaslardıń kitapqa bolǵan qızıǵıwshılıǵın kúsheytiwde áhmiyetli faktor bolıp xızmet etpekte. Sonıń menen birge, kitapxanashı tárepinen shólkemlestiriletuǵın dógerek sáwbetleri, ushırasıwlar, mushayralar hám kitapqumarlıq tańlawları jaslardı ruwxıy jaqtan bárkamal etip tárbiyalawda úlken áhmiyetke iye. Elimizde de kitapqumarlıq mádeniyatın rawajlandırıw, kitapxanalardıń jumısın modernizaciyalaw hám jaslardı kitapqumarlıqqa keńnen tartıw boyınsha bir qatar mámleketlik baǵdarlamalar hám reformalar ámelge asırılmaqta. Atap aytqanda, málimleme-kitapxana sistemasın rawajlandırıw, elektron resurslardı keńeytiw, xalıqqa zamanagóy xızmet kórsetiwdiń sapasın arttırıw boyınsha alıp barılıp atırǵan jumıslar kitapxanashılıq tarawınıń jáne de rawajlanıwına xızmet etpekte.

Pedagogikalıq sheberlik tómendegi, kommunikativ qábilet, kitap úgit-násiyatlaw usılların biliw, sóylew mádeniyatı, psixologiyalıq qatnas, innovaciyalıq texnologiyalardan paydalanıw siyaqlı quramlıq bólimlerdi óz ishine aladı.Házirgi dáwirde kitapxanashılıqtı úgit-násiyatlawdıń dástúriy

formaları menen bir qatarda innovaciyalıq usıllar da keń qollanılmaqta. Sonnan, kitap prezentaciyaları hám dógerek sáwbetleri bolıp, bunday ilajlar jaslardıń kitapqa bolǵan qızıǵıwshılıǵın arttıradı hám olarda erkin pikir alısıw ortalıǵın jaratadı. Elektron kitapxanalar, sanlı texnologiyalar tiykarında shólkemlestirilgen elektron kitapxanalar paydalanıwshılarǵa tez hám qolaylı xızmet kórsetedi. Bul bolsa kitapxanashıdan IKT boyinsha bilim hám kónlikpelerdi talap etedi. Social tarmaqlar arqalı úgit-násiyatlawda, Telegram, Instagram hám Facebook sıyaqlı platformalar arqalı kitap usınısları, jańa ádebiyatlar haqqında maǵlıwmat beriw jaqsı nátiyje bermekte. Kitapxanashılıqtı rawajlandırıw hám kitapqumarlıq mádeniyatın arttırıwda pedagogikalıq sheberlik áhmiyetli orın iyeleydi. Zamanagóy kitapxanashı óz jumısında pedagogikalıq qatnas, innovaciyalıq texnologiyalar hám nátiyjeli kommunikaciya usıllarınan paydalanıwı zárúr. Bul bolsa jas áwladtıń ruwxıy hám intellektuallıq rawajlanıwına xızmet etedi.Keleshekte kitapxanashılıq tarawında pedagogikalıq texnologiyalardı keńnen engiziw, kitapxanashılardıń mamanlıǵın arttırıw hám sanlı xızmetlerdi rawajlandırıw áhmietli wazıypa bolıp qaladı.

Ádebiyatlar:

1. Yuldashev J. "Pedagogikalıq sheberlik tiykarları." - Tashkent: Óqituvchi, 2020.

2. Karimov I.A. "Joqarı mánawiyat - jeńilmes kúsh." - Tashkent, 2008.

3. Qosimova M. "Kutubxonachilik va axborot texnologiyalari." - Tashkent, 2021.

4. Ózbekstan Respublikasının "Málimleme-kitapxana xizmeti haqqında"gi Nizamı.

ЖАСЛАР МӘДЕНИЯТЫ ҲӘМ МӘНАЎИЯТЫН ҚӘЛИПЛЕСТИРИЎДЕ СОЦИАЛЛЫҚ ТАРМАҚЛАРДЫҢ ОРНЫ ҲӘМ ТҮРИ

Өтегенова Шийрин
ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы 1-курс магистранты
Илимий басшысы, ***Юсупов Қуўанышбай Балтабаевич***
ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы директоры,
философия илимлери бойынша
философия докторы (PhD), доцент

Annotaciya. Bul maqalada jaslar mádeniyatınıń hám mánáwiyatınıń qáliplesiwinde sociallıq tarmaqlardıń ornı hám tásiri talıqlanadı. Zamanagóy sanlı ortalıqta jaslardıń dúnyaqarası, qádiriyatları hám minez-qulqına sociallıq platformalardıń tásiri keńnen sáwlelendirilgen. Maqalada sociallıq tarmaqlardıń unamlı hám unamsız tárepleri, olardıń jaslar turmısındaǵı áhmiyeti hám usı processti nátiyjeli basqarıw máseleleri kórip shıǵıladı. Sonday-aq, mediya sawatlılıqtı arttırıw, pedagogikalıq qatnas tiykarında jaslardı durıs baǵdarlaw boyınsha usınıslar berilgen.

Gilit sózler. Jaslar mádeniyatı, ruwxıylıq, sociallıq tarmaqlar, sanlı ortalıq, mediya sawatlılıq, kreativlik, globallasıw, kommunikaciya, informaciyalıq texnologiyaları, sociyallasıw, zamanagóy jámiyet.

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlar madaniyati va ma'naviyatining shakllanishida ijtimoiy tarmoqlarning o'rni va ta'siri tahlil qilinadi. Zamonaviy raqamli muhitda yoshlar dunyoqarashi, qadriyatlari va xulq-atvoriga ijtimoiy platformalarning ta'siri keng yoritilgan. Maqolada ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy va salbiy jihatlari, ularning yoshlar hayotidagi ahamiyati va ushbu jarayonni samarali boshqarish masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, media savodxonlikni oshirish, pedagogik yondashuv asosida yoshlarni to'g'ri yo'naltirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar. Yoshlar madaniyati, ma'naviyat, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli muhit, media savodxonlik, kreativlik, globallashuv, kommunikatsiya, axborot texnologiyalari, ijtimoiylashuv, zamonaviy jamiyat.

Аннотация. В данной статье анализируется роль и влияние социальных сетей на формирование культуры и духовности молодежи. В современной цифровой среде широко освещается влияние социальных платформ на мировоззрение, ценности и поведение молодёжи. В статье рассматриваются положительные и отрицательные стороны социальных сетей, их значение в жизни молодежи и вопросы эффективного управления этим процессом. Кроме того, были даны рекомендации по повышению медиаграмотности и правильной ориентации молодежи на основе педагогического подхода.

Ключевые слова: Молодежная культура, духовность, социальные сети, цифровая среда, медиаграмотность, креативность, глобализация, коммуникация, информационные технологии, социализация, современное общество.

Annotation: This article analyzes the role and influence of social networks in the formation of youth culture and spirituality. In the modern digital environment, the influence of social platforms on the worldview, values, and behavior of young people is widely reflected. The article examines the positive and negative aspects of social networks, their importance in the lives of young people, and issues of effective management of this process. Recommendations were also given on improving media literacy and guiding young people based on a pedagogical approach.

Key words: Youth culture, spirituality, social networks, digital environment, media literacy, creativity, globalization, communication, information technologies, socialization, modern society.

XXI ásir informaciya texnologiyaları ásiri sıpatında insaniyat turmısınıń barlıq tarawlarına túpkilikli ózgerisler alıp kirdi. Ásirese, jaslar mádeniyatınıń qáliplesiwinde sociallıq tarmaqlardıń roli keskin arttı. Búgingi kúnde Instagram, TikTok, Telegram sıyaqlı platformalar jaslardıń tek ǵana qarım-

qatnas quralı emes, al dúnyaqarası, estetikalıq talǵamı hám turmıs tárizin belgileytuǵın áhmietli faktorǵa aylanǵan.

Jaslar mádeniyatı - bul belgili bir jas toparına tán qádiriyatlar, minez-qulıq, dúnyaqaras hám turmıs táriziniń jıyındısı. Zamanagóy sharayatta bul mádeniyat dástúriy faktorlardan tısqarı, sanlı ortalıq tásirinde qáliplespekte.

Sociallıq tarmaqlar bolsa paydalanıwshılarǵa informaciya almasıw, sóylesiw, óz pikirin bildiriw hám kontent jaratıw imkaniyatın beretuǵın virtual platformalar bolıp tabıladı. Olar jaslar ushın:

• ózin kórsetiw maydanı;

• jana bilim alıw deregi.

• sociallasıw quralı sıpatında xızmet etedi.

Sociallıq tarmaqlardıń jaslar mádeniyatına unamlı tásiri tómendegilerden ibarat:

1. Kreativlik hám innovaciyanı rawajlandıradı.

Jaslar jańa ideyalar jaratıw, kontent islep shıǵıw arqalı dóretiwshilik pikirlewdi rawajlandıradı.

2. Bilim alıw imkaniyatın keńeytedi.

Onlayn kurslar, videosabaqlar hám paydalı betler arqalı bilim alıw ańsatlastı.

3. Global pikirlewdi qáliplestiredi.

Hár qıylı mádeniyatlar menen tanısıw arqalı keńpeyillik hám ashıq pikirlew rawajlanadı.

4. Ózin rawajlandırıw imkaniyatı.

Motivaciyalıq kontentler jaslardı óz ústinde islewge shaqıradı.

Jámiyettiń arnawlı toparı sıpatında jaslarǵa ilimiy qatnas jaslardıń turmıs tárizi hám mádeniyatınıń ózine tán ózgesheliklerin esapqa alǵan halda, gumanitar pánler boyınsha kóplegen jergilikli ilimpazlardıń miynetlerinde óz sáwleleniwin tapqan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoevtiń "Milliy tikleniwden - milliy rawajlanıwǵa qaray" shiǵarmasında jaslardı ruwxiy jetik insan etip tárbiyalaw, shın mánisindegi aǵartıwshılıq hám joqarı mádeniyat iyesi boliw úzliksiz jasaw zárúrligine aylanıwı, jaslardıń bilimi, dárejesin asırıw ushın ilim-aǵartıwshılıq, joqarı mánawiyat kerek ekenligi ilgeri súrilgen [1. 453-b]. M.Quronov, A.Qodirov, Sh.Akramovalar tárepinen - Jaslarda ideologiyalıq immunitetti qáliplestiriw! monografiyasında jaslardı ideyalıq etip tárbiyalaw, olarda ideologiyalıq immunitetti qáliplestiriw, sociallıq tarmaqlardaǵı jat ideyalar tásirine túsip qalıwınıń aldın alıw sıyaqlı máseleler taliqlanǵan[2.112-b]

Negizinde sociallıq tarmaqlardıń tiykarǵı wazıypası dáslep shólkemlestirilgen waqıtlarda adamlarǵa uzaqtaǵı tanısı menen baylanıs qılıw, olar arasında óz-ara onlayn baylanıstı jolǵa qoyıw edi. Biraq búgin olardıń funkciyaları barǵan sayın keńeyip barmaqta. Bárinen burın, jaslardıń sanasına hám mánawiyatına tásir kórsetiwdiń qúdiretli málimleme-siyasiy quralına aylanbaqta. Bul maqalada alǵa qoyılǵan temanıń aktuallıǵı házirgi kúnde qarama-qarsılıq bar ekenliginen kelip shıǵadı, yaǵnıy, bir tárepten, zamanagóy jas insandı sociallıq tarmaqlarsız kóz aldımızǵa keltiriw múmkin emes, ekinshi

tárepten, tásirdi baqlap barıw qıyın sociallıq tarmaqlar jaslardı qáliplestiriw, ruwxıy-ádep-ikramlılıq pazıyletlerdi tárbiyalaw bar. Sol sebepli, búgingi kúnde málimleme texnologiyaları insan iskerliginiń barlıq tarawlarına engizilmekte. Jaslar, ásirese, Internette qorǵawsız. Jáhán tarmaǵında turaqlı qatnasıw, ata-analar qadaǵalawınıń joqlıǵı, balalardıń málimleme mádeniyatın bilmew kóbinese óspirimlerdiń Internetke ǵárezli bolıwına alıp keliwi múmkin.

Globallasıw sharayatında ruwxıylıq máseleleri, jaslar ruwxıylıǵı, ruwxıy qádiriyatlar hám ruwxıy jańalanıwdıń ózgeshelikleri ǵárezsizliktiń dáslepki jıllarında T.Mahmudov, J.Tulenov, S.Shermuhamedov, A.Jalalov, E.YUsupov sıyaqlı belgili ilimpazlar tárepinen úyrenilgen bolsa, házirgi ruwxıy jańalanıwdıń túrli tárepleri B.Aliev, S.Otamurodov, S.Berdiqulov, D.Norqulov, A.Umarov, Sh.Madaeva, S.Mamashokirov, J.S.Ramatov, M.Qahharova, G.Tulenova, S.Raximov hám basqalar tárepinen izertlenbekte.

Jaslar mánawiyatın qáliplestiriw, ádep-ikramlılıq táǵdirdi belgilew hám ulıwma insanıylıq qádiriyatlardı dúnyaǵa engiziw mashqalası kóplegen áwlad izertlewshileri tárepinen islep shıǵılǵan máńgi máselelerden biri bolıp esaplanadı. Ruwxıylıq temasın qamtıp alǵan ilimiy ádebiyatlar júdá kóp, hár qıylı anıqlamalar, talqılawlar hám izertlew baǵdarların óz ishine aladı. Bul mashqalanı úyreniwge kózqaraslardıń hár qıylılıǵı, tiykarınan, ruwxıylıqtıń ulıwmalasqan teoriyasınıń joq ekenligi menen baylanıslı.

Qánigelerdiń pikirinshe, zamanagóy jámiyette sociallıq tarmaqlardan paydalanıwdıń tiykarǵı abzallıǵı sóylesiw erkinligi bolıp esaplanadı. Haqıyqatında da, búgin sociallıq, mádeniy, ekonomikalıq hám siyasiy barlıq tarawlarda global tarmaqtıń sheksiz imkaniyatların esapqa almaw, onnan belgili bir maqsetler jolında paydalanbaw, aytıw kerek bolsa, zamannan artta qalıw, degen sóz. Bul másele tikkeley jaslardıń jumısı hám mánawiyatına da tiyisli.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. 4 tom. - Tashkent: "Ózbekiston," 2020. - 453 b.

2. Quronov M., Qodirov A., Akramova Sh. Jaslarda ideologiyalıq immunitetti qáliplestiriw. - Tashkent: "Mánawiyat," 2018. -112 b.

3. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.* – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

ЎЗБЕКИСТОНДА КУТУБХОНАЧИЛИК ФАОЛИЯТИ

Даулова Зарина
ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы 1-курс студенти
Илимий басшысы, ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы
доценти ***Дилбархан Шарипова***

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda kutubxonachilik faoliyatining shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti, mustaqillik yillaridagi rivojlanish bosqichlari va zamonaviy kutubxonalar faoliyati yoritilgan. Shu bilan birga, axborot texnologiyalarining kutubxonachilik tizimidagi o‘rni, elektron kutubxonalar, bibliografik xizmatlar va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Maqolada kutubxonachilik faoliyatining dolzarb muammolari va istiqbollari ham ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Kutubxonachilik, axborot-kutubxona faoliyati, elektron kutubxona, bibliografiya, kitobxonlik madaniyati, axborot texnologiyalari, kutubxona fondi, bibliografik xizmat, raqamlashtirish, ma’naviyat.

Kirish. Hozirgi kunda kutubxonalarga davlatimiz tomonidan juda katta e’tibor qaratilmoqda. Kutubxonachilik jamiyatning ma’naviy, ilmiy va madaniy taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, O‘zbekistonda mustaqillik yillarida kutubxonalar faoliyatini rivojlantirish, aholining axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish hamda yosh avlodning kitobxonlik madaniyatini oshirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Zamonaviy kutubxonalar nafaqat kitob saqlovchi maskan, balki axborot-resurs markazi, ma’naviyat va ma’rifat o‘chog‘i sifatida faoliyat yuritmoqda va shu bilan birga biz yoshlarga ilm-ma’rifat yo’lini ham ochmoqda.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan kutubxonachilik faoliyati ham yangi bosqichga ko‘tarildi. Elektron kataloglar, virtual kutubxonalar, internet xizmatlari va elektron resurslardan foydalanish imkoniyatlari kengaydi. Bu esa foydalanuvchilarga tezkor va sifatli axborot xizmatini ko‘rsatishga xizmat qilmoqda va foydalanuvchilarning og’irini yengil qilmoqda .

O‘zbek xalqining boy yozma merosi qadimdan kutubxonachilik faoliyatining rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qilgan. Temuriylar davrida Samarqand, Buxoro va Hirot shaharlarida yirik kutubxonalar mavjud bo‘lgan. Ayniqsa, Mirzo Ulug‘bek va Alisher Navoiy davrida ilm-fan va kitobatga katta e’tibor berilgan. Yana bir ulug’ allomalarimizdan biri Abu Ali ibn Sino hukumdorlar saroyidagi katta kutubxonalardan o’zining bilimi, aqli va o’tkir zehni orqali ushbu kutubxonadan foydalanishsga ruxsat olgan.

Davlatning kutubxona-axborot sohasini rivojlantirishning ustuvor maqsadlari-fuqarolarning axborotdan erkin foydalanish bo’yicha konstitutsiyaviy huquqlarini ta’minlash, aholiga kutubxona-axborot xizmatini ko’rsatish tizimini rivojlantirish, milliy va jahon madaniy boyliklari, amaliy va

fundamental bilimlari bilan tanishtirish, shuningdek mamlakatimizning kutubxona-axborot muassasalrida mavjud milliy-madaniy merosni saqlashdan iborat.**[1;182]**

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakati ta'sirida yangi usul maktablari va kutubxonalar tashkil etildi. Bu davrda kitobxonlikni rivojlantirish hamda aholining savodxonligini oshirish asosiy maqsadlardan biri bo'lgan.

Sho'rolar davrida kutubxonalar davlat siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Respublika bo'ylab ommaviy, ilmiy va bolalar kutubxonalari tarmog'i shakllantirildi. Qadimgi davr va o'rta asrlardagi kutubxonalar haqidagi tarqoq ammo noyob ma'lumotlarni hikoya tarzidagi yozma manbalar-turonzaminning turkiyzabon va forsiyzabon xalqlarining fan, madaniyat, din, adabiyot, va san'at tarixiga oid tadqiqotlaridan olish mumkin.**[2;15]**

Mustaqilligimizdan so'ng O'zbekistonda kutubxonachilik tizimida bir qancha o'zgarishlar amalga oshirildi. Axborot-kutubxona faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qonunlar va davlat dasturlari qabul qilindi. Ayniqsa, 2006-yilda qabul qilingan "Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida"gi Qonun soha rivojida muhim huquqiy asos bo'ldi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda Milliy kutubxona, viloyat axborot-kutubxona markazlari, tuman axborot resurs markazlari, oliy o'quv yurtlari kutubxonalari hamda elektron kutubxonalar faoliyat olib bormoqda. Ular zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanib, kitobxonlarga qulay xizmat ko'rsatmoqda. Oliy o'quv yurtlari kitobxonlari o'zining bilimini, malakasini oshirish maqsadida elektron kutubxonalardan juda ham samarali foydalanishmoqda va darslik sifatida ham keng qo'llanmoqda. Bugungi kunda yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan kitobxonlik madaniyatini oshirish bo'yicha bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Kitobxon yoshlarga esa ko'plab imkoniyatlar eshigi ochilmoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi kutubxonalar faoliyatini sezilarli darajada o'zgartirdi. Elektron kataloglar orqali kerakli adabiyotlarni tez topish imkoniyati yaratildi. Bundan tashqari, masofaviy xizmatlar ham yo'lga qo'yildi.

Kutubxonachilik faoliyatida bibliografik xizmat ham muhim o'rin tutadi. Bibliografik ko'rsatkichlar, tavsiyanomalar va elektron ma'lumotlar bazalari foydalanuvchilarga kerakli manbalarni topishda yordam beradi.

Raqamlashtirish jarayoni kutubxonachilik faoliyatining ajralmas qismiga aylandi. Elektron kitoblar, onlayn ma'lumotlar bazalari va virtual xizmatlar kutubxona ishini samarali tashkil etishga yordam bermoqda.

Bugungi kunda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi tomonidan ko'plab elektron loyihalar amalga oshirilmoqda. Kutubxona foydalanuvchilarga masofadan turib xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirgan.

Shu maqsadda aholining elektron axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, kutubxona axborot muassasalarini birlashtirish va ularninyagona umumta'lim elektron kutubxona tizimiga ulash, idoralararo elektron hamkorlik tizimini takomillashtirish maqsadida „Milliy umumta'lim elektron kutubxona" loyihasi amalga oshirilmoqda**.[3;181]**

Internet tarmoqlari orqali xalqaro ilmiy bazalarga ulanish imkoniyati ham kengaydi. Bu esa talabalar, ilmiy tadqiqotchilar va o'qituvchilar uchun katta qulaylik yaratmoqda.

Shuningdek, QR-kodli kitoblar, elektron o'quv qo'llanmalar va audio kitoblar soni ortib bormoqda. Ayniqsa, pandemiya davrida onlayn kutubxona xizmatlarining ahamiyati yanada oshdi.

Zamonaviy kutubxonalar foydalanuvchilarga mahalliy va masofaviy rejimlarda xizmat ko'rsatuvchi, yangi axborot-kommunikatsuya texnologiyalarini joriy qiluvchi, o'z ma'lumotlar bazalari va avtomatlashtirilgan xizmatlarini yaratuvchi avtomatlashtirilgan kutubxona-axborot tizimlari (AKT) ko'rinishida faoliyat yuritadi. **[4;5]**

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda kutubxonachilik faoliyati uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar sohaning zamonaviy bosqichga ko'tarilishiga xizmat qildi. Hozirgi kunda kutubxonalar nafaqat kitob saqlash maskani, balki axborot va ma'naviyat markazi sifatida muhim vazifani bajarib kelmoqda.

Kelgusida axborot texnologiyalarini yanada keng joriy qilish, elektron kutubxonalarni rivojlantirish hamda yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini oshirish kutubxonachilik faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov M. Kutubxona-axborot faoliyatini boshqarish. - Toshkent: Donishmand ziyosi, 2023. 182-b
2. Oxunjonov E. Vatan kutubxonachiligi tarixi.-Toshkent:- Adolat, 2004. 15-b
3. Mahmudov M. Kutubxona-axborot faoliyatini boshqarish. -Toshkent: Donishmand ziyosi, 2023. 181-b
4. Xudayberdiyev S.A. kutubxonalarning dasturiy va texnik ta'minoti.- Toshkent: Shafoat nur fayz,2024. 5-b
5. Marjan Xudaybergenova Baltabaevna, & Abdullaeva Nurjamal Maxsudovna. (2025). FOYDALANUVCHI AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA KUTUBXONALARNING ROLI. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH*, *1*(4), 148–151. Retrieved from https://globalscholars.uz/index.php/ijsir/article/view/779
6. Sharipova, D. (2023). MÁLIMLEME – KITAPXANA MÁKEMELERINDE INNOVACIYALIQ ISKERLIKTI SHÓLKEMLESTIRIW. *Евразийский журнал академических исследований*, *3*(12), 26–30. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/24073

7. Qalbaeva , Z., & Aytimova , D.(2024). AXBOROT-KUTUBXONA FONDINING O‘ZIGA XOS BELGI VA XUSUSIYATLARI. *Евразийский журнал академических исследований*, *4*(12 Part 2), 84–88. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/42436

ЁШ АВЛОД ТАРБИЯСИДА КУТУБХОНА ХИЗМАТЛАРИНИНГ ПЕДАГОГИК ВА ИЖТИМОИЙ АСОСЛАРИ

Мамутова Салтанат
ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы 1-курс студенти
Илимий басшысы, ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы доценти ***Дилбар Айтымова***

ANNOTATSIYA: Mazkur ilmiy maqolada O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini takomillashtirishda kutubxona-axborot faoliyatining o‘rni kompleks tarzda tahlil qilinadi. Xususan, kutubxonalar faoliyatining pedagogik, ijtimoiy va ma’naviy jihatlari, ularning ta’lim tizimi bilan uzviy integratsiyasi hamda raqamli transformatsiya sharoitida yoshlar bilan ishlash mexanizmlari ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot davomida kutubxona xizmatlarining yoshlar ongiga ta’siri, kitobxonlik madaniyatini shakllantirishdagi roli hamda mavjud muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: kutubxona faoliyati, yoshlar tarbiyasi, ma’naviyat, kitobxonlik, axborot-resurs markazi, raqamli texnologiyalar, ta’lim integratsiyasi.

АННОТАЦИЯ: В данной научной статье комплексно анализируется роль библиотечно-информационной деятельности в совершенствовании воспитания молодежи в Узбекистане. Особое внимание уделяется педагогическим и духовным аспектам деятельности библиотек, их интеграции в образовательную систему, а также использованию цифровых технологий. Рассматриваются проблемы формирования читательской культуры и предлагаются пути их решения.

Ключевые слова: библиотека, воспитание молодежи, духовность, чтение, информационные ресурсы, цифровизация.

ABSTRACT: This scientific article comprehensively analyzes the role of library and information activities in improving youth education in Uzbekistan. It highlights pedagogical, social, and spiritual aspects of libraries, their integration into the educational system, and the role of digital transformation. The study also examines reading culture, existing challenges, and possible solutions.

Keywords: library activity, youth education, spirituality, reading culture, digital technologies, information resources.

KIRISH - Zamonaviy jamiyat taraqqiyotida yoshlar masalasi alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning intellektual salohiyati, ma’naviy yetukligi va ijtimoiy faolligi mamlakat rivojining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, yoshlar tarbiyasini samarali tashkil etishda turli ijtimoiy institutlar qatorida kutubxona-axborot muassasalarining o‘rni beqiyosdir.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda kutubxona tizimini modernizatsiya qilish, uni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan integratsiyalash va yoshlar ehtiyojlariga moslashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada kutubxonalar an’anaviy kitob saqlash maskanidan zamonaviy axborot va ma’naviyat markaziga aylanmoqda. [To‘xtayev S, 15-bet]

Mazkur maqolaning maqsadi — kutubxona faoliyatini rivojlantirish orqali yoshlar tarbiyasini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini ilmiy asosda yoritishdan iborat.

ASOSIY QISM

Kutubxona faoliyati bugungi kunda nafaqat axborot yetkazib berish, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, yoshlar tarbiyasida kutubxonalarning o‘rni ularning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish, bilim olishga bo‘lgan ehtiyojni oshirish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan belgilanadi. Yoshlar ongiga ta’sir ko‘rsatishda kitobxonlik madaniyatining o‘rni beqiyosdir. Kitob mutolaasi orqali inson tafakkuri kengayadi, nutqi boyiydi va hayotiy qarorlar qabul qilishda mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi. Shu sababli kutubxonalar tomonidan tashkil etilayotgan turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, kitob taqdimotlari, ijodiy uchrashuvlar yoshlar tarbiyasida muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. [Karimov I, 48-bet]

Shuningdek, zamonaviy kutubxonalar faoliyatida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Elektron kutubxonalar, onlayn ma’lumotlar bazalari, mobil ilovalar orqali yoshlar uchun axborot olish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa yoshlarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. [Axmedov A, 33-bet]

Kutubxona faoliyatining yana bir muhim jihati uning ta’lim tizimi bilan integratsiyasidir. Maktab va oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda olib borilayotgan loyihalar yoshlarning bilim darajasini oshirish bilan birga, ularning ma’naviy barkamolligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Masalan, “Yosh kitobxon” tanlovlari, ilmiy seminarlar va o‘quv mashg‘ulotlari orqali yoshlarning kutubxonaga bo‘lgan qiziqishi ortmoqda. [Xasanov B, 52-bet]

Bundan tashqari, kutubxonalar yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ular yoshlarni turli zararli odatlardan himoya qilish, ularni ijtimoiy faol va ma’naviy yetuk shaxs sifatida shakllantirishga yordam beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kutubxona faoliyatini rivojlantirish yoshlar tarbiyasining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa,

innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali yoshlarning kutubxonalarga bo‘lgan qiziqishi sezilarli darajada ortmoqda. [Abdullayev Q, 27-bet]

Biroq mavjud tizimda ayrim muammolar ham kuzatilmoqda. Jumladan, ayrim hududlarda kutubxona infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlanmaganligi hamda yoshlar orasida kitobxonlikka qiziqishning pasayishi kabi holatlar mavjud.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- kutubxonalarni to‘liq raqamlashtirish va yagona axborot tizimini yaratish
- yoshlar uchun maxsus interaktiv platformalar ishlab chiqish
- kutubxona xodimlarining malakasini oshirish
- kitobxonlikni targ‘ib qiluvchi innovatsion loyihalarni kengaytirish

Natijada kutubxona faoliyati yanada samarali tashkil etilib, yoshlar tarbiyasida sezilarli ijobiy o‘zgarishlarga erishish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kutubxona faoliyatini rivojlantirish yoshlar tarbiyasini takomillashtirishning muhim shartlaridan biridir. Zamonaviy kutubxonalar yoshlarning nafaqat bilim olishiga, balki ularning ma’naviy, axloqiy va intellektual rivojlanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Kelgusida kutubxona tizimini yanada rivojlantirish orqali yoshlarning:

- bilim darajasini oshirish
- mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish
- ma’naviy yetukligini ta’minlash mumkin bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida jamiyat taraqqiyoti va barqaror rivojlanishining muhim omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. To‘xtayev S. **Madaniyatshunoslik**. – Toshkent, 2017. – 15-bet
2. Karimov I.A. **Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch**. – Toshkent, 2008. – 48-bet
3. Axmedov A. **Axborot texnologiyalari**. – Toshkent, 2019. – 33-bet
4. Xasanov B. **Pedagogika nazariyasi**. – Toshkent, 2018. – 52-bet
5. Abdullayev Q. **Yoshlar va ma’naviyat**. – Toshkent, 2022. – 27-bet
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari to‘plami. – Toshkent, 2020. – 22-bet
7. Yo‘ldoshev J. **Kutubxona ishi asoslari**. – Toshkent, 2015. – 61-bet
8. Rasulov R. **Raqamli kutubxonalar**. – Toshkent, 2021. – 40-bet
9. Aytimova. D. A. (2023). Effective Use of Pedagogical Technologies in **Teaching Library Studies.** ***Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*****,** *2*(5), 40–43. Retrieved from https://univerpubl.com/index.php/semantic/article/view/1422

Aytimova , D. **From the history of the formation and develorment of the first libraries in Karakalpakstan. Scientific Journal of the Fergana State University**, 28(5), https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol28 iss5/a49-53

ЖАҢА ӨЗБЕКСТАНДА КИТАПХАНА ИСИН РАЎАЖЛАНДЫРЫЎДЫҢ ӘҲМИЙЕТЛИ ЎАЗЫЙПАЛАРЫ

Р.Калмурзаева
ҚМУ Ресурс орайы директоры

Annotaciya. Maqalada zamanagóy kitapxanalar, olardıń iskerligi, kitapxana isin rawajlandırıwdıń áhmiyetli wazıypaları haqqında sóz etiledi.

Tayanısh sózler: Kitapxana iskerligi, kitapxaana nızamshılıǵı, kitapqumarlıq, kitapxana siyasatı.

Ózbekstanda kitapxana tarawın hám kitapqumarlıqtı rawajlandırıw mámleket siyasatı dárejesine kóterildi. Prezidentimiz tárepinen bir qatar Párman hám Qararlar qabıl etildi, sonday-aq, 21-may «Ózbekstan kitapxanashıları kúni» dep járiyalandı.

Jańa Ózbekstanda kitapxana isin rawajlandırıwdıń áhmiyetli wazıypaları belgilenip, úlken sociallıq ózgerisler júz bermekte. Kitapxana imidjin payda etiw, jaslardıń ruwxıy sawatlılıǵın asırıw, sociallıq potencialın asırıw, jámáátshilik arasında kitapxanalar dárejesin kóteriw boyınsha ádewir jumıslar ámelge asırılmaqta.

«Jaslarda kitap oqıw kónlikpesi payda bolsa, keleshegi jolında qalǵan barlıq ámellerdi kitaptıń ózi úyretedi»[1]. 2020 - 2025-jıllarǵa arnalǵan kitapqumarlıq mádeniyatın rawajlandırıw hám qollap-quwatlaw milliy dástúri Ózbekstan Respublikası Konstitusiyası, “Jaslarǵa tiyisli mámleket siyasatı tuwrısında”, “Málimleme-kitapxana iskerligi tuwrısında”ǵı Ózbekstan Respublikası nızamları, Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń pármanları, qararları hám Húkimet qararları hám de taǵı basqa nızam húJjetleri de xalıq aralıq huqıqtıń ulıwmalıq normalarına muwapıq tayarlanǵan.

Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2026-jıl 15-yanvardaǵı «Kitapqumarlıq mádeniyatın rawajlandırıw hám máhelle arasında kitap oqıwǵa qızıǵıwshılıqtı asırıw is-ilájları» haqqındaǵı Qararınıń qabıl etiliwinen gózlengen tiykarǵı maqset etip 2026-2030-jıllarda xalıqtıń kitapqumarlıq dárejesin (bir adam oqıytuǵın kitap sanın) jılına ortasha 10 kitapqa jetkiziwden ibarat.

Kitapqumarlıq mádeniyatın rawajlandırıw jumısların shólkemlestiriwde jaslar isleri agentligi janında yuridikalıq shaxs statusısız «Kitapqumarlıq mádeniyatın rawajlandırıw fondı»n shólkemlestiriw, fond qarjları tómendegi ilajlardı finanslıq támiynlew ushın qaratıw belgilenbekte :

-tańlaw arqalı jas jazıwshılar ushın grantlar ajıratıw hám shıǵarmaların baspa etiw, balalar ádebiyatı baǵdarıdaǵı joybarlardı qollap-quwatlaw ;

[1] 2020 - 2025-jıllarda kitapqumarlıq mádeniyatın rawajlandırıw hám qollap-quwatlaw Milliy Dástúri

-tańlaw arqalı uqıplı avtorlardı anıqlaw hám olarǵa dóretiwshilik etiw ushın sharayat jaratıw maqsetinde bir jılǵa shekem bazalıq esaplaw muǵdarınıń 50 baarabar muǵdarında hár ay aqsha tólew;

-eń úlgili shet el ádebiyatlardı ózbek tiline hám milliy ádebiyatlardı shet tillerge awdarmalawda baspaǵa tayarlaw hám baspadan shıǵarıw qárejetleriniń 50 procenti hám avtorlıq huqıqı ushın qárejetlerdiń 80 payızın qaplaw;

-qáwenderlik Keńes aǵzalarına hár sherekte bazalıq esaplaw muǵdarınıń 50 barabarına deyingi muǵdarda sıylıq tólew;

-kitapqumarlıq reytingin qáliplestiriw menen baylanıslı qárejetlerdi ámelge asırıw.

Ekonomika hám finans ministrligi 2026-jıldan baslap Ózbekstan Respublikası respublika byudjetten Jaslar isleri agentligine kitaplardı awdarmalaw, baspaǵa tayarlaw hám baspadan shıǵarıw qárejetleri ushın hár jılı ajıratılatuǵın qarjılar muǵdarın 20 milliard swmǵa jetkeziw hám olardıń fondqa barılanıwın támiyinlew.

-Jaslar isleri agentligine bir ay múddette grantlar ajıratıw, úlgili avtorlardı anıqlaw hám ózbek tiline awdarmalaw ushın eń úlgili shet el ádebiyatlardı tańlaw rejimin tastıyıqlaw tapsırıldı.

Xalıq arasında kitap oqıwǵa qızıǵıwshılıqtı asırıwda 2026-jıl 1-fevraldan baslap:

-xalıq, ásirese, jaslar arasında kitapqumarlıqtı rawajlandırıw boyınsha “Kitap-bilim dáregi” baǵdarlaması ámelge asırıladı;

-mámleket shólkemleriniń kitap hám kitapqumarlıq haqqındaǵı reklamaları social málimleme (reklama) retinde tán alınadı;

-transport infrastruktura obektleri hám transport qurallarında (Avtobus, metro, samolyot, poezdlar) sımsız yamasa mobil internet tarmaǵı arqalı “Oqıw” platformasınan paydalanıw múmkinshilikleri jaratıladı, qolaylıq ushın QR kodlar ornatıladı.

- mektepke shekemgi hám mektep tálimi ministrligi sistemasındaǵı ulıwma bilim beriw mákemelerinde “Jadidler ızınen” kitapqumarlıq klubların shólkemlestiriw. Bunda:

-“Jadidler ızınen” kitapqumarlıq klubı aǵzaları arasında kitap talqılawǵa arnalǵan debatlar ótkeriledi;

-mekteplerde “Jadidler ızınen” klubı aǵzalarına jılına keminde 20 kitap oqıtılıp barıladı;

-hár sherekte rayon (qala) kesiminde eń aktiv “Jadidler ızınen” kitapqumarlıq klubları aǵzaları mektepke shekemgi hám mektep tálimi ministrligi tárepinen xoshametlenedi;

Tiyisli tarawlar boyınsha usınıs etiletuǵın kásiplik xızmetke tiyisli ádebiyatlar dizimi qáliplestiredi;

-hár jılı keminde 3 ten kásiplik xızmetke tiyisli shet el ádebiyatlardı jergilikli baspalar arqalı ózbek tiline awdarma etip, maman qánigeler

qatnasıwında olardı túsindirmeler, sózlik hám mısallar menen bayıtıw ámeliyat engiziledi;

-Tiyisli shólkemlerde “Kitap múyeshi” shólkemlestiriledi hám xızmetkerler ushın hár ayda “Kitap oqıw saatı” jolǵa qóyıladı;

-kitapqumarlıq boyınsha ishki reyting sisteması engiziledi;

-tańlaw tiykarında eń kóp kitap oqıǵan xızmetkerge byudjet shólkemleri xızmetkerlerin materiallıq xoshametlew arnawlı fondı esabınan bir aylıq mıynet haqı muǵdarında pul sıylıq beriledi;

-Jaslar isleri agentligi ministrlik hám mekemeler menen birgelikte eń kóp kitap oqıǵan 100 likke kirgen oqıwshı hám studentlerdi anıqlaw rejimin tastıyıqlanadı. Bunda 100 likke kirgen oqıwshı hám studentlerdiń hár birine Fond qarjları esabınan bazalıq esaplaw muǵdarınıń 25 barabarı muǵdarında pul sıylıq beriliwi názerde tutıldı.

Berdaq atındaǵı Qaraqalpaq mámleketlik universiteti málimleme-resurs orayı iskerligi rawajlanıwı

2016-jılı málimleme-resurs orayı imaratı rekonstrukciya etilip, 3 mlrd. súmnan artıq qarjı ajıratıldı. Málimleme-resurs orayınıń ulıwma kitap fondı 68657 atamada, 605238 nusqada bolıp sonnan:

Sabaqlıqlar - 11671 atamada 206589 nusqada;

Oqiw qollanbaları - 20411 atamada 200593 nusqada;

Kórkem ádebiyatlar - 11255 atamada 40390 nusqada;

Ilimiy ádebiyatlar - 8727 atamada 100612 nusqada;

Sırt el ádebiyatları - 1387 atamada 5012 nusqada;

Basqa da ádebiyatlar - 15206 atamada 52042 nusqanı quraydı.

Málimleme-resurs orayında 15 ten zıyat oqıw zalları xızmet kórsetip kelmekte. Sonnan:

tábiyiy pánler oqıw zalı;

gumanitar pánler oqıw zalı;

kórkem ádebiyatlar oqıw zalı,

professor-oqıtıwshılar ushın oqıw zalı;

shet el ádebiyatları oqıw zalı;

3 elektron oqıw zalları;

gazeta-jurnallar oqıw zalı;

ilimiy ádebiyatlar oqıw zalı;

imkaniyatı sheklengen studentler ushın arnawlı oqıw zalı;

1-2-3,7-8, 9-12-sanlı studentler turar úylerindegi oqıw zalları;

Shımbay fakulteti málimleme-resurs orayı filialı bar.

Málimleme-resurs orayına 2025-jılı 168 atamada 336 nusqada shet el ádebiyatları hám universitet professor-oqıtıwshıları tárepinen baspadan shıǵarılǵan 172 atamadaǵı 8527 nusqadaǵı ádebiyatlar qabıl etildi.

Málimleme-resurs orayınıń kitap penen támiyinleniw kórsetkishleri:

2022-jılı	550320 mıń nusqada
2023-jılı	559204 mıń nusqada

2024-jılı	579418 mıń nusqada
2025-jılı	592968 mıń nusqada
2026-jıl I-II shereklerde	607268 mıń nusqada kitaplar alınǵan.

Málimleme-resurs orayı zamanagóy texnologiyalar menen úskenelengen, 150 dana kompyuter, 4 dana printer, 4 dana "Sensorlı ekran-Infiokiosk," 5 dana skanerler menen támiyinlengen, IRBIS 64+ avtomatlastırılgan kitapxana sistemasına 68146 atamadaǵı kitaplardıń bibliografiyalıq maǵlıwmatları kirgizilgen.

Málimleme-resurs orayında Prezidentimizdiń 2017-jıl 13-sentyabrdegi «Kitap ónimlerin baspadan shıǵaarıw hám tarqatıw sistemasın rawajlandırıw, kitap oqıı hám kitapqumarlıq mádeniyatın asırıw hám úgit-násiyatlaw boyınsha kompleks ilajlar baǵdarlaması haqqında»ǵı PQ-3271-sanlı qararında belgilengen wazıypalardı orınlaw maqsetinde ilájlar is jobası islep shıǵıldı hám bir qatar jumıslar ámelge asırıldı, «Kitapqumarlar klubı» shólkemlestirilip, klubqa belsendi jaslar qatnasıp atır.

Universitet málimleme-resurs orayı berilgen wazıypalardı tolıǵı menen orınlaǵan halda, Jańa Ózbekstanda kitapxana isin rawajlandırıwda óz úlesin qosa beredi degen úmittemiz.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. 2020 - 2025-jıllarda kitapqumarlıq mádeniyatın rawajlandırıw hám qollap-quwatlaw Milliy Dástúri
2. Axborot-kutubxona faoliyati to’ǵrisida O’zbekiston Respublikasining Qonuni. 2011 yil 13 aprel /Xalq so’zi.-2011. -13 apr.
3. 2017-yil 13-sentyabrdagi «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda tarǵib qilish bo’yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to’ǵrisida»gi PQ-3271-son qarori
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz T:, «O’zbekiston»., 2017.
5. Yuldashev I., O‘. Nosirov. Kutubxona - axborot xizmati: nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent, 2020. 360 b.
6. Maxmudov M. Kutubxona - axborot faoliyatini boshqarish. - Toshkent 2019. 505 b.

РАҚАМЛИ КУТУБХОНА ВА ЗАМОНАВИЙ ДРАМАТУРГИЯ: ЯНГИ АХБОРОТ МАКОНИДА АДАБИЁТ ТАРҒИБОТ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ

Оңғарбаева Қутлыбийке Жеңисбай қызы
ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы 1-курс магистранты

Annotatsiya - Mazkur tezisda raqamli kutubxonalarning zamonaviy dramaturgiyani saqlash, o'rganish va targ'ib qilishdagi o'rni tahlil qilinadi. Dramatik matnlarni elektron kataloglar, raqamli arxivlar, multimedia materiallari va virtual ko'rgazmalar orqali keng auditoriyaga yetkazish imkoniyatlari ochib beriladi. Raqamli kutubxonalar dramaturgik merosni saqlash vositasi sifatidagina emas, balki yangi axborot makonida adabiy targ'ibotni kuchaytiruvchi madaniy-kommunikativ tizim sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: raqamli kutubxona, zamonaviy dramaturgiya, adabiy targ'ibot, axborot makoni, elektron katalog, dramaturgik meros, multimedia, virtual ko'rgazma, madaniy xotira.

Аннотация - В данном тезисе анализируется роль цифровых библиотек в сохранении, изучении и продвижении современной драматургии. Открываются возможности доведения драматических текстов до широкой аудитории посредством электронных каталогов, цифровых архивов, мультимедийных материалов и виртуальных выставок. Цифровые библиотеки оцениваются не только как средство хранения драматургического наследия, но и как культурно-коммуникативная система, усиливающая литературную пропаганду в новом информационном пространстве.

Ключевые слова: цифровая библиотека, современная драматургия, литературная пропаганда, информационное пространство, электронный каталог, драматургическое наследие, мультимедиа, виртуальная выставка, культурная память.

Abstract - This thesis analyzes the role of digital libraries in preserving, studying, and promoting modern drama. The possibilities of delivering dramatic texts to a wide audience through electronic catalogs, digital archives, multimedia materials, and virtual exhibitions are revealed. Digital libraries are evaluated not only as a means of preserving dramaturgical heritage but also as a cultural and communicative system that enhances literary promotion in the new information space.

Keywords: digital library, modern drama, literary promotion, information space, electronic catalog, dramatic heritage, multimedia, virtual exhibition, cultural memory.

Kirish - Bugungi adabiy jarayon an'anaviy doiralardan chiqib, raqamli makon orqali rivojlanmoqda. Raqamli kutubxonalar, elektron kataloglar, onlayn arxivlar va multimedia platformalari badiiy matnlarni saqlash, o'rganish va targ'ib etishning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda.

Dramaturgiya uchun bu ayniqsa muhimdir, zira dramatik asar nafaqat o'qiladigan matn, balki sahna talqini, aktyor ijrosi va teatr xotirasi bilan bog'liq murakkab madaniy hodisadir.

Mavzuning dolzarbligi axborot iste'moli madaniyatining o'zgarishi bilan belgilanadi. 2025-yil boshida O'zbekistonda internet foydalanuvchilari soni 32,7 million kishiga yetib, internet kirib borish darajasi 89,0 foizni tashkil etgani qayd etilgan [1]. Bu ko'rsatkich adabiyot va teatrni targ'ib qilishda raqamli makon asosiy kommunikativ maydonlardan biriga aylanganini tasdiqlaydi. Xalqaro miqyosda UNESCO raqamli davrda hujjatli merosni saqlashni madaniy xotirani himoya qilishning muhim yo'nalishi sifatida baholaydi [2], IFLA esa kutubxonalarni global axborot tizimining muhim qismi sifatida ko'rsatadi [3].

Raqamli kutubxonalar dramaturgiya targ'ibotida uch jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi: dramatik matnlarni elektron shaklda saqlash va tezkor qidiruv imkoniyatini beradi; asarni sahnalashtirish tarixi, foto-video materiallar va bibliografik ma'lumotlar bilan yaxlit o'rganishga imkon beradi; adabiy targ'ibotni passiv axborot berishdan faol madaniy muloqot shakliga o'tkazadi.

Asosiy qism - Raqamli kutubxonalar zamonaviy dramaturgiyani targ'ib qilishda adabiy matn, sahna talqini va auditoriya o'rtasidagi axborot vositachisi sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston kutubxonachilik tizimida 2024-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, Milliy kutubxona bilan birga 14 ta hududiy va 186 ta tuman axborot-kutubxona markazi, shuningdek 13 mingdan ortiq axborot-kutubxona muassasalari faoliyat yuritadi [5]. Bu infratuzilma dramaturgik merosni keng targ'ib qilish uchun tashkiliy asos vazifasini o'tashi mumkin. IFLA-UNESCO 2022-yilgi "Public Library Manifesto" hujjatida ommaviy kutubxona ta'lim, madaniyat, inklyuziya va axborotning tirik kuchi sifatida baholanib, zamonaviy kutubxona bilim va madaniy xotirani tashkil qiluvchi ochiq axborot maydoniga aylanishi lozim deb ta'kidlanadi [4].

Raqamli kutubxona dramaturgik asarlarni targ'ib qilishning besh asosiy yo'nalishi:

- **Kengaytirilgan qidiruv:** janr, mavzu, davr, obraz turi, sahnalashtirilgan teatr va tarjima tili bo'yicha izlash imkoniyati oddiy katalogni samarali axborot tizimiga aylantiradi.
- **Kontekstual taqdimot:** annotatsiya, muallif haqida ma'lumot, spektakllar ro'yxati, tanqidiy fikrlar va foto-video materiallar foydalanuvchiga asarni yaxlit madaniy hodisa sifatida qabul qilishga yordam beradi.
- **Interaktiv targ'ibot:** tavsiya tizimi, virtual ko'rgazmalar, onlayn muhokamalar va o'quv-uslubiy izohlar dramaturgiyani keng auditoriya orasida ommalashtirishga xizmat qiladi.
- **Madaniy xotirani saqlash:** pyesalar, sahna talqinlari va rejissyorlik izohlari davrning estetik qarashlari va ijtimoiy muammolarini aks ettiruvchi meros sifatida tizimli saqlanishi lozim [6].

- **Xalqaro maydonga chiqish:** bibliografik tavsifning xalqaro standartlarga muvofiqligi va annotatsiyalarning o'zbek, rus, ingliz tillarida berilishi o'zbek dramaturgiyasini xorijiy tadqiqotchi va tarjimonlarga ochiq qiladi.

Shu bilan birga, bir qator muammolar yechim kutmoqda: ko'plab dramatik asarlarning ishonchli elektron nusxalari to'liq emas; sahna materiallari (afisha, foto, video, taqriz) alohida saqlanib, bibliografik tizimga bog'lanmaydi; foydalanuvchi uchun qulay interfeys va mavzuli qidiruv mexanizmlari yetarli rivojlanmagan; mualliflik huquqi va ochiq foydalanish masalalari aniq tartibga solinmagan.

Xulosa -Raqamli kutubxonalar zamonaviy dramaturgiyani yangi axborot makonida targ'ib qilishning muhim vositasiga aylanmoqda. Ular dramatik asarlarni faqat elektron shaklda saqlab qolmay, balki muallif, sahnalashtirish tarixi, tanqidiy maqolalar, foto-video materiallar va tarjimalar bilan birgalikda yaxlit madaniy kontekstda taqdim etadi. Bu dramaturgik merosning ilmiy o'rganilishi, yosh auditoriyaga yetib borishi va milliy adabiyotning xalqaro maydonda tanilishiga xizmat qiladi.

Shu bois raqamli kutubxonalar dramaturgiya targ'ibotida oddiy texnik platforma emas, balki adabiy-madaniy jarayonni faollashtiruvchi zamonaviy institut sifatida rivojlantirilishi lozim. Buning uchun mavjud kutubxona infratuzilmasini yagona raqamli tizimga birlashtirish, foydalanuvchi uchun qulay qidiruv va tavsiya mexanizmlarini takomillashtirish, mualliflik huquqi masalalarini tartibga solish hamda sahna materiallarini bibliografik tizimga bog'lash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. DataReportal. Digital 2025: Uzbekistan. Kepios, We Are Social, Meltwater, 2025.

2. UNESCO. Advancing access to information and digital preservation. Paris: UNESCO, 2024.

3. IFLA. Library Map of the World. The Hague: IFLA, 2025.

4. IFLA; UNESCO. IFLA-UNESCO Public Library Manifesto 2022. The Hague; Paris, 2022.

5. O'zbekiston Respublikasi kutubxona tizimi statistik ma'lumotlari, 2024.

6. UNESCO. Recommendation concerning the Preservation of, and Access to, Documentary Heritage. Paris, 2015.

РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР ВА ЗАМОНАВИЙ ТЕАТР ДРАМАТУРГИЯСИ

Таджетдинов Мансур Махмуд улы
ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы 1-курс магистранти
Илимий басшысы, ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы
доценти ***Жаббарберген Хожанов***

Annotatsiya: Mazkur tezisda raqamli texnologiyalarning zamonaviy teatr dramaturgiyasiga ta’siri tahlil qilinadi. Unda proyeksiya, ekran, ovoz dizayni, onlayn translyatsiya, virtual makon va interaktiv vositalarning sahna ifodasi, dramatik vaqt-makon talqini hamda tomoshabin bilan muloqot shakllarini yangilashdagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, raqamli vositalardan foydalanishda texnik effekt dramatik g‘oya va sahnaviy mazmunga xizmat qilishi zarurligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Raqamli texnologiyalar, zamonaviy teatr, dramaturgiya, sahna san’ati, multimedia, virtual makon, interaktivlik, tomoshabin, badiiy-estetik ifoda.

Аннотация: В данном тезисе анализируется влияние цифровых технологий на современную театральную драматургию. В ней раскрывается роль проекции, экрана, звукового дизайна, онлайн-трансляции, виртуального пространства и интерактивных средств в сценическом выражении, драматической интерпретации пространства-времени и обновлении форм общения со зрителем. Также обоснована необходимость того, чтобы технический эффект при использовании цифровых средств служил драматической идее и сценическому содержанию.

Ключевые слова: Цифровые технологии, современный театр, драматургия, сценическое искусство, мультимедиа, виртуальное пространство, интерактивность, зритель, художественно-эстетическое выражение.

Abstract: This thesis analyzes the impact of digital technologies on modern theatrical dramaturgy. It reveals the role of projection, screen, sound design, online broadcasting, virtual space, and interactive tools in stage expression, dramatic interpretation of time and space, and the renewal of forms of communication with the audience. It is also substantiated that when using digital tools, the technical effect must serve the dramatic idea and theatrical content.

Keywords: Digital technologies, modern theater, dramaturgy, performing arts, multimedia, virtual space, interactivity, audience, artistic and aesthetic expression.

XXI asr teatr san’ati faqat sahna, aktyor va tomoshabin o‘rtasidagi an’anaviy jonli muloqot bilan cheklanib qolmayapti. Raqamli texnologiyalar,

multimedia vositalari, sun’iy intellekt, virtual va kengaytirilgan reallik, onlayn translyatsiya hamda interaktiv sahna yechimlari zamonaviy dramaturgiyaning shakli, mazmuni va tomoshabin bilan aloqa usullarini tubdan o‘zgartirmoqda. Avvallari dramatik asarning asosiy kuchi matn, konflikt va sahnaviy ijroda ko‘rilgan bo‘lsa, bugungi teatr amaliyotida raqamli tasvir, ovoz dizayni, ekran, proyeksiya, algoritmik montaj va masofaviy ishtirok ham badiiy ifoda vositasiga aylanmoqda. Shu bois zamonaviy teatr dramaturgiyasini raqamli texnologiyalarsiz tahlil qilish uning bugungi rivojlanish mantig‘ini to‘liq ochib bera olmaydi.Raqamli madaniyatning kengayishi bu jarayonni yanada tezlashtirdi. UNESCO tomonidan madaniyat va sun’iy intellekt masalalariga bag‘ishlangan hisobotlarda raqamli texnologiyalar ijodiy sohalarga faqat texnik qulaylik sifatida emas, balki madaniy ifoda, mualliflik, auditoriya bilan muloqot va san’atning etik chegaralariga ta’sir qiluvchi omil sifatida qaralishi zarurligi ta’kidlanadi [1]. Demak, raqamli texnologiyalar teatr dramaturgiyasiga tashqi bezak sifatida emas, balki sahna matnining tuzilishi, obrazlar tizimi, vaqt va makon talqini, konfliktning ochilishi hamda tomoshabin ishtirokining yangi shakllari orqali kirib kelmoqda.

Jahon teatr amaliyotida bu o‘zgarishlar ayniqsa pandemiya davridan keyin yaqqol ko‘zga tashlandi. European Theatre Convention tomonidan 17 mamlakat teatr tajribasi asosida olib borilgan tadqiqotda pandemiya yillarida raqamli teatr mahsulotlari keskin ko‘paygani, ayrim yo‘nalishlarda raqamli teatr faoliyati 800 foizgacha oshgani qayd etilgan . Bu raqam shuni ko‘rsatadiki, raqamli teatr vaqtinchalik ehtiyoj mahsuli emas, balki sahna san’atining keyingi rivojlanish bosqichiga ta’sir ko‘rsatgan muhim omildir[2]. Albatta, raqamli shakl jonli teatrning o‘rnini to‘liq bosmaydi. Biroq u dramaturgik tafakkurga yangi savollarni olib kirdi: sahnadagi “jonli voqelik” ekran orqali qanday qabul qilinadi, virtual obraz dramatik obrazga aylanishi mumkinmi, tomoshabin faqat kuzatuvchi emas, balki raqamli ishtirokchi bo‘lsa, dramatik konflikt qanday quriladi?

O‘zbekiston sharoitida ham ushbu mavzuning dolzarbligi ortib bormoqda. Mamlakatda internetdan foydalanish darajasining tez oshishi madaniy mahsulotlarni qabul qilish shakliga ham bevosita ta’sir qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, aholining internetdan foydalanish ulushi 2021-yilda 76,6 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda 93,3 foizga, 2025-yil yanvar–avgust oylarida esa 94,2 foizga yetgan[3]. DataReportal ma’lumotlarida ham 2025-yil boshida O‘zbekistonda 32,7 million internet foydalanuvchisi mavjudligi qayd etilgan. Bunday raqamlar teatr va dramaturgiya uchun ham muhim: tomoshabin endi faqat zalda o‘tirgan shaxs emas, u ijtimoiy tarmoqlar, video platformalar, onlayn namoyishlar va raqamli muhit orqali spektakl bilan oldindan, namoyish vaqtida va undan keyin ham muloqotga kirishuvchi faol auditoriyaga aylanmoqda[4].Zamonaviy dramaturgiyada raqamli texnologiyalar uch asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘lmoqda. Birinchidan, ular sahna ifodasini boyitadi: proyeksiya, LED ekran, ovoz effektlari, video mapping, yorug‘lik dizayni va virtual makon dramatik


voqelikni kuchaytiradi. Ikkinchidan, raqamli muhit asarning kompozitsiyasiga ta’sir qiladi: voqealar chiziqli tartibda emas, fragmentar, parallel, ko‘p qatlamli va ekran tafakkuriga yaqin shaklda qurilishi mumkin. Uchinchidan, tomoshabin bilan aloqa o‘zgaradi: interaktiv sahna, onlayn sharhlar, ijtimoiy tarmoqdagi rezonans, masofaviy namoyishlar dramaturgik jarayonning davomiy qismiga aylanadi. Ayniqsa yosh avlod auditoriyasi uchun teatrning raqamli muhit bilan bog‘lanishi uning qabul qilinish darajasini oshiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar teatr dramaturgiyasi oldiga muayyan muammolarni ham qo‘yadi. Texnologik effektlar dramatik g‘oyani chuqurlashtirish o‘rniga ba’zan tashqi bezak darajasida qolib ketishi mumkin. Sahnaviy jonlilik, aktyor ijrosi va badiiy matnning ichki kuchi ekran va texnik vositalar soyasida qolsa, teatrning asosiy estetik tabiati zaiflashadi. Demak, raqamli texnologiyalardan foydalanish dramaturgik zarurat, badiiy konsepsiya va rejissyorlik yechimi bilan bog‘langan holdagina samarali natija beradi. Bu jihat mavzuni nazariy va amaliy tomondan tahlil qilishni talab etadi.Mazkur tadqiqotimizdaraqamli texnologiyalarning zamonaviy teatr dramaturgiyasiga ta’siri, ularning sahnaviy ifoda vositasi sifatidagi imkoniyatlari, dramaturgik kompozitsiya va tomoshabin bilan muloqot shakllarini yangilashdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Raqamli texnologiyalar teatr dramaturgiyasiga bir necha yo‘nalishda ta’sir qiladi. Birinchidan, ular sahna makonini kengaytiradi. An’anaviy teatrda voqea asosan dekoratsiya, aktyor harakati va dialog orqali ifodalangan bo‘lsa, bugungi sahnada proyeksiya, ekran tasviri, yorug‘lik dinamikasi va ovoz effektlari voqelikni yanada ko‘p qatlamli ko‘rsatishga xizmat qilmoqda. Masalan, sahnada real xona tasvirlanayotgan bo‘lsa, ekran orqali qahramon xotirasi, ichki kechinmasi yoki tashqi ijtimoiy muhit bir vaqtning o‘zida berilishi mumkin. Bu dramaturgik matnni faqat chiziqli hikoya emas, balki ko‘p qatlamli sahnaviy kompozitsiyaga aylantiradi.

Ikkinchidan, raqamli texnologiyalar dramatik vaqt va makon tushunchasini o‘zgartirmoqda. Klassik dramaturgiyada voqealar ko‘pincha sabab-oqibat asosida rivojlanadi. Zamonaviy raqamli dramaturgiyada esa voqealar fragmentar, parallel yoki montajga yaqin shaklda berilishi mumkin. Bunday usul bugungi inson tafakkuriga yaqin: u axborotni ekran, ijtimoiy tarmoq, qisqa video va vizual belgilar orqali tez qabul qiladi. Shuning uchun zamonaviy dramaturgiyada ekran va sahna uyg‘unligi tomoshabin e’tiborini ushlab turishning muhim vositasiga aylanmoqda.

Uchinchidan, raqamli texnologiyalar tomoshabinning teatr jarayonidagi o‘rnini o‘zgartiradi. Avvallari tomoshabin asosan kuzatuvchi bo‘lgan. Hozir esa onlayn translyatsiya, interaktiv ovoz berish, ijtimoiy tarmoqlardagi munosabat, raqamli platformalardagi muhokama orqali u spektakl atrofidagi madaniy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi. Bu holat dramaturgdan ham yangi yondashuvni talab qiladi: asar faqat sahnada tugamaydi, u tomoshabin fikri, sharhi va raqamli muhitdagi rezonans orqali davom etadi.



1-rasm. Raqamli texnologiyalar asosida zamonaviy teatr dramaturgiyasining transformatsiyasi

(Manba: *S. Dixon, G. Giannachi va B. Laurelning raqamli teatrga oid ilmiy qarashlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.)*

To‘rtinchidan, raqamli vositalar aktyor ijrosi va rejissyorlik yechimlariga ham ta’sir qiladi. Aktyor endi faqat jonli sahnadagi sherigi bilan emas, balki ekran, kamera, ovoz, proyeksiya va virtual obraz bilan ham “muloqot” qiladi. Bu esa ijro madaniyatining yangi ko‘nikmalarini talab etadi. Rejissyor uchun esa raqamli texnologiya spektaklni bezash vositasi emas, balki umumiy badiiy konsepsiyani yaratishning tarkibiy qismidir.

Biroq raqamli texnologiyalardan foydalanishda muayyan xavflar ham mavjud. Agar texnologik effektlar dramatik g‘oya bilan bog‘lanmasa, sahnadagi mazmun zaiflashadi. Teatrning asosiy kuchi - jonli ijro, obrazlar to‘qnashuvi, dramatik ziddiyat va tomoshabin bilan bevosita ruhiy aloqa hisoblanadi. Shuning uchun raqamli vositalar teatr tabiatini siqib chiqarmasligi, aksincha, uni boyitishi kerak. Texnika g‘oyaga xizmat qilganidagina u haqiqiy badiiy-estetik ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar zamonaviy teatr dramaturgiyasida yordamchi vosita emas, balki sahna tafakkurini yangilovchi muhim omilga aylanmoqda. Ular sahna makonini kengaytiradi, dramatik vaqtni ko‘p qatlamli qiladi, tomoshabinning ishtirokini faollashtiradi va rejissyorlik yechimlariga yangi imkoniyatlar ochadi. Shu bilan birga, texnologiya teatrning jonli ijro, matn, obraz va dramatik konfliktga asoslangan mohiyatini soyalab qo‘ymasligi kerak. Eng to‘g‘ri yondashuv - raqamli vositalarni badiiy g‘oyaga bo‘ysundirish, ularni dramaturgik mazmunni chuqurlashtirishga xizmat qildirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. UNESCO. Artificial Intelligence and Culture: Report of the Independent Expert Group on Artificial Intelligence and Culture**. Paris: UNESCO, 2025.**

2. European Theatre Convention. Digital Theatre Had 800% Boom During the Pandemic – New Study Reveals**. Brussels: European Theatre Convention, 2021.**

3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston aholisining 94,2 foizi internetdan foydalanadi**. Toshkent, 2025.**

4. DataReportal. Digital 2025: Uzbekistan**. Kepios; We Are Social; Meltwater, 2025.**

5. Dixon S. Digital Performance: A History of New Media in Theater, Dance, Performance Art, and Installation**. Cambridge: MIT Press, 2007. 828 p.**

НОДИР ҚОЛЁЗМАЛАРИНИ РАҚАМЛАШТИРИШ: МИЛЛИЙ МЪЕРОСНИ САҚЛАШНИНГ ЗАМОНАВИЙ УСУЛЛАРИ

Аманова Эльмира
ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы 1-курс студенти

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy madaniy meros hisoblangan nodir qo‘lyozmalarni jismoniy yemirilish xavfidan saqlash va raqamlashtirishning zamonaviy usullari tadqiq etilgan. Tadqiqotda *Cruse* va *Bookeye* kontaktsiz skanerlash texnologiyalari yordamida yuqori aniqlikdagi raqamli nusxalarni olish hamda ularni tizimli saqlash jarayonlari tahlil qilingan. Shuningdek, *Dublin Core* xalqaro standarti va IIIF protokoli asosida integratsiyalashgan elektron qidiruv platformasining modelini yaratish masalalari yoritilgan. Raqamli filtrlash algoritmlari orqali vaqt o‘tishi bilan o‘chib ketgan hoshiya qaydlari (marginaliyalar) va muhr izlarini qayta tiklash bo‘yicha samarali natijalar taqdim etilgan.

Tayanch so‘zlar: nodir qo‘lyozmalar, madaniy meros, raqamlashtirish, kontaktsiz skanerlash, metadata, elektron kutubxona, raqamli xavfsizlik, marginaliyalar.

Аннотация: В данной статье исследуются современные методы оцифровки редких рукописей с целью их защиты от физического разрушения и сохранения национального культурного наследия. В работе проанализированы процессы получения высокоточных цифровых копий с использованием бесконтактных сканеров *Cruse* и *Bookeye* без механического повреждения оригиналов. Освещены вопросы создания интегрированной поисковой платформы на основе международного стандарта *Dublin Core* и протокола IIIF. Представлены практические результаты восстановления угасающих краевых заметок (маргиналий) и оттисков печатей с помощью алгоритмов цифровой фильтрации изображений.

Ключевые слова: редкие рукописи, культурное наследие, оцифровка, бесконтактное сканирование, метаданные, электронная библиотека, цифровая безопасность, маргиналии.

Abstract: This article explores modern methods of digitizing rare manuscripts to preserve national cultural heritage and protect them from physical degradation. The study analyzes the processes of obtaining high-resolution digital copies without mechanical damage using *Cruse* and *Bookeye* contactless scanning technologies. It highlights the development of an integrated electronic search platform based on the international *Dublin Core* standard and the IIIF protocol. Furthermore, successful results in restoring faded marginal notes (marginalia) and seal impressions through digital image filtering algorithms are presented.

Keywords: rare manuscripts, cultural heritage, digitization, contactless scanning, metadata, digital library, digital security, marginalia.

Har bir xalqning tarixiy taraqqiyot yo‘li, ma’naviy intilishlari va intellektual salohiyati birinchi navbatda uning yozma yodgorliklarida o‘z ifodasini topadi. O‘tmish mutafakkirlarining qalamiga mansub nodir qo‘lyozmalar shunchaki o‘tgan zamonlarning guvohi emas, balki milliy o‘zlikni anglash, madaniy davomiylikni ta’minlash va fundamental qadriyatlarni shakllantirishning bosh manbayidir. Ushbu meros o‘zida falsafa, tilshunoslik, tibbiyot, astronomiya va davlatchilik tarixiga oid bebaho bilimlarni mujassam etib, bugungi kunda jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy poydevorini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Tarixning turli burilish nuqtalarida yaratilgan va asrlar osha bizgacha yetib kelgan har bir matn ajdodlar tafakkurining jonli aksi bo‘lib, millatning jahon sivilizatsiyasidagi o‘rnini belgilashda asosiy omil hisoblanadi. Shunday ekan, ushbu xazinani nafaqat saqlash, balki uning ichki qatlamlaridagi ilmiy salohiyatni tizimli ravishda tadqiq etish zamonaviy ilm-fanning eng muhim ustuvorliklaridan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ularni raqamli makonga ko‘chirish masalalari xalqaro miqyosda bir necha o‘n yilliklardan buyon tizimli ravishda o‘rganib kelinmoqda. Bu borada YUNESKO tomonidan qabul qilingan xalqaro konvensiyalar va "Jahon xotirasi" (Memory of the World) dasturi doirasida e’lon qilingan uslubiy tavsiyalar fundamental asos bo‘lib xizmat qiladi. G‘arb va Sharqiy Osiyo tajribasida, xususan, Britaniya kutubxonasi (The British Library) hamda Yaponiya Milliy parlamat kutubxonasining raqamlashtirish strategiyalarida tarixiy matnlarni saqlash shunchaki mexanik jarayon emas, balki chuqur manbashunoslik tahlilini talab etadigan multidissiplinar soha sifatida qaraladi. Xalqaro tadqiqotlarda, ayniqsa, hujjatsimon merosning jismoniy xususiyatlarini saqlab qolgan holda, optik aniqlik darajasini (DPI) optimallashtirish va ranglar mutanosibligini xalqaro standartlarga (masalan, ISO/TS 19264-1) muvofiqlashtirish masalalari yetakchi o‘rin egallaydi. Mazkur yondashuvlar raqamli nusxaning asl nusxa

o‘rnini bosuvchi huquqiy va ilmiy qimmatga ega bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan [6, 87 b.].

METODOLOGIYA

Nodir qo‘lyozmalarni raqamlashtirish jarayonining dastlabki va eng mas’uliyatli bosqichi manbalarning jismoniy holatini kompleks diagnostika qilish va shunga muvofiq ravishda ularni saralash hisoblanadi. Ushbu bosqichda har bir qo‘lyozma varaqlari, muqovasi va muqova birikmalarining mexanik mustahkamligi, qog‘oz yoki pergamentning mikrobiologik va kimyoviy yemirilish darajasi maxsus ishlab chiqilgan ekspertiza varaqasi asosida baholanadi. Ayniqsa, siyoh korroziyasi tufayli qog‘oz tarkibining o‘ta mo‘rtlashib qolgan qatlamlari hamda yelim qatlamlarining qurishi natijasida kelib chiqqan qatlamlanish holatlari alohida qayd etiladi. Ushbu tahlillar natijasida ob’ektlar uch guruhga ajratiladi: bevosita skanerlashga tayyor manbalar; jismoniy holati o‘rta darajada bo‘lib, jarayon davomida qo‘shimcha ehtiyotkorlik talab etadigan hujjatlar; skanerlash stendiga joylashtirishdan avval majburiy konservatsiya yoki restavratsiya muolajalarini o‘tashi shart bo‘lgan, o‘ta zaif qo‘lyozmalar. Bunday differensial yondashuv raqamlashtirish amaliyotining har qanday bosqichida asl nusxaga yetkazilishi mumkin bo‘lgan potensial mexanik zararlarning oldini olish imkonini beradi [1, 34 b.].

Saralash bosqichidan muvaffaqiyatli o‘tgan qo‘lyozmalarni elektron formatga o‘tkazishda mexanik zo‘riqishni nolga tushiradigan kontaktsiz skanerlash texnologiyalaridan foydalanildi. Tadqiqot doirasida yirik formatli va muqovasi to‘liq ochilmaydigan nodir asarlar uchun *Cruse* va *Bookeye* turkumidagi professional sayyor skanerlash stendlari qo‘llanildi. Bu qurilmalarning asosiy afzalligi shundaki, ular qo‘lyozma muqovasini an’anaviy skanerlar kabi 180 darajaga ochishni talab etmaydi; maxsus V-simon kitob beshiklari (book cradle) hamda moslashuvchan shisha bosim tizimlari yordamida matn sahifasini 90 dan 120 darajagacha bo‘lgan burchak ostida, muqova choklariga ziyon yetkazmasdan tekislash va tasvirga tushirish imkonini beradi. Tasvirni shakllantirish jarayonida lyuminissent yoki infraqizil nurlanish ajratmaydigan, qog‘oz tuzilishiga termik ta’sir ko‘rsatmaydigan "sovuq" LED yoritgichlardan foydalanildi. Har bir sahifa xalqaro sifat ko‘rsatkichlariga muvofiq, optik buzilishlarsiz, kamida 600 DPI aniqlikda, siqilmagan uncompressed RAW va TIFF formatlarida raqamlashtirildi. Bu esa matndagi eng kichik xattotlik elementlari, muhr izlari va qog‘ozning mikrostrukturasini ham to‘liq aks ettirishni ta’minladi[1, 41 b.].

NATIJALAR

Olib borilgan amaliy tadqiqotlar natijasida belgilangan metodologik talablar asosida tanlab olingan nodir qo‘lyozmalar fondini raqamlashtirishning aniq miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlariga erishildi. Loyiha doirasida jismoniy holati turlicha bo‘lgan jami 124 ta noyob qo‘lyozma manba (umumiy hajmi 38 420 sahifa) to‘liq raqamli formatga o‘tkazildi. Har bir sahifadan olingan xom tasvirlar hech qanday siqilishlarsiz, ranglar uzatilishining to‘liqligini ta’minlovchi 16 bitli TIFF va RAW formatlarida saqlanib, umumiy arxiv

ma’lumotlarining hajmi 4,2 terabaytni tashkil etdi. Sifat nazorati jarayonida tasvirlarning xalqaro standartlarga muvofiqligi tekshirilganda, barcha raqamli nusxalarda ranglarning asliga mosligi va geometrik aniqlik koʻrsatkichlari 98,5 foizdan yuqori ekanligi tasdiqlandi. Foydalanuvchilar va tadqiqotchilar uchun qulaylik yaratish maqsadida ushbu ogʻir formatli arxiv nusxalari asosida sifatini yoʻqotmagan holda tez yuklanuvchi, koʻp qatlamli siqilgan PDF hamda JPEG 2000 formatidagi ishchi nusxalar ham shakllantirildi[2, 66 b.].

MUHOKAMA

Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni koʻrsatadiki, nodir qoʻlyozmalarni raqamlashtirish amaliyoti shunchaki texnik jarayon boʻlmay, balki jismoniy ob’ektning oʻziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan murakkab texnologik muammolarni bartaraf etishni taqozo etadi. Skanerlash jarayonida duch kelingan asosiy qiyinchiliklar bevosita qogʻoz va pergamentning tabiiy qarishi, kislotalilik darajasining ortishi hamda oʻtmishda ishlatilgan tabiiy siyohlarning kimyoviy yemirilishi bilan bogʻliqdir [3, 45 b.]. Ayrim manbalarda matnlarning oʻchib ketganligi yoki siyohning qogʻoz orqa tomoniga oʻtib ketishi (bleed-through effekti) tasvirlarni standart usullarda qayta ishlash samaradorligini cheklab qoʻydi. Ushbu muammoni hal etishda dinamik binarizatsiya va koʻp spektrli tasvirlarni ajratish algoritmlari yordam bergan boʻlsa-da, oʻta shikastlangan sahifalar uchun har bir filtr parametrlarini individual ravishda sozlash zarurati yuzaga keldi. Bu holat raqamlashtirishda unifikatsiyalashgan (ommaviy va bir xil) avtomatik yondashuvlardan foydalanish har doim ham kutilgan natijani bermasligini, aksincha, har bir restavratsion-raqamli keysga alohida yondashish kerakligini tasdiqlaydi[3, 54 b.].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot doirasida amalga oshirilgan ilmiy-amaliy ishlar nodir qoʻlyozma manbalarni raqamlashtirish shunchaki texnik arxiv yaratish emas, balki milliy oʻzlikni va madaniy-tarixiy xotirani saqlashning fundamental mexanizmi ekanligini koʻrsatdi. Olingan natijalar shundan dalolat beradiki, kontaktsiz skanerlash texnologiyalarini tizimli manbashunoslik metodologiyasi bilan integratsiya qilish orqali nafaqat asl nusxalarning jismoniy daxlsizligini ta’minlash, balki vaqt oʻtishi bilan yoʻqolish xavfi ostida boʻlgan matn qatlamlarini raqamli filtrlash yordamida qayta tiklash imkoniyati mavjud. Ishlab chiqilgan va IIIF xalqaro standarti hamda kengaytirilgan metadata andozalari bilan jihozlangan elektron platforma modeli tarixiy asarlarni global ilmiy makonga muvaffaqiyatli integratsiya qilish va xalqaro tadqiqotchilar uchun masofaviy ochiqlikni ta’minlash borasida samarali instrumental poydevor boʻlib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahrorov, A. A. Nodir manbalarni saqlash va konservatsiya qilish asoslari. Toshkent: Fan nashriyoti, 2018. – 142 b.

2. Deegan, M., & Tanner, S. Digital Preservation. London: Facet Publishing, 2006. – 288 p.

3. Hikmatov, S. H. "Kutubxona fondlaridagi noyob qo‘lyozmalarni raqamlashtirishning konseptual masalalari". O‘zbekiston arxeologiyasi va manbashunosligi jurnali, 2021, №3, 45-52-b.

4. Federal Agencies Digital Guidelines Initiative (FADGI). Technical Guidelines for Digitizing Cultural Heritage Materials. 3rd Edition. Washington, DC: FADGI Still Image Working Group, 2023. – 129 p. Available at: https://www.digitizationguidelines.gov/

5. International Federation of Library Associations and Institutions (IFLA). Guidelines for Planning the Digitization of Rare Book and Manuscript Collections. 2014. – 19 p. Available at: https://www.ifla.org/

6. UNESCO. Charter on the Preservation of the Digital Heritage. Paris: UNESCO Publishing, 15 October 2003. – 24 p.

7. UNESCO. Memory of the World Programme: Guidelines for Digitization. Paris: UNESCO, 2020 (updated).

Karimov, N. R. Sharq qo‘lyozmalarini o‘rganish va kataloglashtirish metodikasi. Toshkent: Sharq, 2020. – 180 b.

МАДАНИЯТ ФУНКЦИЯЛАРИГА ДОИР АЙРИМ МУЛОХАЗАЛАР

Шодия Жалилова
УзДМСИ, 1-босқич магистранти

Annotatsiya. Maqolada madaniyat funksiyalarining zamonaviy sharoitdagi o‘zgarishlari tahlil qilinib, asosiy e’tibor identifikatsion funksiyasiga qaratilib, uning globallashuv va raqamli texnologiyalar ta’sirida yuzaga kelayotgan muammolari, milliy o‘zlikni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yechimlarga oid mulohazalarni ilmiy asosda yoritishga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: madaniyat, funksiyalar, identifikatsiya, globallashuv, raqamli madaniyat, milliy o‘zlik, tizimli tahlil, innovatsi.

Abstract. This article analyzes the transformation of cultural functions in modern conditions. Special attention is paid to the identificational function of culture, highlighting the challenges caused by globalization and digitalization. The study also presents innovative approaches to preserving and developing national identity.

Key Words: culture, cultural functions, identification, globalization, digital culture, national identity, innovation.

O‘tgan asrning 60-yillarida olimlar “madaniyat”ning 250 dan ziyod tushunchalari va talqinlari mavjudligini e’tirof etishgandi. XX asr oxirlariga kelib, ular soni 500 dan oshdi. Bugun bunday sotsiologik va etimologik tadqiqotlar o‘tkazilmagan bo‘lsa-da, “madaniyat” so‘zining talqinlari mingdan oshadi. Ulardan bugungi kunda keng tarqalgani – “madaniyat” so‘zi lotincha “culture” so‘zidan olingan bo‘lib, yerga ishlov berish, bola yetaklash,

parvarishlash, degan ma’nolarni anglatadi, degan talqindir. Etimologik nuqtayi nazardan “kultura” so‘zi, haqiqatan ham, o‘sha ma’nolarni beradi. Biroq bizga “culture” so‘zining emas, “madaniyat” iborasining etimologik talqini kerak. “Madaniyat” so‘zi arabcha “ma’dan”, “Madina”, “madinalik” degan so‘zlardan kelib chiqqan. “Ma’dan” deganda biror boylik jamlangan yer, joy, hudud nazarda tutiladi. “Madina” esa shahar nomi. “Madinalik”, Madina shahridan kelib chiqqan kishi degan ma’noni beradi [16] . Madaniyat jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida uning ijtimoiy, ma’naviy va tarixiy rivojlanishini belgilaydi. Madaniyat funksiyalari orqali inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar shakllanadi. Xususan, identifikatsion funksiya shaxsning o‘zini muayyan madaniyatga mansub deb his etishini ta’minlaydi[17].

Zamonaviy globallashuv jarayonlari va raqamli texnologiyalar rivoji ushbu funksiyaning mazmunini o‘zgartirib, yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Biz aynan shu funksiya doirasida mavjud muammolarni ko‘rib chiqishga harakat qilamiz. Eng avvalo, identifikatsion funksiyaning nazariy asoslariga biroz to‘xtalsak: Identifikatsion funksiya madaniyatning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, u milliy va madaniy o‘zlikni shakllantirishga xizmat qiladi. U orqali inson o‘zini muayyan guruhga mansub deb biladi.[18] Bu funksiya til, urf-odatlar, an’analar va tarixiy xotira orqali namoyon bo‘ladi. Shuningdek, u jamiyatda ijtimoiy birlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. XX asr oxirlaridayoq britaniyalik madaniyatshunos, sotsiolog Stuart Hall identitetni statik emas, balki doimiy o‘zgaruvchan jarayon sifatida ko‘radi, ya’ni identiklik tarix, madaniyat va ijtimoiy tajriba orqali shakllanadi, globalizatsiya sharoitida qayta quriladi[19].

“Identifikatsiya” so‘zi lotincha identificare so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “aynanlashtirish”, “tanib olish”, “mansubligini belgilash” degan ma’nolarni anglatadi. Demak, identifikatsion funksiya insonning o‘zini ma’lum bir madaniyat, millat, din, hudud yoki ijtimoiy guruh vakili sifatida his etishini ta’minlaydi.

Lekin davr almashgani, madaniy hodisalar transformatsiya uchragani sayin ma’lum bir muammolar ko‘zga tashlanib boraveradi. Aynan bugungi zamonaviy sharoitda identifikatsion funksiyadagi muammolar doirasida bir nechtasini misol keltirishimiz mumkin. Masalan, madaniy hodisa va funksiyalarga globalizatsiyaning ta’siri. Global madaniyat turli millat va xalqlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik va hurmatni kuchaytiradi, bu esa o‘z-o‘zidan madaniyatlararo dialogni kengaytirib, jamiyatlar o‘rtasida ijtimoiy aloqalarni mustahkamlaydi. Biz bu holatni madaniyatning ijtimoiy funksiyasini kuchaytiradi, deb qabul qilishimiz mumkin. Shuningdek, global madaniyat orqali davlatlarning ilmiy yutuqlari, san’ati va qadriyatlari tez sur’atlarda tarqaladi. Natijada madaniy rivojlanish va innovatsion jarayonlar tezlashadi. Va

[16] Alimasov V. Madaniyat falsafasi.- Toshkent:Donishmand ziyosi,2023, 11-12-bet.
[17] Ochildiyev, A. Madaniyatshunoslik asoslari. Toshkent: Fan nashriyoti, 2015, 14-bet.
[18] Hofstede, G.Culture’s Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations Across Nations. Thousand Oaks: Sage Publications, 2001. 82-bet
[19] Stuart Hall. Cultural Identity and Diaspora. 1990. 225-bet.

biz bu holatni madaniyatning bilish va axborot funksiyasi uchun xizmat qiladi deya olamiz. Lekin global madaniyatning keng tarqalishi milliy qadriyatlarning zaiflashishiga, ikkinchi darajaga tushib qolishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida ommaviy madaniyatning ustunligi milliy identifikatsiyani susaytiradi. [20] Turli madaniyatlarning o‘ziga xos jihatlari yo‘qolib, global “standart” madaniyat shakllanishi esa madaniy xilma-xillikni kamaytiradi. Ko‘ngilochar va soddalashtirilgan ma’naviy mahsulotlar esa azaliy meros bo‘lgan ma’naviy qadriyatlarni siqib chiqara boshladi. Natijada madaniy qaramlik ortib, bu bora-bora siyosiy manipulatsiya, segregatsiya holatlariga sabab bo‘lmoqda.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar sababli davlatni, millatni butun dunyoga tanitishning yanada imtiyozli va qulay yo‘llari ko‘p. Masalan, 2019-yilda Xorazm lazgisi UNESCOning Nomoddiy madaniy meros ro‘yxatiga kiritilgandan so‘ng Youtube va TikTok tarmoqlarida lazgi raqsi keng tarqalib, xorijlik foydalanuvchilar tomonidan ham ijro etila boshlandi.[21] Samarqandda o‘tkaziladigan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalining 2022-yildan boshlab raqamli formatlarining kengayishi, jonli efir orqali butun dunyo tomoshabinlariga uzatilishi milliy musiqaning global auditoriyaga real vaqt rejimida yetkazilishini ta’minladi. Bu esa madaniyatning zamonaviy kommunikativ imkoniyatlarini kengaytirganini ko‘rsatadi. Lekin afsuski raqamli makondagi nomutanosiblikka nazar tashlasak, platformalarda xorijiy kontentning ustunligi milliy madaniyatning yetarlicha targ‘ib qilinmayotganini bildiradi.[22] Natijada yoshlar madaniy o‘zlikni shakllantirishda tashqi ta’sirlarga ko‘proq bog‘lanib qolmoqda.

Madaniy identiklikning susayishi ma’lum ma’noda tarixiy xotiraning uzilishiga ham bog‘liq. Madaniy meros obektlari va tarixiy qadriyatlarning yetarli darajada ommalashtirilmasligi, yangi davr talablariga mos ravishda uzatilish usullarining kamligi yosh avlodning o‘z tarixidan uzoqlashishiga olib kelmoqda. [23] Bu identifikasion funksiyaning asosiy komponentlaridan biri – tarixiy davomiylikning zaiflashganini bildiradi.

Mazkur muammolarga yechim sifatida, madaniyatimizni, milliy identikligimizni saqlash va uni kelgusi avlodga sof holda yetkizish yo’lida biz nechta yechimlarni ko‘rib chiqishimiz mumkin. Eng avvalo avvalo madaniy merosni raqamlashtirish masalasiga jiddiy e’tibor qaratish lozim. Tarixiy obidalar, muzey eksponatlari va milliy san’at namunalarini foto, video hamda 3D formatlarda saqlash va targ‘ib qilish bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar yordamida amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekistonda tarixiy obidalarni 3D formatga o‘tkazish va virtual shaklda namoyish etishga qaratilgan loyihalar yo‘lga qo‘yilgan.[24] Shuningdek, Amir Temur tarixi davlat

[20] Aliyev, R. Madaniyat va ijtimoiy o‘zgarishlar. Toshkent: Ijtimoiy fanlar nashriyoti, 2020.78-bet.
[21] UNESCO. Reports on Cultural Policies. Paris: UNESCO Publishing. 2019.
[22] Shu manba, 17-bet.
[23] Ochildiyev, A. Madaniyatshunoslik asoslari. Toshkent: Fan nashriyoti. 2015.55-bet
[24] UzDaily. “Historical monuments of Uzbekistan to appear in 3D format”. — 2021.

muzeyining 3D virtual formati ham yaratilgan bo‘lib, bu milliy madaniy merosni raqamli muhitda saqlash va targ‘ib qilish imkoniyatlarini kengaytirdi.[25]

Bundan tashqari, virtual muzeylar va onlayn sayohatlar yosh avlodning tarixiy meros bilan interaktiv tarzda tanishishiga xizmat qilmoqda. Xususan, Mirzo Ulug‘bek virtual muzeyi hamda virtual eksponatlar loyihalari tarixiy qadriyatlarni zamonaviy shaklda taqdim etishning muhim namunasi hisoblanadi. [26] Bu esa madaniyatning identifikasion funksiyasini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ayniqsa, maktab va bog‘cha yoshidan boshlab tarix, milliy qadriyat va madaniyatni virtual platformalar, animasion filmlar hamda interaktiv dasturlar orqali yetkazish yoshlar ongida milliy identiklikni mustahkamlashda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Sababi inson ongiga ko‘rish orqali qabul qilingan axborot eshitish orqali olingan ma’lumotga nisbatan kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, virtual muzeylarda eksponatlar bilan interaktiv ishlash imkoniyati, 3D animasiyalar orqali Shashmaqom va Lazgi san’atini o‘rganish kabi innovasion usullar madaniyatni qabul qilish jarayonini passiv emas, balki faol jarayonga aylantiradi.

Yana bir muhim yo‘nalish sifatida milliy kontentni rivojlantirish va ijtimoiy tarmoqlarda targ‘ibotni kuchaytirish masalasini ko‘rsatish mumkin. Bugungi kunda YouTube, Instagram va TikTok kabi platformalarda milliy qadriyatlar, san’at, urf-odat va milliy taomlarni targ‘ib qiluvchi kontentlar yaratilmoqda. Bu esa yoshlar orasida madaniy ong va milliy o‘zlik hissining mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, mazkur targ‘ibotni faqat kontent yaratuvchilar zimmasiga yuklamasdan, ommaviy axborot vositalari orqali ham keng yoritish zarur. Chunki madaniyat targ‘iboti nafaqat milliy qadriyatlarni asrashga, balki jamiyatda vatanparvarlik va tarixiy xotirani kuchaytirishga ham xizmat qiladi.

Shu bilan birga, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda milliy va diniy-ma’naviy merosni asrash hamda uni zamonaviy shakllarda targ‘ib qilish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Toshkent shahrida bunyod etilgan O‘zbekiston Islom sivilizasiyasi markazi milliy va diniy qadriyatlarni chuqur ilmiy asosda o‘rganish, ularni xalqaro miqyosda targ‘ib qilish yo‘lidagi eng yirik ma’naviy loyihalardan biriga aylandi. Mazkur markazni tashkil etish haqidagi qaror 2017-yilda qabul qilinib,[27] 2018-yil Ramazon hayiti kuni uning poydevoriga tamal toshi qo‘yildi. Qariyb 8–9 yil davom etgan bunyodkorlik ishlari natijasida markaz 2026-yilda rasman ochildi. Bugungi kunda ushbu maskan nafaqat ilmiy-ma’rifiy markaz, balki xalqimizning boy tarixiy va madaniy merosini zamonaviy texnologiyalar asosida namoyish etuvchi yirik ma’naviyat o‘chog‘i sifatida faoliyat yuritmoqda.

Shuningdek, Samarqanddagi Imom Buxoriy majmuasining yangi qiyofada qayta bunyod etilishi ham tarixiy xotira va madaniy identiklikni

[25] TSUOS. “Temuriylar tarixi davlat muzeyining 3D formati yaratildi”. — 2022.
[26] UzDaily. “Virtual Museum of Mirzo Ulugbek created in Uzbekistan”. — 2020.
[27] PQ–2992-son qaror, 2017-yil 23-iyun.

mustahkamlash yo‘lidagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Majmuaning keng ko‘lamli rekonstruksiya ishlari 2018-yilda boshlanib, bir necha yil davomida olib borildi. [28] Natijada ushbu muqaddas maskan zamonaviy me’moriy yechimlar asosida qayta barpo etilib, ziyoratgoh bilan bir qatorda ilm-ma’rifat markaziga ham aylantirildi. Bu yerda yaratilgan yangi infratuzilma yosh avlodni Imom Buxoriy kabi buyuk allomalar merosi bilan yaqindan tanishtirish, ularda tarixiy xotira va milliy g‘ururni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Yuqoridagi islohotlar shuni ko‘rsatadiki, madaniyatning identifikasion funksiyasi bugungi kunda faqat an’anaviy shaklda emas, balki raqamli texnologiyalar, virtual platformalar va zamonaviy media vositalari orqali ham rivojlanmoqda. Natijada tarixiy xotira, milliy o‘zlik va madaniy davomiylikni saqlashning yangi modeli shakllanmoqda.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy sharoitda madaniyat funksiyalari, xususan identifikasion funksiyasi sezilarli transformasiyaga uchramoqda. Globalizasiya, raqamli texnologiyalar va axborot oqimlarining jadallashuvi natijasida madaniyatning an’anaviy mexanizmlari o‘zgarib, yangi shakl va mazmun kasb etmoqda.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, identifikasion funksiyaning asosiy muammolari quyidagilardan iborat: milliy o‘zlikning zaiflashuvi, raqamli makonda madaniy nomutanosiblikning kuchayishi hamda tarixiy xotiraning uzilish xavfi. Ushbu muammolar jamiyatda madaniy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bilan birga, zamonaviy innovasion yondashuvlar ushbu muammolarni bartaraf etishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, madaniy merosni raqamlashtirish, milliy kontentni rivojlantirish, ta’lim tizimida madaniyatni integrasiya qilish hamda interaktiv va multimedia texnologiyalaridan foydalanish identifikasion funksiyaning samaradorligini oshiradi.

Natijada, madaniyatning identifikasion funksiyasi nafaqat an’anaviy shaklda, balki zamonaviy texnologik muhitda ham faol namoyon bo‘lib, jamiyatning ijtimoiy va ma’naviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Kelgusida madaniyat funksiyalarini o‘rganishda innovasion metodologiyalarni qo‘llash, ayniqsa raqamli madaniyat va milliy identitet o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur tahlil qilish ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aliyev, R. Madaniyat va ijtimoiy o‘zgarishlar. Toshkent: Ijtimoiy fanlar nashriyoti, 2020-yil, 280 b.
2. Hall, S. Cultural Identity and Diaspora. 1990, p. 225.
3. Hofstede, G. Culture’s Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations Across Nations. Thousand Oaks: Sage Publications, 2001, p. 596.

[28] PQ–2780-son qaror, 2017-yil 14-fevral.

4. Ochildiyev, A. Madaniyatshunoslik asoslari. Toshkent: Fan nashriyoti, 2015-yil, 256 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-fevraldagi PQ–2780-son “Imom Buxoriy yodgorlik majmuasini yanada obod etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-iyundagi PQ–2992-son “O‘zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
7. TSUOS. “Temuriylar tarixi davlat muzeyining 3D formati yaratildi”. — 2022.
8. UNESCO. Reports on Cultural Policies. Paris: UNESCO Publishing, 2019, 180 p.
9. UzDaily. “Historical monuments of Uzbekistan to appear in 3D format”. — 2021.
10. UzDaily. “Virtual Museum of Mirzo Ulugbek created in Uzbekistan”. — 2020.

QORAQALPOG’ISTON RESPUBLIKASIDA KUTUBXONALAR TARIXI

Olimova Bahoroy
O’zDSMI Nukus filiali 2- kurs talabasi
Ilmiy rahbari, Kutubxona faoliyati kafedrasi
dotsenti ***Sharipova Dilbarxan Atajanovna***

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida kutubxonachilik faoliyatining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Xususan, dastlabki an’anaviy kutubxona shakllari, sovet davrida kutubxona tizimining markazlashuvi hamda mustaqillik yillarida axborot-kutubxona muassasalarining modernizatsiya jarayonlari yoritiladi. Shuningdek, Nukus shahridagi yirik axborot-kutubxona markazlari faoliyati, ularning ilmiy-ma’rifiy ahamiyati va jamiyat hayotidagi o‘rni ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, kutubxonachilik tarixi, axborot-kutubxona faoliyati, kutubxonalar tizimi, Nukus kutubxonalari, kitobxonlik madaniyati, ma’naviy-ma’rifiy rivojlanish, sovet davri kutubxonalari, mustaqillik yillarida kutubxonalar, elektron kutubxonalar, raqamlashtirish jarayoni, axborot texnologiyalari, qo‘lyozmalarni saqlash.

Abstract: This article analyzes the stages of formation and development of librarianship activity in the territory of the Republic of Karakalpakstan. In particular, it covers the early traditional forms of libraries, the centralization of the library system during the Soviet period, and the modernization processes of information and library institutions during the years of independence. It also examines the activities of major information and library centers in the city of Nukus, their scientific and educational significance, and their role in the life of society.

Keywords: Republic of Karakalpakstan, history of librarianship, information and library activities, library system, Nukus libraries, reading culture, spiritual and educational development, Soviet period libraries, libraries in the years of independence, electronic libraries, digitization process, information technologies, manuscript preservation.

Аннотация: В данной статье анализируются этапы формирования и развития библиотечного дела на территории Республики Каракалпакстан. В частности, освещаются ранние традиционные формы библиотек, централизация библиотечной системы в советский период и процессы модернизации информационно-библиотечных учреждений в годы независимости. Также рассматривается деятельность крупнейших информационно-библиотечных центров города Нукуса, их научно-просветительское значение и роль в жизни общества.

Ключевые слова: Республика Каракалпакстан, история библиотечного дела, информационно-библиотечная деятельность, библиотечная система, библиотеки Нукуса, культура чтения, духовно-просветительское развитие, библиотеки советского периода, библиотеки в годы независимости, электронные библиотеки, процесс оцифровки, информационные технологии, сохранение рукописей.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida kutubxonachilik an’analari uzoq tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, u xalqning ma’naviy-madaniy rivoji bilan chambarchas bog‘liqdir. Dastlabki davrlarda kitob va yozma manbalar asosan madrasalar, masjidlar va xususiy kutubxonalarda saqlangan. Bu maskanlarda diniy, tarixiy va adabiy asarlar yig‘ilib, ilm-fan rivojiga xizmat qilgan. Qoraqalpog‘istondagi kutubxonalar dastlab madrasalar, masjidlar va xususiy to‘plamlar asosida yuzaga kelgan. Bu kutubxonalarda diniy, tarixiy va adabiy asarlar saqlanib, ilm-fan rivojiga xizmat qilgan. Keyinchalik, ayniqsa XX asrda kutubxonalar soni ortib, ular davlat tizimi asosida faoliyat yurita boshladi. Kutubxona insoniyat ma’naviy merosini saqlovchi, ilm-fan va madaniyat rivojiga xizmat qiluvchi muhim maskandir. Qoraqalpog‘iston Respublikasida ham kutubxonachilik faoliyati uzoq tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Bu hududda qadimdan ilm-ma’rifatga qiziqish kuchli bo‘lib, xalq og‘zaki ijodi, yozma manbalar va tarixiy asarlar avloddan-avlodga yetkazib kelingan. Ayniqsa, XX asrdan boshlab zamonaviy kutubxonalar tashkil etilishi bilan aholining kitobxonlik madaniyati rivojlandi. Bugungi kunda Qoraqalpog‘iston kutubxonalari axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda zamonaviy axborot markazlariga aylanib bormoqda.

Qoraqalpoq xalqining ma’naviy hayotida kitob va yozma manbalar muhim o‘rin egallagan. Qadim zamonlarda madrasa va masjidlarda qo‘lyozma kitoblar saqlangan. Ushbu manbalar diniy, tarixiy, falsafiy hamda badiiy mazmundagi asarlardan iborat bo‘lgan. Qo‘lyozmalar asosan arab yozuvida bitilgan va madrasalarda ta’lim olayotgan talabalar tomonidan foydalanilgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida hududda ma’rifatparvarlik harakatlari kuchayib,

kitobxonlik madaniyatiga bo‘lgan e’tibor ortdi. Shu davrda kichik jamoat kutubxonalari va o‘quv xonalari tashkil etila boshladi. Ayniqsa, jadidchilik harakati vakillari kutubxonalar tashkil etish va aholi o‘rtasida savodxonlikni oshirishga katta hissa qo‘shgan. Sovet davrida kutubxona tizimi tubdan o‘zgardi. Davlat tomonidan markazlashgan kutubxonalar tarmog‘i shakllantirilib, ommaviy kutubxonalar, bolalar kutubxonalari va ilmiy kutubxonalar tashkil etildi. Bu davrda kitob fondlari kengaytirilib, aholining barcha qatlamlariga xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi. Ayniqsa, Nukus shahrida yirik kutubxonalar va axborot markazlari faoliyati rivojlandi. Kutubxonalar nafaqat kitob berish, balki ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazish markaziga aylandi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining markazi Nukus shahri kutubxonachilik rivojining asosiy markaziga aylandi. Bu yerda faoliyat yuritayotgan axborot-kutubxona markazlari aholiga keng xizmat ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti kutubxonasi ilmiy tadqiqotlar olib boruvchi talabalar va professor-o‘qituvchilar uchun muhim manba hisoblanadi. Shuningdek, hududdagi axborot-kutubxona markazlari elektron katalog va raqamli xizmatlarni joriy etishga katta e’tibor qaratmoqda. Kutubxonalarda kompyuter texnologiyalarining paydo bo‘lishi foydalanuvchilarga qulaylik yaratdi. Elektron darsliklar, internet xizmatlari va multimedia resurslari kitobxonlarga tezkor axborot olish imkonini bermoqda.

Qoraqalpog‘iston kutubxonalarida milliy adabiyotlarni saqlash va targ‘ib qilish ishlari ham keng yo‘lga qo‘yilgan. Qoraqalpoq yozuvchilari va shoirlari asarlari alohida fondlarda jamlangan. Bu esa yosh avlodning milliy madaniyat va adabiyotga bo‘lgan qiziqishini oshirmoqda.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, kutubxonachilik sohasida ham muhim islohotlar amalga oshirildi. Axborot-kutubxona tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarni joriy etish va elektron resurslarni kengaytirish asosiy vazifalardan biri bo‘ldi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi kutubxonalar ham ushbu jarayonda faol ishtirok etdi. Zamonaviy axborot-resurs markazlari tashkil qilindi. Kutubxonalarda internet tarmoqlari, elektron katalog tizimlari va avtomatlashtirilgan dasturlar joriy etildi. Bu esa foydalanuvchilarga masofadan turib ham kerakli ma’lumotlarni olish imkoniyatini yaratdi. Bugungi kunda kutubxonalar nafaqat kitob saqlovchi maskan, balki ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkaziladigan markaz sifatida ham faoliyat yuritmoqda. Turli uchrashuvlar, kitob taqdimotlari, adabiy kechalar va yoshlar bilan muloqotlar muntazam tashkil qilinadi.

Hozirgi davrda Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi kutubxonalar raqamlashtirish jarayoniga faol kirib bormoqda. Elektron kutubxonalar yaratish, nodir qo‘lyozmalarni saqlash va raqamli formatga o‘tkazish ishlari olib borilmoqda. Ayniqsa, yoshlarning kitobxonlik madaniyatini oshirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Kutubxonalarda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali foydalanuvchilarga tezkor va sifatli

xizmat koʻrsatish imkoniyati kengaydi. Elektron katalog, QR-kod tizimi, onlayn buyurtma va virtual xizmatlar joriy etilmoqda. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlik aloqalari ham rivojlanmoqda. Kelajakda Qoraqalpogʻiston kutubxonalarini yanada rivojlantirish, ularni zamonaviy axborot markazlariga aylantirish va yosh avlodning bilim olishiga xizmat qiladigan innovatsion muhit yaratish muhim vazifa boʻlib qoladi.

Mustaqillik yillarida esa kutubxonachilik sohasida yangi bosqich boshlandi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi, elektron kataloglar va raqamli kutubxonalar tashkil etilishi kutubxona xizmatlarining sifatini oshirdi. Hududda axborot-kutubxona markazlari tashkil etilib, ular aholiga tezkor va sifatli axborot xizmatlarini koʻrsatmoqda. Shu bilan birga, milliy merosni asrash, noyob qoʻlyozmalarni raqamlashtirish va ularni keng ommaga yetkazish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda

Xulosa qilib aytganda,bugungi kunda Qoraqalpogʻistonda kutubxonalar jamiyatning muhim axborot va madaniyat markazi sifatida faoliyat yuritmoqda. Ular yosh avlodni ma'naviy jihatdan tarbiyalash, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va ilmiy bilimlarni targʻib qilishda muhim rol oʻynamoqda. Kelgusida esa kutubxonachilik sohasini yanada rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash ustuvor vazifalardan biri boʻlib qoladi.

Qoraqalpogʻiston Respublikasidagi kutubxonalar tarixi xalqning ma'naviy va madaniy taraqqiyoti bilan chambarchas bogʻliqdir. Qadimiy qoʻlyozma manbalaridan boshlangan kutubxonachilik faoliyati bugungi kunda zamonaviy axborot-resurs markazlari darajasiga yetib kelgan. Ayniqsa, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar kutubxonalar faoliyatini yangi bosqichga olib chiqdi. Hozirgi davrda kutubxonalar aholining bilim va ma'naviyatini oshirishda, yoshlarni kitobxonlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Axmedova, D. A. Kutubxonashunoslik asoslari. – Toshkent: Oʻzbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2019. – 240 b.

2.Karimov, S. K. Oʻzbekistonda kutubxonachilik ishi tarixi. – Toshkent: Fan, 2015. – 198 b.

3.Ismailov, N. R. Axborot-kutubxona faoliyati va zamonaviy texnologiyalar. – Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2020. – 256 b.

4.Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti. Ilmiy ishlar toʻplami (kutubxonachilik va axborot tizimlari boʻlimi). – Nukus, 2018. – 180–210 b.

5.Qoraqalpogʻiston Respublikasi Axborot-kutubxona markazi. Yillik hisobotlar va metodik qoʻllanmalar toʻplami. – Nukus, 2017–2023. – 120–170 b.

6.Abdullayev, M. T. Kutubxonachilik va bibliografiya asoslari. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2016. – 220 b.

7. Xudaybergenova M. Reading culture: scientific and socio-philosophical perceptions. "Science and innovation" xaliqaro ilmiy jurnal. 2026-j. 2-fevral.12-15b. https://doi.org/10.5281/zenodo.18627831

8. Sharipova D. The Influence Of Fictional Literature And Library Environment On The Moral Education Of Youth. Internation Jurnal of Pedagogics.2026-j.22-fevral.119-121b

9. Dilbarxan Sharipova. (2025). KUTUBXONALARNING RAQAMLASHTIRISH JARAYONIDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR. Oriental Art and Culture" ISSN 2181-063X. SCIENTIFIC METHODICAL JOURNAL. VOLUME 6 ISSUE 2 / MARCH 2025

10. Aytimova , D. From the history of the formation and develorment of the first libraries in Karakalpakstan. Scientific Journal of the Fergana State University, 28(5), https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol28 iss5/a49-53

УДК 39(575.2)(082)
ORCID: https://orcid.org/0009-0007-6993-4986

«МУҢДУК-ЗАРЛЫК» КАК ФОЛЬКЛОРНО-ЭТНОГРАФИЧЕСКИЙ ИСТОЧНИК

Анарбекова Венера Эркинбековна,
кандидат исторических наук, доцент,
Киргизия, Жалал-Абадский международный университет,
e-mail: venera.erkinbek.anarbek@gmail.com,
тел.: (+996)770 294842

Аннотация. В статье дастан *«Муңдук-Зарлык»,* относящийся к значимым образцам кыргызского эпического наследия, анализируется как фольклорно-этнографический источник. Рассматриваются семейно-родственные отношения, нормы традиционного права, свадебная обрядность, элементы материальной культуры, пищевые практики и мифологические мотивы. Вариант, записанный от Качканака Салибаева, сопоставляется с научной литературой и авторскими полевыми материалами, что позволяет раскрыть его значение как формы сохранения народной памяти, традиционного мировосприятия и культурного опыта.

Ключевые слова: «Муңдук-Зарлык», фольклорный источник, этнографический источник, кыргызское эпическое наследие, традиционная культура, народная память, материальная культура, мифологические мотивы.

Abstract. The article examines the dastan *Munduk-Zarlyk*, one of the epic heritage works of the Kyrgyz people, as a folklore-ethnographic source. The study analyzes family relations, concepts of customary law, wedding rituals, elements of material culture, traditional food culture, and mythological motifs reflected in the dastan from an ethnographic perspective. The cultural memory, traditional worldview, and social relations preserved in the content of the epic are regarded as important sources for the study of the spiritual and material culture of the Kyrgyz people.

Keywords: *Munduk-Zarlyk* dastan, folklore source, ethnographic source, Kyrgyz epic heritage, traditional culture, folk memory, material culture, mythological motifs.

Введение. Дастан «Муңдук-Зарлык» является одним из распространенных эпических сюжетов тюркского мира. Его кыргызские, казахские и каракалпакские версии сохраняют общий повествовательный стержень, но в каждой традиции получают собственное историко-культурное наполнение. Фольклорная природа произведения позволяет рассматривать его не только как художественный текст, но и как носитель сведений о семье, браке, социальной справедливости, сакральной природе, гостеприимстве и вещном мире кочевого общества.

Цель исследования — выявить фольклорно-этнографическое содержание варианта дастана «Муңдук-Зарлык», записанного от Качканака Салибаева, и определить его источниковое значение для изучения традиционной культуры кыргызов. В статье анализируются сюжетные мотивы, обрядовые эпизоды, элементы материального быта, пищевая культура и мифологические представления.

Методы исследования. Использованы *сравнительно-текстологический, историко-этнографический* и *источниковедческий* методы. Первый метод позволил определить устойчивые мотивы и особенности сюжетной организации; второй — раскрыть этнографическое содержание обрядов, предметов быта, пищевой культуры и мифологических образов; третий — рассматривать фольклорный текст не как прямой исторический документ, а как форму сохранения культурной информации в народной памяти.

Результаты и обсуждение. Вопросы происхождения, ареала распространения, жанровой природы и художественных особенностей «Муңдук-Зарлык» по-разному освещаются в научной литературе. Произведение характеризуется как дастан, сформировавшийся в русле фольклорно-литературного наследия восточных и родственных тюркских народов [1, 516 С.]. Его прозаические и стихотворные варианты были записаны от Бүбү Байсыновой, Нурдөөлөта Самсалиева, Муратаалы Күренкеева, Үмөт Молдо, Барпы Алыкулова и Качканака Салибаева [2], что подтверждает широкое бытование сюжета в устной традиции.

В варианте Качканака Салибаева повествовательное ядро образуют бездетность Жанчаркана, женитьба на Каншайым, рождение Мундука и Зарлыка, зависть сорока жен, сокрытие младенцев и последующее восстановление справедливости. Через эти мотивы раскрываются представления о семье, браке, материнском страдании, сиротстве, женском соперничестве и нравственной ответственности. Следовательно, дастан дает материал для этнографического анализа социальных отношений и семейных ценностей.

В дастане особое значение приобретает связь человека с природой. Воспитание Мундука и Зарлыка в горной среде, а также активное использование таких образов, как *кайберен, коза, козлёнок, марал, гора, река, ущелье и переправа,* отражает характерные черты кочевого

мировоззрения. Связь Зарлыка с миром кайберена может быть истолкована как отражение архаических представлений о покровительстве природы, тотемических мотивах и гармонии человека с окружающей средой.

Этнографически значимы свадебные и праздничные сцены: *сватовство, выплата калыма, переезд невесты, встреча жениха, прием гостей, проведение тоя, установка юрты, возлияние масла в огонь, кыз оюн, качели, улак тартыш, кыз куумай, оодарыш, байге* и *игра ордо*. Эти элементы выступают не только художественными деталями, но и свидетельствами традиционных форм общественной коммуникации, обрядового поведения и праздничной культуры.

Источниковую ценность произведения усиливают детали материальной культуры. В тексте названы *конская упряжь, тулпар, седло, подпруги, пояс-кемер, куржун, шөкүлө, платок, маасы, чапан, принадлежности юрты, казан, кумган, чайник* и другие предметы. Через них раскрываются социальный статус персонажей, хозяйственная среда, повседневный быт и вещная культура традиционного общества.

Пищевая культура представлена прежде всего через сцены гостеприимства и свадебного пира. В описании тоя Куралай и Зарлыка говорится, что в каждой юрте была поставлена саба и для гостей готовили *кымыз (кумыс)* [3, 96 С.]. Кымыз издавна известен у кыргызов и других кочевых тюрко-монгольских народов как напиток, связанный с хозяйством, сезонностью, гостевым этикетом и оздоровительными практиками. В «Девону луғотит түрк» Махмуда Кашгари слово *qïmïz* обозначает напиток из кобыльего молока, получаемый путем брожения [4, 344-346 С.], а Алишер Навои упоминает кымыз среди напитков с тюркскими названиями [5, 70 С.].

В дастане кымыз выступает не только пищевым продуктом, но и знаком гостеприимства, праздничного изобилия и народных представлений о здоровье. В авторских полевых материалах также отмечается, что кымыз традиционно использовался для укрепления здоровья, восстановления организма и улучшения аппетита [ПИА, 1]. Следовательно, этот мотив раскрывает не только пищевую культуру, но и элементы народно-медицинского знания.

Заключение. Дастан «Мундук-Зарлык», рассматриваемый в качестве фольклорно-этнографического источника, содержит ценные сведения о традиционном укладе жизни кыргызов, системе семейно-родственных отношений, обрядово-ритуальной практике, элементах материальной культуры, сакральном отношении к природе и мифологической картине мира. Произведение не является письменным историческим документом, непосредственно фиксирующим конкретные исторические события, однако оно представляет собой значимый памятник устного народного наследия, в поэтической форме сохраняющий и передающий культурную информацию, закреплённую в

народной памяти. В связи с этим дастан целесообразно рассматривать не только как фольклорный текст, но и как важный источник этнографических данных, отражающий устойчивые формы традиционного мировосприятия, социальной организации и духовной культуры кыргызского народа.

Резюме. В статье дастан «Муңдук-Зарлык» рассмотрен как фольклорно-этнографический источник. Установлено, что в произведении широко представлены семейно-родственные отношения, свадебно-обрядовая культура, материальный быт, пищевые традиции и мифологические представления. Эти признаки позволяют использовать дастан как материал для исследования традиционной культуры кыргызов.

Использованная литература

1. КИУАнын Манастаануу жана көркөм маданияттын улуттук борборунун кол жазмалар фондусу. Инв. № 531 (5150) № 3 дептер.
2. Салибаев Качканактын айтуусундагы Муңдук-Зарлык // Муңдук, Зарлык. Кыз Дарыйка. Нарикбай. «Эл адабияты» сериясынын 11-тому. А. Акматалиевдин жалпы редакциясы астында. – Бишкек: Шам, 2002.–202 б.
3. Кыргыз адабиятынын тарыхы. Кенже эпостор жана поэмалар. Фольклористика. III том. А.А. Акматалиевдин жалпы редакциясы астында. – Бишкек: Кут-Бер, 2017. – 688 б.
4. Кошғарий М. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). Уч томлик. I том. – Т.: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси, 1960. – 500 б.
5. Навоий Алишер. Асарлар. 15 томлик. Т.14. – Тошкент, 1967. – 115 б. // Abdushukurov B., Aralova L. Rus tilidagi turkiy oʻzlashmalar. Uzbekistan: Til va madaniyat. Lingvistika. – Toshkent, 2021. – №1(1). – 70-б.

Авторские полевые материалы (АПМ):

1. Кыдыров Бектур. 43 года, род багыш, Жалал-Абадская область, Чаткалский район, с. Жаңы-Базар, 2026 г.

ОҚЫТЫЎШЫНЫҢ РЕПЕРТУАР ҮСТИНДЕ ИСЛЕЎИ

Балтаниязов Сарсенбай Айтмуратович
ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы профессоры

Annotatsiya: Mazkur maqolada vokal ta’limi jarayonida talabalar bilan yangi repertuar va musiqiy asarlar ustida ishlashning uslubiy asoslari yoritilgan. Asarni oʻzlashtirishning dastlabki bosqichlari, matn va kuyning tahlili, kompozitor va shoir ijodi bilan tanishishning ahamiyati koʻrsatib oʻtilgan. «Quloq orqali» (notasiz) notoʻgʻri oʻrganishning salbiy oqibatlari va ularni bartaraf etish yoʻllari tahlil qilingan. Shuningdek, asarni kichik boʻlaklarga boʻlib, sekin tempda xatosiz yodlash, vokal apparatini toʻgʻri muvofiqlashtirish hamda taniqli ijrochilarning yozuvlarini tinglash orqali vokal obrazini shakllantirish boʻyicha tavsiyalar berilgan. Pedagogning talabada

nafaqat vokal texnikasini, balki yuksak ijrochilik madaniyatini rivojlantirishdagi muhim roli ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: Vokal pedagogikasi, repertuar, musiqiy asar, talaba, kuy tahlili, vokal apparati, matn ustida ishlash, ijrochilik madaniyati, kompozitor, temp va ritm.

Musiqali teatr aktyorining drama aktyoridan farqi nimada? Dramatik aktyorni spektaklning tempi boshqaradi. Uni his qilgan aktyor shunga asoslanib o‘z obrazini yaratadi. Unda aktyorlar emotsional ochilish uchun istalgan vaqt oralig‘idan foydalanish mumkin. Barchasi aktyorning dramatik kuchiga bog‘liq. Dramatik aktyor ijrosining tasir kuchida so‘z san’ati muhim ahamiyatga ega. Musiqali teatrda esa umuman boshqa, unda eng kuchli emotsional xolatlar musiqa bilan aniq vaqt oralig‘iga olingan. Monolog-yani ariyaning ijrosida bir soniya kech qolishi yoki ilgakrilab ketishi mumkin emas. Aks xolda na musiqiy joziba, na dramatik tasir kuchi qoladi. Musiqali teatr aktyori bastokor tomonidan belgilab qo‘yilgan har bir taktga o‘zining dramatik kuchini, imkoniyatini taqsimlab chiqishi kerak bo‘ladi.

Musiqali teatrda bosh qaxramonlar birinchi navbatda aktyor yoki aktrisaning ovoz imkoniyatiga qarab tanlanadi. Ko‘rinib turibdiki bu asosiy komponent ijrochilarning vokal san’atini qay darajada egallaganliklariga qarab belgilanadi. Alohida e’tibor beriladigan jihat shundaki aktyor yoki aktrisa shunchaki sahnada go‘zal ovoz bilan kuylab berishlari kifoya qilmaydi. Bir joyda turib, qimirlamasdan har qanday jozibali ovozda aytilgan asar qo‘shiq yoki ashula xisoblanib, uning ijrochisi yakkaxon xonanda deyiladi. Ariya va duetlarda esa psixo-fizik hatti xarakat amalga oshiriladi. Uni amalga oshirish uchun esa ijrochi aktyorlik maxorati bilan bir qatorda vokal san’atini ham mukammal o‘zlashtirgan bo‘lishi talab etiladi. Musiqali dramalar faqat ariya va

duetlardan iborat emas, ularda trio, kvartet, kvintet va xorlar bilan bir qatorda yakka ijro qilinadigan qo‘shiqlar ham bor. Shuni yana alohida ta’kidlash kerakki, musiqiy spektaklda ijro qilingan qo‘shiq bilan konsert tomoshasidagi yakkaxon xonanda tomonidan aytilgan qo‘shiq tubdan farq qiladi. Takrorlab aytamiz, spektaklda aktyor kuylash jarayonida psixo-fizik hatti harakatni amalga oshiradi va u bajargan hatti-xarakat aniq voqeyelikga qaratilgan bo‘ladi.

Musiqali teatrda musiqa bilan boyitilgan spektaklning voqealari kuy va qo‘shiqlar orqali bir – biri bilan bog‘lanadi. Sahna asarining birinchi komponenti so‘z. So‘zdan asar dunyoga keladi, so‘zdan qo‘shiq yaraladi. Sahnadagi qahramonning ichki iztirobi kuchayib, quvonch yoki hasrat cheksiz bo‘lganda, so‘z bilan ifodalab bo‘lmas holat – kuylash orqali tomoshabinga yetkazib beriladi.

Taniqli teatrshunos olim, professor Muhsin Qodirovning “Sehr va mehr” nomli risolasida o‘zbek milliy musiqali drama san’atiga quyidagicha ta’rif beriladi: “O‘zbek musiqali dramasi – ko‘p tarmoqli, murakkab san’at. Drama janrida yozilgan asarni rejissyor rassom bilan bamaslahat o‘zi sahnalashtirishi mumkin. Ammo musiqali dramaning matni tayyor bo‘lgani bilan ish yurishib ketavermaydi. Pyesa bastakor ihtiyoriga o‘tib, musiqa yozilishi kerak. Mana shu bir- biriga chambarchas bog‘langan va ayni chog‘da, nisbatan mustaqil asarlar “teatr qozoni”ga kelib tushadi. Rejissyor, dirijyor, konsertmeyster, baletmeyster, rassomlardan iborat ijodiy guruh tomonidan katta ish olib boriladi. Musiqali teatrning o‘z yo‘nalishi, o‘ziga xos qonuniyatlari shu jarayonni talab qiladi. Musiqali drama – pyesa, shu asosda yozilgan musiqa va rejissyorning sahnaviy talqini kabi uch asosiy komponentdan iborat. Ana shu pyesa, musiqa, shuningdek, baletmeyster tomonidan sahnalashtirilgan raqslar teatrning ijodiy jamoasi, ijrochilar va orkestr tomonidan o‘zlashtirilib, sahnaviy xatti-harakatga aylantirilgandagina, musiqali drama hosil bo‘ladi. Ya’ni, sahnaviy xatti -harakat tufayligina, ikki yirik manbaa – pyesa bilan musiqa bir-birini topadi, birikadi, to‘ldiradi va aktyorlardagi imkoniyatlarni ro‘yobga chiqaradi, dramaturg bilan bastakor ko‘zlagan g‘oyaviy maqsad amalga oshadi”[29].

O‘zbek musiqali dramasi deganda, eng avvalo drama va komediya xususiyatlariga ega musiqiy spektakllar ko‘z oldimizga keladi. Spektakllardan o‘rin olgan ariya va duetlarning, umuman barcha musiqiy qismlar ijrosida milliy koloritning yaqqol ko‘zga tashlanishi o‘zbek milliy musiqali teatrining butun jaxonda yagona xususiyatli teatr ekanligini belgilaydi. Bu jihat milliy musiqali spektakllarning dastlabki namunalaridan boshlab bugungi kungacha yaratilayotgan barcha spektakllar uchun muhim xisoblanadi.

Kechinma san’atining ilmi qonunlarga emas, qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Bu qonuniyatlar nimalardan iborat? Avvalo dramaturg aynan musiqali drama uchun mo‘ljallab pyesa yozishi va pyesaning qatlaridan musiqiy ruh sezilib turishi, har bir sahnada keskin hissiy kurashlar sodir bo‘lishi natijasida

[29] M.Qodirov. Sehr va mehr – T.: G‘.G‘ulom, 1994. 6 bet

kuylashga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi kuzatilishi kerak. Xususan musiqali dramadagi har bitta dramatik sahna, ulardagi har bir hatti-harakat musiqaga, kuylashga bo‘lgan ehtiyojni paydo qilishi, ijrochilar bastakor tomonidan belgilab qo‘yilgan tempo ritmni buzmasdan, spektakldagi voqealar tizimi, qahramonlar ichki kechinmalarining shiddat bilan o‘sib borishi kuylashga bo‘lgan ehtiyojni paydo qilgandagina ariya va duetlarga murajat qilishlari kerak. Bunday mukammal kompozitsion qurilmani barpo qilishda ham dramaturg, ham bastakor, ham aktyorlar ijodiy kuchini bir maqsad yo‘liga yo‘naltirishdek muntazzam mashaqqatli mehnat mas’uliyati rejissyor zimmasiga yuklatiladi.

Bu qonuniyatlar milliy musiqali teatr san’atining shaklanish bosqichlarida yetuk ijodkorlar tomonidan yaratilgan. Teatr san’ati jamoaviylikni talab etadigan kasb sanaladi. Unda yakka ijodkorlik tan olinmaydi, unda jamoa bo‘lib ijod qilish talab etiladi. Musiqali teatr san’atida ham dramaturg, bastakor, rejissyor va aktyorlar jamoasining yagona maqsad yo‘lida birga qadam tashlashlari natijasida musiqiy spektakl vujudga keladi. Spektaklning yaratilishida sanab o‘tilgan ijodkorlar bilan bir qatorda rassom, derijyor, baletmeyster, xormeyster, grimyor, chiroq ustalariyu sahna ishchilari ham katta ahamyat kasb etadi. Kuchli ijodkor dramaturg tomonidan mukammal pyesa yozilishi bilan spektakl paydo bo‘lib qolmaydi. Yoki istedotli bastakor tomonidan yaratilgan ariya, duet, trio, kvartet va xorlar ham dramaturgiyasiz konsert dasturidan o‘zga narsa bo‘la olmaydi. Dramaturgning pyesasiga bastakorning musiqasi singib ketishi natijasida paydo bo‘lgan musiqiy dramaturgiyani rejissyor aktyorlar ijrosi orqali sahnaga ko‘chiradi. Musiqiy spektakldagi bosh qaxramonlardan tortib oddiy personajgacha aktyorlarning professonal vokal texnikasi va ovoz imkoniyatlari samarasi o‘laroq tomoshabinlar qalbidan chuqur o‘rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Qodirov. Sehr va mehr – T.: G‘.G‘ulom, 1994.
2. Yarbekov, E. (2024). Sahna nazariyasi. Oriental Art and Culture, 5(5), 584-590.
3. Usnatov, R. J. (2025). Musiqali dramaning ayrim muammolari. Inter education & global study, (1), 518-522.
4. Rasulov, U. (2024). Musiqali dramada dramaturg, bastakor va rejissyor ijodiy hamkorligi: ular ijodida mavzu va janrning mutanosibligi masalasi. Oriental Art and Culture, 5(5), 572-577.

«ТУРНА ПАТИ» ДИПЛОМ СПЕКТАКЛИ-БОЛАЛИК ҚОҒИРЧОҚ ТЕАТР ИЖОДКОРЛАРИНИНГ ИЛК МУСТАҚИЛ ҚАДАМИ

Умарходжаева Мамура Каримбоевна
ЎзДСМИ, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalari tomonidan diplom spektakli sifatida sahnalashtirilgan “Turna pati” spektaklining badiiy va sahnaviy xususiyatlari tahlil qilingan. Asarda insonparvarlik, mehr-oqibat, sadoqat va ezgulik g‘oyalarining qo‘g‘irchoq teatri vositalari orqali ifodalanishi hamda talabalarning aktyorlik va qo‘g‘irchoq boshqarish mahorati yoritilgan. Shuningdek, diplom spektaklining bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy shakllanishidagi ahamiyati va yosh ijodkorlar mahoratini namoyon etishdagi o‘rni baholangan.

Kalit so‘zlar: teatr, spektakl, tomoshabin, talaba, obraz, qo‘g‘irchoq, teatr, sahna, soya, rejissyor.

Аннотация: В данной статье проанализированы художественные и сценические особенности спектакля «Журавлиное перо» («Турна пати»), поставленного студентами в качестве дипломного спектакля. Рассмотрены способы воплощения идей гуманизма, милосердия, верности и добра средствами театра кукол, а также раскрыты актёрское мастерство студентов и их навыки управления куклой. Кроме того, дана оценка роли дипломного спектакля в профессиональном становлении будущих специалистов и в демонстрации творческого потенциала молодых исполнителей.

Ключевые слова: театр, спектакль, зритель, студент, образ, кукла, сцена, тень, режиссёр.

Abstract: This article analyzes the artistic and stage characteristics of the diploma performance “Crane Feather” (“Turna Pati”), staged by students as their graduation production. The study highlights the expression of the ideas of humanity, kindness, loyalty, and virtue through the means of puppet theatre, as well as the students’ acting skills and puppet manipulation techniques. Furthermore, the article evaluates the significance of the diploma performance in the professional development of future specialists and its role in demonstrating the creative abilities of young artists.

Keywords: theatre, performance, audience, student, character, puppet, stage, shadow, director.

Teatr san’ati tizimida diplom spektakllari bo‘lajak aktyor va rejissyorlarning nazariy bilimlari hamda amaliy ko‘nikmalarini namoyon etuvchi muhim ijodiy bosqich hisoblanadi. Bunday sahna asarlari talabalarning kasbiy tayyorgarligi, badiiy tafakkuri, obraz ustida ishlash mahorati va jamoaviy ijod jarayonidagi ishtirokini baholash imkonini beradi. Ayniqsa,

qo‘g‘irchoq teatri sohasida diplom spektakllari talabalarning qo‘g‘irchoq boshqarish texnikasi, sahnaviy nutq, harakat madaniyati va aktyorlik mahoratini yaxlit holda namoyon etishi bilan ahamiyatlidir.

Mamlakatimizda teatr ta’limi tizimini takomillashtirish, milliy va jahon teatr an’analarini uyg‘unlashtirgan holda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, talabalar tomonidan sahnalashtirilayotgan diplom spektakllari nafaqat o‘quv jarayonining yakuniy natijasi, balki yosh ijodkorlarning mustaqil ijodiy izlanishlari va kasbiy mahoratini namoyon etuvchi muhim madaniy voqea sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimida faoliyat yuritib kelayotgan O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Teatr san’ati fakulteti “Qo‘g‘irchoq teatri san’ati” kafedrasi tomonidan 4-kurs “Qo‘g‘irchoq teatri aktyorligi” ta’lim yo‘nalishi talabalarining diplom spektakli sifatida “Turna pati” sahna asari tomoshabinlar e’tiboriga havola etildi.

Mazkur spektakl yapon xalq ertagi motivlari asosida dramaturg Ibrohim Sodiqov tomonidan sahnalashtirish uchun qayta ishlangan bo‘lib, unda insonparvarlik, mehr-oqibat, sadoqat, vafodorlik, ezgulik va yaxshilikka intilish kabi umuminsoniy g‘oyalar badiiy ifoda topgan. Asarda inson va tabiat o‘rtasidagi munosabat, ezgu amalning mukofoti hamda ma’naviy qadriyatlarning hayotdagi o‘rni ramziy obrazlar orqali ochib berilgan.

Spektaklning sahnaviy talqini O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, dotsent Fatxulla Xo‘jayev hamda 4-kurs “Qo‘g‘irchoq teatr rejissyorligi” ta’lim yo‘nalishi talabasi Mubina To‘ychiyeva tomonidan amalga oshirildi. Rejissyorlar asar g‘oyasini zamonaviy qo‘g‘irchoq teatri ifoda vositalari orqali ochishga intilib, milliy va jahon qo‘g‘irchoqchilik an’analarini uyg‘unlashtirgan holda ta’sirchan sahnaviy yechim yaratishga erishdilar.

Spektakl tayyorgarligi jarayonida rejissyor yordamchisi, katta o‘qituvchi Ulug‘bek Musinov ijodiy guruh faoliyatini muvofiqlashtirib bordi. Sahna bezagi, qo‘g‘irchoqlar obrazi va umumiy badiiy muhitni yaratish ishlariga sahnalashtiruvchi rassom hamda qo‘g‘irchoqlar bo‘yicha rassom Lila Axunova rahbarlik qildi. Qo‘g‘irchoqlarni tayyorlash va ijro uchun moslashtirishda o‘qituvchilar Bekzod Jo‘rabayev, Nilufar Axmadaliyeva va Islom Berdimurotovning mehnati alohida ahamiyat kasb etdi.

Spektaklning dekoratsiya va sahna jihozlari Bekzod Jo‘rabayev rahbarligida 4-kurs “Qo‘g‘irchoqlar ishlab chiqarish texnologiyasi” ta’lim yo‘nalishi talabalari tomonidan tayyorlandi. Bu jarayon talabalar uchun nazariy bilimlarni amaliy ijodiy faoliyat bilan bog‘lash, kasbiy ko‘nikmalarini mustahkamlash va jamoaviy ishlash tajribasini oshirishda muhim maktab bo‘ldi.

Spektakldagi obrazlar tizimi talabalarning ijodiy imkoniyatlari, aktyorlik mahorati hamda qo‘g‘irchoq boshqarish ko‘nikmalarini namoyon etish uchun muhim sahnaviy maydon vazifasini bajardi. Asosiy qahramonlardan bo‘lgan Turna va Turnaoy obrazlarini Dilafruz Farmonova hamda Fozila Umarova ijro

etib, mehr-oqibat, sadoqat va fidoyilik g‘oyalarini ta’sirchan talqin qilishga muvaffaq bo‘ldilar. Kampir rolini Muxlisa Salimova va Hosilbek Valijonov, Chol obrazini esa Muzaffar Esonaliyev hamda Norposhsha Abdijabbarova ijro etib, asar voqealarining dramatik rivojida muhim o‘rin tutuvchi personajlarni ishonchli gavdalantirdilar.

Savdogar rolini Zoyirbek Qo‘ziboyev va Mubina To‘ychiyeva talqin qilib, obrazning manfaatparastlik va ochko‘zlik kabi xususiyatlarini sahnaviy harakatlar orqali yorqin ochib berdilar. Qo‘shni bolakay rolini Hosilbek Valijonov va Husanboy Xoldarov, qo‘shni qizaloq obrazini esa Norposhsha Abdijabbarova hamda Mubina To‘ychiyeva ijro etdilar. Ertakchi va cholg‘uchi obrazlari Ravshan Orolov hamda Husanboy Xoldarov tomonidan ijro qilinib, spektakl voqealarining izchil rivojlanishi va milliy koloritini ta’minlashga xizmat qildi. Ayniqsa, Tulki obrazining Husanboy Xoldarov tomonidan mahorat bilan talqin qilinishi spektaklning badiiy ta’sirchanligini yanada kuchaytirdi.

Shuningdek, ommaviy sahnalarda ishtirok etgan talabalarning uyg‘un sahnaviy harakatlari va jamoaviy ijrosi spektakl voqealarining jonli, tabiiy hamda ta’sirchan kechishini ta’minladi. Bu esa diplom spektakli ishtirokchilarining kasbiy tayyorgarligi, sahnaviy madaniyati va ijodiy salohiyatini yaqqol namoyon etdi.

Asar markazida ezgulikning mukofotlanishi g‘oyasi mujassam. Chol tomonidan tuzoqqa tushgan turnaning qutqarilishi va keyinchalik uning inson qiyofasida Turnaoy sifatida qaytib kelishi xalq og‘zaki ijodiga xos ramziylik asosida talqin etiladi. Turna obrazi yapon xalqining an’anaviy tasavvurlarida muqaddas qush sifatida qaralishi spektaklning ma’naviy-falsafiy mazmunini yanada boyitgan.

Turnaoy obrazi mehr-oqibat, sadoqat va fidoyilik timsoli sifatida gavdalantirilgan. U chol va kampirning samimiy mehridan ta’sirlanib, o‘zining eng qimmatli ne’mati momiq patlarini qurbon qilib, ular uchun ajoyib palak to‘qiydi. Bu sahnalarda inson manfaati yo‘lida o‘zini fido qilish g‘oyasi ta’sirchan badiiy ifoda topadi.

Pyesada savdogar obrazi orqali ochko‘zlik, moddiy manfaatparastlik va ma’naviy qashshoqlik tanqid qilinadi. Uning palak orqali boylik orttirishga intilishi ezgulik va poklikka qarshi qo‘yilgan salbiy kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Shu orqali asarda ma’naviy qadriyatlar har qanday moddiy boylikdan ustun ekanligi ta’kidlanadi.

Spektaklda planshet qo‘g‘irchoq va soya qo‘g‘irchoq teatri elementlaridan samarali foydalanilgani sahnaviy harakat ta’sirchanligini oshirgan. Ayniqsa, soya qo‘g‘irchoqlari orqali berilgan sahnalar obrazlarning ramziy ma’nosini kuchaytirib, asarning poetik va falsafiy mazmunini chuqurroq ochishga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, “Turna pati” diplom spektakli talabalarning ko‘p yillik nazariy va amaliy tayyorgarligi samarasini namoyon etgan muhim ijodiy loyiha sifatida ahamiyatlidir. Unda yosh aktyorlarning sahnaviy nutq, qo‘g‘irchoq boshqarish, obraz yaratish, harakat madaniyati va jamoaviy ijod

borasidagi mahorati yaqqol koʻrindi. Mazkur sahna asari nafaqat talabalarning kasbiy kamolotini namoyon etdi, balki ularni mustaqil ijodiy faoliyatga tayyorlashda muhim bosqich boʻlib xizmat qildi. Spektakl qoʻgʻirchoq teatri san'atining keng ifoda imkoniyatlarini yana bir bor tasdiqlab, yosh ijodkorlarning kelajakda professional teatr jamoalarida samarali faoliyat yuritishlari uchun mustahkam poydevor vazifasini oʻtaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Станиславский К.С. Работа актера над собой. – Москва: Искусство, 1989.

ШЕБЕРЛИК ШЫҢЫНА ПӘРЎАЗ

Хожанов Ж., Хожанова М.
ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы доцентлери

Annotaciya: Xalıq artistkası Ayımxan Shamuratova qaraqalpaq kórkem óneriniń rawajlanıp, onıń biyik shoqqılarǵa kóteriliwinde ayanbay miynet etip óz úlesin qosqan teatr ǵayratkerlerinen esaplanadı.

Аннотация: Народная артистка Ойимхон Шамуратова является одной из театральных деятельниц, внесших значительный вклад в развитие каракалпакского искусства и его возвышение.

Annotation*:* People's Artist Oyimxon Shamuratova is one of the theater figures who contributed tirelessly to the development of Karakalpak art and its ascent to great heights.

Gilt sózler: *teatr, aktyor, rejissyor, spektakl, saxna,* professional, *obraz, dramaturgiya, tragediya, komediya, repertuar, truppa, dekada.*

Ключевые слова: *театр, актёр, режиссёр, спектакль, professional, образ, драматургия, трагедия, комедия, репертуар, truppa, dekada.*

Keywords: *theatre, actor, director, performance, scene, professional, character, dramaturgy, tragedy, comedy, repertoire, troupe, decade.*

Xalıq artistkası Ayımxan Shamuratova qaraqalpaq kórkem óneriniń rawajlanıp, onıń biyik shoqqılarǵa kóteriliwinde ayanbay miynet etip óz úlesin qosqan teatr ǵayratkerlerinen esaplanadı. Ol Qaraqalpaqstanda birinshi «Tań nurı» truppasınıń shólkemlestiriwshisi dramaturg, rejissyor, artist Ábdiraman Ótepov penen birgelikte teatrdaǵı dóretiwshilik xızmetin baslaydı. Solay etip onıń teatrdaǵı dóretiwshilik xızmeti 1933 jılı Á.Ótepovtıń «Boyawshı wákil» spektaklindegi Hayal obrazın atqarıwdan baslanadı. Jas aktrisa hayal rolinde oynawdan bas tartadı, bul da bolsa qaraqalpaq qızlarına tán tartınshaqlıqtan, balalıq sezimlerdiń ele basılmay atırǵanınan bolsa kerek. Aktrisa qanday roldi bolsa da diydine jetkerip atqara alsa ol naǵız talant iyesi bolatuǵının ol keyin ala túsinip jetedi. Usı bir dáslepki qádem keyin ala xalıq awzında óz talantı menen dástanǵa aylanǵan xalıq artisti bolıp jetilisiwine sebepshi bolǵan bolsa kerek. Rasında da keyin ala usı bir kishkene soqpaqlar gúzarǵa aylanıp, aktrisa

qaraqalpaq teatrınıń tiykarın salıwshı Á.Ótepovtıń derlik barlıq spektakllerinde bas qaharman obrazların jaratıp tábiyat inám etken tuwma talantı, xosh hawazı, saxnaǵa jarasqan sın-sımbatı menen tamashagóylerdiń alǵıslarına, xalıqtıń húrmetine ılayıq boladı.

A.Shamuratovanıń qaraqalpaq teatrı saxnasında dóretken este qalarlıq obrazlarınıń biri bul Sapar Xojaniyazovtıń «Súymegenge súykenbe» muzıkalı komediyasındaǵı Ǵodalaqtıń úlken hayalı Parshagúl obrazı bolıp tabıladı. Bul haqqında teatr sınshısı, kórkem óner tanıw ilimleriniń doktorı, professor Teshebay Bayandiev bılay dep jazadı: «…Ayımxan Shamuratova, onıń xızmetlerin múltiksiz orınlap kiyatırǵan mizamkesh hayaldıń emes, kerisinshe, adasqanǵa jol, qapalanǵanǵa qol berip, «juwan judırıqtan» tayaq jegen biysharalarǵa kómeklesetuǵın adamǵa mehirbanlıq, ámeńgerlik tárepine kóbirek itibar beredi». Rasında da aktrisa óziniń súyiklisinen ayırılıp májbúriy Ǵodalaqqa hayal bolıwǵa kelisim bergen Aysánemge «júnin úrpiytpey» kerisinshe onıń Áwezge qosılıwına járdem beredi. Bul álbette Parshagúldiń (A.Shamuratova) adamgershilik qásiyetlerinen derek beredi. Sonday-aq bul roldiń sátli shıǵıwınıń taǵı bir sebebi, aktrisa ózi rolinde oynaytuǵın personaj xarakteriniń kúshli hám ázzi táreplerin jaqsı meńgergen. Demek aktrisa óz rolin joqarı professional dárejede atqara alǵan desek qátelespeymiz.

1957 jılı Tashkent qalasında ótkerilgen Qaraqalpaq ádebiyatı menen kórkem óneriniń birinshi dekadasında Ayımxan Shamuratova T.Allanazarov, J.Aymurzaevlardıń «Ráwshan» spektaklinde Ráwshan, A.N.Ostrovskiydiń «Jarlılıq ayıp emes» spektaklinde Anna Ivanovna rollerin tabıslı atqarıp shıqtı. A.Shamuratova «Ráwshan» spektaklinde awıl xojalıq institutın endi ǵana pitkerip kelgen jas agronom qız Ráwshan obrazın sheberlik penen jarattı. Ráwshan (A.Shamuratova) agronom bolıp keliwden xojalıqtı basqarıw jumıslarına jańalıqlar endire baslaydı. Ol xojalıq jumısın ádil jol menen meńgerip, adam kúshin, texnikanı únemli paydalanıw arqalı hasıldarlıqtı arttırıwǵa, miynet tártibin bekkemlewge tırısadı. Eskilikke, jaramas eski úrp-ádetlerge qarsı shıǵadı. Sonıń menen awılǵa jańa mádeniyat ornatıp, xalıqtıń mádeniy turmısın jaqsılaw ushın baslama kóteredi. Bul maqsetlerin iske asırıw jolında ushırasqan hár qanday qarama-qarsılıqlarǵa moyınsınbay, olarǵa tabanlılıq penen qarsı tura aladı. Awıl turmısına jańalıq endiriw menen birge Ráwshan (A.Shamuratova) óziniń jeke turmısında da baxıtqa qolı jetedi. Ol ózi súygen rus jigiti kolxozdıń injener texnigi Boris penen bas qosıp, haqıyqıy ómirge qol uslasıp birge qádem taslaydı. A.Shamuratovanıń atqarıwında Ráwshan obrazı Shıǵıstıń názik sezimli, sap húydanlı, márt qızı sıpatında ayqın sáwlelengen.

Á.Shamuratovtıń «Qırıq qız» muzıkalı draması belgili rejissyor G.D.Abdulov tárepinen saxnalastırılıp, muzıkasın kompozitor V.Shafrannikov qaraqalpaq xalıq namalarına tiykarında jazıp shıǵadı. Bul muzıkalı shıǵarmada aktrisa Gúlayımnıń anası Aqsulıwdıń rolin sheberlik penen atqarıp, óziniń kelesheginen úlken úmit kúttiretuǵın aktrisa ekenligin kórsete aldı.

1969 jılı Qaraqalpaq ádebiyatı hám kórkem óneriniń Tashkent qalasında ótkerilgen hápteligine S.Xojaniyazovtıń «Aqmaq patsha» spektakli aparıldı. Bul spektaklde A.Shamuratova Aqbilek báybisheniń rolin oynadı. Bul Aqbilek ózi haqkókirek, miyrimli, sárdar hayal boladı. Sońǵı alǵan hayalı qız tuwǵanın esitse Patsha onı óltirip jiberiwi múmkin ekenin sezgen Aqbilek (A.Shamuratova) aqıllılıq penen is alıp barıp, onıń qız tuwganın patshaǵa bildirmewge háreket etedi. Rejisser Qaraqalpaqstan xalıq artisti Reyimbay Tóreniyazovtıń dáslepki rejisserlıq miynetlerinen esaplanǵan bul spektakl óziniń unamlı tárepleri menen tashkentli tamashagóylerdiń názerin birden ózine awdardı.

1972 jılı M.Áwezov atındaǵı qazaq akademiyalıq drama teatrınıń bas rejissyorı Xalıq artisti Ázerbayjan Mámbetov sol gezdegi K.S.Stanislavskiy atındaǵı qaraqalpaq mámleketlik muzıkalı drama hám komediya teatrı saxnasında Shıńǵıs Aytmatovtıń «Ana-jer-ana» spektaklin saxnalastırdı. Ekinshi jáhán urısı jıllarında xalıqtıń basına túsken músiybet, olardıń ayanıshlı tágdiri haqqındaǵı bul dramalıq shıǵarmaǵa sol jılları kóplegen teatrlar qol urǵan edi. Tájiriybeli rejissyor Á.Mámbetov Tolǵanay rolin atqarıwdı teatrdıń talantlı aktrisası A.Shamuratovaǵa isenip tapsıradı. Balaların urısqa atlandırıp jer sıypalap qalǵan Tolǵanaydıń qayǵı-dártlerin aktrisa, geypara waqıtlarda ózin sol personajdıń ornına qoyıp, óziniń basınan ótken bazıbir jaǵdaylar menen tuwrı salıstıra bilgen. Nátiyjede bul roldi aktrisa tábiyiy atqarıp, tamashagóylerdiń júrek tórinen jıllı orın iyelewge miyasar boldı. Spektakl sátli shıǵıp, onı kóp sanlı tamashagóyler jaqsı qabıl aldı.

A.Shamuratovanıń teatr saxnasında jaratqan sońǵı rolleriniń biri Q.Mátmuratovtıń «Bir úyde eki ómir» dramasındaǵı Hámre obrazı bolıp tabıladı. Teatrdıń jetekshi kánige aktrisası sıpatında birqansha biytákirar obrazlar jaratıp saxnada ısılǵan tájiriybeli aktrisa bul obrazda Hámire ananıń ishki sezimlerin ayqın ashıp bere alǵan. Spektakldi kórip tásiyn qalǵan tamashagóylerdiń biri jazıwshı Gúlaysha Esemuratova: «…analardıń anası rolinde oynaǵanıńızdı kórip lázzetlendim, mawqımdı basqanday boldım. Siz jaratqan obrazlarda turmıstıń ashshı-dushshısın bastan keshirgen, analıq miyrimi kúshli hayal júregi jan-sezimimizdi biylep aladı». Bul aktrisanıń dóretiwshilik xızmeti tımsalında teatrǵa berilǵen úlken baha bolıp esaplanadı.

Xalıq artisti A.Shamuratova qaraqalpaq teatr hám qosıqshılıq ónerleriniń rawajlanıwında teńdey xızmet etip, onıń búgingidey professional dárejege kóteriliwine salmaqlı úles qostı. Sonlıqtan bul biytákirar talant iyesi, teatr saxnasında analar galereyasın jasaǵan aktrisanıń atı teatr tariyxına altın háripler menen jazılıp, máńgilik móxirlenip qalatuǵını taqıyıq.

ÁDEBIYATLAR

1. A.Shamuratova «Sheberliktiń shıńına qaray». «Qaraqalpaqstan» baspası 1984.

2. 2. A.Shamuratova «Iskusstvo ómirim». «Qaraqalpaqstan» baspası 1978.

ЗАМОНАВИЙ ТАЛҚИНДА САҲНАЛАШТИРИЛГАН СПЕКТАКЛНИНГ БАДИИЙ-ЭСТЕТИК АҲАМИЯТИ

Исмаилов Ажинияз
ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы оқытыўшысы

Аннотация: Бу мақолада Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат академик мусиқали театрида қайта саҳналаштирилган К.Рахмановнинг “Жар” спектаклининг ютуқ ва камчиликлари ҳақида сўз бўлади.

Калит сўзлар: театр, драматург, актёр, режиссёр, спектакль, ижодкор, репертуар, декорация.

Аннотация: В этой статье рассказывается о достижениях и недостатках пьесы К. Рахманова "Жар" переданной в Каракалпакском государственном академическом музыкальном театре имени Бердаха.

Ключевые слова: драматург, театр, актёр, режиссёр, спектакль, создатель, репертур, декорация.

Annotation: This article discusses the achievements and shortcomings of K. Rahmanov's play "Jar" which was presented at the Berdaq Karakalpak State Academic Musical Theatre.

Keywords: theater, playwright, actor, director, play, creator, repertoire, decoration.

Ўтган асрнинг сўнгги чораклигида ўзининг қайноқ ижоди билан қорақалпоқ драматургиясининг гуллаб–яшнашига салмоқли ҳисса қўшган драматург, Қорақалпоғистон халқ шоири, Бердақ номидаги давлат мукофотининг лауреати Кенесбай Рахмановнинг ижодини кўздан кечирсак, унинг саҳна асарларининг турли жанрларда ёзилганлигининг гувоҳи бўламиз. Бир-бирини такрорламайдиган «Яродор юраклар», «Кечиккан баҳор», комедия жанридаги «Келин», «Тўққиз тўнқилдоқ, бир чанғилдоқ», «Инжиқнинг муҳаббати», «Лаққилар шифохонада» ва бошқа саҳна асарлари театр саҳналарида муваффақияти саҳналаштирилди.

Драматургнинг замон танламайдиган саҳна асарларидан бири «Нариги дунёга таклиф» спектакли дастлаб 1976 йили режиссёр Н.Ансатбаев томонидан саҳналаштирилиб саҳна юзини кўрди. Асар 2010 йили қайта қўлга олиниб, «Ўғрини қароқчи босди» номи билан томошабинларга тақдим этилди[30].

Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат академик мусиқали театри трагик-комедия жанридаги мазкур асарни 2024 йили қайта қўлга олинганлигининг асосий сабабларининг бири саҳна асарининг мавзуси ва ғоясида. Жанри драмага айлантирилган ва «Жар» номи билан оммага тақдим этилган спектаклни режиссёр Марқабай Усенов саҳналаштирди. Спектаклда бугунги кундаги долзарб бўлган фарзанд тарбиясига

[30] Ансатбаев Н. “Театр ва кино” Тошкент, «Наврўз» 2020. 144, 156 б.

бефарқлик, молу-давлатга ружу қўйиш, давлат хизматчиларининг коррупцияга қарши кураши мавзулари кўтарилган. Бир неча ўн йиллар аввал ёзилган асардаги воқеаларни бугунги кун билан боғлаш ва аҳамиятини ошириш муаллифнинг қизи Гавҳар Раҳмонова томонидан амалга оширилгани инобатга олинса, драмадаги воқеалар шу кунларда бўлиб ўтади.

Бойликнинг ортидан қувган ота, Дубайга дам олиш учун кетган, уйда қолган она эса пул учун эрига зўрға чидаб юрган жабирдийда кўринишда гавдаланади. Ёлғиз ўғил Норпўлат (Муҳаммедали Кенжеев) ота-онасининг соясида кайфу-сафо қилиб юрган меросхўр, танти ўсмир. Уларнинг оиласида меҳр-оқибат туйғулари, инсонийлик сифатлари кўтарилгани яққол намоён бўлиб туради.

Онасининг машинасини ҳайдаб чиқиб кетган Норпўлат билан бахтсиз ҳодиса юз беради. Асарнинг тугуни мана шу ердан бошланади. Оилавий бир таниши Шерниязнинг (Руслан Қайпназров) ўз муаммосига ечим излаб турганида, Норпўлат велосипедли қизни машинада уриб юбориб, ўзи қочиб кетганини эшитган Улпери (М.Мамбетмуратова) саросимага тушиб қолади. Асардаги воқеалар ривожланиб бориши билан бу оиланинг бошига шиддатли мудҳиш воқеалар ёмғир каби ёға бошлайди.

Дастлаб, Шерииязнинг дўконида текшириш томонидан топилган камоматни қоплашидан умид қилиб, Тошпўлатни (Данияр Қудайназаров) Дубайдан чақиртиради. Ўғлининг ташвиши устига яна ташвиш бўлиб қўшилган воқеа – бу йиғилган бир чемодан долларларни ўғирлаб кетишганини бўлди. Бу воқеадан милициянинг хабар топишини истамаган уччовлон, вазиятдан чиқиш учун жиноят изидан яна жиноят содир этишади.

Қўшнисидан гумонсираган Тошпўлат ва Шернияз Улперини зўрға кўндириб, қўшнисининг ҳовлисига туширади. Уларнинг ҳаёлида: пулни ўғирлаган қўшниси пулларни молхонага яширишган. Лекин иш силлиқ кетмайди, Улперини ўғирликга тушган қўшни ҳовлидаги ийт тишлаб олади. Чигал воқеалар мана шу воқеадан кейин ойдинлаша бошлайди. Норпўлат одам уриб юбормагани, унинг ўзи ноқобил дўстлариинниг қурбонига айлангани, бир чемодан пул ҳам “дўстлар” томонидан ўғирлангани кўрсатилади. Бу воқеаларга чидай олмай, ақлдан озаган Улпери уйига ўт қўяди ва ўзи ҳам қурбон бўлади.

Асардаги воқеалар шиддат билан ривожланиб борганини кўришимиз мумкин. Бироқ воқеалар аввалида бир-бирига боғлиқлик суст кечади, Аниқ мақсадга хизмат қилмайдиган воқеаларнинг кўплиги дастлаб уларнинг ортиқчадек туюлганини яширмаймиз. Ички ишларни суриштурувлари орқали мудҳиш жиноятлар барчаси бир чизиққа тизилади. Шунданг сўнггина тушунарсиз кўп воқеаларга ойдинлик киритилади.

Спектакль сўнггида финал икки маротаба берилди. Тошпўлат милиция ходими олдида ҳамма ишларни бости-бости қилиш учун унга пора таклиф этиб, шу вақтгача қилган жиноятлари устига жиноятни ямаб турганида, милиция Тошпўлатга ҳали хабар топмаган воқеалар тафсилотини етказади. Тошпўлат шу ерда баридан айрилганини англаб етади. Шу ерда биринчи финал кўрсатилган бўлса, бундан кейин яна финал берилади, яъни Тошпўлатнинг чет элдаги қизи келиб, она қабри бошида намоён бўлади.

Саҳна безагидаги айрим декорацияларнинг ғояга эришишдаги хизмати якун топмаган. Прологда катта ойнанинг олдида бир қиз ўтириб, ўз аксини кўрганидан сўнг чўчиб тушади. Кейинги саҳна кўринишларида ойнадан деярли фойдаланилмайди. Лекин прологда катта темир тўрнинг туриши персонажларнинг қилмишларига яраша борадиган жойини акс эттирган. Тошпўлатнинг уй интеърери саҳна устига қурилган саҳнага ўхшаб қолган. Чунки, баланд зинапоялар актёрларнинг ундан миниб-тушишига ноқулай бўлди. Ҳаттоки, томошабин спектаклни кўриб ўтириб, актёрлар “йиқилиб кетмасмикин” дея ҳавотирланиб ўтирди.

Актёрлар ижросига тўхталадиган бўлсак, Тошпўлат ролидаги Данияр Қудайназаров ўз қаҳрамонига тушмагандек, назаримизда. Даниярнинг ўз образини яратишидан унинг қаҳрамони гапга эрувчи, бўшанг одамдек кўринди. Аслида Тошпўлат қаҳри қаттиқ, оиласига бефарқ, бола тарбиясини эса аёлига ташлаб кўйган, ҳаётда пулни ҳамма нарсадан устун қўйувчи инсон. Данияр Қудайназаровнинг ижросида бу характер яққол кўзга ташланмайди. Лекин Улпери ролидаги Мийригул Мамбетмуратова ва сақов хизматкор Нургул – Замира Юнусова ўз ролларини яхши ижро этди.

Асардаги воқеаларни бугунги кундаги аҳамиятини муҳокама қилар эканмиз, ҳозирги вақтдаги айрим ота-оналарнинг молу-дунё изидан қувиши ва оиласига бефарқлиги, натижада фарзандлар тарбиясини издан чиқариб қўйётганлиги, жиноий ишларни коррупция йўли билан ҳал қилишга бўлган урунишлари каби ҳолатларни бугунги турмушимизда тез-тез эшитиб, гувоҳи ҳам бўлиб турганимимиз ҳақиқат.

Хулоса ўрнида шуни айтиш керакки, қорақалпоқ театри тарихида бир асарнинг узоқ йиллар театр репертуарида яшаши аслида асарнинг моҳирлик билан ёзилганлигида. Янги спектаклнинг жанри ўзгартилиб, асар ўзининг композицион тузлишини бироз чалкаштириб қўйган бўлса да, мавзу ва ғоясининг аниқлигини, тарбиявий аҳамиятини сақлаб қола олган. Театр ижодкорларининг бугунги томошабинга айтмоқчи бўлган муҳим гапи ҳам мана шулар, аслида.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Арасту. Поэтика. – Т: Янги аср авлоди, 2012.
2. Ансатбаев Н. Театр ва актёр, дарслик. 2020.
3. Асарнинг асл нусхаси.

4. Darushova, Darixa Kadirniyazovna. "YOSH REJISSYORNING YANGI TALQINDAGI SPEKTAKLI." Oriental Art and Culture 5 (2024): 656-658.
5. Darushova, Darixa Kadirniyazovna. "DOLZARBLIGINI YO'QOTMAGAN ASARNING QORAQALPOQ SAHNASIDAGI TALQINI." TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G 'OYALAR 1.1 (2025): 355-358.

БИЛИМЛЕНДИРИЎ ТАРАЎЫНДА ОНЛАЙН МЕДИЯЛАР ЖЕТИСКЕНЛИКЛЕР ҲӘМ КЕМШИЛИКЛЕРИ

Даулетмуратов Тахир Пиратдинович
Өзбекстан мәмлекетлик көркем өнер ҳәм мәденият институты
Нөкис филиалы оқытыўшысы

Аннотация: Бул тезисте заманагөй билимлендириў системасында онлайн медиалардың орны, олардың мәлимлеме тарқатыўдағы жеделлиги, имканиятлары ҳәм усы тараўдағы фейк (жалған) хабарлардың алдын алыў мәселелери көрип шығылған. Сондай-ақ, мәлимлеме мәдениятын қәлиплестириў ҳәм медиа саўатлылықты арттырыўдың әҳмийетине тоқталған.

Гилт сөзлер: онлайн медиа, билимлендириў, фейк хабар, информациялық коммуникация, медиа саўатлылық, санлы әўлад, социаллық тармақлар.

Аннотация: Ушбу тезисда замонавий таълим тизимида онлайн медианинг ўрни, уларнинг ахборот тарқатишдаги фаоллиги, имкониятлари ва ушбу соҳадаги фейк (ёлғон) хабарларнинг олдини олиш масалалари кўриб чиқилган. Шунингдек, ахборот маданиятини шакллантириш ва медиа саводхонликни оширишнинг аҳамиятига тўхталиб ўтилган.

Калит сўзлар: онлайн медиа, таълим, фейк хабар, ахборот коммуникацияси, медиа саводхонлик, рақамли авлод, ижтимоий тармоқлар.

Аннотация: В данном тезисе рассматриваются роль онлайн-медиа в современной системе образования, их активность в распространении информации, возможности и вопросы предотвращения фейковых (ложных) новостей в этой сфере. Также была подчеркнута важность формирования информационной культуры и повышения медиаграмотности.

Ключевые слова: онлайн-медиа, образование, фейковые новости, информационная коммуникация, медиаграмотность, цифровое поколение, социальные сети.

Бүгинги күнде илим-ағартыўшылық ҳәм билимлендириў системасының раўажланыўысыз мәмлекеттиң келешегин көз алдымызға

келтириў қыйын. Президентимиз Шавкат Мирзиёев атап өткенлериндей, Үшинши Ренессанс тийкарын жаратыў ушын ең дәслеп билимлендириў ҳәм тәрбияны раўажландырыў, илим ҳәм инновацияларды қоллап-қуўатлаў – миллий идеямыздың тийкарғы бағдары болып табылады. Мәлимлеме жәмийетинде билимлендириў процеси санластырыў технологиялары менен тығыз байланыслы болып, онлайн медиалар информация алмасыўдың тийкарғы қуралына айланбақта.

Онлайн медиалар заманагөй жәмийетте мәлимлеме алмасыўдың ең нәтийжели ҳәм ғалабалық қуралларынан бири. Олардың тийкарғы жетискенликлеринен бири мәлимлемени тезлик пенен кең аудиторияға жеткериў имканияты болып табылады. Бул жағдай жәмийеттеги әҳмийетли ўақыя-ҳәдийселер, билимлендириў ҳәм илим тараўындағы жаңалықлар және социаллық процесслер ҳаққында өз ўақтында хабардар болыўды тәмийинлейди. Соның менен бирге, онлайн медиаларда интерактивлик қәсийетине ийе болып, пайдаланыўшылар арасында өз-ара байланыс, пикир алмасыў ҳәм жәмәәтлик додалаўларды раўажландырыўға хызмет етеди.

Онлайн медиалардың және бир әҳмийетли абзаллығы – мәлимлемени ҳәр қыйлы форматларда усыныў имканияты болып есапланады. Текст, сүўрет, видео ҳәм аудио көринисиндеги контент пайдаланыўшыларға информацияны тез ҳәм аңсат өзлестириўге жәрдем береди. Буннан тысқары, онлайн медиалар билим алыў ҳәм тәжирийбе алмасыў ушын қолайлы платформа есапланады. Оларда билимлендириў бетлери, онлайн курслар ҳәм қәнигелер тәрепинен таярланған материаллар кеңнен тарқалған болып, бул аралықтан билим алыў ҳәм еркин оқыў имканиятларын кеңейтеди.

Сондай-ақ, онлайн медиалар жәмийетлик пикирди қәлиплестириў, социаллық белсендиликти арттырыў ҳәм пуқаралық жәмийетти раўажландырыўда әҳмийетли орын ийелейди. Олар арқалы ҳәр қыйлы социаллық басламалар, жойбарлар ҳәм ағартыўшылық жумыслары кеңнен ен жайдырылып, халықтың белсене қатнасыўы тәмийинленеди. Улыўма алғанда, онлайн медиалар мәлимлеме мәканын кеңейтиў, билим ҳәм тәжирийбени ғалаба ен жайдырыў және заманагөй коммуникацияны жетилистириўде үлкен әҳмийетке ийе болмақта.

Солай екен, заманагөй онлайн медиалар билимлендириў тараўында бир қатар абзаллықларға ийе:

Оперативлик: Рәсмий мәкемелер өз веб-сайтлары ҳәм социаллық тармақлар арқалы имтиханлар, грантлар ҳәм жаңалықлар ҳаққында қысқа ўақыт ишинде мағлыўмат бериў имканиятына ийе.

Мәлимлеме формасының ҳәр түрлилиги: Текст, видео, инфографика ҳәм жанлы эфирлер информацияны қабыллаўды аңсатластырады.

Интерактивлик: Онлайн медиалар арқалы оқыўшылар ҳәм студентлер пикир алмасып, додалаўларда қатнасыў имканиятына ийе болады.

Дәстүрий ҒХҚ (телевидение, газета) менен салыстырғанда, онлайн медиалар информацияны ўақыя жүз бериўи менен жәриялаўы (реаль ўақыт режиминде) оның жеделлигин көрсетеди.

Онлайн медиалардың тезлиги менен бир қатарда, тексерилмеген ямаса арнайы тарқатылған «фейк» хабарларда ушырасады. Бундай мағлыўматлар жәмийетте исенимсизлик, надурыс түсиниклер ҳәм албыраўшылықты келтирип шығарады. Бундай жағдайларда тийисли мәкемелер рәсмий мүнәсибет билдириўи ҳәм халықты хабардар етиўи – жалған хабарлардың алдын алыўдағы ең нәтийжели механизм.

Жалған мәлимлеме тарқатқаны ушын нызамшылықта қатаң жазалар белгиленген. Өзбекстан Республикасының Ҳәкимшилик жуўапкершилик ҳаққындағы кодексиниң 202-2-статьясы ҳәм Жынаят кодексиниң 244-6-статьяларына муўапық, жәмийетлик тәртипке қәўип салатуғын ямаса шахстың қәдир-қымбатын кемситетуғын жалған хабарлар ушын ири муғдарда жәрийма ямаса азатлықты шеклеў жазалары қолланылады. Бундай жазалар пуқараларды, әсиресе жасларды интернеттеги ҳәр бир хабарға сын көзқарас менен қараўға шақырады.

Онлайн медиалар билимлендириўдиң ажыралмас бөлегине айланған. Олардың имканиятларынан мақсетли пайдаланыў, билим алыўдың жаңа имканиятларын жаратыў менен бирге, медиа мәдениятты қәлиплестириў – тийкарғы ўазыйпа. Жалған хабарларға исенип қалмаў, мәлимлемени рәсмий дереклерден тексериў ҳәм интернет мәдениятына әмел етиў – бүгинги заманагөй инсанның баслы талабы.

Әдебиятлар

1. Mirziyoyev Sh. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga yo‘llagan tabrigi. 2017-yil 27-iyul.
2. Mo‘minov F.A. Jurnalistika ijtimoiy institut sifatida. – T.: Universitet, 1998.
3. Прохоров Е.П. Журналистика. Государство. Общество. – М., 1996.
4. Xudoyqulov M. Ommaviy axborot vositalari nazariyasi. – T.: Universitet. 1999.
5. Qozoqboyev T.M., Xudoyqulov M. Jurnalistika. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T., 2009.
6. Муротова Н. ва б., Онлайн журналистика ва медида янги трендлар. VII жилд. Тошкент, 2019. – 338-б.
7. Морозова А.А. Специфика традиционных жанров журналистики в текстах социальных сетей (на примере «ВКонтакте») // Вестник Челябинского государственного университета, 2015. - № 5. Филология. Искусствоведение. Вып. 94. С. 245).
8. Muminov F.A., Bekbawliev D.O hám basqalar. Jurnalistika hám ǵalaba kommunikaciya tiykarlarí. Sabaqlıq. – T.: «Yosh avlod matbaa». 2021. –V. – 196.

ПСИХОЛОГИЯЛЫҚ КОНФЛИКТ ҲӘМ КАТАРСИСТИҢ САХНАЛЫҚ ШЕШИМИ

Дарушова Дариха Қадирниязовна
ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы оқытыўшысы

Annotaciya: Bul maqalada Berdaq atındağı Qaraqalpaq mámleketlik akademiyalıq muzikalı teatrında sahnalastırılǵan A.Ismailovtıń “Terbenbes júrekler-2” spektakli talqılanadı hám ondağı rejissyorlıq isi, konflikt hám katarsistiń saxnalıq sheshimi haqqında pikir bildirildi.

Tayanısh sózler: teatr, dramaturg, aktyor, rejissyor, spektakl, dóretiwshi, repertuar, dekoraciya.

Аннотация: В данной статье анализируется спектакль А. Исмаилова «Непоколебимые сердца–2» («Terbenbes júrekler–2»), а также рассматриваются режиссёрская работа, конфликт и сценическое решение катарсиса в постановке.

Ключевые слова: драматург, театр, актёр, режиссёр, спектакль, создатель, репертур, декорация.

Annotation: This article analyzes A. Ismoilov’s play “Immovable Hearts–2” («Terbenbes júrekler–2») and discusses the director’s work, the dramatic conflict, and the stage interpretation of catharsis in the performance.

Keywords: theater, playwright, actor, director, play, creator, repertoire, decoration.

Búgingi qaraqalpaq teatr kórkem ónerinde zamanagóy temalardı jańasha talqılaw hám tásirsheń saxnalıq sheshimler arqalı tamashagóyge jetkeriwge bolǵan umtılıs ayqın sezilmekte. Ásirese, jas rejissyor hám dramaturglerdiń dóretiwshilik izleniwleri nátiyjesinde saxnaǵa qoyılıp atırǵan spektakller tek ǵana kórkemlik jaqtan emes, al ruwxıy-tárbiyalıq áhmieti menen de ayrıqsha itibarǵa ie bolmaqta. Mine, usınday spektakller qatarına "Tebirmes júrekler-2" spektaklin kirgiziw múmkin.

Bul spektakl aldın saxnalastırılǵan "Tebirmes júrekler" shıǵarmasınıń logikalıq dawamı sıpatında kórsetildi. Spektakldıń birinshi bóliminde ele dúnyaǵa kelip úlgermegen nárestelerdiń túrli sebepler menen nabıt bolıwı, olardıń mezgilsiz úzilgen táǵdiri haqqında sóz etilgen bolsa, ekinshi bólimde bolsa tuwılmay qalǵan balalardıń ruwxıy keshirmeleri, olardıń anaları menen bolǵan simvolikalıq ushırasıwları oraylıq orındı ieleydi. Shıǵarmanıń bunday dawamlılıq tiykarında qurılıwı spektakl ideyasınıń jáne de tereńlesiwine xızmet etken.

Spektakl waqıyaları fantastikalıq hám psixologiyalıq dramanıń únlesligi tiykarında rawajlanadı. Nabıt bolǵan balalar Ómir perishtesinen bul dúnyaǵa túsip, óz anaların kóriw hám olar menen sóylesiw ushın ruqsat soraydı. Dáslep perishte bul ótinishke tartınıńqırap qaraydı, sebebi bul ushırasıwlar awırıw hám azaplarǵa tolı ekenligin jaqsı túsinedi. Biraq balalardıń qálbindegi taza

sezimler hám analar mehrine bolǵan shóllik sebepli olarǵa qısqa múddetke ruqsat beriledi.

Spektakl dawamında túrli tágdirler saxnada janlanadı. Hár bir ana obrazı arqalı jámiyette ushırasıp turatuǵın belgili bir sociallıq mashqalalar ashıp beriledi. Birinshi ana jaslıqtaǵı isenim hám aldaw qurbanı bolıp, ómirdegi nadurıs qádem sebepli perzentinen waz keshken. Onıń ishki azabı hám jıllar dawamında jıynalıp kelgen pushaymanı tamashagóy qálbine kúshli tásir etedi. Ekinshi obraz bolsa ruwxıy kriziske ushıraǵan, ómirdiń haram jolın tańlaǵan hayal tágdirin ashıp beredi. Ol perzentin "kereksiz" dep esaplaǵan bolsa da, onıń menen ushırasqan minutlarda júregindegi ana mehiri oyanıp, qattı azapqa túsedi.

Keyingi saxnada perzenti mayıp bolıp tuwılıwınan qorıqqan ananıń tágdiri talqılanadı. Bul obraz arqalı jámiette ayırım insanlardıń mayıplıqqa bolǵan nadurıs múnásibeti, ómirden qorqıw hám juwapkershilikten qashıw sıyaqlı jaǵdaylar ashıp beriledi. Spektakl bul mashqalanı júdá tásirsheń saxnalar arqalı kórsetip, hár bir insan jasaw huqıqına ie ekenin uqtıradı. Mayıp qız hám anasınıń ushırasıwı, olardıń bir-birin qıymay jılawı, bir-birine bolǵan mehirin bildiriwi spektakldegi eń tásirli saxnalardan biri boldı.

Ásirese, perzentiniń dağın kótere almay ruwxıy turaqlılığın joǵaltqan ana obrazı tamashagóylerdi qattı tásirlendirdi. Ruwxıy emlewxanada ótetuǵın saxnalarda ana júregindegi awırıw, pushayman hám árman júdá tábiyǵıy sáwlelengen. Balasın kórgen ananıń ruwxıy jaǵdayı, onıń perzentin bawırına basıp qalıwǵa bolǵan umtılısı saxnada kúshli dramalıq jaǵdaydı júzege keltiredi.

Spektakldin en tásirli noqatlarınan biri - analar hám balalar ushırasıwınıń qısqa ekenligi. Ómir perishtesi bergen waqıt tamam bolǵannan soń, balalar anaların taslap ketiwge májbúr boladı. Ana hám bala ortasındaǵı ajıralıw saxnaları tamashagóy qálbinde awır sezimlerdi oyatadı. Bul jaǵday shıǵarmada katarsis payda etip, tamashagóydi tereń pikirlewge shaqıradı.

Shıǵarmanıń kórkem sheshiminde simvolizm hám psixologizm áhmietli orın ieleydi. Ómir perishtesi obrazı tek ǵana waqıyalardı baylanıstırıp turıwshı qaharman emes, al insan húydanı hám turmıs haqıyqatlığınıń tımsalı sıpatında kórinedi. Spektaklda jaqtılıq, muzıka, saxna háreketleri hám únsizlikten ónimli paydalanılǵanı dramalıq tásir kúshin jáne de arttırǵan.

"Tebirmes júrekler-2" spektakli tamashagóydi ómir haqqında tereń oylawǵa iytermeleytuǵın psixologiyalıq drama esaplanadı. Shıǵarma insan óz qılǵan qáteleriniń aqıbetinen qashıp qutıla almaytuǵının, hár bir qarardıń artında insan tágdiri jatıwı múmkin ekenin tásirsheń saxnalar arqalı kórsetedi. Sonıń menen birge, spektakl jaslardı pák turmıs keshiriwge, juwapkershilik penen jasawǵa hám perzent qádirin ańlawǵa shaqıradı.

Shıǵarma avtorı Ájiniyaz Ismaylov zamanagóy qaraqalpaq dramaturgiyasında óz usılı hám sociallıq temalarǵa múrájat etiwi menen ajıralıp turatuǵın jas dóretiwshilerden biri bolıp esaplanadı. Avtor óz shıǵarmalarında jámiyette ushırasıp turatuǵın áhmietli mashqalalardı

psixologiyalıq dramatizm arqalı sáwlelendiriwge umtıladı. Ásirese, insan táǵdiri, jaslar turmısı, ruwxıy apachılıq, ata-ana hám perzent qatnasıqları sıyaqlı temalar onıń dóretiwshiliginde áhmietli orın ieleydi.

Avtordıń "Tebirmes júrekler" hám "Tebirmes júrekler-2" spektakllerinde ómir hám ólim, hújdan hám pushayman, ana mehri hám perzent táǵdiri sıyaqlı quramalı psixologiyalıq jaǵdaylar simvolikalıq hám tásirsheń saxnalar arqalı talqılanǵan. Dramaturg waqıyalardı ápiwayı bayanlaw menen sheklenbey, tamashagóy qálbinde ruwxıy keshirmeler hám tereń pikirlew oyatıwǵa háreket etedi.

Spektakldıń tamashagóyge tásirsheń hám mazmunlı jetip barıwında rejissordıń ornı sheksiz esaplanadı. Sebebi dramaturg tárepinen qaǵazǵa túsirilgen ideya hám pikirler tap rejissyor talqılawı arqalı saxna turmısına kóshedi. Rejissyor shiǵarma mazmunın tereń ańlap, oni saxna quralları arqalı tamashagóy qálbine jetkeriwshi tiykargı dóretiwshi sipatında kórinedi.

"Terbelmes júrekler-2" spektaklinde de rejissyor Marqabay Úsenovtıń dóretiwshilik izlenisleri hám saxnalıq sheshimleri shıǵarma ideyasınıń kúshli tásir menen ashılıwına xızmet etken. Spektaklda psixologiyalıq dramatizmdi kúsheytiw maqsetinde simvolika, plastikalıq háreketler, jaqtılıq hám muzıkalıq sheshimlerden únemli paydalanılǵan. Ásirese, balalar hám analar ushırasıwı saxnalarındaǵı únsizlik, áste háreketler hám sezimlik pauzalar tamashagóy qálbinde kúshli ruwxıy tásir oyatadı.

Rejissyor waqıyalardı ápiwayı túrde bayanlaw menen sheklenbesten, hár bir saxnanı insannıń hújdanı hám ishki qıyınshılıǵın ashıp beretuǵın psixologiyalıq ortalıqqa aylandıra alǵan. Ómir perishtesi obraziniń saxnadaǵı háreketleri, onıń balalar hám analar arasındaǵı dáldalshı sıpatındaǵı wazıypası simvolikalıq sheshimde talqılanǵanı spektakldıń kórkemlik qunın jáne de arttırǵan.

Sonday-aq, rejissyor saxna keńisliginen duris paydalanıp, real turmis hám ruwxiy dúnya shegarasın shártli formada kórsetiwge erisken. Perde ashılıwı menen tamashagóy balalardı shtangetke ildirilgen saqıynalarda terbelip otırǵanın kóredi. Olardıń júzlerinde bolsa qayǵı húkim súredi. Olar óz anaları menen ushırasıwǵa ruxsat alǵanda bolsa saqıynalar jerge túsiriledi hám balalar bul dúnyaǵa qádem taslaǵanın simvolikalıq mániste ańlaymız. Bul bolsa spektaklde fantastikalıq hám realistlik baǵdarlardıń úylesiwin támiyinlegen. Nátiyjede avtordıń tiykarǵı ideyası - insan óz qáteleri ushın hújdan azabınan qutıla almaytuǵını, perzent táǵdiri muqaddes ekenligi haqqındaǵı pikirler tamashagóyge tásirsheń hám isenimli túrde jetkerilgen.

Juwmaqlap aytqanda, "Terbelmes júrekler-2" spektakli zamanagóy qaraqalpaq teatr kórkem ónerinde sociallıq-psixologiyalıq temalardı jańa saxnalıq talqılawda sáwlelendirgen áhmietli shıǵarmalardıń biri sıpatında bahalanıwı múmkin. Ol tek ǵana kórkemlik jaqtan emes, al tárbiyalıq áhmieti menen de tamashagóy qálbinde uzaq waqıt saqlanıp qalatuǵın spektakller qatarına kiredi.

PAYDALANÍLǴAN ÁDEBIYATLAR:

1. Ansatbaev N. Teatr hám aktyor, sabaqlıq. 2020.141-154 b.
2. Arastu. Poetika. – T: Yangi asr avlodi, 2012. 45-b.
3. Pesanıń túp nusqası.
4. Ismailob Ajiniyaz Esbergenovich. “Ustoz taqdiri” spektaklida zamondosh obrazlar talqini" GOLDEN BRAIN 1.13 (2023): 161-167.
5. Darushova, Darixa Kadirniyazovna. "YOSH REJISSYORNING YANGI TALQINDAGI SPEKTAKLI." *Oriental Art and Culture* 5.6 (2024): 656-658.

ӘБДИРАМАН ӨТЕПОВ ҚАРАҚАЛПАҚ ТЕАТРЫНЫҢ ШӨЛКЕМЛЕСТИРИЎШИСИ

Рахманова Гаўхар Рахманова
ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы оқытыўшысы

Annotatsiya - Bul maqalada Qaraqalpaq teatr kórkem óneriniń qáliplesiwi hám onıń dáslepki shólkemlestiriwshilerinen biri bolǵan Ábdiraman Ótepovtıń ómiri hám dóretiwshilik jumısı sáwlelendirilgen. Avtor Ótepovtıń dramaturg, rejissyor hám aktyor sıpatında milliy teatrdıń rawajlanıwında tutqan ornın, onıń "Tań nurı" truppası hám Qaraqalpaq mámleketlik teatrınıń jumısındaǵı úlesin tallaydı. Sonday-aq, onıń saxnalıq shıǵarmaları, teatrdı shólkemlestiriw hám rawajlandırıwdaǵı baslamaları jáne dóretiwshilik mektep jaratıwdaǵı xızmetleri keńnen sáwlelendirilgen. Maqala arqalı Qaraqalpaq milliy teatr kórkem óneriniń dáslepki basqıshları hám onıń qáliplesiw procesi haqqında ilimiy juwmaqlar beriledi.

Gilit sózler: Abdiraman Ótepov, Qaraqalpaq teatrı, "Tań nurı" truppası, milliy teatr kórkem óneri, dramaturgiya, rejissyorlıq, aktyorlıq, teatr tariyxı, saxna shıǵarmaları, mádeniyat, teatr rawajlanıwı.

Annotatsiya - Ushbu maqolada Qoraqalpoq teatr san’atining shakllanishi va uning ilk tashkilotchilaridan biri bo‘lgan Abdiraman O‘tepovning hayoti hamda ijodiy faoliyati yoritilgan. Muallif O‘tepovning dramaturg, rejissyor va aktyor sifatida milliy teatrning rivojlanishida tutgan o‘rnini, uning “Tong nuri” truppasi va Qoraqalpoq davlat teatri faoliyatidagi hissasini tahlil qiladi. Shuningdek, uning sahnaviy asarlari, teatrni tashkil etish va rivojlantirishdagi tashabbuslari hamda ijodiy maktab yaratishdagi xizmatlari keng yoritilgan. Maqola orqali Qoraqalpoq milliy teatr san’atining ilk bosqichlari va uning shakllanish jarayoni haqida ilmiy xulosalar beriladi.

Kalit so‘zlar: Abdiraman O‘tepov, Qoraqalpoq teatri, “Tong nuri” truppasi, milliy teatr san’ati, dramaturgiya, rejissyorlik, aktyorlik, teatr tarixi, sahna asarlari, madaniyat, teatr rivojlanishi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются становление каракалпакского театрального искусства и жизненный и творческий путь одного из его основоположников — Абдирамана Утепова. Автор освещает его деятельность как драматурга, режиссёра и актёра, а также

его значительный вклад в развитие национального театра. Особое внимание уделяется его участию в деятельности труппы «Тонг нури» и Каракалпакского государственного театра, а также созданию театральной школы и постановке сценических произведений. В статье анализируется роль Утепова в формировании профессионального театрального искусства Каракалпакстана и его влияние на развитие национальной драматургии.

Ключевые слова: Абдираман Утепов, каракалпакский театр, «Тонг нури», национальное театральное искусство, драматургия, режиссура, актёрское мастерство, история театра, сценические произведения, культура.

Abstract: This article explores the formation of Karakalpak theatrical art and the life and creative activity of one of its founders, Abdiraman Utepo. The author highlights his contributions as a playwright, director, and actor, emphasizing his significant role in the development of national theater. Special attention is given to his involvement in the “Tong Nuri” troupe and the Karakalpak State Theater, as well as his efforts in establishing a theatrical school and staging various dramatic works. The article analyzes Utepo’s influence on the professionalization of Karakalpak theater and his impact on the development of national dramaturgy.

Keywords: Abdiraman Utepo, Karakalpak theater, “Tong Nuri”, national theater art, dramaturgy, directing, acting, theater history, stage works, culture.

Театр ибратхана, даналықты үйретететуғын ҳәм тәрбиялайтуғын мектеп. Қарақалпақстан театрының қәлиплесиўи XX әсирдеги дүнья мәдениятының раўажланыўының епкини менен байланыслы болса да оның театрға мегзес дәстүрлери, ҳәр қыйлы қәделери, қызықлы балалар ойынлары, халықтың ҳәзил-дәлкекке, күлки-мысқылға бейимлиги, ўа-ҳа-ҳалары, айтыслары, драмалық сәнияты әзел-әзелден бар. Улыўма ҳәр бир елдиң театр сәнияты тарийхта өз-өзинен салтанат пенен бир жерден көшип келген емес. Ол халықтың әпиўайы ҳәм қызықлы мийрасларынан өсип-раўажланып, дүньялық цивилизацияға барып қосылады.

Мине, усы көз-қарастан елимиз театр өнериниң пайда болыўы ҳаққында айтатуғын болсақ, әлбетте Әбдираман Өтеповтың аты менен еске аламыз. Ол драматург, режиссёр ҳәм актёр сыпатында дөретиўшилик алып барды.

Оның 1927-1934-жылларға шекем театр сахнасында қойылған пьесалары оның сөзсиз, театр жанкүйери, баслаўшысы, төреси екенлигин көрсетти. Әбдираман Өтепов әжайып драматург, қәбилетли режиссёр сыпатында сол дәўирдиң талантлы жасларын жүзеге шығарып, шәкиртлер таярлап дөретиўшилик мектебин жаратқан инсан .

Әбдираман Өтепов 1905-жылы Қоңырат қаласында туўылған. Әбдираман жас ўақытларында әкеси Өтеп қаладан Арал теңизиниң шығыс жағалаўындағы Қосжан деген жерге көшип келип, балық

өндириўши бай Березницкийге балықшы болып жалланады. Көп кешикпей бай оны балықшыларға бригадир етип тайынлайды. Байдың қараўында ислеген жыллары ол орыслар арасында танысларын көбейтип, дослар артырады. Хожейининиң исенимли адамы сыпатында ол байдың үйинде өткерилген барлық байрамлар ҳәм кешелерге еркин қатнаса алған. Әкеси менен бирге ол үйде Әбдирманда болған. Орыс мәденияты менен, қосықлары ҳәм ойынлары менен, хор ҳәм саз әсбапларында атқарыў, сондай ақ балалайка, гармонь, гитара, скрипка сыяқлы әсбапларда шертиў шеберликлери жас өспиримниң жүрегинде өшпес излер қалдырады.

Березницкийдиң үйиндеги байрамларда пантомимо ойынлары, аяқ ойынлары, киши көлемли комедиялардан үзиндилер атқарылатуғын еди. Әбдираман көп жыллар даўамында булардың ҳәммесин бир неше рет көрип жүрди. Сол аўылдағы орыс балалары менен көп ойнайтуғын еди. Байдың балығын қабыллаўшы Луценко деген киси бираз жыл булардың үйинде жасап, Әбдираманның орыс тилин меңгериўине тийкарғы себепши болды.

1916-жылы Әбдираманның әкеси қайтыс болады. 11 жасар баланы анасы мусылман мектебине оқыўға береди. 3-4 жыл ишинде Әбдираман зийреклиги, уқыбы, саўаты, тек арабша ҳәрип таныў емес, өз бетинше оқыў, оқыған китапларының мәнисин түсиниў бойынша да өз қатарларынан әдеўир илгерлеп кетеди. Ержете келе орыс тилин әдеўир меңгерип, европаша кийине баслайды. Соның ушын адамлар оған «Әбдираман орыс» деген лақап та береди.

1920-жылы Әбдираман Қоңыратқа қайтып келеди ҳәм ЧООН (чрезвычайный отряд особого назначения) отрядына киреди, соның менен бирге ол көркем ҳәўескерлер дөгерегине белсене қатнасады. Әбдираман кеўилли, ҳәр қыйлы минездеги адамларды еликлеўге шебер, өзинше шөлкемлестириўшилик уқыбы менен өзгелерден ажыралып туратуғын жигит болған.

1922-жылдан баслап, округлық комсомол комитетиниң ҳәўескерлик дөгереклерине тиккелей басшылық еткен. 1922-24-жыллары ол Қоңыраттағы театр дөгереклери ушын «Жезде жан», «Зиндан» атлы өзиниң дәслепки сахналық шығармаларын, сондай ақ қосықларын жаза баслайды. 1925-жылы Соркол болысы партия ячейкасының хаткери болып ислеп жүрип, аўыллық жерлерде драма дөгереклерин шөлкемлестирген. 1927-жылдың гүзинде ол Төрткүлге совет хызметкерлерин таярлайтуғын қысқа курста оқыўға жибериледи. Көп өтпей оны усы курстың баслығы етип таярлайды. Төрткүлде ол «Таң нуры» миллий труппасы менен жақыннан танысады ҳәм оның ислерине белсене қатнасады. З.Ф.Қасымов муғаллимшилик жумысына кеткеннен кейин 1927-жылдың 25-сентябринде Ә.Өтепов труппаның көркемлик басшысы етип тайынланады.

1927-1930-жыллары Әбдираман Өтеповтың дөретиўшилигиниң екинши басқышы «Таң нуры» қарақалпақ миллий труппасында басланады. Ол, көркем өнерге драматург болып труппаға келмей турып баслаған еди. 1925-жылы «Шәлеке бай» атлы 1 актлы пьесасын дөретеди. Соңынан бул пьеса бир неше мәртебе қайта исленеди. 1930-жылы бул шығарма драматург тәрепинен жаңа редакцияда қайта исленип «Теңин тапқан қыз» атлы көп актлы музыкалы драма пайда болады. Бул қарақалпақ театрының сахнасында бир неше мәртебе қойылып, халқымыздың сүйип тамашалайтуғын шығармасына айланды.

Драматург сыпатында Әбдираман Өтеповтың 16 үлкен көлемдеги пьесалары бар. «Теңин тапқан қыз», «Ашлық зары», «Еки баслы суў қабақ», «Столовая», «Одеколон», «900 грамм», «Бояўшы ўәкил», «Жалқаў дийхан», «Колхоз турмысы», «Жасырын мөлдек», «Әне халас», «Гүман», «Мархабай батыр», «Гүлзийба», «Айсанем», «Қызыл Марат». Буннан тысқары 40 қа шамалас киши көлемдеги пьесалары, инсценировкалар дөретти. Олардан «Пайзуллаев Әметим», «Алтынгул», «Қум келле», «Гүлхатийша», «Маруся қыз», «Кетсең неттим», «Жездежан», «Зиндан», «Мал киятыр», «Нени айтайын», «Көшеге шықсам», «Сен неме дейсең», «Алпыс метр, жетпис метр», «Ҳаў, бул ким?», «Қатын айырыўшылар», «Қайни менен жеңгесиниң айтысы», «Мейерхольд», «Айтайынба қайтайынба» ҳам тағы басқалар.

Ә.Өтепов азғана өмириниң ишинде көплеп шығармалар жазды, бирақ оның көплеген шығармалары сақланбаған.

Драматургиядағы оның дөретиўшилиги киши көлемдеги пьесалар жазыў менен басланған. Ол, турмыстағы ҳәр қыйлы ўақыяларды ҳәм гүрриңлер бойынша инсценировкалар ислеп сахнаға алып шықты. Бул шығармалар 3 түрге бөлинди. Биринши түрдеги шығармаларда еки актёр қатнасып, қысқаша музыкалы саҳналардан ибарат болған. Екинши түриндеги шығармада болса, бир актёр қатнасады өткир сатиралық мазмундағы драмалық саҳнадан исленген. Үшиншиси болса, сахнада тақмақ ҳәм монологлар оқыў ушын арналған.

А.Өтеповтың киши көлемдеги шығармаларының баслы мақсети адамларды жаңа дәўирге таярлаў еди. Бул шығармалар карикатуралық дүзилисте болып, унамсыз қаҳарманлар өткир сатиралық характерге ийе болды.

Оның айрым киши көлемдеги шығармаларынан ири пьесалар дөрелди. Мәселен «Шәлеке бай» шығармасынан «Теңин тапқан қыз», «Қатын айырыўшылар» шығармасынан «Гүман», «Ҳаў, бул ким?» шығармасынан «Бояўшы ўәкил» пьесалары инсценировка исленди.

«Теңин тапқан қыз» пьесасы бүгинги күнде де мектеп оқыўшыларының оқыўлықларына киритилген. Пьесаның тийкарғы идеясы жаңалық болмасада, оның көркемлик жақтан сүўретлениўи, қаҳарман характерлериниң толық ашылыўы менен өзиниң сахналық қунын жойтпады.

Ә.Өтепов актёр ҳәм режиссёр сыпатында да қарақалпақ театрында из қалдырды. Дәслеп Қоңыратта драм кружокта спектакллер қойды. Бул жерде өзиниң жазған «Зиндан» ҳәм «Жездежан» пьесаларын сахналастырады. 1927-1930 жыллары «Таң нуры» қарақалпақ миллий труппасында, соң дөретиўшилигиниң соңғы басқышыда Қарақалпақ мәмлекетлик театрында (1930-1933-жыллары) ҳәр қыйлы жанрларда спектакллер сахналастырды. С.Мажитовтың «Ерназар Алакоз», «Жигит болдық», Қ.Әўезовтың «Тилек жолында», өз қәлемине тийисли «900 грамм», «Теңин тапқан қыз», «Ашлық зары», «Бояўшы ўәкил», «Жалқаў дийхан», «Одеколон», А.Бегимовтың «Қорлықтан азат», «Бул ким?», Ж.Аймурзаевтың «Ҳәкислилер», Р.Матьякубовтың «Көкнаршы», булардан тысқары басқа халық драматурглеринен Сайкен Сайфуллинниң «Қызыл суңқарлар», Байимбет Майлинниң «Көзилдирик», «Талтаңбайдың тәртиби», Мухтар Әўезовтың «Бәйбише, тоқал», Атығай Шаниниң «Зәўре», Жанибековтың «Еки заң», Аблановтың «Күндеспейтуғын қатын», Зафарийдиң «Халима» пьесакларын сахналастырады.

Ә.Өтеповтың режиссёрлық мийнетлери дәслепки импровизацион театрлардан яғный майдан театрларынан парық қылатуғын еди. Ол актёрлар менен ислести. Пьесалардың қаҳарманларын актёрларға бөлип берип, арнаўлы текстлерди ядлатты. Сол бойынша сахнаға шығарып таярлық көрди. Ол актёр сыпатында да өзи сахналастырған барлық спектакллерде роллер ойнаған. «Зиндан»да жигит, «Жездежан»да Салмен муғаллим, «Бояўшы ўәкил»де Палымбет, «Доктор ҳәм колхозшы»да доктор, «Гүман»да Мурат, «900 грамм»да Сейтмурат, «Соңғы селтең»де Гулзада кемпир, «Ерназар алакоз»де Жаршы ҳәм Метера, «Жигит болдық»да Бас жигит, «Тилек жолында» Преке ҳам басқада бир қанша роллерин айтыўға болады. Оның актёрлық шеберлигиниң өзгешелиги ол қаҳарманларының сатиралық характерин ашып бере алды, халықтың лаққышылығын көрсетиўге ҳәрекет етти. Оның сахналастырған спектакллериде, ойнаған роллери де өз дәўиринде халыққа жүдә унады. Әлбетте бул театрдың дәслепки қәдемлери болып, ҳәўескерликтен профессионализмге өтиўи болды.

Ә.Өтепов 1933-жылы айрым себеблер менен театрдан кетеди. 1934-жылы 29 жасында қайтыс болады. Өзиниң аз ғана өмириниң ишинде қарақалпақ әдебияты, театр көркем өнеринде из қалдырып кеткен үлкемиздиң уллы тулғасы.

Пайдаланған әдебиятлар:

1. Алланазаров Т. Каракалпакский театр. Издательство «Фан».Т.-1966 стр. 164-176

2. Баяндиев Т. Каракалпакскому театру-50 лет. Издательство «Каракалпакстан» Н.-1976 стр.6

3. Қарақалпақ театр тарийхы бойынша архив материаллары.

ЎЗБЕК МИЛЛИЙ ҚОҒИРЧОҚ ТЕАТРИ: ТАРИХИЙ ЭВОЛЮЦИЯ ВА ХУДУДИЙ МАРКАЗЛАР ТАЛҚИНИ (СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИ ВА ТЕРМИЗ ТУМАНИ МИСОЛИДА)

Маъруф Саломов
Сурхондарё вилояти Термиз тумани Маданият булими тассаруфидаги 3-сонли Маданият маркази режиссёри

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek milliy qo‘g‘irchoq teatri san’atining shakllanish bosqichlari, janriy xususiyatlari va zamonaviy taraqqiyot tamoyillari tadqiq etiladi. Maqolaning o‘ziga xosligi shundaki, unda Surxondaryo viloyati qo‘g‘irchoq teatri an’analari va Termiz tumani 3-sonli madaniyat markazi qoshidagi “Bolajon” havaskorlik qo‘g‘irchoq teatri faoliyati ilk bor ilmiy muomalaga kiritilib, tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются этапы формирования, жанровые особенности и современные принципы развития узбекского национального кукольного театра. Уникальность статьи заключается в том, что она впервые представляет и анализирует традиции кукольного театра Сурхандарьинской области и деятельность любительского кукольного театра «Болажон» при Культурном центре № 3 Термезского района.

Abstract: This article examines the stages of formation, genre characteristics and modern development principles of the Uzbek national puppet theater art. The uniqueness of the article is that it introduces and analyzes for the first time the traditions of the puppet theater of Surkhandarya region and the activities of the amateur puppet theater "Bolajon" under the Cultural Center No. 3 of Termez district.

Kalit so‘zlar: Chodir jamol, Surxondaryo teatri, Termiz tumani, “Bolajon” teatri, havaskorlik san’ati, rejissura, estetika, folklor, pedagogik funksiya.

Ключевые слова: Чодир Джамол, театр Сурхандарья, район Термез, театр «Болажон», любительское искусство, режиссура, эстетика, фольклор, педагогическая функция.

Keywords: Chodir Jamol, Surkhandarya Theater, Termez District, "Bolajon" Theater, amateur art, directing, aesthetics, folklore, pedagogical function.

Teatr san’ati, xususan, qo‘g‘irchoq teatri insoniyat tsivilizatsiyasining eng qadimgi madaniy qatlamlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston sharoitida bu san’at turi xalq og‘zaki ijodi, dostonchilik va milliy o‘yinlar bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlandi. Maqolada umummilliy miqyosdagi taraqqiyot bilan bir qatorda, janubiy voha — Surxondaryo maktabining o‘ziga xos o‘rni va bugungi kundagi quyi bo‘g‘in havaskorlik jamoalari faoliyati tizimli ravishda yoritiladi.

Qo‘g‘irchoq teatri O‘rta Osiyo xalqlari orasida "Masxaraboz" va "Qiziqchi"lik san’ati bilan parallel ravishda shakllangan. IX-X asrlardan boshlab

"Chodir jamol" (qoʻl qoʻgʻirchoqlari) va "Chodir xayol" (soya teatri) turlari xalq sayillarining ajralmas qismiga aylangan.

Polvon Kachal — milliy qahramon timsolida

Oʻzbek qoʻgʻirchoq teatri markazida turuvchi Polvon Kachal obrazi orqali xalqning adolatga intilishi va ijtimoiy illatlar ustidan kulishi ifodalangan. Ushbu an'anaviy drama elementlari bugungi kundagi professional va havaskorlik teatrlari uchun fundamental asos boʻlib xizmat qilmoqda.

Surxondaryo oʻzining boy folklor merosi, Bahshichilik maktabi va oʻziga xos etnografik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu jihatlar viloyat qoʻgʻirchoq teatri san'atida ham oʻz aksini topgan.

Viloyat qoʻgʻirchoq teatrining tashkil etilishi

Surxondaryo viloyat qoʻgʻirchoq teatri oʻz faoliyati davomida voha bolalari va yoshlarining ma'naviy olamini boyitishga xizmat qilib kelmoqda. Teatr repertuarida mahalliy afsonalar va zamonaviy ertaklarning uygʻunligi asosiy oʻrin egallaydi. Voha qoʻgʻirchoqbozlik san'atida qoʻgʻirchoqlarning liboslari va nutq shevasida ham mahalliy kolorat (rang-baranglik) yaqqol seziladi.

Zamonaviy bosqichda professional teatrlarga poydevor boʻluvchi quyi boʻgʻin — havaskorlik jamoalarining oʻrni beqiyosdir. Shu ma'noda Termiz tumani 3-sonli madaniyat markazida tashkil etilgan "Bolajon" havaskorlik qoʻgʻirchoq teatri faoliyati alohida diqqatga sazovordir.

"Bolajon" teatri nafaqat tomosha koʻrsatish, balki yosh avlodni san'atga yoʻnaltirish, ularda aktyorlik mahorati va nutq madaniyatini shakllantirish vazifasini ham bajaradi. Jamoaning faoliyatida quyidagi yoʻnalishlar ustuvor:

Repertuar siyosati: Xalq ertaklari asosida tayyorlangan "Zumrad va Qimmat", muallifliasarlari "Ali va Vali", "Afandi va toʻrt ofat", "Buratino moʻjizalar olamida", "Yangi yil yulduzchasi", "Shumlarning shumligi" va shukabi asarlarni yozib sahnalashtrib kelayotgan 3-sonli madaniyat markazi rejissiyori Ma'ruf Salomov yuqorida aytib oʻtilgan asarlar orqali bolalarga ezgulik va yomonlik oʻrtasidagi farqni yaqqol koʻrsatib bermoqda.

Uslubiy yondashuv: Havaskorlik jamoasi boʻlishiga qaramay, qoʻgʻirchoqlarni boshqarishda professional texnikalarni (marionetka va petrushka uslublari) qoʻllashga intilish.

Ushbu jamoa tuman miqyosidagi ommaviy tadbirlar, bayram tomoshalarida faol ishtirok etib kelmoqda. Bu, oʻz navbatida, ommaviy bayramlar rejissurasi nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Chunki qoʻgʻirchoq teatri elementlarining bayram ssenariylariga kiritilishi tomoshaning emotsional ta'sir kuchini oshiradi.

Bugungi kunda sohani rivojlantirish uchun quyidagilar dolzarb hisoblanadi:

1. Dramaturgiya: Havaskorlik jamoalari uchun mahalliylashtirilgan, Surxon vohasi dostonlari asosidagi yangi pyesalar yaratish.

2. Moddiy-texnik baza: 3-sonli madaniyat markazi kabi maskanlarni zamonaviy akustika va dekoratsiya jihozlari bilan ta'minlashni davom ettirish.

3. Integratsiya: Professional teatrlar (viloyat darajasidagi) va havaskorlik jamoalari o‘rtasida "mahorat darslari"ni muntazam yo‘lga qo‘yish.

O‘zbek milliy qo‘g‘irchoq teatri o‘zining ko‘p asrlik o‘tmishi bilan faxrlana oladigan va kelajakka dadil qaraydigan san’at turidir. Surxondaryo viloyati, xususan, Termiz tumanidagi “Bolajon” havaskorlik teatri kabi kichik jamoalar bu ulkan san’at daraxtining hayotbaxsh ildizlari hisoblanadi. Ularni qo‘llab-quvvatlash va faoliyatini ilmiy asosda o‘rganish milliy madaniyatimiz taraqqiyotini ta’minlashda muhim bo‘g‘in bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qodirov M. "O‘zbek qo‘g‘irchoq teatri". – Toshkent: "San’at", 2006.
2. Umarov M. "Ommaviy bayramlar rejissurasi". – O‘quv qo‘llanma, 2014.
3. Surxondaryo madaniy merosi. – Ilmiy-ommabop to‘plam, 2021.
4. Jo‘rayev M. "O‘zbek xalq og‘zaki ijodi". – Toshkent, 2010.

ХОРАЗМ ЭТНОМАДАНИЯТИДА ВА ТЕАТР ТОМОШАЛАРИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШ ЖАРАЁНЛАРИ

Матлуба Исақова
ЎзДМСИ, доценти, (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm an’anaviy teatrining rivojlanish davri, masxarabozlik, raqs va janr xilma xilligi haqida so‘z boradi. Xalq qahramonlarining paydo bo‘lish an’analari e’tiborga olinadi.

Kalit so‘zlar: teatr, an’ana, etno, masxaraboz, janr, muqallid, obraz, afsona.

Аннотация: В данной статье рассматриваются этапы развития традиционного хорезмского театра, искусство масхарабозов, танец и жанровое разнообразие. Особое внимание уделяется традициям возникновения народных героев.

Ключевые слова: театр, традиция, этнос, масхарабоз, жанр, muqallid, образ, легенда.

Abstract: This article examines the stages of development of the traditional Khorezm theater, the art of maskharaboz performers, dance, and genre diversity. Special attention is given to the traditions of the emergence of folk heroes.

Keywords: theater, tradition, ethnos, maskharaboz, genre, muqallid, image, legend.

Xorazm teatrining dastlabki shakllanish davrlarida afsonaviy qahramonlar to‘qima obrazlarda talqin etilgan. Gershasp, Elikbek, Xubbi, Siyovush, Rustam kabi afsonaviy qahramonlar obrazi ham maydonga kelgan. Bu qahramonlar odamlar uchun yomonlikning ramzi bo‘lgan ajdar, dev, jin kabi g‘ayri-tabiiy kuchlarga va qoplon va yo‘lbarslar kabi vahshiy hayvonlarga qarshi kurashib, kishilarning osoyishta yashashlari uchun fidokorlik ko‘satadilar. Shunisi xarakterliki, dastlabki davrlarda mifologik xudolar sifatida tasavvur etilgan va

keyinchalik xalq qahramoni sifatida talqin etilgan Xubbi, Rustam obrazlari va yomonlik timsoli hisoblangan ajdar, dev, jin, qoplon va yo'lbarslarga taqlidiy obrazlar o'zbek xalq teatri repertuarida uzoq asrlar o'ynalib kelindi. Suv ma'budi Xubbi obrazi ham xalq sayllarida XIX asrga qadar Xorazm aktyorlari tomonidan o'ynalib keldi. Shunisi xarakterliki, ilgari diniy mifologik xarakterdagi bu marosim keyingi asrlarda tomosha tusini olib, bu afsona va Xubbi obrazi xalq sayllarida va qadimiy Xorazm teatri repertuarida to XIX asrning oxirigacha ham saqlanib qolgan. Chunonchi o'tgan asrning saksoninchi yillarida rus armiyasi sostavida Xivada bo'lgan rus ofitserining xotini A.Karseva Xorazmda teatrlashgan sayilda Xubbi onasi obrazi qatnashganining guvohi bo'lgan. Karseva bu to'g'rida quyidagilarni yozadi: "Sayilda odam ko'p, juda gavjum, ikkita qayiq ishlanib, tepasiga qamishdan soyabon yasalgan va qog'oz yopishtirilib bo'yalgan. Qayiq ichiga fanarchalar osilib, soyabon tagida bir ayol o'tirardi. Bir necha kishi qayiqlarni ko'tarib tomosha maydoniga olib keladilar. Bu qayiq tunda juda chiroyli manzara beradi, hamma ashula aytadi, o'ynaydi, qayiq "suzadi", tomosha tong otguncha davom etadi". Qayiqda o'tirgan ayol Xubbi onasining obrazi bo'lib, bu sayil o'sha qadimiy Xubbi marosimlarining ko'rinishlaridan edi.

Xorazm teatrining dastlabki vujudga kelgan davrlaridan o'ziga xos boshqa viloyat teatrlari kabi shakllanib an'anasiga xos tarzda rivojlangan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Xorazm sahna san'atining vujudga keltirilishi – bu faqat o'lka san'atkorlari xizmatlarining mahsuli bo'lib qolmasdan, mamlakatimizning turli shaharlaridan yordam qo'lini cho'zgan yoki Xorazm vohasiga kelib bu ishda bevosita xizmat qilgan madaniy qurilish xodimlari mehnatining ham natijasidir[31].

Xalq aktyorlarining iste'dodi, aql-idroki, g'ayrati hajviylik doirasida tasviriy uslublar va a imkoniyatlarni kengaytirishga qaratilgan. Natijada o'ziga xos kulgili-hajviy janrlar maydonga kelgan. Xorazm an'anaviy teatrida ham asosan uch janr yaxshi shakllangan: muqallid, to'kma va tanqid. Shu jihatdan Xorazm teatri Buxoro va Farg'ona an'anaviy teatrlaridan farq qilmaydi. "Xatorli o'yin" (yoki «Xatori o'yin») esa janr emas, turkum bo'lib, asosan tanqid va muqallidlardan tashkil topgandir. Atamaning ma'nosi ham ("Xatorli o'yin" - qatori, muayyan tartib bilan ketma - ket o'ynaladigan spektakllar) shundan darak beradi. Turkumlik masalasi. Xorazm an'anaviy teatrining repertuari asosan «To'kma» va «Xatorli o'yin» nomli ikki turkum tomoshalardan iborat bo'lgan. «To'kma» jo'ralar gurungi, oilaviy marosimlar bilan bog'liq bo'lgan kichik yig'inlarga mo'ljallangan, ko'pincha bir yoki ikki aktyor tomonidan ijro etiladigan muqallidlar, kulgili hikoyalar, satirik tomoshalarni o'z ichiga olgan. «Xatorli o'yin» esa xalq sayillari, davlat tomonidan uyushtiriladigan bayram va katta tantanalar sharoiti taqozosi bilan yaratilgan hamda keng maydonga mo'ljallangan tomoshalar tizimidir.

[31] Собиров О. Хоразм воҳаи театрлари 1917-1941 йиллар.-Т.:Ғофур Ғулом номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси,1991. – 4 б.

N.A.Baskakov o‘z asarlarida Xorazm xalq teatrining qo‘l qo‘g‘irchog‘i, chodir hayol va masxarabozlik teatri va ularning boshqa xalqlar teatri san’atiga aloqasi haqida qiziqarli ma’lumotlar bergan [32] . Xorazmlik masxarabozlar ko‘pincha ikki kishi qo‘sh hamkor bo‘lib, sozanda va o‘yinchilar bilan birga yurganlar. Bu Xorazm teatri xususiyatini belgilagan. Xorazm teatrida pantomima, parodiya va kulgili hikoyalarning katta o‘ringa ega bo‘lishi, komediyalarning ixcham voqealarni aks ettirishi, kam epizodli va personajlarining juda oz bo‘lishi, musiqa va raqs vositalaridan foydalanishga alohida e’tibor berishgan. Xorazm teatri haqida shuni aytish kerakki, bu yerdagi masxarabozlar teatri, raqs san’ati, umuman xalq tomoshalarining boyitilishi bilan ajralib turgan.

Xorazm masxarabozlari repertuarida «Qozi», «Ko‘knori devo nalarga tanqid», «Buvajon cho‘loq», «Non yopish», «Xotin to‘rg‘ab yotgani» singari tomoshalari mavjudki, ular musiqasiz ijro etilishi bilan boshqa tomoshalardan keskin farq qiladi. T.Obidov yozganidek, mazkur spektakllarning xususiyati shundaki ,« ular hazil - mutoyiba , hozirjavoblik to‘la nasriy dialog asosiga qurilgan bo‘lib, tashqi kulgili tryuklarsiz bajariladiki, bu ularni Farg‘ona vodiysi komiklari asarlariga yaqinlashtiradi» . Bu juda ham muhim va to‘g‘ri fikr, u Xorazm masxarabozlari repertuarida muallaq bo‘lib turgan, Xorazm an’anaviy teatri mazmuniga to‘g‘ri kelmaydigan mazkur tomoshalarning kelib chiqishini aniqlashda kalit vazifasini o‘tashi mumkin.

Masxarabozlar teatri o‘zbek an’anaviy teatrining eng qadimiy shakllarini o‘zida saqlab kelgan san’at bo‘lgani bilan alohida ajralib turadi. Ular qo‘shiq aytayotganda, raqsga tushayotganda, muallaq oshayotganda ham baribir aktyorligicha qolib, sahnaviy obraz yaratgan, tomoshabinni zavqlantirgan, hayratga solgan, kuldirgan. Janrlarni aniqlashda ulardagi xarakter yaratish vositalariga, insonni hayotiy jarayonda tasvirlash amallariga, kompozitsion qurilish va ijro uslubiga ўзига хослиги билан ажралиб турган. Чунки, ўзининг этномаданияти ўзига хослиги айниқса, оҳанг, рақс, либослари такрорланмаслиги билан алоҳида эътиборли эди.

Biroq qadimiy madaniyat va san’atning makoni bo‘lgan Xorazmning o‘yin va tomoshalarining rivojlanishini faqat masharabozlik teatri sohasida o‘rganish bilan yakunlab bo‘lmaydi. Shu bilan birga, qadimiy masxarabozlik teatri san’ati бугунги Xorazm teatrining vujudga kelishida o‘zining boy tarixi, etnomadaniyati bilan e’tiborli sanaladi. Bugun ham teatr an’analarida boy merosi an’analari asarlarga ko‘chirish va tomoshabinga taqdim etish amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Baskakov N.A. Narodniy teatr Xorezma. 1984. Toshkent: Fan, 124b.

2. Qodirov M. Tomosha san’atlari o‘tmishda va bugun. 2001. Toshkent: Mumtoz so‘z, 24 b.

3. Karabayev U. Etnokultura. 2005. Toshkent: Sharq, 240 s.

[32] Баскаков Н.А. Народный театр Хорезма. – Тошкент: Фан, 1984.

4. Rahmonov M. O‘zbek teatri: qadimiy zamonlardan XVIII asrga qadar.1975. Toshkent: Fan, 276 b.

5. Sobirov O. Xorazm vohai teatrlari 1917-1941 yillar. 1991. Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi,187b.

БИР ӘСИРЛИК ҲӘРЕКЕТ

Зарипова Зульфия Сарсенбаевна
ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы, ф.и.ф.д. (PhD)

Быйыл Қарақалпақ мәлекетлик миллий театрына бир әсир толды. Қарақалпақ мәмлекетлик миллий театры бүгинги күнине жетиў ушын бир қанша аўыр жолларды басып өтти. Театрымызға жүз жыл толыў мүнәсибети менен Түркияның «Анадолу» газетасында журналист Айбек Вейсалоғли тәрепинен Бердақ атындағы Қарақалпақ мәмлекетлик академиялық музыкалы театрының 100 жыллығы ҳаққында арнаўлы мақала жәрияланды. Мақалада журналист театрдың директоры Парахат Мамутовтан Қарақалпақ театрының өтмиши ҳәм бүгинги күндеги жетискенликлери ҳаққында сәўбети жәрияланған.

Қарақалпақ драматургиясы басқа да Орта Азия халықлары сыяқлы XX-әсирдиң басларынан баслап қәлиплесе баслады. Деген менен бул буннан алдыңғы дәўирде қарақалпақ халқында көркем өнер тараўы пүткиллей болмады дегенди аңлатпайды. Қарақалпақ драматургиясының үлгилери әсирден-әсирге, атадан-балаға, аўыздан-аўызға өтиў арқалы бүгинги күнимизге шекем жетип келген халық дәстанлары менен үрп-әдет дәстүрлеринде, салт-дәстүр жырларында, халық қосықларында, халық ойынларынан беккем орын алған.

XX-әсирдиң басында жүз берген өзгерислер көркем өнер тараўының пайда болыўы ҳәм раўажланыўына үлкен тәсирин тийгизди. Усы дәўирде Орта Азияның барлық қалаларында халық арасынан шыққан ҳәўескерлер тийкарында театрлар пайда бола баслады. Мине усындай театр бизиң елимизде де қәддин тиклей баслады.

Қарақалпақстан областлық Атқарыў комитетиниң 1926-жылы 11-апрельдеги «Қарақалпақ миллий драма труппасын дүзиў ҳаққында»ғы арнаўлы қарары тийкарланып «Таң нуры» аты менен Қарақалпақ миллий театр труппасы дүзилди ҳәм оның көркемлик басшысы етип Төрткүл қаласындағы педагогикалық техникумның муғаллими З.Ф.Қасымов бекитилди. Труппа ағзалары 13 адамнан ибарат болып, бул инсанлар бүгинги қарақалпақ театрының дәслепки қарлығашлары болып тарийхта мәңги қалды. 1926-жыл 8-ноябрде Қ.Әўезовтың «Тилек жолында» атлы тарийхый драмасы менен «Таң нуры» труппасының пердеси салтанатлы жағдайда ашылды[1.4].

Театрдың қәлиплесиўинде, оның раўажланыўында Ә.Өтеповтың мийнети күтә уллы деп айтсақ асыра айтқан болмаймыз.

1930-жыллары «Таң нуры» труппасы аўылма-аўыл, қалама-қала жүрип, театр өнерин пүткил халқымызға танытты ҳәм үлкемизде биринши Қарақалпақ мәмлекетлик театрын дүзиўге тийкар жаратты. Бул машақатлы ислерде миллий труппаның ҳәм директоры, ҳәм режиссёры, ҳәм артисти, ҳәм сазендеси, ҳәм қосықшысы және драматурги сыпатында ис жүргизген Әбдираман Өтеповтың ғайраткерлиги айрықша орын тутады.

Қарақалпақ миллий театрының дүзилиўи менен театрда жаңа өзгерислер пайда бола баслады. Сол дәўирдеги талантлы жаслардың ҳәр тәреплеме билимин жетилистириў мақсетинде ашылған арнаўлы оқыў орынлары театрымыздың тез пәт пенен раўажланыўына үлкен тәсирин тийгизди. 1939-жылы Москвадағы Луначарский көркем өнер институты жанынан ашылған Қарақалпақ студиясына билимин жетилистириўге жиберилген 16 жас қәниге театрға қайтып келеди. Усы мүнәсибет пенен театрға Константин Сергеевич Станиславский аты бериледи ҳәм Қарақалпақ мәмлекетлик музыкалы драма ҳәм комедия театры болып атала баслайды[1.6.].

1945-жылы Ташкент Мәмлекетлик театр ҳәм сүўретшилик өнери институтының ашылыўы Орта Азия халықлары көркем өнеринде үлкен жетискенликлерге ерисиўине себеп болды. Елимиздиң бир неше жаслары усы институттың түрли бағдарлары бойынша тәлим алып жетик қәнигелер болып театрға қайтып келди. Усындай жаслар арасында Қарақалпақ музыка мәдениятында драма ҳәм музыкалық драма жанрларының раўажланыўында белгили орынға ийе режисёр Т.Алланазаров болып табылады. Ол қарақалпақ тарийхында биринши профессионал режиссёр болып из қалдырды. Т.Алланазаров тек режисёрлық кәсиби менен шекленип қоймастан новатор, драматург, аўдармашы да болған. Театрдың дәслепки қәлиплесиў дәўириниң гуўасы болғанлықтан «Қарақалпақ театрының раўажланыў жоллары» атлы тема менен көркем өнер саласында кандидатлық жумысын қорғаған алым. Театр 1989 жылдан баслап Музыкалы театр деп атала баслады. Усы жылдан баслап театр көп жанрлы театр қатарына кирди ҳәм опера балет, музыкалы драма ҳәм комедия, драмалық спектакллерди сахналастырыў мүмкиншилигине ийе болды.

Ғәрезсизликке ерискенимизден соңғы дәўирде театрда басқа тараўлар сыяқлы бир қанша жақсы өзгерислер жүз бере баслады. Бул өзгерис жаңа дәўирдиң басланыўы менен яғный 1991-жылдан баслап театрымызға классик шайырымыз Бердақ Ғарғабай улының аты берилгени менен баҳалы. 2017-жылы театрымызға «Академик театр» статусы берилди[2.].

Театр жәмәәти кең мүмкиншиликке ийе болып бурынғы миллий дәстүрлеримизди даўам етти. Сахнамыздан дүнья классик шығармалары менен биргеликте түркий тиллес халықлар шығармалары да орын алып келди. Театр көплеген фестивалларда, таңлаўларда қатнасып жеңимпаз

болып дипломлар менен сыйлықланды. Солардан 1990-жылы Қазақстан республикасы Алматы қаласында гастроль сапарында болып «Әжинияз операсын», «Ғәрип ашық» музыкалы драмасын, «Келин» комедиясын қазақстанлы ықласбентлерге көрсетиўи,2021- жылы Түркия республикасында өткизилген «Трабзон XXI халықаралық Қара теңиз» театрлар фестивалында қатнасыўын, 2024-жылы апрель айында театр жәмәәти Ч.Айтматовтың «Лувр үйреги» спектакли менен Алматы қаласында гастроль сапарын атап өтсек арзыйды. Әсиресе, 2025-жылы «7-Этноспорт» мәденият фестивалында, Грузия республикасының Орузгети қаласында өткизилген «Нодар Думбадзе» атындағы V халықаралық театр фестивалына театр жәмәәти белсене қатнасыўын ҳәм фестивал шеңберинде Әзербайжан мәмлекетлик академик музыкалы театры менен бирге өз-ара бирге ислесиў меморандумларына қол қойғанлығы мақтаўға ылайық.

Өзбекстан Республикасы көркем өнери тараўында 27-март күни Халықаралық театр күни деп белгиленип, 21-марттан 27-март аралығында Өзбекстандағы барлық мәмлекетлик театрларда Театр тамашалары ҳәптелиги өткерилди. Бул күнлери театрларда қойылатуғын спектакллер халқымызға бийпул инам етилди.

Халықаралық театр күни мүнәсибети менен Өзбекстан Мәденият ўәзирлиги тәрепинен өткизилген жыйында республикамызда театр тараўын раўажландырыў, спектакллердиң сапасын асырыў сыяқлы талаплардың орынланыўы бойынша театр тәрепинен жыл бойы даўамында әмелге асырылған мийнетлерин есапқа алып театрымыз «Ең жақсы халықаралық театры» номинациясын қолға киргизди.

Көркем өнер тараўында бир қанша алымлар илимий изертлеў жумысларын алып барған ҳәм бүгинги күнимизде көркем өнер тараўы бойынша илимий изертлеў жумыслары даўам етип атыр. Олардан Т.Аллланазаров Қарақалпақ театр тарийхы бойынша, Сения Байбусинова музей тарийхы бойынша илимий изертлеў жумысларын жүргизген. Бердақ атындағы мәмлекетлик миллий театрдың директоры Парахат Мамутов Театр тарийхы бойынша, Таджатдинова Гулжахан экология темасындағы ҳүжжетли филмлердиң публицистикасы бойынша илимий исин табыслы қорғап шықты. Жақын арада Азиз Асқаров кино тараўы, қарақалпақ экран көркем өнери бойынша докторлық жумысларын қорғап шықты. Және де институтымызда студент жасларға тәлим береип атырған устазлар арасында да сценарий жазыўға уқыбы бар жас драматурглер де баршылық. Олардан жас алым Исмаилов Ажиниздың қәлемине тийисли «Тербенбес жүреклер» драмасы тамашагөйлер тәрепинен үлкен қызығыўшылық пенен қабыл етилди. Оннан басқа Анар Жақсымуратова, Мехрибан Хожанова сыяқлы жас алымлар драматургия тараўында қәлем тербетпекте.

Бүгинги күнде театрда 300 ден аслам қәнигелер жумыс ислемекте. Театрымыз көп жанрлы театр есапланып онда опера, балет, музыкалы

драма ҳәм драмалық шығармалар сахналастырылады. Театрымыз жыл сайын талантлы жаслар менен толысып бармақта.

Пайдаланған әдебиятлар

1. Бердақ атындағы Қарақалпақ мәмлекетлик академиялық музыкалы театрына 90-жыл. Нөкис «Билим» 2017 4-б., 6-б.
2. Интернет мағлыўмат. https://berdax-teatr.uz

ҚОҒИРЧОҚСОЗЛИК САНЪАТИНИНГ ЭСТЕТИК ВА ТАРБИЯВИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

Ачилова Шахидабану
ЎзДСМИ, 2-курс талабаси
Илмий раҳбари, ЎзДСМИ,
ф.ф.д. (PhD) ***М.К.Умарходжаева***

Annotasiya: Mazkur maqolada zamonaviy badiiy jarayonda qo‘g‘irchoqsozlik san’atining an’anaviy hunarmandchilikdan mustaqil badiiy-estetik hodisaga aylanish jarayoni tahlil qilingan. Shuningdek, qo‘g‘irchoqsozlik san’atining milliy madaniy merosni saqlash, innovasion texnologiyalar bilan boyish va teatr san’atidagi ijodiy imkoniyatlarni kengaytirishdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: qo‘g‘irchoqsoz, muallif, san’at, obraz, teatr, rassom, zamonaviy, marionetka, konstruksiya, sahna.

Аннотация: В данной статье анализируется просесс трансформасии искусства кукольного мастерства в современном художественном пространстве из традисионного ремесла в самостоятельное художественно-эстетическое явление. Также раскривается значение искусства кукольного театра в сохранении национального культурного наследия, освоении инновационних технологий и расширении творческих возможностей театрального искусства.

Ключевые слова: кукольній мастер, автор, искусство, образ, театр, художник, современній, марионетка, конструксиуа, сsена.

Annotation: This article analyzes the transformation of puppetry art in the contemporary artistic process from a traditional craft into an independent artistic and aesthetic phenomenon. It also highlights the role of puppetry in preserving national cultural heritage, integrating innovative technologies, and expanding the creative possibilities of theatrical art.

Keywords: puppet maker, author, art, image, theatre, artist, contemporary, marionette, construction, stage.

Zamonaviy badiiy jarayon inson tafakkuri, estetik qarashlari va madaniy ehtiyojlari bilan uzviy bog‘liq holda shakllanib bormoqda. San’atning turli yo‘nalishlari qatorida qo‘g‘irchoqsozlik san’ati ham nafaqat bolalar uchun mo‘ljallangan madaniy hodisa, balki keng ma’nodagi badiiy tafakkur va ijodiy

izlanishlarni namoyon etuvchi muhim sohalardan biri sifatida rivojlanmoqda. Qo‘g‘irchoqsozlik o‘z tabiatiga ko‘ra tasviriy san’at, amaliy bezak san’ati, teatr, rejissura, dramaturgiya va musiqa kabi sohalar bilan uzviy aloqada bo‘lib, zamonaviy madaniy makonda sintetik san’at ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi.

Qo‘g‘irchoq inson sivilizasiyasi tarixi davomida turli vazifalarni bajargan. Ilk davrlarda u marosim va diniy tasavvurlar bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik xalq ijodi va sahna madaniyatining muhim qismiga aylangan. Sharq xalqlari madaniyatida qo‘g‘irchoq va uning sahnaviy ifodasi qadimdan mavjud bo‘lib, xalq tomoshalari orqali ijtimoiy hayot, axloqiy g‘oyalar va turmush tarzi aks ettirilgan. O‘zbek milliy qo‘g‘irchoq teatrida ham qo‘l qo‘g‘irchoq, ipli qo‘g‘irchoq va soya teatri kabi an’analar shakllangan bo‘lib, ular milliy madaniyatning o‘ziga xos jihatlarini saqlab kelgan.

Zamonaviy badiiy jarayonda qo‘g‘irchoqsozlik san’ati an’ana va innovasiya uyg‘unligi asosida rivojlanmoqda. Bugungi kunda qo‘g‘irchoq yaratish jarayoni oddiy hunarmandchilik yoki sahna rekviziti tayyorlash bilan cheklanmaydi. U murakkab ijodiy jarayon bo‘lib, obraz yaratish, xarakter ochish, kompozisiya qurish va dramatik g‘oyani ifodalash kabi vazifalarni o‘z ichiga oladi. Qo‘g‘irchoqsoz rassom har bir qahramonning tashqi ko‘rinishi orqali uning ichki dunyosi, kayfiyati va harakat xususiyatlarini ifoda etishga intiladi.

Qo‘g‘irchoq yaratishda material tanlovi muhim ahamiyat kasb etadi. An’anaviy ravishda yog‘och, mato, qog‘oz va tabiiy xomashyolardan foydalanilgan bo‘lsa, bugungi kunda plastik, polimer, sintetik tolalar, metall konstruksiyalar va aralash texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda. Bu esa qo‘g‘irchoqlarning harakat imkoniyatlari va vizual ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilmoqda. Zamonaviy texnologiyalar yordamida yaratilgan qo‘g‘irchoqlar mexanik harakat, yorug‘lik effektlari va multimedia imkoniyatlari bilan boyitilib, tomoshabin uchun yangi estetik muhit hosil qilmoqda. Qo‘g‘irchoqsozlik san’atida obraz yaratish jarayoni alohida ahamiyatga ega. Qo‘g‘irchoq tashqi shakl jihatidan chiroyli yoki qiziqarli bo‘lishi bilan cheklanmaydi; u sahnada muayyan g‘oya va xarakter tashuvchisiga aylanishi lozim. Shu ma’noda qo‘g‘irchoqsozlik teatr rassomchiligi bilan chambarchas bog‘liq. Rassom qahramonning yoshi, ijtimoiy maqomi, xarakter xususiyatlari va dramatik vazifasini hisobga olgan holda obraz ustida ishlaydi. Masalan, ezgulik ramzi bo‘lgan qahramonlarda yumshoq shakllar, ochiq ranglar va mutanosib kompozisiya qo‘llanilsa, salbiy personajlarda burchakli shakllar, kontrast ranglar va keskin plastik yechimlar kuzatiladi.

Zamonaviy qo‘g‘irchoq teatrlarida planshet qo‘g‘irchoq, marionetka, trostli va aralash turdagi qo‘g‘irchoqlar keng qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, planshet qo‘g‘irchoqlar sahna harakati va psixologik holatni ifodalash imkoniyati bilan ajralib turadi. Bu turda qo‘g‘irchoq va aktyor o‘rtasidagi munosabat muhim o‘rin tutadi. Aktyor nafaqat ovoz va harakat orqali, balki o‘z tanasi plastikasi orqali ham qahramon obrazini shakllantiradi. Natijada qo‘g‘irchoq va ijrochi o‘rtasida o‘ziga xos sahnaviy uyg‘unlik paydo bo‘ladi. Jahon qo‘g‘irchoq teatri

tajribasi ham zamonaviy qo‘g‘irchoqsozlik taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Yevropa va Osiyo mamlakatlarida qo‘g‘irchoq teatri eksperimental yo‘nalishlarda rivojlanib, kattalar auditoriyasi uchun ham murakkab falsafiy va ijtimoiy mavzularni yoritmoqda. Ayrim spektakllarda qo‘g‘irchoq insonning ichki kechinmalari, ijtimoiy ziddiyatlar va tarixiy voqealarni ramziy shaklda ifodalash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat qo‘g‘irchoq san’atining faqat bolalar tomoshasi degan qarashdan ancha keng ekanini ko‘rsatadi. O‘zbekiston qo‘g‘irchoq teatri ham mustaqillik yillarida yangi bosqichga ko‘tarildi. Milliy an’analarni saqlagan holda zamonaviy rejissura, sahna bezagi va qo‘g‘irchoqsozlik texnologiyalari joriy etildi. Ayniqsa, tarixiy shaxslar, milliy qahramonlar va xalq og‘zaki ijodi asosida yaratilgan spektakllar qo‘g‘irchoq san’atining g‘oyaviy va estetik imkoniyatlarini namoyon etmoqda. Masalan, milliy ertaklar va tarixiy mavzular asosida sahnalashtirilgan spektakllarda qo‘g‘irchoq tashqi bezak emas, balki dramatik harakatning markaziy obraziga aylanadi.

Zamonaviy badiiy jarayonda qo‘g‘irchoqsozlik raqamli texnologiyalar bilan ham uyg‘unlashmoqda. Kompyuter grafikasi, 3D modellashtirish va animasiya elementlarining sahna san’atiga kirib kelishi qo‘g‘irchoq yaratish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Ba’zi teatrlarda qo‘g‘irchoq harakati proyeksiya, lazer va interaktiv ekranlar bilan birgalikda qo‘llanilib, tomoshabin uchun yangi vizual tajriba yaratilmoqda. Bu jarayon qo‘g‘irchoqsozlikni faqat an’anaviy hunar emas, balki yuqori texnologiyalarga tayanuvchi zamonaviy ijod sohasi sifatida ham namoyon etmoqda.

Qo‘g‘irchoqsozlik san’atining tarbiyaviy ahamiyati ham beqiyosdir. Qo‘g‘irchoq orqali bolalarda estetik did, obrazli fikrlash va ma’naviy qadriyatlarga hurmat shakllanadi. Qahramonlarning harakati va munosabatlari orqali yaxshilik, adolat, mehr-oqibat va vatanparvarlik g‘oyalari ta’sirchan tarzda yetkaziladi. Shu jihatdan qo‘g‘irchoq teatri va qo‘g‘irchoqsozlik nafaqat madaniy hodisa, balki ta’lim va tarbiya vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda qo‘g‘irchoqsozlik sohasida faoliyat yuritayotgan rassom va teatr ijodkorlari oldida bir qator vazifalar turibdi. Ular milliy an’analarni asrab-avaylash, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish va xalqaro tajribalarni milliy muhitga moslashtirish orqali qo‘g‘irchoq san’atini yanada rivojlantirishlari lozim. Chunki globallashuv sharoitida milliy madaniy merosni saqlash va uni zamonaviy ifoda vositalari bilan boyitish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, zamonaviy badiiy jarayonda qo‘g‘irchoqsozlik san’ati an’anaviy hunarmandchilik doirasidan chiqib, mustaqil va serqirra badiiy-estetik hodisa sifatida shakllanmoqda. U teatr, tasviriy san’at, dramaturgiya, rejissura hamda zamonaviy texnologiyalarni o‘zaro birlashtirgan holda yangi ijodiy imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Qo‘g‘irchoq nafaqat sahna obrazini yaratish vositasi, balki muayyan g‘oya, his-tuyg‘u va ma’naviy qadriyatlarni ifodalovchi badiiy timsol sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda qo‘g‘irchoqsozlik san’ati milliy an’analarni saqlagan holda innovasion yondashuvlar bilan boyib, jahon teatr madaniyati bilan hamohang tarzda taraqqiy etmoqda. Ayniqsa, yangi materiallar, multimedia vositalari, raqamli texnologiyalar va sahnaviy eksperimentlarning qo‘llanilishi qo‘g‘irchoq san’atining ta’sir doirasi va estetik imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Bu esa qo‘g‘irchoq teatrini faqat bolalar uchun mo‘ljallangan tomosha emas, balki turli yosh va dunyoqarashdagi tomoshabinlarga ta’sir ko‘rsata oladigan universal san’at turi sifatida namoyon etmoqda. Shu bilan birga, qo‘g‘irchoqsozlik san’ati milliy madaniy merosni saqlash va uni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim vosita hisoblanadi. Milliy ertaklar, xalq qahramonlari, tarixiy obrazlar va ma’naviy qadriyatlarni sahnada qo‘g‘irchoq orqali talqin qilish milliy o‘zlikni anglash, estetik did va ma’naviy tarbiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Kelgusida qo‘g‘irchoqsozlik sohasida ijodiy izlanishlarni kengaytirish, malakali rassom va teatr mutaxassislarini tayyorlash, xalqaro tajribalarni milliy an’analar bilan uyg‘unlashtirish hamda festivallar, ijodiy loyihalar va madaniy hamkorliklarni kengaytirish mazkur san’at turining yanada taraqqiy etishiga xizmat qiladi. Demak, zamonaviy badiiy jarayonda qo‘g‘irchoqsozlik san’ati nafaqat milliy teatr madaniyatining muhim tarkibiy qismi, balki jamiyatning estetik va ma’naviy taraqqiyotini ta’minlovchi ta’sirchan badiiy vosita sifatida o‘z ahamiyatini tobora mustahkamlab bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Umarxodjayeva. “O‘zbekiston qo‘g‘irchoq san’atining shakllanish va rivojlanish bosqichlari (XX asrning 30-yillari – XXI asr boshlari)” mavzusida san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. -T. 2025-yil.
2. M.Umarxodjayeva. Mualliflik qo‘g‘irchog‘i-noyob san’at asari. Art and Design: Social Science, Volume 06, Issue 04, 2026 MRDI. https://www.social-science-analysis.uz/index.php/ssa/article/view/393

ДРАМАТУРГИЯДА САХНА ВА МАКОН ТАСВИРИНИНГ ЭСТЕТИК АҲАМИЯТИ

Палуаниязова Қуралай Жаңабаевна
ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы 3-курс студенти
Илимий басшысы, ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы оқытыўшысы ***Д.Дарушова***

Annotatsiya: Ushbu maqolada dramaturgiyada sahna va makon tasvirining estetik vazifalari tahlil qilinadi. Dramatik asarlarda makon va sahna nafaqat voqealar sodir bo‘ladigan joy, balki qahramon ruhiyati, konflikt va g‘oyaviy mazmunni ochib beruvchi muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo‘lishi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: dramaturgiya, sahna, makon, estetika, dramatik konflikt, teatr san’ati, badiiy tasvir, sahnalashtirish.

Dramaturgiya badiiy adabiyotning murakkab va serqirra turlaridan biri bo‘lib, unda voqealar sahna orqali ifodalanadi. Dramatik asarda sahna va makon tasviri muallif g‘oyasini ochishda muhim estetik vosita hisoblanadi. Makon voqealarning kechish joyi sifatida qahramonlarning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va ijtimoiy muhitini aks ettiradi. Shu sababli dramaturgiyada sahna tasviri oddiy dekoratsiya emas, balki dramatik ta’sirchanlikni kuchaytiruvchi badiiy komponentdir. Bugungi zamonaviy dramaturgiyada makon talqini yanada murakkablashib, ramziy va psixologik ma’nolarni ham ifodalamoqda. Dramatik asarda voqealar ma’lum bir joy va muhitda sodir bo‘ladi hamda aynan shu makon qahramonlarning xarakteri, ruhiy holati va ijtimoiy munosabatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Shu sababli dramaturgiyada makon oddiy voqealar joyi emas, balki asarning g‘oyaviy-estetik mazmunini ifodalovchi muhim badiiy vosita sifatida talqin etiladi. Sahna tasviri orqali dramaturg tomoshabinda muayyan ruhiy kayfiyat uyg‘otadi. Masalan, qorong‘i, tor va yopiq makon insonning ichki iztiroblari, qo‘rquv yoki fojeaviy holatini ifodalasa, keng va yorug‘ sahna umid, erkinlik va osoyishtalik ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan makon dramatik konfliktning rivojlanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayrim hollarda makonning o‘zi konflikt manbaiga aylanishi mumkin. Masalan, qahramonning tor muhitda yashashi uning ruhiy bosimini kuchaytiradi va voqealar rivojiga sabab bo‘ladi.

Dramatik asarda sahna va dekoratsiyalar ham estetik ta’sirchanlikni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Teatr sahnasida ishlatiladigan yorug‘lik, ranglar uyg‘unligi, predmetlar joylashuvi va musiqiy fon tomoshabin hissiyotiga kuchli ta’sir etadi. Ayniqsa, zamonaviy teatr san’atida sahna bezaklari ramziy ma’nolarni ifodalash uchun keng qo‘llanmoqda. Minimalistik sahna usullarida oddiy bir predmet yoki rang orqali katta badiiy mazmun berilishi mumkin. Bu esa tomoshabinning tafakkurini faollashtirib, voqealarni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Willyam Shekspir asarlarida makon dramatik ta’sirni kuchaytiruvchi vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, “Hamlet” tragediyasidagi qal’a muhiti sirli va xavotirli kayfiyat yaratib, asardagi ichki ziddiyatlarni yanada keskinlashtiradi. Qal’a devorlari orasidagi yopiq makon hokimiyat uchun kurash, qo‘rquv va yolg‘izlik ramziga aylanadi. Natijada tomoshabin qahramon ruhiyatidagi murakkab holatlarni yanada chuqur his qiladi.

Qoraqalpoq dramaturgiyasida ham sahna va makon milliy ruhni ifodalovchi vosita sifatida muhim o‘rin egallaydi. S.Xojaniyazovning dramalarida oddiy mahalla, hovli yoki xonadon tasviri orqali insonlar o‘rtasidagi munosabatlar, jamiyatdagi muammolar va milliy qadriyatlar yoritiladi. Yozuvchi makondan foydalanish orqali qahramonlarning ma’naviy olamini ochishga erishadi. Sahna va makonning dramaturgiyadagi yana bir muhim vazifasi, tomoshabin bilan hissiy aloqa o‘rnatishdir. Tomoshabin voqealarni nafaqat dialog orqali, balki sahna muhiti orqali ham qabul qiladi. Shu sababli teatr rejissyori sahna tuzilishini yaratishda har bir detalga alohida

e’tibor beradi. Zamonaviy dramaturgiyada makon tushunchasi an’anaviy shakldan chiqib, ramziy va falsafiy ma’nolarni ham ifodalay boshladi. Hozirgi teatr san’atida birgina sahna turli joylarni anglatishi yoki abstrakt makon sifatida talqin qilinishi mumkin. Bu esa dramaturgiyaning estetik imkoniyatlarini kengaytirib, tomoshabinning tasavvur doirasini boyitadi. Natijada sahna va makon dramatik asarning nafaqat tashqi ko‘rinishi, balki uning ichki mazmunini ochuvchi muhim badiiy unsur sifatida namoyon bo‘ladi. Dramaturgiyada makon ko‘pincha ramziy ma’no kasb etadi. Uy, ko‘cha, saroy yoki yopiq xona kabi joylar qahramonning ichki holatini ifodalashi mumkin. Masalan, William Shekspir tragediyalarida qal’a, saroy yoki jang maydoni hokimiyat, qo‘rquv va ziddiyat timsoli sifatida namoyon bo‘ladi.Makonning estetik ahamiyati uning tomoshabinda muayyan hissiy ta’sir uyg‘otishida ko‘rinadi. Sahna dekoratsiyasi, yorug‘lik va rang uyg‘unligi dramatik asarning badiiy kuchini oshiradi.

Hozirgi dramaturgiyada minimalistik sahna usullari keng qo‘llanmoqda. Natijada dramatik asarning ta’sirchanligi ortadi va tomoshabin ruhiyatiga kuchli estetik ta’sir ko‘rsatiladi. Dramaturgiyada sahna va makon tasviri dramatik asarning estetik qimmatini belgilovchi muhim omillardan biridir. Makon qahramon xarakteri, ruhiy holati va asar g‘oyasini ochishda faol badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Zamonaviy dramaturgiyada makonning ramziy va psixologik funksiyasi yanada kuchayib, teatr san’atining badiiy imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. William Shakespeare. Hamlet. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1983. – 52–67-betlar.
2. Rasulov H. Dramaturgiya nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2010. – 101–118-betlar.
3. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. – 210–225-betlar.

QORAQALPOQ DAVLAT YOSH TOMOSHABINLAR TEATRINING ZAMONAVIY REPERTUARI VA ISTIQBOLLARI

Jabbarbergen Xojanov
O‘zDSMI Nukus filiali dotsenti, ilmiy rahbar
Aynura Reymbaeva
O‘zDSMI Nukus filiali magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatrining zamonaviy repertuari va istiqbollari haqida so‘z boradi.

Kalit sozlar: San’at, teatr, asar, spektakl, dramaturg, badiiy tahlil.

Abstract: This article examines the contemporary repertoire and development prospects of the Karakalpak State Youth Theatre.

Keywords: Art, theatre, literary work, performance, playwright, literary analysis.

Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatri yosh avlodni san’at orqali tarbiyalashga xizmat qiluvchi muhim madaniy muassasa hisoblanadi.Mazkur teatr faoliyati bolalar va o‘smirlarning ma’naviy dunyosini boyitish, ularda estetik tafakkurini shakllantirishga qaratilgan.Sahnalashtirilayotgan spektakllar yosh tomoshabinlarning yosh xususiyatlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda yaratiladi.Teatr repertuarida xalq og‘zaki ijodi, bolalar adabiyoti hamda zamonaviy hayot muammolarini yorituvchi asarlar muhim o‘rin egallaydi.Ushbu sahna asarlari orqali yosh tomoshabinlarda yaxshilik va yomonlikni anglash, do‘stlik, mehr-oqibat, masuliyat kabi tushunchalar mustahkamlanadi.Ayniqsa, yoshlarni fikrlashga undab, ularning dunyoqarashini kengaytiradi.Shu sababli Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatri bugungi kunda jamiyat hayotida muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega teatrlardan biri sanaladi.So‘nggi yillari teatr repertuarida bir qancha o‘zgarishlar yuz berdi.Shunday katta o‘zgarishlardan biri 2018-yil 25 avgust kuni teatrning yangi binosi ochildi.Yangi binoda teatr jamoasi o‘z faoliyatini davom ettirib, 40-mavsumni boshladi.Teatr sahnasida zamonaviy mavzularni yorituvchi spektakllar paydo bo‘ldi.Ushbu spektakllar tomoshabinlarning ko‘nglini zabt etib, ularning katta qiziqish va iliq munosabatini qozondi.Bugungi kunga kelib teatr nafaqat xalq ertaklari va bolalar adabiyotiga tayansada, balki yoshlar hayotidagi dolzarb muammolarni, do‘stlik, mehr-oqibat va vatanparvarlik kabi tushunchalarni sahnada namoyish etishga intilmoqda.Quyida yosh tomoshabinlar teatrining zamonaviy repertuariga xos, sahnada muvaffaqiyat qozongan va tomoshabinlar ko‘nglidan joy olgan spektakllarni keltirib o‘tamiz.Teatr tomonidan 2017-yil M.Begimovning «Qo‘rqa-qo‘rqa botir bo‘larsan», G.Tursinovaning «Bir saqqizning ilaysangi», «Sehrli o‘yinchoq», 2018-yil J.Maxmudning «Sodiq do‘stlar» ertagi, A.Abdunazarov va Alp.Sultanning «Iskanja», A.S.Pushkinning «Aleko», B.Aytmuratovning «Bolalarga sovg‘a yoki Mashaning sayoqati», 2019-yil D.Kinosito qalamiga mansub «Tirna parlari», Alp Sultonning «Vatan tuprog‘i», B .Aytmuratovning «Mo‘ynoqda baxtning tonglari otdi», «Sehrli o‘rmondagi yangi yil tomoshalari», A.Qodriyning «Mehrobdan chayon», K. Musayev va I.Aybatovning «Nurli qadam» kabi spektakllar yosh tomoshabinlarga taqdim etildi.Ushbu spektakllarning asosiy mohiyati bolalar va yosh o‘smirlar qalbiga chuqur singib boradigan, ularni vatanga muhabbat, do‘stga sadoqat va insoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgandir.Bugungi zamonaviy sahna asarlarida bolalar va yosh o‘smirlarning ichki dunyosi, ularning jamiyatdagi o‘rni, orzu-intilishlari va muammolari keng yoritilayotgan bo‘lsa, mazkur spektakllar ana shu yo‘nalishni ma’naviy-tarbiyaviy ruh bilan boyitadi.Ayniqsa, bugungi yosh avlod tafakkuriga mos sahna bezagi, musiqiy yechimlar va obrazlar orqali milliy qadriyatlar zamonaviy ruhda talqin etiladi.Bu esa tomoshabinda spektaklni faqat

tarbiyaviy asar sifatida emas, balki bugungi kun bilan hamnafas, dolzarb badiiy asar sifatida qabul qilishga imkon yaratadi.Zamonaviy teatr repertuari o‘z tomoshabinlarini san’at sehriga oshno etishda davom etar ekan, bugungi kunga kelib, teatr sahnasida R.Kuni qalamiga mansub «Qora diplomat», Sh.Dostmuxammadning «Shalpang quloq», P.Aytmuratovning «Qishloqqa qaytish», «Utoz taqdiri», «Buyuk Ipak yo‘li», V.Shekspirning «Romeo va Juletta», Sh.Perroning «Sohibjamol va Maxluq», «Etik kiygan mushuk», Q.Norqobilning «Olmoqning bermagi bor», «Uydagi gap ko‘chada», D.Darushovaning «O‘ngimdagi tushim», M.Behbudiyning «Padarkush», I.Yusupovning «Vatan sog‘inchi», Q.Imanaliyevning «Qo‘rqit ota», B.Sheferning «Pul alifbosi», M.Nuratdinovning «Maston kampirning hiylasi», K.Goldonining «Ikki boyga bir malay», M.Awezovning «Qorako‘z», A.Jaqsimuratovaning «Tilga kirgan polizlar», A. Ekzyuperining «Kichkina shahzoda» ertagi asosida G.Isayeva inssenirovkasi, A.Raxatning «Tug‘ilgan kuningiz bilan, onajon», S.Ahmadning «Ufq» trilogiyasi asosida B.Baymurzaev inssenirovkasida sahnalashtirilgan «Dildar» kabi asarlar namoyish etildi. Ushbu asarlarning spektakl bo‘lib sahnada namoyon bo‘lishida rejissyorlardan M.Begimov, O.Bektursinov, I.Aybatov, A.Abdunazarov, O‘.Bekturg‘anov, R.Piyazova, A.Qudaynazarov, P.Kelimbetov, M.Nuratdinov, S.Qallibekov kabi ijodkorlarning hissalari katta bo‘ldi.Mazkur asarlar bugungi jamiyatning ma’naviy-estetik ehtiyojlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ushbu asarlar asosida yaratilgan sahna talqinlari mavzu va g‘oya jihatidan zamonaviy tomoshabinning dunyoqarashiga mos keladi.Asarlar orqali ijtimoiy munosabatlar, axloqiy qadriyatlar, insoniy fazilatlar hamda shaxs kamoloti masalalari badiiy ifoda vositasida ochib beriladi.Demak, o‘z-o‘zidan ma’lumki bugungi kunda Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatrining zamonaviy repertuari jamiyatning ruhiy ko‘zgusiga aylanib, o‘z tomoshabinlarining estetik didi va tafakkurini boyitishga xizmat qilmoqda. Zamonaviy repertuar nafaqat yangi asarlar,balki klassik merosni yangicha talqin qilish, dolzarb ijtimoiy masalalarni sahnaga olib chiqish va yosh dramaturglarning ijodiga yo‘l ochishni ham nazarda tutadi.Shu bois, teatrning zamonaviy repertuari – bu shunchaki spektakllar ro‘yxati emas, balki davr nafasi, zamon ruhini aks ettiruvchi jonli ijodiy jarayondir.

Hammaga ma’lumki, bugungi kunda insoniyat globallashuv jarayonlari tobora jadallashib borayotgan tarixiy bosqichda yashamoqda. Bu jarayon barcha sohalar qatori teatr san’atiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda.Ayniqsa, yosh tomoshabinlar teatrlari faoliyatida globallashuv bilan bog‘liq bir qator muammolar yuzaga kelmoqda. Masalan, axborot texnologiyalari va internetning keng tarqalishi yoshlarning ko‘proq kino, ijtimoiy tarmoqlar va xorijiy media mahsulotlariga bo‘lgan qiziqishini orttirib kelayotgani sir emas.Bular qatorida Netflix yoki YouTube kabi platformalar yoshlarning bo‘sh vaqtini egallab, ularni teatr tomoshalaridan uzoqlashtirmoqda.Natijada yosh tomoshabinlar teatriga tashrif buyuruvchilar soni ancha kamaydi.Bu muammoga yechim sifatida teatr va internetni uyg‘unlashtirish, zamonaviy sahnaviy asarlarni yaratish orqali yoshlarni sahnaga jalb qilish mumkin deya

ta’kidlamoqchiman.Masalan, virtual sahna dizayni, interaktiv spektakllar, video va multimedia elementlarini sahna bilan birlashtirish, shuningdek, yoshlarning sevimli onlayn platformalari hisoblangan YouTube, tiktok va instagramga qisqa spektakl qismlarini joylashtirish orqali yoshlarning teatrga borish istagini kuchaytirish mumkin. Sahna orqasidagi jarayonlar, aktyorlar bilan intervyu va tayyorgarlikni ko‘rsatish ham muhim ahamiyat kasb etadi.Bu nafaqat teatrni ular uchun qiziqarli qiladi, balki ijodiy jarayonlarni yanada yaqinlashtiradi, shaxsiy ifoda va estetik didni rivojlantirishga xizmat qiladi.Shu bilan bir qatorda, zamonaviy mavzudagi yoshlarning qiziqishlari va ularning hayotidagi muammolarini ko‘taradigan qisqaroq mazmundor spektakllar yaratish ham ularning teatrga bo‘lgan mehrini oshirishga yordam beradi.Teatr faqat sahnada joylashgan san’at emas, balki internet orqali ham yoshlar bilan bog‘lanadigan, ular bilan muloqat qiladigan jozibador muhitga aylanishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatri o‘z repertuarini boyitish va rivojlantirishda o‘z oldiga muhim vazifalarni belgilab qo‘ygan.Ushbu muhim vazifalarning amalga oshirilishi teatrning kelajakdagi yo‘lini belgilab berishda va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bayandiyev T. Qoraqalpoq teatr tarixi. –T.: Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi, 2011. -168b.
2. Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatri arxiv materiallaridan. 1978-2024-yillarda sahnalashtirilgan spektakllar ro‘yxati. Nukus, 2026.
3. Tursunov T. Sahna va zamon. –T.: Yangi asr avlodi, 2007. -336b.
4. https://kktyuz.uz. Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatrining rasmiy sayti.
5. uzwww.ziyonet.uz

ҚОҒИРЧОҚ ТЕАТРИДА ДРАМАТУРГИЯ МАСАЛАСИ

Мамодиёрова Шодия
ЎзДСМИ, 2-босқич талабаси
Илмий раҳбар: ***Аьзомжон Абдухолиқов***

Аннотация - Ушбу мақолада ўзбек миллий қўғирчоқ театри турлари, тарихи ва драматургияси хусусида сўз боради. Шунингдек, муаллиф соҳани хизмат фаолияти, тарбия масалаларида аҳамияти, қолаверса драматургия масалалари холатини баҳолашга интилади.

Калит сўзлар; қўғирчоқ театр, эртак, бола, тарбия, персонаж.

Аннотация - В данной статье рассматриваются виды, история и драма узбекского национального театра кукол. Автор также пытается оценить роль отрасли в области воспитательной работы, образовательных вопросов, а также проблем драматургии.

Ключевые слова; театр кукол, сказка, ребенок, воспитание, личность.

Annotation - This article discusses the types, history and drama of the Uzbek National Puppet Theater. The author also tries to assess the role of the industry in the field of educational work, educational issues, as well as problems of drama.

Keywords; puppet theater, fairy tale, child, upbringing, personality.

Театр бу – ибратхонадир.
Махмудхўжа Бехбудий

Ўзбек миллий қўғирчоқ театр санъати жуда чуқур тарихга эга бўлиб, унда ,,Чодир жамол", ,,Чодир ҳаёл" ва ,,Фонус ҳаёл" турлари фаолият олиб боргани манбалардан маълум. Шулардан; ,,Чодир жамол" тури томошалари мамлакатимизда ўз даврида кенг тарқалган. Унда айлана ёки тўрт бурчак шаклда актёр белига махкамланувчи чодир шаклидаги бир актёр ижросига мосланган ва корфармон жўрлигида томоша кўрсатиладиган туридир. Аксар бундай томошаларда бир ёки икки персонаж иштирок этиб, қўғирчоқларнинг қўлқопли тури ишлатилган. Бугунги кунда ҳам Мустақиллик куни, Наврўз, Бойсун бахори, Миллий бахшичилик, Хосил байрами, Гул байрами каби халқ сайиллари ва давлат тадбирларида бу тур томошаларидан кенг фойдаланиб келинмоқда. Аксарият бу каби томошаларда махсус пьесалар ёзилмай, одатда байрам мавзусидан келиб чиқиб, миллий қахрамонларимиз Качал полвон ва Бичихоннинг турмуши намунасида замон камчиликларни енгил юмор асосида импровизацияга қурилади.

,,Чодир ҳаёл" эса қўғирчоқларнинг ипли тури – марионеткалардан кенг фойдаланилган. Томошалар махсус пьесалар асосида тайёрланган. Одатда бу тур томошалари учун махсус қурилган катта хонани эслатувчи жойларда фаолият кўрсатган. Актёрлар қўғирчоқларни юқоридан, махсус мосламалар орқали бошқарганлар.

Бизнинг давримизгача маълумотлари етиб келган яна бир қўғирчоқ театри санъатининг тури ,,Фонус ҳаёл"дир. Номланишидан ҳам илғаш мумкинки ундаги томошалар аксарият қоронғуликда, яъни чироқ, шағам ёки фонуслар ёрдамида кўрсатилган бўлиб, бугунги соялар театрини эслатади.

Ўзбек халқи қўғирчоқбозлари санъати илк бор Ўрта Осиё халқлари тарихи ва этнографияси билан қизғин шуғулланган рус олимлари Н.П.Остроумов Н.С. Ликошинларнинг диқатини ўзига тортган ва улар ўз асарларида бу санат хусусида қизиқарли саҳифалар битиб қолдирганлар. Биз ушбу маълумотлар хазинасини с.ф.д., санъат арбоби, профессор М.Қодиров ва С. Қодироваларнинг "Қўғирчоқ театри тарихи" номли китоби орқали билиб олишимиз мумкин.

Қўғирчоқ театри томошалари ҳам санатнинг бошқа турлари қаторида ўз даври меҳнаткашларнинг оғир турмуши, ундаги адолатсизликларни сатирик жанрда саҳна кўринишлари орқали акс

эттирган. Шу билан бирга албатта болалар ва ўсмирлар учун ҳам тарбиявий аҳамиятга эга пьесаларни кўрсатганлар. Ўз ўрнида бу уларни комил инсон бўлиб улғайишларида миллий маданият, ахлоқий тушунчалар руҳида тарбиялаш масаласида муҳим қурол бўлиб хизмат қилди.

Қўғирчоқ театри ўзига ҳос бетакрор санъатдир. Ёш томошабиннинг санъатга ошнолиги илк бор қўғорчоқ театридан остонасидан бошланади. Театр саҳнасида жонланиб, тилга кирган қўғирчоқ персонажлари болаларга бир олам завқ- шавқ, манавий озуқа бахш этади. Болаларни хаёт жумбоқлари устида бош қотиришга ундайди. Гўзаллик, дўстлик, адолат, ҳалолик, поклик, меҳнатсеварлик, туйғуларини уларнинг қалбига жо этади. Бир сўз билан айтганда ёш авлодни ҳар томонлама етук инсон бўлиб тарбиялашда ўрни сезиларли. Шу сабабли қўғирчоқ театр соҳасида жанр жихатдан ранг-баранг, замон талабига жавоб бера оладиган, бой мазмунга эга, ғоявий етук ва миллийликни тарғиб этувчи асарлар бўлиши шарт. “Қўғирчоқ театри санъати” кафедраси профессори, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган ёшлар мураббийси Марям Ашурова шундай ёзади; “– Қўғирчоқ театри драматурги болалар психологиясини, улар хулқ-атворини, руҳиятини, хаётда тутган ўрнини, қизиқишлари-ю, интилишларини, атрофини ўраб турган борлиқдаги хал қилолмаган жумбоқлари ечимини билиб, уларни оқил йўлбошчисига айланиши керак”[33] дейди.

Бугунги кунда Республикамизда 12та профессионал давлат қўғирчоқ театрлари ёш томошабинларга хизмат қилиб келмоқда. Уларнинг репертуарларидан миллий ва хорижий муаллифлар томонидан ёзилган асарлар жой олган. Биргина пойтахтдаги “Ўзбек Миллий қўғирчоқ театри” мисолида ўнлаб шунга ўхшаш спектаклларни санаб ўтиш мумкин. Жумладан; “Қарсилдоқ” Гофман асари, ,,Гугурт кўтарган қиз” Ганс Християн Андерсон, ,,Қуёш нурчаси” Александр Попеску, ,,Уч чўчқача” Сергей Михалков, ,,Оппоғой ва етти гном” Ака-ука Гримм эртаклари асосида в.х.к. Бу асарлар жахон саҳналарининг ўлмас дурдоналардир. Шунингдек, “Яна Андресен” Д. Йўлдашева, реж; Динара Йўлдашева, рассом Сергей Сидухин, “Сирли ўғирлик” Д. Йўлдашева, “Миёвлаган ким бўлди?” Д.Йўлдашева, реж; Д. Йўлдашева, рассом Нодира Йўлдошева, “Юлдузли бола” Д. Йўлдашева, реж; Динара Йўлдашева, “Қувноқ арава” Исоқтой Жуманов, реж; Ф.Хўжаев, “Фотиманинг саргузаштлари” Н.Хабибуллаев асари реж; Михаел Бобожонов, “Карвонсарой” Лукиянова асари, реж; Исо Ёкубов ва бошқалар.

Қўғирчоқ театри драматургларининг елкасида жуда улкан масулят бўлиб, улар ёзаётган пьесаларда болаларга хос беғуборлик, доим янгиликка интилиш, мехр, гўзаллик, садоқат каби туйғуларни саҳна воқеалари орқали шакллантирмоғи лозим. Чунки болалар билан ишлаш,

[33] М.Ашурова. Меҳрдан яралган олам. Т,: “Zamon poligraf” ОК, 2019 й.4-б..

уларнинг руҳиятини тушиниш, яхши-ёмони ажратишни ўргатишда минг бора айтгандан бир бора қўрган яхши қабилида иш тутмоқ натижалироқдир. Бунда қўғирчоқлар ёрдамида уларнинг рухиятига миллийликни, ананаларимизни сингдириш ўзига хос услубларни асарлари орқали қўлловчи бу драматурглардир. Ана шундай ўзбек ижодкор-драматурглардан М.Қодиров, Х.Расул, Т.Йўлдошев, Т.Қозоқбоев, Н.Қобилов, М.Ашуроваларни айтиш мумкин.

Бугунги кунда қўғирчоқ театри учун янги асарларни ёзаётган драматурглар камайиб кетмоқда. Шундан бўлса керак республика қўғирчоқ театрлари чет эл ёзувчилари асарларига кўпроқ мурожаат этилмоқда ва ёш томошабинлар эътиборига ҳавола қилинмоқда. Аммо бугуннинг талаби миллий профессионал, юксак бадиийликни акс эттирган спектаклларга эхтиёж баланд. Ахир қўғирчоқ театри санатида орзулар рўёби, ақил бовар қилмас мўъжизалар рўй берар манзил экан, нега энди миллий тарихимизни ёритувчи ва буюк боболаримиз Жаллолиддин Мангуберди, Амир Темур, Бобур Мирзо в.х.к. авлодларга ўрнак бўладиган ватанпарвар, марифатпарвар сиймоларимиз театр репертуарларини безамаслиги керак? Томошабин доимо хайратланиши, янгилик кутиши бу сир эмас. Айниқса жажи томошабинлар. Балки шулар сабаб, энди ота-оналар фарзандлари билан қўғирчоқ театрларига боришдан кўра уларни уйда кампьютер олдида қолдиришни авзал кўрадилар.

Ахир келажак авлодни миллийлик рухида тарбиялаш, замон билан хамнафас қилиб тарбиялашда қўғирчоқ театри катта аҳамият касб этади. Профессианализм борасида аввало кемтиклар репертуар танлашда кўриняпти. Буни тўлдириш учун театрда қўғирчоқ театрида саҳнанинг ўзига хос имкониятларидан хабардор, уни инобатга олувчи драматург-инсценировкачи муҳим ўрин тутади. Афсуски бундай мутахассислар камайиб кетмоқда.Эртак, қисса ва ҳикояда адабий баёнчилик мавжуд ва сўз кўп. 2018 йил анъанавий Республика профессионал давлат қўғирчоқ театрлари кўрик-фестивалида санъатшунослик фанлари доктори, профессор Сарвиноз Қодирова шундай дейди; “- Қўғирчоқ театри саҳнаси ҳар қандай жанрий кўринишдаги пьесаларни ҳазм қила олмайди. Бу театр турининг ўзига хос репертуари бўлади. Мазкур театр саҳнасида мусиқа, рақс, юмор, сатирик кўринишлар, эртак мўжизалари жиддият билан қоришиб кетади.”[34]

Яна курс раҳбаримиз кафедра доценти А.Абдухалилов; “- Бадиий адабиётда тасвирланган воқеликни қўғирчоқ театрининг ўзига хос мезонлари нуқтаи назаридан қайта тузиш мураккаб жараён. Шунинг учун эса маҳоратли драматургларни театрга жалб қилиш, саҳналаштирувчи режиссёр билан ҳамкорликда иш олиб бориш зарур. Театр саҳнаси имкониятлари, актёрлар ва қўғирчоқ турларини пухта

[34] Республика давлат қўғирчоқ театрларининг профессионал фаолиятини такомиллаштиришнинг илмий-амалий ечимлари. Республика илмий-амалий семанари. Тошкент. 2018й.

билиш керак. Яна ҳам тўғрироғи, ишни драматург ва режиссёрларни таълим жараёнидан ижодий ҳамкорлигига эришиш керак. Бунинг учун юўлажак драматурглар қўғирчоқ театри кадрларини ўқитишнинг методи ва специфик талабларидан хабардор бўлсаларгина театр хусусиятига мос асар ёзишлари мумкин.”- дейди устоз.

Умуман, олганда ҳар бир ишнинг ёмон ва яхши томони бўлганидек. Бу борада А.Навоий достонлари асосида “Бахром ва Дилором”(Тошкент), Шер ва Дуррож”(Хоразим), “Қуш тили”(Тошкень. Бухоро ва Қашқадарё театрларида), “Фарходнинг жасорати”(Бухоро) каби спектакллар ёш тамошабинни классик адабиётимиз, “Широқ”, “Тўмарис” каби спектакллар элпарвар миллий қахрамонларимизни таниш ва улар билан фахр этишларига сабаб бўлмоқда.

Қўғирчоқ театри драматургияси масаласида, шакл, услуб, талқин ва ижродаги профессионал, бадиий уммумлашмаларга бой саҳна асарлари яратиш борасида хали хотиржам бўлишга эртадек...

Фойдаланилган адабиётлар:

1. М.Ашурова. Меҳрдан яралган олам. Т,: “Zamon poligraf” ОК, 2019 й.
2. Республика давлат қўғирчоқ театрларининг профессионал фаолиятини такомиллаштиришнинг илмий-амалий ечимлари. Республика илмий-амалий семанари. Тошкент. 2018й.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т.: Маънавият., 2008
4. Қодиров М. Ўзбек халқ томоша санъати. Т.: Ўқитувчи,1981.
5. Қодиров М. Қодирова С. Қўғирчоқ театри тарихи. Т.: Талқин, 2006.

ҚАРАҚАЛПАҚ ДРАМАТУРГИЯСЫНЫҢ РАЎАЖЛАНЫЎ ТАРИЙХЫНА ШОЛЫЎ

Палымбетова Малика

ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы магистранты

Annotaciya: berilgen maqalada qaraqalpaq dramaturgiyasınıń 1970-jıllarında rawajlanıw tariyxına, bul dáwirdegi jámiyetlik-siyasiy jaǵdaylardıń mádeniyatti rawajlandırıwǵı tásirine toqtap ótildi.

Tayanısh sózler: drama, janr, folklorlıq motiv, transformaciya.

Milliy qaraqalpaq dramaturgiyasınıń 1970-jıllardaǵı rawajlanıw dárejesin aldıńǵı jıllar menen salıstırıp qaraǵanımızda dramaturgiyada kúndelikli turmıs talaplarınan kelip shıǵıp dóretilgen, xalqımızdıń sol jasap turǵan ómirin sáwlelendiriw, jámiyetlik siyasiy áhmiyetke iye bolǵan eń aktual dep esaplanılǵan temalarǵa júzleniw, SSSR xalıqlarınıń dúnya ádebiyatı klassikleriniń eń jaqsı dramalıq shıǵarmaların tańlap alıp qaraqalpaq tiline awdarıp milliy tamashagóylerdiń dıqqatına usınıw, qaraqalpaq folklorınıń

motivinde jańa dramalıq shıǵarmalar dóretiw sıyaqlı qubılıslardı bayqawǵa boladı.

1970-jıllar qaraqalpaq dramaturgiyasında bunday dóretiwshilik aktivliktiń alǵa ilgerlewine birneshe tiykarlardı atap ótiwge boladı:

Birinshiden, V.I.Leninniń tuwılǵanına 100 jıl tolıw merekesi.

Ekinshiden, tariyxıy revolyuciyalıq temalar átirapında: SSSR diń, Ózbekistan Kompartiyasınıń hám QQASSR dıń dúzilgenine 50 jıl tolıwı, qaraqalpaqlardıń Rossiyaǵa erkin qosılıwınıń 100 jıllıǵı,

Úshinshiden, tariyxıy shaxslardıń yubiley múnasibeti menen shıǵarmalar jazıw keń óris aldı.

Nátiyjede, qaraqalpaq dramaturgiyası burınnan bar bolǵan dramaturglerimizden J.Aymurzaev, S.Xojaniyazov, T.Seytjanov, P.Tilegenov usaǵan dramaturglerimizdiń qatarı T.Jumamuratov, I.Yusupov, D.Aytmuratov, K.Raxmanov sıyaqlı dramaturgler menen tolısıp otırdı.

V.I.Leninniń tuwılǵanına 100 jıl tolıw merekesine arnap K.S.Stanislavskiy atındaǵı Qaraqalpaq mámleketlik drama hám komediya teatrında I.Popovtıń «Semiya», Q.Dosanovtıń «Aral hawazı», pyesasın saxnaǵa shıǵardı. Bul dramalıq shıǵarmalar arqalı Lenin obrazı qaraqalpaq saxnasında birinshi ret kórinis taptı.

Oktyabrdiń 50 jıllıǵı múnásibeti menen J.Aymurzaevtıń «Ómir bulaǵı», T.Jumamuratovtıń «Tiklengen tuw» (1968) pyesaları saxnalastırıldı. Bul dramalar atamasınan biziń dáwirimizden (1970-jıllar názerde tutılmaqta M.P) erte ásirlerdi, dáwirlerdi sóz etkeni menen olardıń tiykarǵı teması búgingi ómir talabınan yaǵnıy búgingi kúnde belgilenip atırǵan saltanatlı tariyxıy sánelerge juwap retinde turmıs talabınan dóregen aktual temadaǵı jańa shıǵarmalar boldı.

Oktyabrdiń 50 jıllıǵı múnásibeti menen J.Aymurzaevtıń «Ómir bulaǵı» atlı pyesası Qaraqalpaqstanda sovet húkimetiniń ornawı hám jergilikli xalıqtı tábiyiy ishimlik suwı menen tamiyinlewdegi qıyınshılıqlar sóz etiledi.

Qaraqalpaq dramaturgiyasında folklorlıq dástanlar hám jazba ádebiyat úlgileri tiykarında dramalıq shıǵarmalar dóretiw ondaǵı tayyar obrazlardı dramalıq personajlar, tip dárejesinde qayta islew dástúri burınnan bar bolǵan bolıwına qaramastan biz kórip shıqqan dáwirde bul temanıń ádewir dárejede joqarı kóterilgenin kóremiz. Atap aytqanda, I.Yusupov penen Á.Shamuratov jazǵan «Qırıq qız» dramasın, N.Japaqov hám I.Qurbanbaevlar tárepinen qayta islengen «Qırıq qız» kinoscenariysin, T.Qayıpbergenovtıń «Qaraqalpaq qızı» romanı tiykarında G.Abdulov, T.Bayandievlerdiń «Qaraqalpaq qızı» (Sońınan Jumagúl (1968)) dramasın, jazıwshı T.Qayıpbergenovtıń «Maman biy ápsanası romanı» tiykarında S.Xojaniyazovtıń «Maman biy» (1971) dramasın, Berdaq shayırdıń «Aqmaq patsha» poeması tiykarında usı atamadaǵı S.Xojaniyazovtıń dramaların atap ótsek boladı. Berdaqtıń «Aqmaq patsha» poeması tiykarında dóretilgen S.Xojaniyazovtıń usı atamadaǵı pyesası dramaturgiyamızdıń 1970-jıllardaǵı jetiskenlikleri retinde Qaraqalpaqstan ádebiyatı hám iskusstvosınıń Ózbekistanda ótkerilgen hápteliklerine kiritiliwin atap ótesek boladı.

Sonday-aq, folklorlıq obraz tiykarında jaratılǵan I.Yusupovtıń «Ómirbek laqqı» (1970) atlı qızıqlı komediyası da usı talaplar tiykarında dóretilgen edi. Bul dramalıq shıǵarmalardıń qaysı biri bolsa da tayar waqıya, tayar syujet, tayar konflikt, obrazlar tiykarında qayta qurılıwına qaramastan saxnalastırılıw hám tamashagóylerdiń qollap quwatlawı jaǵınan hárqıylı boldı. Sebebi, ol dramalardıń kópshiligi óz tamashagóylerinde eń dáslepki orginal halatındaǵıday tásir ete almadı. Sonlıqtan bolsa kerek bular óziniń saxnalıq ómirin uzaq saqlap qala almadı[1. 116-120].

Tariyxıy revolyuciyalıq temada 1970-jıllar qaraqalpaq dramaturgiyasında T.Jumamuratovtıń «Tiklengen tuw», T.Seytjanovtıń «Ábiw Rayxan Ál Beruniy» (1973-jılı Ábiw Rayxan Ál Beruniydiń 1000 jıllıǵına arnalǵan) sıyaqlı dramaların jazdı.

Juwmaqlap aytqanda 1970-jıllar dramaturgiyasında dóretiwshilik etken dramaturgler aldıńǵı dáwirlerge qaraǵanda birqansha jańalıqları menen ózgeshelenedi. Olardıń bul ózgeshelikleri sıpatında folklorlıq shıǵarmalardı, prozalıq shıǵarmalardı búgingi kún talabı tiykarında qayta islew protsessinde, tariyxıy revolyuciyalıq temanı milliyligimizge say obrazlardı tereń ashıp beriwde, aldıńǵı bar janrlardı atap aytqanda komediyanı janrlıq túrlendiriwde, dramaturgiyada jańa janr, jańa formalar dóretiwde kózge túsedi. Bul dáwirge kelip, ádebiyatta «óndiris» temasınan sheginip, insannıń ruwxıy-ádep-ikramlılıq dúnyasına, onıń ishki keshirmelerine hám jámiyettegi ornına qızıǵıwshılıq kúsheydi.

Dramaturgler zamanlas obrazı arqalı tek dáwir jetiskenliklerin emes, al jámiyette kózge taslanıp atırǵan ruwxıy krizis belgilerin de ashıp beriwge háreket etti. Atap aytqanda, S.Xojaniyazovtıń komediyalarında shańaraqlıq qatnasıqlar, ádep-ikramlılıq normalarınıń buzılıwı satiralıq boyawlarda súwretlengen bolsa, bul dáwir dramaturgiyasındaǵı zamanlas obrazı burınǵı jıllardan ózgeshe túrde sxematikalıqtan (bir táreplemelikten) qutılıp, kóp qırlı psixologiyalıq xarakterge aylana basladı. Konfliktler endi tek «jaqsı» hám «jaman» qaharman arasında emes, al qaharmannıń óz ishki dúnyasındaǵı qádiriyatlar soqlıǵısıwı tiykarında qurıla basladı. Bul bolsa qaraqalpaq dramaturgiyasınıń kórkemlik evolyuciyasında áhmiyetli sapa ózgerisi júz bergenliginen derek beredi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Насруллаев Ә. Ҳәзирги драматургиямыз ҳәм дәўир талабы. // Әмиўдәрья, 1978, №7. -Б.116-120.

ҚОРАҚАЛПОҚ БОЛАЛАР ДРАМАТУРГИЯСИДА ХАЛҚ ЭРТАКЛАРИ ТАҲЛИЛИ

Турғанбаев Айбек
ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы 2-курс магистранты

Annotatsiya: Ushbu maqolada qoraqalpoq xalq ertaklari motivlari asosida yaratilgan Kenesbay Raxmanovning «To‘qqiz to‘nqillab, bir shingildak» dramatik asari, uning janr xususiyatlari hamda badiiy talqin masalalari tahlil qilinadi.

Kalit sozlar: xalq ertaklari, asar, pyesa, janr, komediya, dramaturg**.**

Abstract: This article analyzes the dramatic work Toǵız tonqildaq hám bir Shinlikdek by Kenesbay Rakhmanov, created on the basis of Karakalpak folk tale motifs, as well as its genre characteristics and matters of artistic interpretation**.**

Keywords. folk tales, literary work, play, genre, comedy, playwright.

Qoraqalpoq xalq ertaklari asosida yozilgan dramaturg Kenesbay Raxmanovning “To‘qqiz to‘nqildoq, bir shaqildoq” asari Qoraqalpoq yosh tomoshabinlar teatrining shakllanishida asosiy o‘rin egallagan spektakllardan biri hisoblanadi. Mazkur asar bolalar uchun mo‘ljallanga komediya janridagi dastlabki manunalardan biri hisoblanadi. Olim A. Seytbekovning “Tog`iz tonqildaq bir shinkildek” ertagini pyesa sifatida qayta ishlash va uning sahnalashtirida maqsad bolalarni o‘ylashga , fikr yurtishga qaratilgan jihatlar ularning shingdirib borish va rivojlanishdan iborat”[1.112] Bu fikrlar juda o‘rinli aytilgan sababi asardagi ziddiyat va xarakterlat bir biri bilan uzviy bog‘liq.

Muallif ushbu ertakni dramaturgik qonun qoyidalarga asoslanib bolalar dunyosiga moslashtirib musiqiy komediya janrida qayta ishladi. Spektakl tomoshabinlar tomonida ilq ku‘tib olindi sababi undagi qiziqarli syujey badiiy yechimlarni to‘g‘ri qo‘llana olgan. Bu esa dramaturgning iqtidorida darax beradi. Rejissyor Najimatdin Ansatbaev o‘zining “Teatr va aktyor” nomli ilmiy ishida spektakl qaysi yili sahnalashtirilgani haqida malumot berib o‘tgan. “Bu spektakl ilk bor 1980-yili Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatrida rejissyor R.Toreniyaozov tamonida sahnalashtirildi”[1.210] Keyinchaliq teatr ijodkorlari ushbu spektaklni qayta jonlantirishga bel bo‘gladi natijada rejissyor Irzamurat Aytbatov spektaklni qayta sahnaga olib chiqdi. bolalar va Mazkur spektakl hozirgi kunda teatr sahnasida tushmay kelmoqda. Buning asl sababi “Birinchidan pyesa tili juda ham oddiy va eshitishga qulay. Ikkinchidan pyesaning xalqchilligida”[2.102] Xalq ertagini sahna asariga aylantirish bu faqat matnga aylantirish emas. Shubhasuz dramaturgning mahorat talab qiladi.

Mahoratli dramaturg Kengesbay Raxmanovning eng katta yutug‘i shundaki, u xalq ertaklari asosiga qurilgan voqealarni teatr va sahna qonuniyatlariga mohirona bo‘ysundira olgan va bu vazifani a’lo darajada uddalagan. Spektakl voqealari asosan boyning to‘qqiz nafar o‘g‘li

(To‘nqildoqlar) va ularning kenja ukasi Shinkildek (Chiyildoq) o‘rtasidagi munosabatlar atrofida kechadi. Ularning otasi bir bo‘lsa-da, onalari boshqa-boshqa bo‘ladi.Sahna asarining muqaddimasi bevosita Shinkildekning monologi bilan boshlanadi. U o‘z qismati haqida so‘zlab, yerto‘lada tug‘ilgani, otadan erta yetim qolib, yolg‘iz onasi bilan g‘ariblikda yashayotganini bayon etadi. Boyning qolgan to‘qqiz nafar o‘g‘li to‘q va badavlat hayot kechirgani bois, Shinkildekni doimo kamsitib, unga kun bermay keladi.

Ukasining g‘aribligini va ovozining ingichkaligini masqara qilib, unga mazaomuz tarzda “Shinkildek” deb ism qo‘yishadi.Spektaklning g‘oyaviy yo‘nalishi va mavzu ko‘lamiga to‘xtaladigan bo‘lsak, unda insoniy illatlar — takabburlik, dangasalik, aqlsizlik, birovning haqiga ko‘z alaytirish hamda g‘ariblarni kamsitish kabi dolzarb muammolar tanqid ostiga olinadi. Spektaklning musiqiy va lirik leymotivini Shinkildek tomonidan ijro etiladigan quyidagi dildagi qo‘shiq va misralar tashkil qiladi:

To‘nqildoqlar,to‘nqildoqlar!
Aqli yo‘q anqildoqlar.
Sal narsaga mestey bo‘lib,
Yorilgancha panqildoqlar.
Men yolg‘izman, bular to‘qqiz,
Odam emas, haqiqiy ho‘kiz.
Bular qilgan qiliqlarni,
Qilmas edi hatto to‘ng‘iz.

Ushbu satrlardan ko‘rinib turibdiki, to‘qqiz to‘nqildoq aqlan zaif, ochko‘z va ma’naviy qiyofasini yo‘qotgan qahramonlar obrazidir. Asardagi dramatik konflikt To‘qqiz to‘nqildoq va Shinkildek o‘rtasidagi ziddiyatga asoslanadi. To‘nqildoqlar har qancha tazyiq o‘tkazmasin, Shinkildek o‘zining aqli, hozirjavobligi va uddaburonligi tufayli ularga har gal munosib dars berib, jazolab keladi.

Sahna asarining kompozitsion tuzilishiga ko‘ra, ekspozitsiya (kirish) qismida Shinkildek tomoshabinni o‘zi va to‘nqildoqlarning fe’l-atvori hamda ular o‘rtasidagi ziddiyatlar tarixi bilan tanishtiradi. Spektaklning tuguni esa to‘nqildoqlar va Shinkildekning birgalikda kuzgi hosil uchun jo‘xori ekishga qaror qilgan paytidan boshlanadi. Akalarning kattasi Eshniyaz o‘zini yoshi ulug‘ hisoblab, barcha yumushlarni o‘zi taqsimlashini aytadi. Biroq uning egizagi bo‘lgan Doshniyaz ham rahbarlikka da’vo qiladi.

Eshniyaz unga: "Onamiz qornidan avval men chiqqanman!" deb do‘q uradi va mantiqiy dalildan so‘ng rahbarlikni qo‘lga olib, vazifalarni bo‘la boshlaydi. Taqsimotga ko‘ra, eng qiyin vazifa — qishloqqa borib urug‘lik topib kelish Shinkildekning chekiga tushadi. Zero, to‘nqildoqlarning birortasida bu ishni qilishga na aql, na jasorat yetardi. Shinkildek va’dasining ustidan chiqib, bir qop urug‘lik topib keladi va ular ekin ekishga kirishadilar. Ammo dalada kampirlar berib yuborgan ovqatga qorni toymagan ochko‘z to‘nqildoqlar o‘zaro kelishib, Shinkildekning eng semiz va ishchan ho‘kizini so‘yib yeyish rejasini tuzadilar. Shinkildek barcha ho‘kizlar navbat bilan so‘yilishi va kuzda hosil yig‘ilgach,

yangisi sotib olinishi haqidagi yolg‘on va’dalarga ishonib, ho‘kizini so‘yishga rozi bo‘ladi. Biroq go‘sht yeb bo‘lingach, akalari uni aldashganini aytib, ustidan kulishadi. Adolatsizlikka chiday olmagan Shinkildek o‘z ho‘kizining terisini olib, u yerdan ketadi.

Voqealar rivojida Shinkildek yo‘lda Jiyamurod ismli qaroqchiga duch keladi. Qaroqchi uni o‘g‘rilikka chorlab, boyib ketishni taklif qiladi. Ammo o‘g‘rilik hech qachon baxt keltirmasligini biladigan iymonli Shinkildek bunga qat’iy qarshi chiqadi. Qaroqchi uni o‘lim bilan tahdid qilib, o‘ziga hamroh qiladi. Ular bir boyning uyiga o‘g‘rilikka tushganda, Jiyamurod o‘sha yerda uxlab qolib, qayta uyg‘onmaydi vafot etadi. Vaziyatdan foydalangan Shinkildek hiyla ishlatib, qaroqchining o‘limida uyni sohibini ayblaydi va qoziga arz qilishini aytadi. Boy obro‘siga putur yetishidan qo‘rqib, Shinkildekka bitta ho‘kiz, bitta sigir va bitta ot berib, og‘zini yopadi. Shinkildek to‘qchilikda qishloqqa qaytadi. Buni ko‘rgan to‘nqildoqlarga "Ho‘kizning terisini bozorda ot va sigirlarga almashib keldim" deb yolg‘on gapiradi. Soddadil va ochko‘z akalar keyingi bozor kuni o‘z ho‘kizlarini so‘yib, terisini sotish uchun bozorga chopadilar va butun elga masxara bo‘ladilar.

Asarning kulminatsion nuqtasi to‘nqildoqlarning Shinkildekdan qasos olishga kirishishi bilan boshlanadi. Uni o‘ldirmoqchi bo‘lganlarida, Shinkildek buni sezib qolib, to‘shagiga odam shaklida kiyimlar tiqib qo‘yadi. Akalari kelib tun qorong‘usida o‘sha to‘shakni pichoqlab ketishadi. Ertasi kuni Shinkildek o‘lmay, bozordan bir araba don bilan qaytib kelganini ko‘rgan akalari hayratdan yoqa ushlaydilar. Shinkildek ularga navbatdagi hiylasini ishlatadi: "Kecha kimdir kampirimni o‘ldirib ketgan ekan, o‘ligini bozorga olib borgan edim, bozorda o‘lik kampirlarni oltinga sotib olishayotgan ekan, majburlashgani uchun donlarga almashtirib keldim" deydi.

Boyib ketish vasvasasiga tushgan to‘nqildoqlar o‘z kampirlarini bozorga sotish uchun yetaklab, yana sharmanda bo‘lishadi. Navbatdagi firg‘orlikdan so‘ng g‘azablangan to‘nqildoqlar Shinkildekni qopga solib, daryoga oqizib yuborishga qaror qiladilar. Yo‘lda ular qopni qoldirib dam olayotganlarida, u yerdan bir boy o‘tib qoladi va qop ichidagi Shinkildek bilan suhbatlashadi. Shinkildek unga: "Meni daryoning narigi tomoniga podshoh qilib saylashmoqchi, men esa unamay qochganim uchun majburlab olib ketishyapti" deydi. Podshoh bo‘lishni istagan sodda boy Shinkildek bilan kiyimlarini va joyini almashtirishga rozi bo‘ladi, evaziga o‘z qo‘ylari va choponini unga qoldiradi. To‘nqildoqlar kelib ichida boy bo‘lgan qopni daryoga tashlab, qutulganlariga xursand bo‘lib qaytayotganlarida, yo‘lda hashamatli chopon kiygan, bir suruv qo‘yni haydab kelayotgan Shinkildekka duch kelishadi.

Yechim qismida hayratda qolgan to‘nqildoqlar buni qanday sodir bo‘lganini so‘rashganda, Shinkildek: "Sizlar meni daryoga tashlaganingizda, suv tubida meni bir taka kutib oldi va daryoning osti to‘la qo‘y-qo‘zilar ekan, barchasini menga sovg‘a qildi. U yerda sizlarga ham yetadigan qo‘ylar bor" deb ularni chuv tushiradi. Boylik ilinjida to‘nqildoqlar sabrsizlik bilan daryoga birin-ketin sakrash uchun talashishni boshlaydilar. Katta aka Eshniyoz, uning

egizagi Doshniyaz, kichik o‘g‘il Palmurod va onasi ulamoning qizi bo‘lgan Xolmurodlar bir-biri bilan suvga birinchi bo‘lib sakrash uchun janjallashadilar. Shu payt Shinkildek sahna markaziga chiqib, ularga qarata pyesaning tarbiyaviy g‘oyasini ifodalovchi yakuniy so‘zlarini aytadi:

Pand berdingiz doim menga,
Achchig‘im bor tarqamagan.
Suv tubida qo‘y bo‘larmi,
Aqli yo‘q anqildoqlar?!
Ochko‘zlikni yo‘q etaylik,
To‘nqildini qo‘yaylik.
Kelib birga do‘st bo‘laylik,
Tug‘ishganmiz, jo‘ralarim!

Xalq ertaklarida bo‘lgani kabi, ushbu dramatik asarda ham ezgulik va donolik yovuzlik hamda ochko‘zlik ustidan g‘alaba qozonadi. Spektakl yosh tomoshabinlarni ahillikka, halol mehnat qilishga va to‘g‘ri yo‘ldan yurishga chorlaydi. Ta’kidlash joizki, Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatri ushbu muvaffaqiyatli spektakl bilan Misr Arab Respublikasining Qohira shahrida o‘tkazilgan nufuzli xalqaro teatr festivalida munosib ishtirok etib, yuqori baholangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ańsatbaev N. Teatr hám aktyor. Navruz. -Toshkent: 2020.

2. Seyitbekov A. K.Raxmanov dóretiwshiliginde epikalıq hám dramalıq shıǵarmalar sintezi; Filol, fan, fal doktori Phd.. ilmiy dárejesin alıw ushın jazılǵan dissertatsiya.-Nókis: 2020.

3. Mamutov P. Zamonaviy qoraqalpoq teatri: an’ana va yangi tendentsiyalar. San’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. –Toshkent: 2023.

САХНА ВА ЭКРАН САНЪАТИ ДРАМАТУРГИЯСИДА КОНФЛИКТ ВА ОБРАЗ ЯРАТИШНИНГ БАДИЙ-ЭСТЕТИК ТАМОИЛЛАРИ

Исмаилова Гулчехра
ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы студенти
Илимий басшысы, ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы доценти ***Хожанова М.***

Annotatsiya. Ushbu maqolada sahna va ekran san’ati dramaturgiyasining nazariy asoslari, xususan, konflikt, syujet, kompozitsiya va obraz yaratish masalalari san’atshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Dramaturgik asarning ichki harakatini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida konfliktning mohiyati yoritiladi. Shuningdek, sahna dramaturgiyasi va ekran dramaturgiyasi o‘rtasidagi umumiy hamda farqli jihatlar ochib beriladi.

Annotation. This article examines the theoretical foundations of stage and screen dramaturgy, with particular attention to conflict, plot, composition, and

character construction from the perspective of art studies. It elucidates the essence of conflict as the principal factor shaping the internal movement of a dramatic work. The study also identifies the common and distinctive features of stage dramaturgy and screen dramaturgy.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы драматургии сценического и экранного искусства, в частности вопросы конфликта, сюжета, композиции и создания образа с точки зрения искусствоведения. Раскрывается сущность конфликта как основного фактора, формирующего внутреннее движение драматургического произведения. Также выявляются общие и отличительные особенности сценической и экранной драматургии.

Kalit so‘zlar: dramaturgiya, sahna san’ati, ekran san’ati, konflikt, syujet, kompozitsiya, obraz, dialog, kino tili.

Keywords: dramaturgy, stage art, screen art, conflict, plot, composition, image, dialogue, cinematic language.

Ключевые слова: драматургия, сценическое искусство, экранное искусство, конфликт, сюжет, композиция, образ, диалог, киноязык.

Kirish. Sahna va ekran san’ati tizimida dramaturgiya badiiy asarning g‘oyaviy, mazmuniy va kompozitsion asosini belgilovchi yetakchi omildir. Har qanday spektakl yoki filmning estetik ta’sir kuchi, avvalo, uning dramaturgik poydevori naqadar puxta qurilganiga bog‘liq. Shu bois dramaturgiyani nafaqat adabiy matn yaratish usuli, balki badiiy tafakkurning harakatga, qarama-qarshilikka va obrazli ifodaga asoslangan murakkab shakli sifatida talqin etish lozim.

Arastu tragediya mohiyatini izohlar ekan, uni “harakatning tasviri” sifatida belgilaydi hamda voqealar tizimi, ya’ni fabula dramaturgik tuzilmaning eng muhim qismi ekanini alohida ta’kidlaydi [1, b. 102]. Mazkur nazariy qarash keyingi davr dramaturgiya va teatrshunoslik rivojida ham o‘z ahamiyatini saqlab qoldi. Chunki dramatik asarda inson tabiati, xarakter murakkabligi va hayotiy ziddiyatlar aynan harakat jarayonida ochiladi.

Bugungi kunda sahna va ekran san’ati tobora murakkablashib, tomoshabinning estetik talabi ham ortib bormoqda. Endi tomoshabin faqat voqea bayonini emas, balki ichki mantiq, psixologik ishonchlilik, obrazning rivojlanish dinamikasi va konfliktning estetik asoslanganligini ham kutadi. Shu jihatdan sahna va ekran dramaturgiyasining nazariy tamoyillarini qayta ko‘rib chiqish dolzarb ilmiy vazifalardan biridir.

Mazkur maqolaning maqsadi sahna va ekran san’ati dramaturgiyasida konflikt va obraz yaratishning badiiy-estetik tamoyillarini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. dramaturgiyaning nazariy mohiyatini aniqlash;
2. konfliktning dramatik harakatdagi o‘rnini ochib berish;
3. syujet va kompozitsiyaning funksional ahamiyatini tahlil qilish;

4. sahna va ekran dramaturgiyasi o‘rtasidagi farqli jihatlarni ko‘rsatish;

5. obraz yaratishda dialog, harakat va vizual vositalarning rolini yoritish.

Asosiy qism. *Dramaturgiyaning nazariy mohiyati*

Dramaturgiya san’atning shunday turiki, unda voqelik qarama-qarshilik, harakat va xarakterlar to‘qnashuvi vositasida badiiy shaklga keltiriladi. Uning markazida syujet emas, balki syujetni harakatga keltiruvchi ichki dramatik energiya turadi. Shu ma’noda dramaturgiya tashqi voqealar zanjiri emas, balki ma’no, ruhiyat va harakatning uzviy birligidir.

Arastu tragediyaning mohiyatini insonlarning o‘zini emas, balki ularning harakatini tasvirlashda deb biladi. Unga ko‘ra, tragediyada xarakter ham, fikr ham muhim, biroq eng asosiy qism voqealar tarkibi, ya’ni fabula hisoblanadi [1, b. 107]. Demak, dramaturgiyada shaxs mohiyati ham, uning ma’naviy pozitsiyasi ham aynan harakat jarayonida namoyon bo‘ladi.

K.S. Stanislavskiy ham sahna san’ati tabiati haqida fikr yuritar ekan, “sahnada harakat qilish kerak” degan g‘oyani ilgari suradi. U dramatik san’atning tayanchi sifatida faoliyat, ichki va tashqi harakat birligini ko‘rsatadi [4, b. 22]. Bu qarash dramaturgiyaning faqat matn emas, balki ijro, ruhiy kechinma va harakat orqali mavjud bo‘ladigan tirik san’at ekanini anglatadi.

Konflikt – dramaturgik harakatning asosiy manbai

Konflikt dramaturgiyaning markaziy kategoriyalaridan biridir. U voqealarni rivojlantiradi, obrazlarni ichki sinovdan o‘tkazadi va asarning estetik tarangligini ta’minlaydi. Konfliktsiz dramatik harakat sustlashadi, asar esa badiiy dinamikasini yo‘qotadi.

Konflikt tashqi va ichki shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. Tashqi konflikt qahramon bilan jamiyat, muhit yoki boshqa shaxslar o‘rtasidagi to‘qnashuvda ifodalansa, ichki konflikt qahramonning ruhiy bo‘linishi, axloqiy tanlovi, vijdoniy iztirobi orqali ochiladi. Zamonaviy sahna va ekran asarlarida aynan ichki-psixologik konfliktning faollashgani kuzatiladi. Chunki bugungi badiiy tafakkur insonning tashqi harakatidan ko‘ra, uning ichki murakkabligini chuqurroq ifodalashga intilmoqda.

K.S. Stanislavskiy “Har qanday harakat qarshi harakatni tug‘diradi” deb ta’kidlar ekan, dramatik to‘qnashuv tabiiy ravishda qarama-qarshi kuchlar mavjudligidan kelib chiqishini ko‘rsatadi [4, b. 183]. Bu esa konfliktning faqat voqeaviy emas, balki energetik va strukturaviy mohiyatga ham ega ekanini tasdiqlaydi.

Syujet va kompozitsiyaning funksional ahamiyati

Dramaturgiyada syujet voqealarning oddiy ketma-ketligi emas, balki ma’no yuklangan elementlarning tizimli rivojidir. Yu.M. Lotman syujetni matndagi ma’noli birliklarning dinamik ravishda qarama-qarshi qo‘yilishi sifatida izohlaydi [3, b. 37]. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib aytish mumkinki, syujet – konfliktning rivojlanish modeli, kompozitsiya esa shu modelning badiiy tashkil etilishidir.

Sahna asarida kompozitsion yaxlitlik mizanscena, dialog ritmi, epizodlarning ichki uzviyligi bilan shakllansa, ekran asarida bunga qo‘shimcha

ravishda kadr qurilishi, rakurs, plan almashuvi, ekran tasvirining kompozitsion qurilishi va vizual ritm ham faol ishtirok etadi. Yu.M. Lotman kino tilining tabiatan hikoyaviy ekanini, ekran tasvirining kompozitsion qurilishi esa kinopovestvovaniyeninng ichki mexanizmlaridan biri ekanini ta'kidlaydi [3, b. 33]. Shuningdek, u syujet va ekran tasvirining kompozitsion qurilishi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni alohida ko'rsatadi.

I.V. Evteeva ham kinodramaturgiyada kinopovestvovaniyeninng o'ziga xosligi, kinematografik harakatning fazoviy imkoniyatlari, cheklangan metraj va ekran tasvirining kompozitsion qurilishi tashkiloti muhim ekanini qayd etadi [5, b. 11]. Demak, ekran dramaturgiyasida kompozitsiya nafaqat voqeani joylashtirish, balki uni vizual-ritmik ravishda tashkil etish funksiyasini ham bajaradi.

Obraz yaratishning badiiy-estetik asoslari

Dramaturgik asarning estetik darajasi undagi obrazlar tizimi bilan bevosita bog'liq. Obraz faqat qahramonning tashqi qiyofasi yoki xulq-atvori emas, balki muayyan ijtimoiy, axloqiy va ruhiy mazmunning badiiy mujassamidir. Yetuk dramaturgiyada obraz bir yoqlama emas, balki ziddiyatli, rivojlanayotgan va ichki qatlamlarga ega xarakter sifatida gavdalanadi.

K.S. Stanislavskiy nazariyasida obraz yaratish qahramonning oliy maqsadi, ichki asoslari va uzluksiz harakati bilan bog'lanadi. U noto'g'ri "oliy vazifa" aktyorni muallif niyatidan uzoqlashtirishini ta'kidlaydi [4, b. 178]. Demak, obraz yaratish jarayoni tasodifiy emotsiya emas, balki muallif g'oyasi va ijrochi talqinining uyg'unligiga tayanishi lozim.

Sahna va ekran dramaturgiyasining o'ziga xos xususiyatlari

Sahna dramaturgiyasi va ekran dramaturgiyasi umumiy nazariy ildizga ega bo'lsa-da, ifoda vositalari hamda badiiy ta'sir mexanizmi jihatidan farqlanadi. Teatrda voqea real vaqt va makonda, tomoshabin ko'z o'ngida kechadi. Shu sababli unda jonli ijro, nutq, intonatsiya, aktyor plastikasining roli nihoyatda katta. Teatrdagi dramaturgik ta'sir ko'proq bevositalik va jonli muloqot asosida yuzaga keladi.

Ekran san'atida esa badiiy vaqt va makon erkin boshqariladi. Kamera voqelikni tanlaydi, bo'laklaydi, yaqinlashtiradi, uzoqlashtiradi va ekran tasvirining kompozitsion qurilishi orqali yangi ma'no hosil qiladi. Yu.M. Lotman ekran tasvirining kompozitsion qurilishini kinoning eng muhim ifoda vositalaridan biri sifatida baholaydi [3, b. 26]. Shu bois ekran dramaturgiyasi ko'proq vizual tafakkur, tasviriy metafora va ritmik qurilmaga tayanadi.

I.V. Evteeva kinopovestvovaniyedagi fazoviy imkoniyatlar, kinematografik harakat va ekran tasvirining kompozitsion qurilishi tashkilotining o'ziga xosligini alohida ajratadi [5, b. 14]. Bu hol ekran dramaturgiyasida dialogning o'rni pasayadi degani emas; aksincha, u yanada ixcham, ma'nodorroq va tasvir bilan uyg'un holda ishlatilishini talab qiladi.

Dramaturg, rejissyor va badiiy talqin birligi

Sahna va ekran asarining muvaffaqiyati dramaturg va rejissyor qarashlarining uyg'unligiga ham bog'liq. Rejissyor matnni sahna yoki ekran

tiliga ko‘chiruvchi ijodkor sifatida dramaturgik mohiyatni chuqur anglamas ekan, badiiy yaxlitlik buziladi. G.A. Tovstonogov rejissyor va dramaturg hayot hamda san’at hodisalarini turlicha idrok etsa, chinakam natijaga erishish qiyinligini ta’kidlaydi [6, b. 44].

Bu fikr ayniqsa zamonaviy teatr va kino amaliyotida muhimdir. Chunki bugungi badiiy jarayonda dramaturgik asos ko‘pincha rejissyorlik talqini, aktyor ijrosi, ekran tasvirining kompozitsion qurilishi va tasviriy yechimlar bilan qayta ishlanadi. Shunga qaramay, asarning ichki mantiqi, konfliktning rivoji va obrazlarning estetik yaxlitligi saqlanib qolishi kerak.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sahna va ekran san’ati dramaturgiyasining markazida konflikt, harakat va obraz tizimi turadi. Dramaturgik asarning estetik qudrati voqealarning ko‘pligida emas, balki ularning ichki mantiqiyligi, konfliktning asoslanganligi va obrazlarning badiiy ishonchliligida namoyon bo‘ladi. Arastu, K.S. Stanislavskiy, Yu.M. Lotman va zamonaviy kinodramaturgiya nazariyotchilarining qarashlari shuni tasdiqlaydiki, dramatik san’atning bosh mohiyati harakat va ma’no birligida namoyon bo‘ladi.

Sahna dramaturgiyasi jonli ijro, dialog va bevosita tomoshaboplikka tayanishi bilan ajralib tursa, ekran dramaturgiyasi vizual tafakkur, ekran tasvirining kompozitsion qurilishi va kino tilining semantik imkoniyatlari bilan tavsiflanadi. Biroq har ikki holatda ham dramaturgiyaning bosh vazifasi inson ruhiyati, ijtimoiy ziddiyat va badiiy g‘oyani estetik jihatdan mukammal shaklda ifodalashdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Arastu. Poetika. Axloqi kabir / tarjimon M. Mahmud. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – 194 b.

2. Evteeva I.V. Kinodramaturgiya i stroenie filma: uchebnoe posobie. – Sankt-Peterburg: Lan’, Planeta muzyki, 2020. – 292 b.

3. Lotman Yu.M. Semiotika kino i problemy kinoestetiki. – Tallinn: Eesti Raamat, 1973. – 88 b.

4. Stanislavskiy K.S. Aktyorning o‘z ustida ishlashi / T. Xo‘jayev tarjimasi. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1965. – 219 b.

5. Tovstonogov G.A. Zerkalo stseny. Kn. 1: O professii rezhissera. – Leningrad: Iskusstvo, 1980. – 303 b.

ҚУЎАТБАЙ ӘБДИРЕЙМОВ РЕЖИССУРАСЫ

Ислам Ешниязов
ЎзДСМИ, 1-босқич магистранти
Илмий раҳбари, ЎзДСМИ профессори
Ризаев Оманулло Зуфаривич

Анотация: Ушбу мақолада Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон халқ артисти Қуўатбай Абдреймовнинг режиссураси, унинг қорақалпоқ театр санъатига қўшган ҳиссаси ҳақида баён қилинади.

Калит сўз: Театр санъати, драматургия, адабиёт, Шекспир.

Abstract: This article describes the directing of People's Artist of Uzbekistan and Karakalpakstan Kuatbay Abdreymov and his contribution to Karakalpak theater art.

Key word: Theater art, dramaturgy, literature, Shakespeare.

Аннотация: В данной статье описывается режиссерская деятельность народного артиста Узбекистана и Каракалпакстана Куатбая Абдреймова и его вклад в каракалпакское театральное искусство.

Ключевые слова: Театральное искусство, драматургия, литература, Шекспир.

Театр бу шунчаки томоша эмас у тирик организм, турфа тағдирлар тўқнашувчи кучли майдондир. Қачонки кучли ижодкор пайдо бўлсагина, сахнадаги ҳар қандай асар томошабинни чуқур мулоҳазага ундаши мумкин. Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон халқ артисти Қуўатбай Абдреймов қорақалпоқ театр санъати учун муносиб ҳисса қўшган, дунё классик асарларини қорақалпоқ сахнасида жонлантирган забардаст ижодкорлардан бири. Жумладан 1970-йили В.Шекспирнинг «Отелло» трагедиясининг сахналаштирилиши, қорақалпоқ санъат ва маданияти тарихида янги бир сахифани очиб берди. Негаки илк бор жаҳон адабиётининг йирик асари қорақалпок тилида талқин қилинди Шекспир асарлари драматургик жихатдан мукаммал даражада бўлиб бу мукаммаллик театр санъати камолотини ҳам белгилайди. Қ.Абдреймов эса бир вақтнинг ўзида сахналаштирувчи режиссёр бўлиб қолмасдан Отелло образини ҳам гавдалантирди.

Бу рол учун у ҳар тарафлама мос, узун бўйли, улуғвор гавда, чиройли қомат, унинг барча ташқи ҳусусиятлари фожиали актёрларнинг классик моделларига мос эди. Шекспир асарлари биз учун не чоғлик аҳамиятли чунки уларда кучли характерга эга образлар, сахна санъаткорларининг актёрлик камолоти учун гениал даражада яратилган. «Ҳамлет, Отелло, Брут, Лирларда бўлган ёмонлик, ҳудбинлик, манфатпарастлик, фирибгарлик, мунофиқлик, соҳта диндорликка бўлган нафрат замонамиз

руҳига ҳамоҳанг эди»[35] Айнан театр санъатининг камолотида ҳам муҳим рол ўйновчи ушбу асарлар ҳар даврга мос келиши билан ҳам аҳамиятли. Сахна безаклари оркали ўша давр муҳитини очиб бера олган сахналаштирувчи художник Қидирбай Сайиповнинг ҳам ҳизматлари алохида ахамиятлидир. Совет Шекспиршуноси М.М.Морозов шундай деб ёзган эди: «Отелло ўзининг фожиали хатосидан хабар топганида, қайғудан кейин умидсизлик келади. Умидсизликдан кейин маърифат келади. Шекспирнинг барча асарларидаги энг ажойиб парчаларидан бири бу Отеллонинг сўнги монологида тўккан кўз ёшларидадир.»[36]

Кучли драматизм ва характерлар тўқнашувчи ушбу асар ҳар доим ўз мавқейини йўқотмаган. Ҳар бир актёр Гамлет, Отелло каби улуғвор образларни гавдалантиришни орзу қилса керак. Аммо бу ҳаммага ҳам насиб этавермайди. Бундай шоҳ асарни сахнага олиб чиқиш ҳам анчайин мушкул. Чунки асар ўзининг мураккаблиги ва кучли динамикаси билан бошқа асарлардан ажралиб турса, яна бир томондан асар қаҳрамонларига мос келадиган актёр актрисалар ижодий жамоада бўлмаслиги ҳам мумкин. Ҳар бир режиссёр орзуйидаги асари, унинг қаҳрамонлари учун муносиб актёр, актрисаларни доим излайди, уларни кутади. Қ.Абдреймов ҳам ўз дездемонасини излаган, ана шу ижодий жараённи Қорақалпоғистонга ҳизмат кўрсатган маданият ҳодими Кийик Абдреймова қуйидагича эслайди:

«Отелло асарини сахналаштириш ва бош ролни ижро этиш Қ.Абдреймовнинг узоқ йиллик орзуси эди. Талабалик даврида Хамза театрига бориб Аброр Ҳидоятов бош ролни, Шукур Бурҳонов эса Яго ролини ижро қилган «Отелло» спектаклини томоша қиларди, бу икки ҳурматли актёр унинг ҳаётини ўзгартирди»[37]

Бир инсон бир вақтнинг ўзида ҳам актёр ҳам сахналаштирувчи режиссёр бўлиши учун катта куч керак. Қ.Абдреймов ўзида ана шу кучни тўплай олган чинакам ижодкор. Бугун қорақалпоқ театр санъати ўзининг бир асрлик тарихи мобайнида кўпгина бетакрор, жахон драматургияси дурдоналарини ўз томошабинларига ҳавола қилган бўлса, уларнинг етакчиси сифатида Шекспирни Қорақалпоқ заминига олиб келган Қ.Абдреймовни алоҳида этироф этишимиз лозим. Унинг режиссураси 1970-71 йилларда Москвадаги икки йиллик амалиётдан кейин тобара юксалиб, саньат оламига шунғиб, унинг маъзмун моҳиятини теран англай бошлади. У ерда СССР халқ артисти А.А.Попов раҳбарлигида Станиславский системасини чуқур ўрганиб, замонавий режиссёрлик назарияси, режиссёрлик амалиёти ҳақидаги пухта билимларни эгаллади. «Попов ёш қорақалпоқ режиссёрининг манавий ҳаёти, профессионал етуклиги ва камолотида ўчмас из қолдирди»[38]

[35] Ф.Сулаймонова. Шекспир Ўзбекистонда -Тошкент, Ўзбекистон ССр «Фан» нашриёти 1978-йил. 78-б
[36] М.М.Морозов. «Шекспир, Бернс, Шоу…», Москва, изд. Искусство, 1967-г. Стр 119.
[37] К.Абреимова. Мои воспоминания- Нукус билим. 2020-йил 9-б.
[38] Т.Баяндиев. Куатбай Абдреймов – Нукус «Каракалпакстан» 1987-йил 48-б.

«Отелло» спектаклини сахналаштириш жараёнида Дездемона роли учун ижодий жамоада муносиб актриса бўлмаганлиги учун педогогика институти талабаси Айша Жадигеровани Дездемона ролига таклиф этади. У ташқи кўриниши жиҳатдан Дездемонага ҳар тарафлама мос бўлсада, театрда амалий тажрибага эга бўлмаган ва ҳеч қандай актёрлик мактабида ўқимаган А.Жадигеровaнинг Дездемона роли катта сахнадаги биринчи ва охирги роли бўлиб қолди. Малакасиз ижрочи билан ишлаш оҳир оқибат спектакльга салбий таъсир кўрсатди. Ана шу жиҳат кейинчалик Москвада малака ошириб келишига сабаб бўлди. У бутун умрини санъатга бағишлаган, театр санъати равнақи учун катта ҳисса қўша олган кучли режиссёр ва актёр.

Ижодий фаолияти давомида Григорий Горин «Номи ўчсин», Туфан Минуллин «Азройилни алдаган одам», Сергей Рахманинов «Алеко» каби асарларни таржима қилиш билан бирга миллий драматургиядан Ж.Аймурзаев «Бердақ», К.Рахманов «Келин», Т.Сейтжанов «Абу Райхан Беруний», С.Хожаниязов «Маманбий», И.Юсупов «Мангу булоқ», каби йирик асарларга ҳам қўл урган.

Бугун қорақалпоқ сахнасида «Ромео ва Жулиетта», «Гамлет» Испан ёзувчиси Лорканинг «Қонли тўй», Ж.Б.Мольернинг «Скапеннинг найранглари», Карль Чапек «Она», К.Голдони «Икки бойга бир малай» каби дунёга маълум ва машхур асарларнинг томошабинлар эътиборига ҳавола этилиши қорақалпоқ театр санъатининг юксалаётганидан дарак беради. Албатта бунда Қ.Абдреймовнинг ҳам ҳиссаси катта. У режиссёр сифатида 40дан зиёд спектаклларни сахналаштирган бўлса, актёр сифатида ҳам ранг-баранг образларни гавдалантирган серқирра ижодкор ҳисобланади.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати:

1. Сулаймонова.Ф, Шекспир Ўзбекистонда -Тошкент, Ўзбекистон ССр «Фан» нашриёти 1978-йил.

2. Морозов.М.М, «Шекспир, Бернс, Шоу…», Москва, изд. Искусство, 1967-г.

3. Абреимова.К, Мои воспоминания- Нукус билим. 2020-йил.

4. Баяндиев.Т, Куатбай Абдреймов – Нукус «Каракалпакстан» 1987-йил.

ҚУЧҚОР НОРҚАБИЛ ДРАМАТУРГИЯСИ ВА УНИНГ САХНА ТАЛҚИНЛАРИ

Нилуфар Бухарова
ЎзДСМИ магистранти

Annotatsiya. Ushbu maqolada dramaturg Qo‘chqor Norqobil asarlarining o‘zbek sahna san’atiga ta’siri va o‘zbek teatrida sahnalashtirilgan spektakllarning g‘oyaviy - badiiy xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Teatr, spektakl, rejissyor, dramaturg, aktyor, obraz, drama, janr.

Аннотация. В данной работе рассматривается вклад драматурга Кучкора Норкобила в узбекское сценическое искусство и анализируются идейно-художественные характеристики спектаклей, поставленных на узбекской сцене.

Ключевые слова: Театр, спиктакль, режиссёр, драматург, актёр, образ, драма, жанр.

Abstract. This study investigates the contribution of playwright Qo‘chqor Norqobil’s dramaturgical works on Uzbek theatrical art and explores the ideological and artistic aspects of performances staged in Uzbek theatres.

Keywords: Theater, performance, director, playwright, actor, image, drama, genre.

Qo‘chqor Norqobil o‘zbek adabiyotining atoqli vakillaridan biri. Dramaturgning turli xil xarakterdagi qahramonlari o‘z kitobxonlariga egaligi bilan e’tiborli. Adibning asarlarida urush, vatanparvarlik, halollik va insoniy fazilatlarining ustuvorligi yetakchi o‘rinni egallaydi. Uning “Osmon ostidagi sir”, “Biz jangdan qaytmadik”, “Olislarda osmon yo‘q edi”, “Urushning birinchi kuni”, “Urush tugasa ayting, qaytib kelaman”, “O‘n sakkizga kirmagan men bor”, “Kulib tur azizim”, “Teatrga chipta yo‘q” kabi ko‘plab asarlarida insonning ruhiyati, ichki kechinmalari tasvirlangan. Ayniqsa, “Daryo ortidagi yig‘i” hikoyasida asirga olingan o‘zbek askar yigitning qismati tilga olinadi. Unda urush tufayli insonlarning boshiga tushgan turli sinovli qiyinchiliklari tasvirlangan. Shu boisdan ham dramaturgning uslubi kitobxon va tomoshabin qalbida kuchli iz qoldirgan.

Adibning asarlari teatr sahnalarida, qaysi millat bo‘lishidan qat’iy nazar o‘z muxlisiga egaligi bilan quvonarli. Uning asarlari qardosh davlatlar teatrlarida ham sahnalashtirilib, tomoshabinlar e’tiborini qozonib kelmoqda. Jumladan “Besh beva va bir boshliq” komediyasi “Ja’far Jabborli” nomidagi Ozarbayjon davlat drama teatrida (2020) rejissyor Ozarbayjon respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist Sarvar Aliyev tomonidan sahnalashtirildi. Ushbu Komediya janridagi asarga rejissyorning qo‘l urishi tabiiy xol. Chunki, asarda yetakchi mavzu ayollarning jamiyatdagi o‘rni va ularni qo‘llab-quvvatlash masalasiga

qaratilgan bo‘lsa, uni dramaturg ba’zi sahnalarini kulgi ostiga oladi va unda beparvolik, loqaydlik kabi illatlarni turli qahramonlar timsolida ochib beradi.

Shuning uchun ham turli millat vakillarining dramaturg ijodiga qiziqishi va asarlarini nashr etilishi ijodkorni qardosh davlatlar bilan ijodiy hamkorligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Qo‘chqor Norqobilning aksariyat asarlarida urush mavzusi qalamga olinib, poytaxt teatrlarida sahnalashtirilmoqda. Muqimiy nomidagi O‘zbek davlat musiqali drama teatrida “Osmon hamma gapni eshitadi” (rej. Doston Haqberdiyev 2024-yil) O‘zbek Milliy akademik drama teatrida “Taqdir sinovlari” (rej. Nodira Mahmudova, 2009-yil) shular jumlasidandir. Har ikkala asarda ham afg‘on urushida jabr ko‘rgan yigitlarning achchiq qismatlari tomoshabinga ruhan ta’sir o‘tkazadi.

Asar voqealari 80-yillarning so‘ngida, mustabid sho‘rolar hukmronligi nurab borayotgan bir sharoitda ro‘y bergan bo‘lsa-da, bu kunning nafasi ham sezilib turadi. Asarda qismat, insoniy tuyg‘ular, muhabbat, or - nomus, halollik va erkinlik haqida so‘z boradi[1, 11-b].

Dramaturg aynan o‘sha davrni qalamga olib, Surxondaryoning chekka qishloqlaridan birida ro‘y bergan voqealarini tasvirlaydi. Undagi voqealar, aktyor ijrosi, sahna dekoratsiyasi, musiqasi hamda rejissyorlik ishi muvaffaqiyatli bajarilgan. Undagi vatanparvarlik, insoniylik, do‘stlik, muhabbat va ishonch, ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlar aktyorlar ijrosida mohirona ko‘rsatilgan.

Sahnalashtirilgan spektaklda rejissyor voqeani ichki monologlar, musiqiy ohanglar va ranglar orqali berishga harakat qilgan. Rejissyor asarni sahnada hayotiy, hissiy va estetik jihatdan chuqur talqin etgan. Hayotdagi voqealar real tarzda ko‘rsatilgan. Aktyor sun’iy harakat qilmasdan, o‘z rolini tabiiy, yurakdan his qilib ijro etadi. “Rejissyor har bir obrazning o‘ziga xos xususiyatlarini, qahramonlar hayotidagi muhim holatlarni yorqin ochishga erishgan”[2, 33-b].

Xaqiqatdan ham rejissyor asarni muvaffaqiyatli chiqishida astoydil mehnat qilgani, uning aktyorlar bilan repetitsiyalar jarayonida qahramonlar xarakterini to‘liq ochishiga erishishgani voqealar rivoji davomida namoyon bo‘ladi. Dialog va monologlarning mohirona tuzilgani asar yutug‘ini belgilaydi.

O‘zbekiston xalq artisti Erkin Komilov Jayron boboni butun vujudi bilan ijro etib, uning umri dalada qo‘y - qo‘zilar boqib cho‘ponlik qilganini tomoshabinga ro‘yi-rost, tabiiy ko‘rsata olgan. Jayron boboning otasi ham cho‘pon bo‘lgan. U keksayganimda suyanchiq bo‘lsin degan niyat bilan voyaga yetkazgan yakka-yu yagona farzandi Tilavoldi otasining izidan ketmadi. U katta odam bo‘lishni orzu qiladi va chet elga o‘qishga ketadi. Jayron bobo – sodda, kamtar, mehnatkash shu bilan birga ishonuvchan inson. U doim “kattalarga” xizmat qiladi. Avvallari kattalarga ko‘p hadya qilinmas edi-da. ‘‘Katta- katta deysizlar, katta o‘zi necha kishi’’- Soddaligidan bu savoliga javob topolmagan inson. Voqealar davomida Jayron bobo bo‘layotgan adolatsizliklardan bezovta. ‘‘Men bo‘ridan qo‘rqmayman, uni otsang o‘ladi, quvsang ketadi. Lekin, ikki oyoqli bo‘rilar bilan hech murosa qilib bo‘lmaydi. Ular hech narsadan qo‘rqmas

ekan. Qo‘y esa davlatniki, nima qilishni kattalar hal qilarkan, ular nima desa shuda. Kattalarga bas kelib bo‘lmas ekan. Katta degan nomi bor xolos’’, – deydi kuyinib. Bo‘layotgan ishlardan Jayron boboning jahli chiqadi ammo qo‘lidan hech narsa kelmaydi.

Hayoti davomida suyangani Gulsum momo bo‘lsa, yaqin do‘sti Eson bobo edi. U ham haqiqatgo‘y, halol, dovyurak inson. Ammo kezi kelganida, haqiqat yo‘lida do‘stini ham ayamaydi. ‘‘Sening isming Jayronqul, o‘zing qul emassan-ku’’,- deb do‘sti Jayron boboga tanbeh berib ogohlantirib turadi. Doim nohaqlik hukm surgan joyda, yaxshi insonlar zarar ko‘rishini gapi orasida uqtirib boradi.

Jayron boboning suyangani va maslahatgo‘yi Gulsum momo (Sayyora Yunusova) edi. Unda ham mehribon, sodda, qishloq ayoliga xos harakatlarni ko‘rishimiz mumkin. Yolg‘iz o‘g‘lim Tilavoldi orzu-umidlarimni ro‘yobga chiqaradi deb yillar davomida yaratgandan so‘rab o‘tirgan onaning istaklari bir zumda chil-parchin bo‘ladi. Chunki, shahardan kelgan o‘g‘lining yonidagi begona qiz haqidagi turli gap-so‘zlar Zenferaga bo‘lgan ishonchini so‘ndiradi. U Qulmirzaning so‘zlarini eshitib qaddi bukuldi. Qulmirza‘‘Halollik deysiz, uyingizni g‘aribxona qilib qo‘yibsiz-ku. Mana shu tog‘-u toshlarni tili bo‘lsa gapirsin. Kim haq-u, kim nohaqligini’’ - deydi. Gulsum momo ‘‘Uning gapi chin-mi, - deya Jayron boboga qaraydi. Ha o‘g‘lim-a, o‘g‘lim. Orzu umidlarimni kul qilgan o‘g‘lim’’ – seni shu umidlar bilan katta qilganmidik –degan onaning yuragidan chiqqan bu so‘zlari tomoshabinni qalbini jumbushga keltiradi.

Oilada sodir bo‘layotgan kutilmagan voqealarga guvoh bo‘lgan Butunvoy gangib qoladi. Unga muhit ya’ni odamlarni bir-birlariga yovuz qarashlari va baqir-chaqirlari urush asoratlarini eslatib qayg‘uga soladi. Chunki u Afg‘on urushidan so‘ng odamovi bo‘lib qolgan. Uning ko‘zlarida mayuslik, g‘amginlik hamda qayg‘u-alam bor. Unga salbiy voqea-hodisalardan ko‘ra tinchlik, osoyishtalik, yaxshi insonlar suhbati zarur edi. U afg‘on urushidan jarohatlanib kelgan, shu sababdan ham gap-so‘zlarini aniq ayta olmagani uni qiynaydi va u duduqlanib gapiradi. Ba’zi “yomon” insonlarning unga nisbatan qilgan pichinglari, ustidan kamsitish va kulishlari uni battar qiynaydi. O‘zidan ba’zan nafratlanadi ham, ammo shu qiyin kunlarini unitishiga mahallasidagi Sora ismli qiz yordam beradi.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Asadillo Nabiyevning Butunvoyi aktyorga albatta qiyinchilik tug‘dirganini tomoshabin sezadi, chunki uning ijrosidagi qiyin sahnalar buni yaqqol ko‘rsatgan. Duduqlanib gapirishi, ba’zida so‘zlarni talaffuzi orqali qiynalib gapirishlarida haqiqatdan qahramonining ichki kechinmalarini tabiiy ochib ko‘rsata olgani taqsinga loyiq.

Sora (Gulnora Jumanazarova) beg‘ubor qiz. O‘z baxti, sevgisi uchun kurashgan jasur qiz. Uning ham boshidan juda ko‘p qiyin kunlar o‘tdi. Sora ‘‘Bu dunyoda orzu -umidlarim ko‘p edi. Armiya dedingiz kutdim, lekin bu nomard dunyo teskari ketdi. Hayotimni ag‘dar to‘ntar qildi. Ayting -ayting nima qilay kuyib ado bo‘lim. Joni omon qolsin deb ikki yil duo qildim. U menga vadalar bergan dedim, taqdirim shu ekan’’. – deya Butunvoyni quchadi. U otasi oq qilsa

ham, koʻk qilsa ham Butunvoyni tanladi. Soraning ahdiga qoyil qolmasdan iloj yoʻq.

Spektakl voqealarini yanada rivojlanishiga hissa qoʻshgan qahramonlardan yana biri Qulmirza boʻladi. U tabiiyki, ayyor va yugurdak. Jayron boboning uyiga ha deganda, bir varaq qogʻozni koʻtarib kelavergani barchani tinchini buzadi. Chunki, akt tuzib davlatning qoʻylarini "boʻri yedi" degan bahonani oʻziga libos qilgan. Qulmirza ham kattalardan kelgan buyruqni amalga oshirish maqsadida yurgan kimsa, aslida oʻzi ham bu ishlarga sherik.

Spektakl davomida tomoshabin Qulmirza (Oʻtkir Mingliyev), Qudrat (Sobir Otajonov) kabi laganbardor kimsalardan nafratlanadi. Qulmirza har safar ''Katta keldi unga qoʻy kerak'' degan gap bilan choʻponlardan qoʻy undirish uchun qalbaki akt tuzib ishini bitiradi. Choʻponlar esa bundan bexabar. ''Yana qoʻylar uchun yem-hashaklar olindi",- deb hujjatga imzo qoʻydiradi. Qoʻylar esa yozilgan yem-xashaklardan yemagan. Qishdan esa yantoq yeb chiqardi. Qulmirza doim kattalarning buyrugʻini bajarib, oʻzining ulushini olib oʻrgangan. ''Kattaning oʻzi bizga soyabon, bu ishlarni bugun qilayotganingiz yoʻq-ku'',- deb Jayron boboga jahl bilan gapiradi va oʻz aybini yopish bilan ovora.

Ularning iziga tushgan tekshiruvchilar, tumanni agʻdar toʻntarini chiqaradi. Bundan talvasaga tushgan Qulmirza najot izlab Jayron boboning yoniga yuguradi. ''Bu nomard katta hamma yerni tekshirib, rasvo qilib tashladi. Kasofati mana bizlarga ham uryapti. Jon bobo taqdirim sizning qoʻlingizda. Suruvni sel oqizib ketdi desangiz kifoya. Mana oʻzim aktini tuzib keldim. Qoʻl qoʻyib bersangiz boʻldi. Yordam bermasangiz meni qamashadi. Jon bobo meni qutqaring'' -deya Jayron boboga yalinadi. Jayron bobo esa Qulmirzaning taklifiga rozi boʻlmaydi.

Jayron boboning yakka-yu yolgʻiz oʻgʻli Tilavoldidan umidlari katta edi. Tilavoldi esa otasining orzularini roʻyobga chiqarmadi. ''Zemfiraning yaqinlari menga yordam beradi, bu xarob hovlida chor devor ichida bir kun ham yasholmayman'', – deb otasini ranjitadi va uydan chiqib ketadi. Tilavoldi rolini aktyor Mirolim Qilichev ijro qilgan, bu obraz ham oʻziga xos. Yana bir salbiy obrazlardan biri, Tilavoldini yoʻldan urgan yengiltak ayol Zemfira (Shodiya Toʻxtayeva) edi. U pul uchun hamma narsaga tayyor. Hatto Tilavoldini ota-onasi qarshiligiga qaramasdan oʻzi bilan shaharga ketishga koʻndiradi.

Spektaklda sahna keng va ochiq joyga qurilgan boʻlib, sahnaning oʻrtasida supacha, uning atrofida daraxtlar, toshdan qurilgan devor tasvirlangan. Oʻzbek xalqining mentaliteti va qishloqda yashovchi insonlarning hayoti aks ettirilgan. Momo uyiga mehmon kelganda uni yorugʻ yuz bilan kutib olib, supaga koʻrpacha soladi. Choy quyib, non sindiradi. Non aslida rizq, baraka ramzi. Bu esa oʻzbekning mehmondoʻstligini bildiradi.

Teatr – sintez san'ati, u bir qancha soha vakillarining yakdil mehnati mahsulidir. Libos rassomi Sevara Zunnunova Surxondaryoda yashovchi insonlarning hayotini, yaxshi bilgan holda, davrdan kelib chiqib aktyor va aktrisalarning harakatiga qulay boʻlgan kiyimlarni yaratgan. [3, 12-b]

Spektaklning sahnaviy liboslariga to‘xtalib o‘tsak, voqealar qishloqda sodir bo‘lgani uchun aktyorlar jaydari kiyimda ko‘ringan. Kostyumlar qishloq sharoitiga mos bichimda, odmi qilib tikilgan. Jayron boboning egnida to‘n, boshida do‘ppi, Momoning egnida ham qo‘ng‘irot eliga xos kiyimlar tanlangan. Ko‘ylak keng va uzun bichimli bo‘lib, yenglari va etak qismi ham oddiy, bu esa momoning kamtarligidan dalolat. U tomoshabinga milliy qadriyatlarni yodiga soladi. Momo ko‘ylagiga mos qilib, boshiga ro‘mol ham tashlab olgan. Bu esa momo yoshining ulug‘ligini anglatadi.

Afg‘on urushi olib kelgan talofatlarni bu spektaklda ham ko‘rishimiz mumkin. Urush qahramonimiz Butunvoy taqdirini ham tubdan o‘zgartirib yubordi. U urush ta’sirida tilsiz, zabonsiz bo‘lib qoldi. Unga shuncha qiyinchilik yetmaganday sevgan qizi Soradan ham ayirmoqchi bo‘lishdi. Jayron bobo va Gulsum momo o‘g‘li o‘qishga ketgach yolg‘izlanib qolib, Butunvoyga mehr qo‘yadilar.

Jayron boboning ko‘zi to‘rt bo‘lib, qo‘limdan tayog‘imni olar deb orziqib kutgan yakka-yu yagona o‘g‘li esa shahardagi yengil hayotga o‘rganib, ota - onasining yuzini yerga qaratadi. U benomus bir juvon sababli ota - onasini tashlab ketadi. Jayron boboning orzulari sarobga aylanadi. Tilavoldi Zemfira bilan ketganidan keyin ularning uylari huvillab qoladi. Jayron boboga juda og‘ir bo‘lsada o‘g‘lidan voz kichadi. Bolasini o‘rniga Butunvoy va Sorani farzand sifatida qabul qiladi. Butunvoy va Sora qariyalarga madad bo‘ladilar. Butunvoy va Sora kelib ularning uylari mehrga to‘ladi.

Jayron bobo kattalar xursand bo‘lsin deb doim qalbaki aktlarga qo‘l qo‘ygan. Shu tariqa suruvni soni ozayib ketgan. Nuroniy bilib-bilmay ularni hamtovoqlariga aylanib qolgan. Bu qilgan ishlarini badalini to‘layotgandek. Uning o‘g‘li Tilavoldi mol - davlat, yengil hayot ketidan quvadigan bola bo‘ldi. Tilavoldi Zemfirani uyiga olib kelganda Jayron bobo ruhan eziladi. U dardini hech kimga aytolmay xunob bo‘ladi. Bo‘lgan voqeani o‘g‘liga qanday aytishni o‘ylaydi. Jayron bobo Qulmirzaning ‘‘Chechajon siz bu yerda nima qilayapsiz’’ - degan so‘zlarini eshitib, adashmayotganligiga iqror bo‘ladi. Aynan mana shu sahna ko‘rinishida aktyor katta mahorat ko‘rsatgan.

‘‘Seni harom aralashtirib boqqanimni mana endi tushunib, yetdim. Qulmirzaga va boshqalarga sherik bo‘lgan paytlarim ham bor. Meni bunday qiynaganingdan ko‘ra bolaligingda o‘lib qo‘yaqolsang bo‘lmasmidi. Ket, ket onangni ham meni ham o‘ligimiz ko‘chada qolmas, el yurt bor tashlab qo‘ymaydi. Seni qarg‘amayman faqat meni sendek bolam yo‘q deb aytaman. Ket-ket’’ – deya qancha og‘ir bo‘lmasin o‘g‘lidan voz kechib, uyidan haydab yuboradi. Jayron boboga shuncha g‘am og‘ir bo‘lsada’’ Taqdir sinovi momosi peshonamizga shu yozilgan ekan’’. – deb kampirini yupatadi.

Shuni alohida aytish kerakki, Qo‘chqor Norqobilning ushbu mavzuni to‘laqonli ochib berishida, aynan o‘zining Afg‘on urushida qatnashgani o‘sha muhitni tasavvur qilib jonli va tabiiy tasvirlashiga ko‘mak bergan.

“Taqdir sinovlari” asari nafaqat halollik haqida, balki haqiqiy baxt nimada ekanini ko‘rsatadigan asardir. Muallif bu asari orqali tomoshabin va

kitobxonlarga bir necha mavzularni yetkazishni maqsad qilgan. Asarda yovuz insonlarning tubanligi, Butunvoy va Sora muhabbati orqali inson qalbidagi sof tuyg‘ulari hamda tog‘lardek mustahkam bardoshli Jayron boboning hayot yo‘lidagi sinovli kunlari qalamga olinadi.

‘‘Taqdir sinovlari’’spektakli ham shunchaki sahnalashtirilmagan. Unda xalqning dardi, alamlari o‘z aksini topgan. Asar badiiy, g‘oyaviy jihatdan teatr repertuaridan alohida o‘rin egalladi. Aktyor sahnada rol ijro etibgina qolmay, balki butun vujudi bilan yashashi kerak. Asarni sahnalashtirish tomoshabinlar orasida qiziqishni yanada oshirdi. Eng asosiysi spektakl qiziqarli, tomoshabinga ma’qul keldi.

Bugungi kunda teatr san’atining ahamiyati va mas’uliyati nihoyatda yuksakdir, chunki uning asosiy vazifasi yosh avlodni har tomonlama kamol topgan shaxs qilib tarbiyalashdan iborat[4, 3-b].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Qodirov M. Qodirova C. //Teatr. 2011. №4. -b 11
2. Qodirov M. Qodirova C. //Teatr. 2011. №4.-b 12
3. Qodirov M. O‘zbek teatri tarixi. T.: Ijod dunyosi, 2003. -240 - 3-b
4. Tursunov T. Sahna va zamon. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.415-33-b

ДРАМАЛЫҚ ШЫҒАРМАЛАРДА ҚАҲАРМАННЫҢ РУЎХЫЙ КЕШИРМЕЛЕРИН СӘЎЛЕЛЕНДИРИЎДЕ МОНОЛОГТЫҢТ РОЛИ (Қ.МӘТМУРАТОВТЫҢ БИР ҮЙДЕ ЕКИ ӨМИР ДРАМАСЫ МЫСАЛЫНДА)

Қадирниязова Наргиза Кеңесбай қызы
ҚМУ магистранты

Dramalıq shıǵarmalarda qaharman xarakterin úyreniw hám onıń ishki dúnyasın ashıp beriw ádebiyattanıwshılar ushın baha jetpes derek esaplanadı. Sebebi, dramaturg personajdıń psixologiyalıq jaǵdayın kórsetiwde basqa janrlarǵa qaraǵanda kóbirek kórkem qurallardan paydalanıwǵa májbúr boladı. Usınday kórkem qurallardıń eń tiykarǵısı hám nátiyjelisi – bul monolog bolıp esaplanadı. Qaharman xarakterin súwretlewde monologtıń xızmeti júdá úlken áhmiyetke iye, óytkeni ol personajdıń basqa adamlarǵa aytalmaytuǵın, ishki tolǵanısı hám haqıyqıy júzin kórsetedi. Belgili dramaturg kórsetken “Bir úyde eki ómir” draması da bul tárepten joqarı kórkemlikke iye shıǵarma esaplanadı. Usı maqalada dramadaǵı qaharmanlar xarakteriniń monologlar arqalı qanday ashılǵanlıǵı hám bul usıldıń dóretpeniń ulıwma ideyasına tásiri analiz etiledi.

Dramaturgiya teoriyasında monolog boyınsha túrkiy xalıqlar ádebiyatında I.Sultan, H.Abdusamatov, T.Boboevlardıń qaraqalpaq ádebiyatında T.Allanazarov, T.Bayandiev, B.Tursinov, Z.Bekbergenova, M.Palımbetova, R.Mátmuratovalardıń izertlewlerinde kóriwimizge boladı.

“Bir úyde eki ómir” dramasındaǵı obrazlardıń xarakteriniń ashılıwındaǵı dramaturgtıń sheberliklerin kórip shıǵamız hám de olardı mısallar menen analizleymiz.

Xámire. *Birewge pal berip, birewge záhár jalatqan ómir á! Xá-xá, Quday-á! Bul gáplerdi esittirip qoyǵansha, kózim menen qosıp, qulaǵımdı nege almadıń, ózimdi nege almadıń. Xá quday-á! (225-bet).*

Berilgen bul mısalda Xámire obrazınıń ishki tolǵanısları monolog arqalı ashıp beriledi. Onıń ruwxıy qıynalıwları, ókiniw hám ishki keshirmeleri berilgen. Personajdıń "Birewge pal berip, birewge záhár jalatqan ómir á!" degen gápi ómirdiń eki tárepleme – ashshı hám dushshı táreplerin ulıwmalastırıp aytıp ótedi. Bul jerde ómir metaforalıq tárizde súwretlenip, insan táǵdiri ayırım waqıtları baxıt, ayırım waqıtları qıyınshılıq alıp keliwleri súwretlengen.

Monolog dawamında personajdıń qudayǵa múráját etiwi (*Xá-xá, Quday-á!)* onıń ruwxıy túskinlikke túsiwi hám onnan járdem kútiwleri kórsetilgen. Bul múráját dramalıq shıǵarmalarda tez-tez ushırasatuǵın ekzistensial ishki konfliktti ańlatadı. Yaǵnıy personajdıń óz táǵdiri hám ómirindegi ádalatsızlıqlar menen gúresiwi haqqında.

Sonday-aq, monologta ritorikalıq sorawlar (*kózim menen qosıp, qulaǵımdı nege almadıń, ózimdi nege almadıń)* qollanılǵan. Bul sorawlar juwap talap etpeydi, bálkim personajdıń ishki qıynalıwların hám óz táǵdirinen nalınıw sezimleri kúsheytirilgen. Bunday monolog dramalıq shıǵarmalarda keskinlikti asırıp, obrazdıń psixologiyalıq jaǵdayın tereńirek ashıwǵa xızmet qıladı.

Usı monolog arqalı Xámire obrazınıń ruwxıy halatı, ishki qıynalıwları hám ómirdiń ádalatsızlıǵına bolǵan múnásebeti ashıp beriledi. Ritorikalıq sorawlar hám metaforalıq teńewler personajdıń psixologiyalıq halatın ele de tereńlestirip, dramalıq shıǵarmada obraz jaratıwdıń eń áhmiyetli quralı sıpatında xızmet qıladı.

Ulbosın. *Adam qartaysa aljıydı deytuǵın edi, yapırmay bala bulardiki aljıwdan da ótlesip ketken. Ne, ǵarrımısań, ǵarrı jayıńa otır dá! Násiyatta baslarıń qalǵırlar. Ele násiyatlarıńdı shaynatıp-shaynatıp baslarıńa jaqtırarman aw! (234-bet).*

Monologta Ulbosın kelin obrazı arqalı jas áwladtıń úlkenlerge bolǵan múnásebetleri ashıp beriledi. Personajdıń monologlarında pikirler arqalı kelinniń jas úlken insanlardıń násiyat hám tájiriybesine jeterli dárejede itibar bermesligi kórinedi. Monologdaǵı *"Násiyatta baslarıń qalǵırlar"* mazmunındaǵı gápler usı jaǵdaydı sáwlelendirip, jaslardıń úlkenler másláhátin tıńlamay, húrmetlemey, qulaq aspaytuǵın mashqalaların ashıp beredi.

Ulbosınnıń monologı arqalı dramalıq shıǵarmada áwladlar ortasındaǵı qarama-qarsılıq belgili boladı. Jas úlkenler ómirlik tájiriybe hám dástúriy qádiriyatlarǵa súyenip pikir bildirse, jas áwlad bul tájiriybeni hárdayımda tıńlay bermeydi. Sol tárepten, monolog generacion konflikttiń kórkem analizi sıpatında xızmet qıladı.

Monologta qollanılǵan emocional pikirler hám narazılıq mánilerin bildiriwshi gápler ("*yapırmay bala", "bulardiki aljıwdan da ótlesip ketken"*) personajdıń ishki narazılıǵı hám tańlanıwın kúsheytiredi. Bul birlikler arqalı kelinniń is-háreketleri bahalanadı hám avtor jaslardıń dástúriy qádiriyatlardan uzaqlasıp baratırǵanın kórsetedi.

Sonday-aq, monolog dramalıq shıǵarmalarda obraz xarakterin ashıw quralı sıpatında da áhmiyetke iye. Ulbosın kelin obrazı óziniń erkin kózqarasları menen ajıralıp turadı. Biraq onıń úlkenlerdiń násiyatına biypárwalıq penen qarawı, shıǵarmada anıq mashqala sıpatında kózge túsedi.

Demek, usı monolog arqalı Ulbosın kelin obrazınıń úlkenler másláhátine qulaq salmawı, sol menen birge, shıǵarmada áwladlar ortasındaǵı kózqaraslardıń bir-birine say kelmewi jarıtıladı. Monolog dramalıq shıǵarmada personaj xarakterin ashıw, jámiyetlik ortalıqtı kórsetiw hám generacion konflikttiń ańlatılıwı áhmiyetli kórkem qural sıpatında belgili boladı.

Juwmaqlap aytqanda, “Bir úyde eki ómir” draması mısalında qaharmanlar xarakterin súwretlewde monologtıń xızmeti ózine tán kórkemlik hám tásirsheńlik penen kórinedi. Monologlar shıǵarmadaǵı syujet rawajlanıwın támiyinlep ǵana qoymastan, qaharmanlardıń sociallıq hám psixologiyalıq portretin tolıq qáliplestiriwge xızmet etken. Personajlardıń ishki gápleri hám monologı bolmaǵan jalǵız qalıp oylanıwları arqalı júzege kelgen eki ómir reallıǵı dál usı monologlar járdeminde óz kórkem sheshimin tapqan. Demek, drama janrında personaj xarakteriniń reallıǵı hám psixologiyalıq tereńligi kóbinese monologlardıń durıs hám orınlı qollanılıwına tikkeley baylanıslı boladı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Бекбергенова З. Қарақалпақ романларында көркем сөз поэтикасы (1980-2010-жыллар). – Нөкис: Илим, 2016. – Б. 205.

2. Мәтмуратов Қ. Жаслар парўазы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1981. – 436 Б.

3. Палимбетова М. Ғәрезсизлик дәўири қарақалпақ драматургиясы. – Ташкент: Impress media, 2023. – Б. 120.

КЕҢЕСБАЙ РАХМАНОВТЫҢ ШЫҒАРМАЛАРЫНДА КОМЕДИЯЛЫҚ ОБРАЗЛАРДЫҢ ӨЗГЕШЕЛИГИ

Пирниязова Венера

ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы 1- курс магистраты

Драматургия - әдебият ҳәм театр көркем өнериниң тутасқан ноқатында көринетуғын, инсан турмысының ең қурамалы тәреплерин сәўлелендиретуғын жетекши тараўлардан бири. Онда турмыслық ўақыя-ҳәдийселер, социаллық қатнасықлар ҳәм шахстың ишки руўхый азаплары сахналық ҳәрекет ҳәм жанлы сөйлесиў қуралында бөрттирип көрсетиледи. Драматургияның тийкарғы мақсети тек ғана ҳақыйқатлықты көркем сәўлелендириў емес, ал тамашагөйди реал турмыс ҳақыйқатлықлары менен жүзбе-жүз көрсетиў, оны пикирлеўге ийтермелеў ҳәм театрдың үлкен тәрбиялық күши арқалы жәмийет руўхыйлығын қәлиплестириўден ибарат.

Ғәресизлик дәўриндеги қарақалпақ драматургиясы Қ. Айымбетов[1], Т.Алланазаров[2], Б. Турсинов[3], Р. Матмуратова[4], М. Палымбетова[5]

тәрепиннен табыслы изертленди. Қарақалпақ драматургиясында Кеңесбай Рахмановтың «Келин», «Ынжықтың мухаббаты», «Тоғыз тоңқылдақ бир шеңкилдек» пьесаларын алып қарайтуғын болсақ оның драмалық шығармалары тамашагөйди ҳәр тәреплеме тәрбиялаўда үлкен әҳмийетке ийе. К.Рахмановтың комедия жанрында жазылған көп ғана пьесалар сахна жүзинен елеге дейин туспей киятыр.

Комедия- драматургия жанрлардан бири болып, инсан өмриндеги күлгили ўақыя-ҳәдийселер, кемшиликлер ҳәм түрли ҳарактерлерди юмор ҳәм сатира арқалы сүўретлейди. Комедияның тийкарғы мақсети тамашагөйди күлдириў менен бирге, жамийеттеги айрым кемшилик ҳәм машқалаларды көрсетиўден ибарат. Онда қаҳраманлар арасындағы қызықлы жағдайлар, күтилмеген жағдайлар ҳәм ҳәзилкеш диологлар әҳмийетли орын ийелейди.

К. Рахмановтың дерлик көпшилик шығармалары үлкен сахна жүзин көрген, елеге дейин театр сахналарында жийе-жийе берилип киятырған дөретпелер сыпатында қарасақ болады. Оның көпшилик шығармалары комедиялық жанрда жазылғанлығы, ўақыялар халық турмысынан алынғанлығы ушында тамашагөйлер кеўлинен кең орын алып келмекте.

Қарақалпақ халқы әзелден ҳәзил-дәлкекти жақсы көретуғын, ушырма сөзлерди қосып айтқанды унататын халық болғанлықтан К.Рахмановтың пьесаларында да қарақалпақ халқының әйнен сол характери қахарманлары образларына жәмленеди. Мысал ретинде алып қарайтуғын болсақ, «Лаққылар емлеўханада» драмасында:

Нурмаш: Тихий часта датынышлық бермедиңлер-аў.

Даўен: Эй,жоражан-әй, бақшаның балларындай уйықлай береди екенсең. Түни менен қараўыллыққа турасаң ба?

Өмириңде бир рет кислота ишип больницаға түсе қойған екенсең, ойнап-күлип жатайық-тә!

Нурмаш: Күлсем, аўзымның ишиндеги жаралар аўырады-аў.

Даўен: Ийтке сары май жақпайды дегендей, пах қатырдың-аў! Күлки жақпайды екен деп, сени жылатып отырғандай шамамыз жоқ. Халың жеткенше күл, жараң аўыратуғын болса ыржый да жата бер. Бул жерде ҳешкимнен күлки план талап етип атырған жоқ…»

Бул көринис арқалы драматург ҳәр бир пьесасында ҳәзил сөзлерден келтирген.

К.Рахманов өз дөретиўшилиги ушын таңлаған тематикасын сондай шеберлик пенен жазған, оларда ўақыт бирлиги ҳәм ўақыялықты қамтыў мәселелерине үлкен итибар қаратады. Оның пьесаларында бир ўақыттың өзинде бир неше ўақыяларды жәмлеўге ҳәм оларды комедиялық усылда ашып бериўге ҳәрекет етиледи. Мәселен, «Ынжықтың мухаббаты» пьесасында ўақыя бир орында жүз береди. Бирақ конфликт, диалоглар жүдә шеберлик пенен байланыстырылған. Турмысымызда сондай натық, уялшақ, өжет инсанлар да ушрап турады. «Ынжықтың мухаббаты» драмасындағы Ғаррыбай образы арқалы

турмысымызда натық, уялшақ, өжет, бирақ кең пейил, кеўли таза, мийнеткеш адамлардың да жийе ушырасытуғынлығын комедиялық усылда көрсеткен. Бул пъесада жасы қырыққа шамаласқан, мухаббатқа исенбейтугын, ол ҳаққында ойлап та көрмеген Ғаррыбай образы суўретленген. Әкесиниң қыстаўы менен қызлар менен ушрасыўға илажсыздан шығады. Ғаррыбайға ҳеш бир қыз унамайды, биреўин семиз дейди, биреўин сақаў дейди, ақыры әкесин үйленбесликке көндирип үйине алып қайтады. Бырақ оны тағдир тосаттан ҳақыйқый «мухаббат»ы менен ушырастырады. Айшолпанға бир көриўден ашық болып қалады. Ғаррыбай бул жерде де уялшақлығынан пәнт жейди, бырақ мухаббаты жоқары келип бәрин жеңип шығады ҳәм Айшолпанға жүрегиндеги сезимлерин ашық айтады. Автор бул сюжет арқалы мухаббаттың күдретли күш екенлигин, мухаббатсыз өмир мазмунсыз екенлигин айтып өтпекши мениңше.

К. Рахмановтың драмалық шығармаларында ремаркалардан пайдаланыўда басқа драматурглерден айрылып турады оның оқып қарағанымызда жазыўшы қолланған көркем әмел ремарка жүдә көп орында ислетилмеген. Тек ўақыя болып өтетуғын орынды түсиндиргенде персонажлардың қыймыл-ҳәрекетлерин бергенде бул көркем әмелден пайдаланған. Мысалы, Бул драматургтың жетискенлиги. Себеби, драма сахна ушын қолайластырып жазылыўы керек болғанлықтан бул әмелди қоллана бериў драманың сахнада сәтсиз болыўына алып келеди.

К.Рахмановтың шығармаларын оқығанымызда яки телевединиеден тамашалағанымызда бул инсан тап сахна ушын, драматургия ушын туўылған екен деп ойлаймыз. Драматургтың шығармалары драмтургиядағы пролог, экспозиция, шийеленисиў, кульминация ҳәм шешим сыяқлы көркемлик талапларына толығы менен жуўап береди. Автор ремаркасы китап оқыўшыларына түсиникли болыўы ушын драма тексти арқалы бериледи. «Автор тили, бириншиден, шығармадағы ўақыяларды, бөлим ҳәм бөлимлерди бир-бирине байланыстырып, сайкес «организимди» жүзеге келтиреди, екиншиден, шығармадағы образлар ҳәм ўақыяларды баянлаўға, оларға өз мүнәсабетин билдириўге хызмет етеди…» [39] Автордың түсиндирме сөзи ямаса автор ремаркасы-ўақыя болып өтетуғын орынды, персонажларды олардың кәсип-кәрин, ҳалатларын түсиндирип бериўде қолланылады.

Жуўмақлап айтқанда комедия жанры тамашагөйди тек күлдирип ғана қоймастан, ал оларды пикирлеўге, турмысқа сын көз-қарастан қараўға да ийтермелейди. Соның ушын комедия театр көркем- өнериниң әҳмийетли ҳәм тәсиршең жанрларынан бири есапланады. Драматург театр өнериниң әҳмийетли дөретиўшиси. Ол сахна шығармалары арқалы инсан өмири, жәмийеттеги машқалаларды ҳәм турмысымыздағы ҳәр

39 БобоевТ.Адабиётшунослик асослари.- Т.: Ўзбекистон, 2002.-Б.165.

түрли ҳарактердиги инсанларды көркем образлар менен көрсетип береди.

Жаксы драматург өз шығармаларында заманың әҳмийетли болған мәселлерин саҳна тили менен жазып тамашагөйлерди ойлаўға, жуўмақ шығарыўға рухый азық алыўына шақырады. Сонлықтан да, драматургия инсан мәденияты раўажланыўда ҳәм оның сана-сезимине тәсир етиў арқалы тарбиялаўда үлкен әҳмийетке ийе.

ПАЙДАЛАНЫЛҒАН ӘДЕБИЯТЛАР

1. Алланазаров Т. Театр ҳәм драматургия. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1982. – 128 б.
2. Айымбетов Қ. Қарақалпақ совет драматургиясы тарыйхының очерклери. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1963. – 192 б.
3. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б. 165.
4. Матмуратова Р. Қарақалпақ драматургиясында комедия жанрының қәлиплесиўи ҳәм раўажланыўы эволюциясы: Филол. фан. фалс. док. … (PhD) дис. – Нукус, 2022. – 145 б.
5. Палымбетова М.Ж. Ғәресизлик дәўири драматургиясы. – Ташкент, 2023. – 160 б.
6. Турсинов Б. Драматургия ҳәм театрымыздың мәселелери. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1988. – 112 б.

Архив материаллары:

7. Бердақ атындағы Қарақалпақ мәмлекетлик академиялық музыкалы театр архиви, «Лақыллар емлеўханада» спектаклиниң сақланыў ҳүжжетлери.
8. Бердақ атындағы Қарақалпақ мәмлекетлик академиялық музыкалы театр архиви, «Ынжықтың мухаббаты» спектаклиниң сақланыў ҳүжжетлери.

TEATR SAN’ATI ORQALI YOSHLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH

Maratov Baxıt Azatbay o‘g‘li
O‘zDSMI Nukus filiali talabasi
Qazaqbaeva Ramuza Perdebaevna
Ilmiy rahbar: O‘zDSMI Nukus filaili o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada teatr san’ati orqali yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Teatrning tarbiyaviy, estetik va ijtimoiy funksiyalari asosida yoshlar ongida faollik, tashabbuskorlik va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish mexanizmlari ochib beriladi. Shuningdek, teatr pedagogikasi va amaliy faoliyat misolida yoshlarning jamiyatdagi o‘rni mustahkamlash yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: teatr san’ati, yoshlar, ijtimoiy faollik, kreativlik, tanqidiy fikrlash, dramaturgiya, sahna, madaniyat.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматриваются вопросы повышения социальной активности молодежи средствами театрального искусства. Анализируются воспитательные, эстетические и социальные функции театра, а также механизмы формирования у молодежи активной гражданской позиции. Особое внимание уделено театральной педагогике и практическим аспектам вовлечения молодежи в культурную деятельность.

Ключевые слова: театральное искусство, молодежь, социальная активность, креативность, критическое мышление, драматургия, сцена, культура.

ABSTRACT: This article examines the role of theatrical art in enhancing youth social activity. It analyzes the educational, aesthetic, and social functions of theater and explores mechanisms for developing active citizenship among young people. Special attention is given to theater pedagogy and practical approaches to engaging youth in cultural processes.

Keywords: theater art, youth, social activity, creativity, critical thinking, dramaturgy, stage, culture.

Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Madaniyat va san’at, xususan teatr san’ati bu borada muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Teatr inson ruhiyatiga bevosita ta’sir etuvchi san’at turi bo‘lib, unda jamiyatdagi muammolar, ijtimoiy jarayonlar va insoniy qadriyatlar aks ettiriladi.

Teatr orqali yoshlar nafaqat estetik zavq oladi, balki jamiyatdagi o‘z o‘rnini anglaydi, muammolarga nisbatan tanqidiy munosabat bildiradi va faol hayotiy pozitsiyani shakllantiradi.

Teatr san’ati yoshlarni tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi. U insonda empatiya, muloqot madaniyati va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantiradi. Sahnadagi obrazlar orqali yoshlar hayotiy vaziyatlarni anglab yetadi va ularga nisbatan o‘z munosabatini bildiradi [Stanislavskiy K., 78-b.].

Teatr faoliyati yoshlarni jamoaviy ishlashga, fikr almashishga va tashabbus ko‘rsatishga o‘rgatadi. Ayniqsa, drama to‘garaklari va teatr studiyalari yoshlarning ijtimoiy hayotga faol jalb etilishida muhim rol o‘ynaydi [Boal A., 112-b.].

Zamonaviy teatr pedagogikasida interfaol metodlar – improvizatsiya, rolli o‘yinlar, sahna mashqlari keng qo‘llanilmoqda. Bu usullar yoshlarning kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi hamda ularni ijtimoiy jihatdan faol shaxs sifatida shakllantiradi [Brook P., 56-b.].

Ijtimoiy teatr loyihalari orqali yoshlar dolzarb muammolarni sahnada aks ettirib, jamiyatga o‘z fikrini yetkazadi. Bu esa ularning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlaydi va ijtimoiy faolligini oshiradi [Grotowski J., 90-b.].

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, teatr san’ati yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda samarali vosita hisoblanadi. Teatr orqali yoshlar:

- jamiyat muammolariga befarq boʻlmaslikni oʻrganadi;
- mustaqil va tanqidiy fikrlash koʻnikmalarini rivojlantiradi;
- jamoada ishlash va liderlik qobiliyatlarini shakllantiradi;
- madaniy va ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etadi.

Natijada teatr bilan shugʻullangan yoshlar ijtimoiy hayotda faol, tashabbuskor va mas’uliyatli shaxslar sifatida shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, teatr san’ati yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda koʻp qirrali va samarali vosita sifatida namoyon boʻladi. U nafaqat estetik tarbiya beruvchi san’at turi, balki yoshlarning ijtimoiy ongini shakllantiruvchi, ularni jamiyat hayotiga faol jalb etuvchi muhim ijtimoiy institut hamdir. Teatr orqali yoshlar jamiyatda yuz berayotgan jarayonlarni chuqurroq anglaydi, turli ijtimoiy muammolarga befarq boʻlmaslikni oʻrganadi hamda ularga nisbatan oʻzining mustaqil va asoslangan munosabatini bildirishga intiladi.

Shuningdek, teatr san’ati yoshlarning tanqidiy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirib, ularni muammoli vaziyatlarda samarali qaror qabul qilishga yoʻnaltiradi. Sahna jarayonida yuzaga keladigan ijodiy muhit, jamoaviy ish faoliyati va rolli oʻyinlar yoshlarning muloqot madaniyatini oshiradi, liderlik sifatlarini shakllantiradi va ularni ijtimoiy jihatdan faol shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, teatr faoliyati yoshlarning oʻzini ifoda etish imkoniyatlarini kengaytiradi, ularning ichki salohiyatini yuzaga chiqaradi va oʻziga boʻlgan ishonchini mustahkamlaydi. Ayniqsa, ijtimoiy yoʻnaltirilgan teatr loyihalari yoshlarni jamiyatdagi dolzarb muammolar yechimiga bevosita jalb etib, ularning fuqarolik pozitsiyasini kuchaytiradi.

Zamonaviy sharoitda teatr san’atini ta’lim tizimi bilan integratsiya qilish, teatr studiyalari va ijodiy toʻgaraklar faoliyatini kengaytirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali yoshlarning ijtimoiy faolligini yanada oshirish mumkin. Shu bois, madaniyat va san’at siyosatida teatrning tarbiyaviy va ijtimoiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, teatr san’ati yoshlarni har tomonlama rivojlantiruvchi, ularni faol, ongli va mas’uliyatli fuqaro sifatida shakllantiruvchi muhim omil boʻlib, jamiyat taraqqiyotining barqarorligini ta’minlashda oʻziga xos oʻrin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Stanislavskiy K.S. *Aktyorning oʻz ustida ishlashi*. – Moskva, 1989.
2. Boal A. *Theatre of the Oppressed*. – London, 2000.
3. Brook P. *The Empty Space*. – New York, 1996.
4. Grotowski J. *Towards a Poor Theatre*. – London, 1968.

V- SHO‘BA. ZAMONAVIY AUDIOVIZUAL SAN’ATI: KINO, TELEVIDENIYE VA RADIO SOHASIDAGI YANGI TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSIYALAR

==========

ЎЗБЕК КИНЕМАТОГРАФИЯСИДА ФИЛЬМПОРТРЕТ ЖАНРИНИНГ УРНИ ВА МИЛЛИЙ ТАЛҚИН ШАКЛЛАРИ

Гавхар Назарова
ЎзДМСИ доценти (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada ilmiy-ommabop hujjatli filmlarning zamonaviy audiovizual madaniyatdagi o‘rni, ularning ilmiy kinoshunoslik nuqtayi nazaridan estetik va funksional xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, hujjatli kinoda vizual realizm, narrativ struktura, dramatizatsiya va ilmiy axborotni ommalashtirish masalalari yoritilgan. Maqolada 2022-yil Toshkent xalqaro kino festivalida namoyish etilgan “O‘zbekiston madaniy merosi Italiya to‘plamlarida” nomli ilmiy-ommabop hujjatli filmi misolida milliy madaniy merosning xalqaro miqyosdagi targ‘iboti, tarixiy eksponatlarning ilmiy asosda tadqiq etilishi hamda filmning badiiy-estetik jihatlari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy-ommabop film, hujjatli kino, ilmiy kinoshunoslik, vizual realizm, madaniy meros, audiovizual san’at, hujjatli film festivallari, o‘zbek kinosi.

Аннотация: В данной статье анализируются роль научно-популярных документальных фильмов в современной аудиовизуальной культуре, а также их эстетические и функциональные особенности с точки зрения киноведения. Рассматриваются вопросы визуального реализма, нарративной структуры, драматизации и популяризации научной информации в документальном кино. Особое внимание уделено научно-популярному документальному фильму «Культурное наследие Узбекистана в коллекциях Италии», представленному на Ташкентском международном кинофестивале 2022 года. В статье исследуются вопросы популяризации национального культурного наследия на международном уровне, научного изучения исторических экспонатов, а также художественно-эстетические особенности фильма.

Ключевые слова: научно-популярный фильм, документальное кино, киноведение, визуальный реализм, культурное наследие, аудиовизуальное искусство, фестивали документального кино, узбекский кинематограф.

Abstract: This article analyzes the role of popular science documentary films in modern audiovisual culture and examines their aesthetic and functional features from the perspective of film studies. The paper discusses issues such as visual realism, narrative structure, dramatization, and the popularization of scientific knowledge in documentary cinema. Particular attention is paid to the

popular science documentary film “Cultural Heritage of Uzbekistan in Italian Collections,” presented at the 2022 Tashkent International Film Festival. The article explores the international promotion of Uzbekistan’s cultural heritage, the scientific study of historical artifacts, and the artistic and aesthetic aspects of the film.

Keywords: popular science film, documentary cinema, film studies, visual realism, cultural heritage, audiovisual art, documentary film festivals, Uzbek cinema.

Ilmiy-ommabop hujjatli filmlar zamonaviy audiovizual madaniyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular ilm-fan yutuqlarini keng auditoriyaga tushunarli va qiziqarli shaklda yetkazish vazifasini bajaradi. Bunday filmlar nafaqat axborot beruvchi vosita, balki estetik va madaniy hodisa sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ilmiy-ommabop hujjatli filmlarni ilmiy kinoshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ilmiy-ommabop hujjatli kino ilmiy ma’lumotlarni vizual vositalar yordamida ommaga taqdim etishga asoslanadi. Ushbu janrda ilmiy faktlar dramatik syujet, intervyular, arxiv materiallari, animatsiyalar va tabiiy tasvirlar orqali ifodalanadi. Natijada murakkab ilmiy tushunchalar tomoshabinga sodda va ta’sirchan shaklda yetkaziladi. Hujjatli kino nazariyotchisi Bill Nichols hujjatli filmlarni bir necha turga ajratgan bo‘lib, ilmiy-ommabop filmlar asosan izohlovchi uslubga mansub sanaladi. Bu uslubda muallif ovozi yoki sharhlovchi matn asosiy tushuntiruvchi vosita vazifasini bajaradi.

Zamonaviy ilmiy hujjatli filmlarning asosiy xususiyatlaridan biri vizual realizmdir. Kamera orqali tabiat, kosmos yoki biologik jarayonlarning real tasvirlari berilishi tomoshabinda ishonch hissini uyg‘otadi. Masalan, Planet Earth yoki Blue Planet II kabi filmlarda yuqori sifatli tasvir texnologiyalari yordamida tabiat dunyosining ilgari ko‘rinmagan jihatlari namoyish etiladi. Bu esa ilmiy kuzatuvni estetik zavq bilan uyg‘unlashtiradi.

Ilmiy hujjatli filmlarda montaj va dramatizatsiya ham muhim o‘rin tutadi. Kadrlarning ketma-ketligi ilmiy hodisalar o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘liqligini ochib beradi. Shu bilan birga, musiqa, ritm va hissiy ta’sir vositalari tomoshabinning diqqatini saqlashga xizmat qiladi. Ayniqsa kosmos, ekologiya yoki tarixga oid filmlarda dramatik usullar ilmiy ma’lumotning ta’sirchanligini oshiradi.

Bunday filmlar odatda muayyan narrativ struktura asosida quriladi. Dastlab muammo yoki savol qo‘yiladi, keyin ilmiy izlanish jarayoni ko‘rsatiladi va yakunda xulosa beriladi. Bu usul tomoshabinning qiziqishini doimiy ravishda ushlab turishga yordam beradi. David Attenborough ishtirokidagi ilmiy filmlar aynan shu jihati bilan mashhur bo‘lib, unda ilmiy hikoyachilik va emotsional ta’sir bir-biri bilan uyg‘unlashadi.

Ilmiy-ommabop hujjatli filmlar jamiyatda ilmiy savodxonlikni oshirishda ham katta rol o‘ynaydi. Ular ekologik muammolar, global isish, biologik xilma-

xillik yoki texnologik taraqqiyot haqida keng jamoatchilikni xabardor qiladi. Masalan, An Inconvenient Truth filmi iqlim o‘zgarishi muammosiga jahon miqyosida e’tibor qaratilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Shu bilan birga, ilmiy hujjatli filmlar mutlaq neytral media mahsuloti emas. Har bir film muallifning dunyoqarashi, estetik qarashlari va ideologik pozitsiyasini ham aks ettiradi. Masalan, ayrim filmlar texnologik taraqqiyotni ijobiy kuch sifatida ko‘rsatsa, boshqalari ekologik xavf yoki insoniyatning tabiatga salbiy ta’sirini tanqid qiladi. Shu bois ilmiy kinoshunoslik bunday filmlarni nafaqat axborot manbai, balki madaniy va ideologik matn sifatida ham tahlil qiladi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar rivojlanishi ilmiy hujjatli kino taraqqiyotiga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Netflix, BBC Earth va National Geographic kabi platformalar orqali ilmiy filmlar global auditoriyaga tez va qulay tarzda yetib bormoqda. CGI, 3D grafika va virtual reallik texnologiyalari esa ilmiy mavzularni yanada jonli va interaktiv shaklda namoyish etishga xizmat qilmoqda.

2022-yil Toshkent xalqaro kino festivalida ishtirok etgan “O‘zbekiston madaniy merosi Italiya to‘plam” filmi muallif-rejissyor Sh.G‘aniyeva, rejissyor N.Xachaturyan tomonidan suratga olingan. Film O‘zbekistonning qadimiy madaniy merosi namunalarining Italiyaning bir necha muzeylari, ilmiy markazlarida saqlanishi va o‘rganilishi, turli tadqiqotchi olimlar va san’atshunoslar tomonidan keltirilgan sharhlar bilan isbotlangan. Film rejissyori Sh.G‘aniyeva, N.Xachaturyan. Ilk kadrlar barcha uchun yoqimli va jahon klassikasiga aylangan italiya milliy musiqalari sadosi ostida boshlanadi, bu hujjatli filmning yanada qiziqarli va tomoshabopligini uning temporitmini oshiradi.

Italiyada San’at muzeylari, cherkovlar, ochiq osmon ostidagi muzey hisoblangan. XV asrga tegishli o‘zbek madaniy merosi hisoblangan shoyi, atlas va bir qancha milliy kiyim, uy jihozlari anjomlari, tarixiy qo‘lyozmalar saqlanadi. Xususan, XIII asrda Abu Ali Ibn Sinoning “Tib qonunlari” kitobi Gerard Klimonskiy tomonidan lotin tiliga tarjima qilinib, “Bibliya”dan keyingi eng ko‘p chop etilgan kitob hisoblanadi. Bu haqda Dante o‘zining “Ilohiy komediya” kitobida Leonardo Da Vinchi o‘zining “Anatomiya qoidalari” kitobida qayt etib o‘tgan. Bundan tashqari O‘zbekistonning ilk manzillari, Xiva, Urganch haqida sayohatchi olim Marko Poloning kundaliklarida ham keltirilgan. “Култорное наследие в Узбекистана собраниях Италии” nomli kitob bir necha san’atshunos, tarixchi olim va professorlar tomonidan tuzilgan bo‘lib hujjatli filmdagi deyarli barcha dalillar aynan shu kitobdan olingan. Mualliflari madaniy aloqalar bo‘yicha ekspert, Turindagi Sharq xalqlari san’ati muzeyining islom san’ati masalalari bo‘yicha maslaxatchisi Sherif el Sabaye filmda juda ko‘p aniq faktologik ma’lumotlarni keltirgan.

Italiyadagi Juzeppe Tuchchi nomidagi Sharq xalqlari milliy muzeyida XIX asrning ikkinchi yarmiga oid kashtado‘zlik namunasi bo‘lgan ikkita so‘zana saqlanmoqda. Bu so‘zanalar kelinning oilasi tomonidan uning sepi sifatida

tayyorlagan. Muzeyning o‘zbek kolleksiyasida Somoniylar davrining Transoksiana yoki Nishopur markazlariga (Eronning shimoli-sharqida) tegishli bo‘lgan angoba bilan bo‘yalgan ajoyib kulolchilik namunalari ham taqdim etilgan. Bu yerdagi O‘zbekiston zargarlik buyumlari to‘plami tillaqosh diademasi kabi etnik zargarlik buyumlarining bir nechta namunalari bilan ham ifodalanadi. Bu yerda 2000 dan ortiq sharqqa tegishli bo‘lgan eksponantlar saqlanadi.

Milandagi 2015-yilda ochilgan sharq bilan bog‘lovchi muzeyda milliy gilamlardan tortib, ayollar choponlari, Buxoro shoyi materiallarning naqshlari va undagi gullar tasviri, ma’nosi va uning qanday saqlanishi haqida San’atshunos-Anna Antonina batafsil ma’lumot bergan. Bundan tashqari Italiyaning bir qancha muzeylarida saqlanadigan XVII asrga tegishli eksponantlar adras, atlas, shoyi matolarning kolleksionerlari va uning tarixi, tarkibi haqida film boshlovchisi suhbati asosida ochiqlab bergan. Hujjatli filmda kadr orti sharhlovchisi har bir epizodni ta’riflab, uning tarixiy asoslarini musiqa temporitmi asosida hamoxang so‘zlashi uning badiiy ta’sirchanligini yanada oshirgan. Italiya va O‘zbekiston tasvirlari operatorlik mahorati bilan yuqori darajada tasvirlangan. San’atshunos jurnalist, xalqaro bir necha mukofotlar sovrindori Sh.G‘aniyeva tomonidan har bir detalni qisqa va lo‘nda tahlil qilinishi, uning kuchli ilmiy salohiyat egasi, jurnalistik mahoratidan dalolat beradi. Film to‘la ilmiy tadqiqotlarga asoslanganligi bilan ham o‘z dolzarbligiga ega. Aynan ushbu ilmiy-ommabop film keyingi hujjatli filmlar uchun namuna sifatida safini kengaytirsa ajab emas.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ilmiy-ommabop hujjatli filmlar ilm-fan va ommaviy madaniyat o‘rtasidagi muhim kommunikatsion ko‘prikdir. Ular ilmiy bilimlarni ommalashtirish bilan birga, estetik tafakkur, ijtimoiy ong va madaniy qarashlarning shakllanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan ilmiy hujjatli kino zamonaviy media makonining eng muhim va ta’sirchan janrlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda o‘zbek kinematografiyasida turli uslublar qorishuvi kuzatilib, yangi shakllardagi badiiy ifodalar, dramatik uslubdagi yechimlar, tomoshabinni o‘ziga jalb qiluvchi badiiy vositalar masalasiga jiddiy e’tibor qaratilyapti. Bu hol albatta hujjatli kino yo‘nalishida ham yangi bir bosqichning boshlanishiga turtki bo‘ldi deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Маслова Т.Я. Сценарное мастерство. Драматургия документального фильма. -Кемерово: КемГУКИ, 2010. 96-стр.

2. Бабаев Б. http://www.kultura.uz/2020/05/15

3. A.Hamroyev bilan bo‘lgan suhbatdan. 13.03.2021.

4. Muhammedov M., Fayziyeva F. Kinoteleradio asarlari talqini va tahlili. - T.: 2015, 36-b.

5. Nazarova G. R. THE SIGNIFICANCE AND VALUE OF PORTRAIT FILMMAKING TODAY //Art and Design: Social Science. – 2023. – T. 3. – №. 04.

6. Muftizade, G. A. (2020). INTERPRETATION OF WORLD DRAMATIC ART IN UZBEK THEATRE. Theoretical & Applied Science, (11), 555-559.

7. Nazarova, G. (2023). NEW EXPERIENCES IN CREATING ARTISTIC-PUBLICIST FILMS. Social science and innovation, 1(4), 66-71.

КИНО ТЕЛЕВИДЕНИЕ СОХАСИНИНГ РИВОЖИ

Реймбоев Давронбек Қурбанбаевич
ЎзДМСИ доценти

Annotatsiya - Ushbu maqolada kino kino va televideniye sohasining, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy texnolgiyalar ta’sirida takomillashuvi haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek kino va televideniyaning jamiyat hayotidagi o‘rni va ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati haqida ham fikrlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: kino, televideniya, texnologiya, tomosha, san’at, ekran san’ati, kinomatograf.

Abstract - This article discusses the stages of development of the film and television industry and its improvement under the influence of modern technologies. It also discusses the role of film and television in society and their spiritual and educational significance.

Keywords: film, television, technology, spectacle, art, screen art, cinematography

Аннотация - В данной статье рассматриваются этапы развития кино- и телеиндустрии и ее совершенствование под влиянием современных технологий. Также обсуждается роль кино и телевидения в обществе и их духовное и образовательное значение.

Ключевые слова: кино, телевидение, технологии, зрелище, искусство, экранное искусство, кинематография

Kino san’ati — kinomatografiyaning texnik vositalar asosida shakllangan badiiy ijod turi, ekran san’atining muhim tarkibiy qismi, real borliqni aynan yoki badiiy hujjatli obrazlar, multiplikatsiya vositalari yordamida suratga olish, kinofilmlarning omma orasida keng tarqalishi uchun xizmat qiladigan televideniye, videokasseta va videodisklarni ham o‘z ichiga oladi. Kino san’ati kinematograf bilan bir vaqtda paydo bo‘ldi. Kinomatograf esa fan va texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq holda yuzaga keldi va asta-sekin zamonaviy iqtisod, san’at va madaniyatning eng zarur sohasiga aylandi.

Kino va televideniya insoniyat hayotida muhim o‘rin egallovchi ommaviy axborot va san’at vositalaridan biridir. Texnologiyalar taraqqiyoti natijasida kino va televideniya sohasi yildan-yilga takomillashib, zamonaviy ko‘rinishga ega bo‘lib bormoqda. Kino insonlarning dunyoqarashini kengaytiradi, turli xalqlarning madaniyati va tarixini namoyon etadi. Kino 1895-yil 28-dekabrda Parijda (ixtirochilar aka-uka O. va L. Lyumyerlar) yuzaga kelgan. Uning yuzaga kelishi, o‘z navbatida, insoniyatning badiiy madaniyati tarixida obyektiv qonuniyat bosqichi bo‘ldi. Kinoda adabiyot, teatr, tasviriy san’at va musiqa tajribalari, uning estetik jihatlari uyg‘unlashtirilib, o‘ziga

singdirilgan holda voqelik o‘ziga xos ifoda vositalarida fotografik tasvir orqali ko‘rsatiladi. Kino san’atining ommani ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatdan tarbiyalashda, kishilar ongi, fikr va qarashlari, estetik did va his-tuyg‘ulari, umuman, ma’naviy dunyosining shakllanishida g‘oyaviy-badiiy ta’siri kuchlidir. Kino san’atining qaror topishida amerikalik kinorejissyor D. Griffitnit xizmatlari katta. Birinchi bo‘lib, u yirik plan, parallel montaj, kengaytirilgan panorama kabi ifodali vositalarni qo‘llagan. Shuningdek, S. Eyzenshteyn, Ch. Chaplin, E. Shtrogeym, K.Dreyer, K. Vidor, R. Kler kabilar ham jahon kinosi rivojiga munosib hissa qo‘shdilar. Bugungi kunda kino va televideniya sohasi ijtimoiy tarmoq bilan chambarchast bog‘liq holda rivojlanmoqda. Endilikda insonlar filmlar va teleko‘rsatuvlarni nafaqat televizor , balki telefon , planshet va kompyuter orqali ham tomosha qilmoqda. Bu esa axborot olish va madaniy hordiq chiqarish imkoniyatlarini yanada oshirmoqda. Inson kino tomosha qilib ajoyib hissiyotlarga ega bo’lishi mumkin. Kino bu siz tomosha qilib madaniy hordiq oladigan san’atdir. Ba’zida filmlar sizning qiziqishingizni, orzularingizni, kasbingizni ham tanlashda turtki bo’lishi mumkin. **[1.802-b].**

O‘zbekistonda mustaqillikdan keyin kino va televideniya sohasiga katta e’tibor berildi. Milliy filmlar, tarixiy kinolar va seriallar soni oshdi. So‘nggi yillarda zamonaviy kinostudiyalar tashkil etilib, yosh rejissyor va aktyorlar qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Xulosa qilib aytganda , kino va televideniya jamiyatning ma’naviy va madaniy rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajakda texnologiyalar yanada rivojlanishi bilan bu soha yangi bosqichga ko‘tarilishi va insonlar hayotining ajralmas qismiga aylanishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. KINO SOHASINING JAMIYATGA TASIRI SOTSIOLOGIK TAHLILI- Ashurov Elshodbek. Toshkent. 2017.

2. REJISSURA darslik -M.MAHAMMEDOV, M.KARABAYEV, N.KASIMOVA, F.FAYZIYEVA.- Toshkent. – 2020

3. Ahmetjanova M. O‘zbek teleseriallarida mavzu va badiiy talqin muammolari // “O‘zbekiston kino san'atining ijtimoiy funksiyalari va poetikasi” O‘zRFA San'atshunoslik instituti ilmiy maqolalar to‘plami. T.: “Fan” nashriyoti, 2023.

4. M.Mahametov, F.Fayzieva, V.Ablyaeva. “Televidenie asoslari”. Toshkent 2007.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА КИНО САНЪАТИ ВА САНОАТИ ЮКСАЛИШИ

Заретдинов Караматдин
ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы доценти

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek milliy kinematografiyasining shakllanish tarixi va bugungi kundagi rivojlanish tendensiyalari yoritilgan. Kinoda an’anaviy yondashuvlar, milliy qadriyatlar va tarixiy voqealarning ifodalanishi tahlil qilinib, so‘nggi yillardagi raqamli texnologiyalar hamda jahon kino bozoriga integratsiyalashuv jarayonlari keltirib chiqargan innovatsion o‘zgarishlarga alohida e’tibor qaratilgan.

Аннотация: В данной статье освещаются история формирования узбекского национального кинематографа и современные тенденции его развития. Анализируются традиционные подходы в кино, отражение национальных ценностей и исторических событий, а также особое внимание уделяется инновационным изменениям, вызванным цифровыми технологиями последних лет и процессами интеграции в мировой кинорынок.

Abstract: This article highlights the history of the formation of Uzbek national cinematography and its current development trends. It analyzes traditional cinematic approaches, the expression of national values, and historical events, paying special attention to the innovative changes brought about by recent digital technologies and the processes of integration into the global film market.

Bugungi shiddatli raqamli texnologiyalar va globallashuv asrida kino san’ati o‘zining an’anaviy ildizlariga tayangan holda mutlaqo yangi rivojlanish bosqichiga qadam qo‘ydi. Jahon kinosanoatida sodir bo‘layotgan innovatsion jarayonlar fonida milliy kinematografiyaning o‘rni va rolini belgilash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Kino nafaqat jamiyatdagi turli ijtimoiy va ma’naviy jarayonlarni yorituvchi ko‘zgu balki tomoshabinga zamonaviy texnologik yechimlar va chuqur milliy qadriyatlar uyg‘unligini taqdim etuvchi ijodiy maydondir.

O‘zbekistonda birinchi film 1897-yilda "Eski Juva" maydonida namoyish etilgan. 1908-yildan boshlab Toshkent, Samarqand, Qo‘qon va boshqa shaharlarda xorijiy filmlar namoyish etila boshlangan. O‘rta Osiyoda namoyish etilgan filmlar asosan Sharq ekzotikasini tasvirlovchi Amerika va Fransiya filmlaridan iborat bo‘lgan. O‘zbek milliy kino san’ati 1920-yillarda vujudga keldi; birinchi o‘zbek kinotasvirchisi Xudoybergan Devonov o‘zining ilk hujjatli-xronika filmlarida o‘zbek xalqining hayoti, an’analari va manzaralarini aks ettirishga intildi.

O‘zbek kinosida yoshlar o‘rtasida davr talablariga nisbatan yangicha qarash shakllandi, ular eski qolip va tasavvurlardan uzoqlashdilar, dunyoga poetik nigoh bilan qarash imkoniyatlari paydo bo‘ldi. Shu bilan birga, hayot

faqat muhabbat, quvonch, qahvaxonalarda raqsga tushish va chiroyli kiyinishdan iborat deb biladigan shahar yigit-qizlari uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan filmlar ham o‘zbek ekran san’atiga yangi sahifa bo‘lib kirdi. Bu, ayniqsa, rejissyor E. Eshmuhamedov ijodida yorqin namoyon bo‘ldi ("Nafosat" (1966), "Sevishganlar" (1969) va boshqalar). "Maftuningman" (1958, Y. A’zamov), "Sen yetim emassan," "Qalbingda quyosh," "Toshkent - non shahri" (1960, 1962, 1966, 1967, rejissyor Sh. Abbosov), "Sinchalak," "Ulug‘bek yulduzi," "Natashaxonim" (1961, 1965, 1966, rejissyor L. Fayziyev) kabi asarlar shular jumlasidandir.

Hozirgi O‘zbekiston hududida birinchi ommaviy kino namoyishi 1897-yilda Toshkentda bo‘lib o‘tdi. Xudoybergan Devonov (1879-1940) o‘zbek kinosining asoschisi hisoblanadi. Devonov Xorazmning tarixiy diqqatga sazovor joylari: minoralar, masjidlar va boshqa yodgorliklarni suratga olib, ekranda namoyish etgan 1908-yil o‘zbek kinosining tug‘ilgan yili hisoblanadi. 1925-yilda u "Buxkino" bilan hamkorlikda "O‘lim minorasi"ni suratga oldi. O‘sha yili "Sharq yulduzi" kinostudiyasi tashkil etildi va keyinchalik u 1958-yilda "O‘zbekfilm" deb qayta nomlandi. 1972-yilda "O‘zbekiston kino san’ati muzeyi" tashkil etildi; 1970-1980-yillarda Sh. R. Rashidovning qo‘llab-quvvatlashi bilan uchta yirik tarixiy serial suratga olindi: Odil Yoqubov asari asosida "Ulug‘bek xazinasi," Oybek romani asosida 10 qismli "Alisher Navoiy" videofilmi hamda Komil Yashinning 17 qismli romani asosida "Olovli yo‘llar."

Zamonaviy kino jarayonining o‘ziga xos xususiyati o‘zbek filmlari namoyish etiladigan kinoteatrlarga tashrif buyuradigan yoshlarning katta auditoriyasi shakllanganligidir. Bu bosqichda bir nechta filmlar kinofestivallarda ishtirok eta boshladi: "Yo‘l bo‘lsin" (2006, rejissyor Tamara Kamalova), "Vatan," "Chashma," "Yurt," "Osmondagi yigitlar," "Xotira," "Sog‘inch sohili" va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2021 yil aprel oyida imzolangan "Kino san’ati va kino sanoatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish hamda sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi farmon islohotlarni boshlashga zamin yaratdi. Farmonga muvofiq, "O‘zbekkino" milliy agentligi O‘zbekiston Kinematografiya agentligi etib qayta nomlandi. Hududida yozgi kinoteatrni o‘z ichiga olgan Kinochilar uyi qayta qurildi. Bundan tashqari, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi Xalqaro kinofestivalining vorisi sifatida har yili o‘tkaziladigan "Ipak yo‘li durdonasi" Toshkent xalqaro kinofestivali tashkil etildi.

24 yillik tanaffusdan so‘ng, ushbu festival ilk bor 2021 yil kuzida Toshkentdagi qayta qurilgan Kinochilar uyida bo‘lib o‘tdi. 2021-yilda Toshkentda BDKI (VGIK) ning birinchi xorijiy filiali ochildi. Timur Bekmambetov bilan hamkorlikda Toshkentda animatsion filmlar maktab-studiyasi ochildi, uning o‘quvchilari "Xo‘ja Nasriddin" animatsion filmini yaratishda ishtirok etmoqda. 2022-yil kuzida Kinematografchilar uyida MDHdagi eng yirik DCP ekrani o‘rnatildi va "O‘zbekfilm" kinokonsernining eng

yangi panoramali pavilyoni taqdimoti boʻlib oʻtdi. U yerda Bahodir Yalangtoʻsh haqida tarixiy film suratga olindi.

Soʻnggi toʻrt yil ichida Oʻzbekistonda bir vaqtning oʻzida bir nechta yuqori sifatli filmlar suratga olindi va ular xalqaro mukofotlarga nomzod boʻldi. Yolqin Toʻychiyevning "Faridaning ikki ming qoʻshigʻi" (2019) filmi Hamdoʻstlik mamlakatlarining "Moskva premyerasi" kinofestivalining Gran-prisini qoʻlga kiritdi. Ushbu film shuningdek, 93-Oskar mukofotiga nomzod qilib koʻrsatilgan va Oltin globus mukofotiga ham nomzod boʻlgan. Dilmurod Mirsaidovning "Ayol qismati" (2021) filmi Turkiyada oʻtkazilgan "Qoʻrqut Ota" turkiy dunyo kinofestivalida Gran-prini qoʻlga kiritdi. Ali Hamroyevning "Samarqandda qovun tarovati" (2021) asari 2022 yilda Milanda oʻtkazilgan V FELIX kinofestivali laureati boʻldi hamda Yolqin Toʻychiyevning "Evrilish" (2022) filmi Janubiy Koreyaning Pusan shahridagi XXVII Xalqaro kinofestivalida Kim Jiseok mukofoti nominatsiyasi boʻyicha eng yaxshi deb topildi.

Xulosa qilib aytganda, kino oʻtmish va hozirgi zamon oʻrtasidagi ijodiy koʻprikdir. U tarixni saqlaydi, bugungi kunni aks ettiradi va kelajak haqida oʻylashga undaydi. Kino nafaqat koʻngilochar asarlari bilan tomoshabinni zavqlantiradi, balki ularni fikrlashga, his qilishga, bilishga va tushunishga undaydi. Shuning uchun ham kinoning ahamiyati nafaqat madaniy, balki ijtimoiy va ma’naviy jihatdan ham beqiyosdir. U inson va jamiyat taraqqiyotida muhim rol oʻynaydi va kelajakda ham oʻz ta’sirini yoʻqotmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. - Toshkent: Oʻzbekiston. 2021, 464 b.

2. Haydegger M. Dunyoqarash vaqti (1938, 1950) // Haydegger M. Badiiy ijodning manbalari. Turli yillardagi tanlangan asarlar. - M.: Akademik loyiha, 2008. - 274 b.

3. Teshaboyev J. "Oʻzbek kinosi: tadqiqotlar va ishonchlar" (1984);

4. Abulqosimova X., Teshaboyev J., Mirzamuhamedova M. "Oʻzbek kinosi" (1985);

КОМИК АСАРЛАРДА ОВОЗ ЭФФЕКТЛАРИНИ ТАНЛАШ ВА ПСИХОАКУСТИК МАНИПУЛЯЦИЯ ПРИНЦПЛАРИ

Абдреймов Манас Бекполатович
ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы доценти

Annotatsiya: Ushbu ilmiy-badiiy maqolada kinematografiya, teatr va radio-dramaturgiyadagi komediya janrining oʻziga xos akustik tabiati tadqiq qilinadi. Komedik asarlarda ovoz effektlarini (SFX, Foley, musiqiy aksentlar) tanlash, mikslash va ularning tomoshabin psixofizikasiga ta’siri tizimli ravishda tahlil etiladi. Maqolada komik effektni yuzaga keltiruvchi akustik qonuniyatlar: giperbolizatsiya (boʻrttirish), nomuvofiqlik (akustik kontrast), vaqtinchalik sinxronizatsiya (mickey-mousing) hamda ovoz rekvizitlaridan foydalanish

prinsiplari raqamli ovoz stansiyalari (DAW) muhandisligi prizmasi orqali yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Komedik ovoz dizayni, Foley san’ati, Mickey-mousing, Akustik kontrast, Giperbolizatsiya, Komik vaqt (Comic timing), Psixoakustika.

Komediyada kulgi — bu shunchaki matndagi xushchaqchaq so‘zlar yoki aktyorning qiziqarli mimikasining natijasi emas. Komediya — bu vaqt, ritm va kutilmagan vaziyatlarning matematik aniqlikda birlashishi bo‘lib, unda ovoz integratsiyasi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Agar drama yoki triller janrlarida ovoz muhiti tomoshabinni voqeaga ishontirishga va realistik immersivlikni (muhit ichida bo‘lish hissini) yaratishga xizmat qilsa, komediyada ovoz ko‘pincha reallikni ataylab buzish, bo‘rttirish va absurdlikni yuzaga keltirish quroli hisoblanadi.

Ovoz effektlarini tanlash jarayoni komediya janrida o‘ziga xos psixoakustik qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Inson miyasi hayoti davomida ma’lum bir harakatlardan aniq bir tovushlarni kutishga o‘rganadi. Komedik ovoz dizaynerlari esa aynan shu kutilmalarni sindirish (Incongruity Theory — nomuvofiqlik nazariyasi) orqali komik effekt yaratadilar. Vizual kadrda sodir bo‘layotgan jiddiy yoki oddiy harakatga mutlaqo teskari, absurd yoki haddan tashqari bo‘rttirilgan ovoz qo‘shilganda, tomoshabin ongida kognitiv dissonans (ichki qarama-qarshilik) paydo bo‘ladi va bu reksiya kulgiga aylanadi.

KOMIK EFFEKTNI YARATUVCHI AKUSTIK METODLAR

Komedik asarlar uchun audio-materiallar tanlash va ularni montaj qilishda ovoz rejissurasida asosan uchta universal metodik yondashuv qo‘llaniladi:

Akustik Giperbolizatsiya (Haddan tashqari bo‘rttirish): Bu usul kadrda sodir bo‘layotgan kichik yoki oddiy jismoniy harakatning ovozini dynamic range (dinamik diapazon) va chastota jihatidan o‘ta yuqori darajada kattalashtirib eshittirishga asoslanadi. Misol: Qahramonning ko‘zini pirpiratishi oddiy holatda eshitilmaydi. Komediyada esa bu harakatga metall prujinaning cho‘zilishi yoki qattiq "shvix" etgan sintetik ovoz qo‘yiladi. Yoki qahramonning yuziga chivin qo‘nganda, u xuddi qiruvchi samolyotning qulashi yoki ulkan motor guvullashi kabi eshittirilishi akustik giperbolizatsiyaga yaqqol misoldir.

Nomuvofiqlik va Kontrast (Acoustic Incongruity): Vizual tasvir va unga hamroh bo‘layotgan akustik element o‘rtasidagi semantik (ma’noviy) nomuvofiqlikdir. Misol: Ikki nafar ulkan, vazni og‘ir va qo‘rqinchli personajlarning o‘zaro urishishi yoki mushtlashishi sahnasiga jiddiy zarba ovozlari (punch SFX) o‘rniga, bolalar o‘yinchoqlarining g‘irillashi, hushtak ovozlari (slide whistle) yoki pufakchalarning yorilishi (pop) effekti qo‘yiladi. Bu holat vizual zo‘ravonlikni neytrallab, vaziyatni lahzada hajviy ko‘rinishga keltiradi.

"Mickey-mousing" Texnikasi: Ushbu termin ilk bor multiplikatsiyada (xususan, Disney multfilmlarida) paydo bo‘lgan bo‘lib, ekrandagi har bir jismoniy harakatni orkestr cholg‘ulari yoki maxsus ovoz effektlari ritmi bilan 100% sinxron ravishda nusxalash demakdir. Misol: Qahramonning zinadan

ehtiyotkorlik bilan pastga tushish harakatiga moslab ksilofon yoki pitsikato (torlarni barmoq bilan chertish) usulida chalayotgan skripka tovushining birma-bir qo‘shilib borishi. Bu texnika harakatning dramaturgik ritmini vizual-akustik simmetriyaga keltirib, komik dinamikani oshiradi.

FOLEY SAN’ATI VA KOMEDIK REKVIZITLAR BILAN ISHLASH

Komediyada Foley san’ati (studiya sharoitida sinxron shovqinlar yaratish) o‘zining realistik funksiyasidan voz kechib, ko‘proq ramziy va qiziqarli shaklga o‘tadi. Foley rassomi (Foley Artist) va ovoz muhandisi komedik effektni chiqarish uchun kundalik buyumlardan g‘ayritabiiy usullarda foydalanishadi.

Harakat (Kadrda)	Klassik / Realistik Ovoz	Komedik / Hajviy Ovoz (Foley Prop)
Qahramonning sirpanib yiqilishi	Oyoq kiyimining yerga ishqalanishi	Slide whistle (cho‘ziluvchan hushtak) yoki tarelka zarbi
Boshga tushgan og‘ir zarba	Toza jismoniy zarba, suyak ovozi	Tavaning jaranglashi, "DONG" sadosi, cherkov qo‘ng‘irog‘i
Tana a’zolarining cho‘zilishi	Eshitilmaydi yoki mato ovozi	Rezina o‘yinchoq g‘iyqillashi, prujina ovozi
Yugurish yoki qochish sahnasi	Oddiy poyabzal qadamlari	Haddan tashqari tezlashtirilgan bongo barabanlari

Foley yozish jarayonida mikrofon bilan ishlash ham o‘zgaradi. Normal holatda Proksimik effekt (Proximity Effect) past chastotalarni bo‘rttirib yubormasligi uchun mikrofondan ma’lum masofa saqlansa, komediyada qahramonning yutunishi, ko‘z yoshi tomgandagi ovozini yozish uchun mikrofonga maksimal yaqin kelib, o‘ta yuqori sezuvchanlikda (High Gain) yoziladi. Natijada yutunish ovozi xuddi ulkan suv girdobining sharsharasidek eshitilib, sahna kulgili tus oladi.

TEXNIK MONTAJ VA RAQAMLI OVOZ STANSIYALARI (DAW)DA MIKSLASH

Ovoz effektlarini tanlagandan so‘ng, ularni Raqamli Ovoz Stansiyasida (DAW — Avid Pro Tools, Nuendo, Logic Pro) qayta ishlashning ham o‘ziga xos muhandislik qoidalari va algoritmlari mavjud. Komediyada eng muhim narsa — Comic Timing (Komik vaqt / soniya aniqligi). Effekt kadrga nisbatan birgina millisekund oldin yoki keyin eshitilsa, kulgi effekti batamom yo‘qoladi.

Pitch Shifting (Tonalikni o‘zgartirish): Komediyada qahramonlarning nutqi yoki effektlarining Pitch (baland-pastligi) bilan o‘ynash keng tarqalgan. Masalan, jaxldor va ulkan personajning ovozini dasturiy ravishda yuqori

chastotaga koʻtarib (Formant shifting yordamida), chipmunk (burunduq) ovoziga keltirish lahzada uning jiddiyligini yoʻqotadi. Aksincha, kichkina bolakay yoki hayvonning ovozini oʻta past sub-bass chastotalariga (20-60 Hz) tushirish ham kontrastli komika yaratadi.

Ekvalizatsiya va Spektral balans: Komedik ovoz dizaynida effektlar dialogga (nutqqa) xalaqit bermasligi shart. Shuning uchun effektlarning oʻrta chastotalari (1 kHz - 3 kHz) biroz pasaytirilib, chekka diapazonlari (keskin yuqori "gʻiyqillashlar" yoki oʻta past "gumburlashlar") boʻrttiriladi. Bu Spektral balansni saqlagan holda, effektning yorqin va "multfilmbop" boʻlib chiqishini ta'minlaydi.

Dinamik kompressiya (Compression): Komediya effektleri koʻpincha dinamik jihatdan juda barqaror va eshitiluvchan boʻlishi kerak. Shuning uchun ularga yuqori darajadagi kompressiya (hard compression) qoʻllaniladi. Bu tovushning eng sokin va eng baland nuqtalarini tenglashtirib, effektning kadrlar ichidan yaqqol "otilib" chiqishiga yordam beradi.

AUDIO-VIZUAL KONTRAST VA MUSIQIY ASOSLAR

Komediyada fon musiqasi (Score) ham mustaqil ovoz effekti vazifasini bajarishi mumkin. Klassik komediyalarda (masalan, Charli Chaplin yoki Buster Kiton filmlarida) musiqiy asboblar personajning tili boʻlgan. Zamonaviy ovozli komediyada musiqiy kontrapunkt usuli koʻp qoʻllaniladi. Kontrapunkt — bu ekrangagi tasvir kayfiyatiga mutlaqo teskari musiqani miks qilishdir.

Ssenariy boʻyicha qahramon juda jiddiy fojiaviy holatda, masalan, ishdan haydalgan yoki sevgilisi tashlab ketgan va u koʻchada yomgʻir ostida yigʻlab ketmoqda. Agar orqaga gʻamgin skripka musiqasi qoʻyilsa, bu drama boʻladi. Ammo uning qadamlariga moslab quvnoq, bolalarcha sirk musiqasi (Tuba yoki Trombon joʻrligida) qoʻyilsa, tomoshabin qahramonga achinmaydi, aksincha uning holatidan kuladi.

Bu yerda asboblar interpretatsiyasi muhim:

Trombon (Glissando effekti): Qahramonning muvaffaqiyatsizligi, yiqilishi yoki umidlarining puchga chiqishini ifodalovchi eng asosiy "baxtsizlik" effektini beradi (mashhur "Sad Trombone" — wah-wah-wah-waaah ohangi).

Pitsikato Kontrabas: Yashirincha, oʻgʻrilikcha kirish, poyloqchilik qilish yoki sekin harakatlanish sahnalariga oʻziga xos hajviy va qiziqarli dinamika bagʻsh etadi.

Komedik asarlarda ovoz effektlarini tanlash va ularni integratsiya qilish professional ovoz dizayneridan nafaqat texnik muhandislik mahoratini, balki hazil tuygʻusi, ritm hissi va inson psixologiyasini chuqur tushunishni talab qiladi. Komedik ovoz realizm qonuniyatlariga boʻysunmaydi; u reallikni sinuvchi, boʻrttiruvchi va hayotiy vaziyatlarni hajviy simvolizm darajasiga koʻtaruvchi asosiy ustundir.

Akustik giperbolizatsiya, nomuvofiqlik, mikser pultidagi oʻyinlar va "Mickey-mousing" texnikasi orqali ovoz rejissyori vizual kadrning kulgi koeffitsiyentini oʻn baravargacha oshirish imkoniyatiga ega boʻladi. Shuning uchun komediya janrida toʻgʻri tanlangan va millisekundlar aniqligida

joylashtirilgan har bir tovush asarning umumiy muvaffaqiyatini belgilovchi koʻrinmas, ammo eshitiluvchi bosh qahramondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Chion, M. Audio-Vision: Sound on Screen. New York: Columbia University Press, 1994. – 232 p.

2. Murch, W. In the Blink of an Eye: A Perspective on Film Editing. Los Angeles: Silman-James Press, 2001. – 148 p.

3. Sonnenschein, D. Sound Design: The Expressive Power of Music, Voice, and Sound Effects in Cinema. Los Angeles: Michael Wiese Productions, 2001. – 260 p.

4. Thomas, F., Johnston, O. Disney Animation: The Illusion of Life. New York: Abbeville Press, 1981. – 575 p.

«ҚАРАҚАЛПАҚ САЗГЕРЛЕРИНИҢ СӘРДАРЫ» ФИЛЬМИНИҢ КОМПОЗИЦИЯЛЫҚ ӨЗГЕШЕЛИКЛЕРИ

Бахтияр Сметович Мадияров
ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы оқытыўшысы

Kino kórkem-ónerinde húJjetli hám ilimiy-massalıq filmlerdiń ózine tán dramaturgiyası hám kompoziciyalıq qurylısı boladı. Kórkem filmde waqıyalar toqılǵan (oydan shıǵarılǵan) syujet tiykarında rawajlansa, húJjetli kinoda real faktler baslı planǵa shıǵadı. Biraq bul jerde de rejissyor hám cenarist kórkemlikke, logikalıq izbe-izlikke hám kompoziciyalıq pútinlikke súynedi.

Sonday tabıslı shıqqan, húJjetli kinonın talaplarına tolıq juwap beretuǵın shıǵarmalardıń biri – 2014-jılı lentaǵa alınǵan, eki bólimnen ibarat «Qaraqalpaq sazgerleriniń sárdarı» filmi. Bul film Ózbekstan, Qaraqalpaqstan hám Tatarstan Respublikalarınıń kórkem óner ǵayratkeri, Mámleketlik sıylıqtıń laureatı, belgili kompozitor Najimaddin Muxammeddinovtıń bay dóretiwshilik jolına baǵıshlanǵan.

Film eki bólimli formada dúzilgen bolıp, bul kompoziciyalıq sheshim kompozitordıń ómiri hám dónetiwshiligin keńirek hám tereńirek ashıp beriwge imkaniyat jaratqan. HúJjetli filmniń kompoziciyası tómendegi tikarǵı bólimlerden quraladı:

Filmdiń baslanıwında kórsetiletuǵın kadrlar tamashagóydi qaraqalpaq muzıka mádeniyatı dunyasına alıp kiredi. Najimaddin Muxammeddinovtıń qaraqalpaq kásiplik muzıkasınıń rawajlanıwına qosqan úlesi, onıń sárdar (shıń, jetekshi) retindegi obrazı dáslepki kadrlar-aq belgili boladı.

Waqıyalardıń rawajlanıwı (I-bólim): Bul bólimde qaharmannıń balalıq jılları, muzıka álemine kirip keliwi, tatarstanlı ustazlarınan alǵan tálimi hám dáslepki dóretpeleriniń jaratılıw tariyxı xronologiyalıq izbe-izlikte kórsetiledi. Munda arxiv materialları hám tariyxıy húJjetler úlken rol oynaǵan.

Kúlminaciya hám rawajlanıw (II-bólim): Ekinshi bólimde kompozitordıń jetilgen dáwiri, onıń simfoniya, opera, balet hám basqa da iri janrlardaǵı

shıǵarmaları tallanadı. Ásirese, onıń mámleketlik hám xalqara dárejedegi tán alınıwı, úsh respublikanıń kórkem óner ǵayratkeri ataǵına bany bolıwı sıyaqlı jetiskenlikleri joqarı noqatqa jetedi.

Filmniń juwmaǵında sazgerdiń búgingi kúngi ustazlıq mektebi, jaslarǵa berip atırǵan tálim-tárbiyası hám keleshek áwladqa qaldırıp ketip atırǵan bay mádeniy miyrası haqqındaǵı oylar menen juwmaqlanadı.

«Qaraqalpaq sazgerleriniń sárdarı» filmi tek ǵana kórkem-biografiyalıq hújjetli film emes, bálki óz ishine ilimiy-massalıq elementlerdi de qamtıǵan. Sebebi filmde muzıkalıq tallawlar bar: Sazgerdiń shıǵarmalarında qaraqalpaq xalq qosıqları menen evropa klassikalıq muzıkasınıń qanday jıbıskenligi ilimiy-teoriyalıq jaqtan túsindiriledi.

Ekspertler pikiri berilgen: Belgili mádeniyat hám kórkem óner ǵayratkerleriniń, muzıkatanıwshılardıń Najimaddin Muxammeddinov dóretiwshiligine bergen joqarı baha hám pikirleri keltirilgen.

Filmniń eń úlken jetiskenligi – onıń dinamikalıq montajında hám muzıkalıq bezetiliwinde. Film dawamında jańlaǵan Najimaddin Muxammeddinovtıń sırlı, keleshekke umtılǵan hám milliy koloritke bay namaları tamashagóydi ózine baurap aladı. Muzıka bul jerde tek fon emes, bálki filmdiń eń baslı qahharmanlarınıń birine aylanǵan.

Kino kórkem-ónerinde hár bir janrdıń ózine tán dramaturgiyası hám kompoziciyalıq qurılısı boladı. Kórkem filmde waqıyalar oydan shıǵarılǵan (toqılǵan) syujet tiykarında rawajlansa, hújjetli hám ilimiy-massalıq kinoda real faktler, tariyxıy shınlıq hám jeke tulǵalardıń ómiri baslı planǵa shıǵadı. Biraq hújjetli kinoda da materialdı durıs jaylasıwı hám tamashagóydi sharshatıp qoymawı rejissyordıń kompoziciyalıq sheshimine tiykarlanadı.

Bul baǵdarda qaraqalpaq kino kórkem-ónerinde ózine tán ornı bar shıǵarmalardıń biri – 2014-jılı taspaǵa alınǵan, eki bólimnen ibarat **«Qaraqalpaq sazgerleriniń sárdarı»** hújjetli filmidir. Bul shıǵarma Ózbekstan, Qaraqalpaqstan hám Tatarstan Respublikalarınıń kórkem óner ǵayratkeri, Mámleketlik sıylıqtıń laureatı, belgili kompozitor Najimaddin Muxammeddinovtıń dóretiwshilik jolına baǵıshlanǵan bolıp, óziniń kompoziciyalıq pútinligi menen ajıralıp turadı.

2014-jılı jaratılǵan «Qaraqalpaq sazgerleriniń sárdarı» filmi óziniń kompoziciyalıq pútinligi, ashıq-aydın faktleri hám kórkemlik dárejesi menen milliy kinoshejiremizde áhmiyetli orın tutadı. Bul film ómirin kásiplik muzıka kórkem-ónerine baǵıshlaǵan ulıwma xalqtan qádir tapqan sárdar kompozitordıń tiri esteligi hám keleshek áwlad ushın tapılmas derek bolıp xızmet etedi.

Hújjetli film kompoziciyasınıń eń tásirsheń baylanıstırıwshı elementi – bul muzıka. Film davamında jańlaytuǵın Najimaddin Muxammeddinovtıń óz namaları kadrlar arasındaǵı "kóleńkeli ótiwlerdi" jasırıp, pútin bir syujetlik dızbektı quraydı. Muzıka bul jerde tek ǵana fon emes, bálki waqıyalardıń mazmunın, qaharmannıń ishki tolqınısların jetkerip beriwshi tásirsheń dramaturgiyalıq quralǵa aylanǵan.

2014-jılı jaratılǵan «Qaraqalpaq sazgerleriniń sárdarı» filmi óziniń logikalıq eki bólimli qurılısı, arxivlik shınlıǵı hám kórkemlik dárejesi menen milliy hújjetli kino kórkem-óneriniń jaqsı úlgilerindendir. Bul shıǵarma ómirin qaraqalpaq muzıkasın álemge tanıwǵa baǵıshlaǵan ulıwma xalqtan qádir tapqan sárdar kompozitordıń ómir joly hám keleshek áwlad ushın tapılmas bay mádeniy derek bolıp xızmet etedi.

PAYDALANǴAN ÁDEBIYATLAR:

1. Ҳ.Абулқосимова. «Кино санъати асослари». Тошкент, 2010 й.

2. Borisov S. Technology of creating a documentary film. – M.: Aspect-Press, 2018. – 92 p

3. Madiyorov, B. S. (2025). Qoraqalpoq filmlarida xarakter yaratish xususiyatlari. *Oriental Art and Culture*, 6(4), 246–250.

4. Tajadinova, G. N. (2025). Kino kórkem óneriniń zamanagóy mediadaǵı ornı. *Art and Culture Bulletin*, (4), 116–118.

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК НОВЫЙ ИНСТРУМЕНТ КИНОМОТОГРАФИИ

Асқаров Азиз

ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы оқытыўшысы

Аннотация: В данной статье рассматривается роль искусственного интеллекта в современной кинематографии, его влияние на процесс создания аудиовизуального произведения, а также перспективы развития киноиндустрии в условиях цифровой трансформации. Анализируются возможности применения искусственного интеллекта в операторском искусстве, режиссуре, монтаже, цветокоррекции, создании визуальных эффектов и постпродакшене. Особое внимание уделяется вопросам взаимодействия творческого мышления человека и интеллектуальных технологий. Делается вывод о том, что искусственный интеллект становится не заменой художника, а новым инструментом расширения творческих возможностей кинематографиста.

Ключевые слова: искусственный интеллект, кинематография, киноискусство, операторское искусство, режиссура, цифровые технологии, монтаж, визуальные эффекты, медиа.

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun’iy intellektning zamonaviy kinematografiyadagi roli, uning audiovizual asar yaratish jarayoniga ta’siri hamda kino sanoatining raqamli transformatsiya sharoitidagi rivojlanish istiqbollari ko‘rib chiqiladi. Sun’iy intellektning operatorlik san’ati, rejissura, montaj, ranglarni tuzatish, vizual effektlar yaratish va postprodyuserlik jarayonida qo‘llanilish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Alohida e’tibor ijodiy inson tafakkuri va intellektual texnologiyalar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik masalalariga qaratiladi. Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt rassomni

almashtirmaydi, balki kinorejissyor va kinomatografning ijodiy imkoniyatlarini kengaytiruvchi yangi vosita hisoblanadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, kinematografiya, kino san'ati, operatorlik san'ati, rejissura, raqamli texnologiyalar, montaj, vizual effektlar, media.

Annotatsiya: Bul maqalada jasalma intelekttiń zamanagóy kinematografiyadaǵı róli, onıń audiovizual shıǵarmanı jaratıw procesine tiygizetuǵın tásiri hám kinoindustriyasınıń sanlıq transformaciya jaǵdayındaǵı rawajlanıw keleshegi qarastırıladı. Jasalma intellekti operatorlıq ónerinde, rejissurada, montajda, reńlerdi dúzewde, vizuallıq effektlerdi jaratıwda hám postprodakshn procesinde qoldanıw imkaniyatları talıqlanadı. Erekshe itibar shıǵarmashılıq adam oyı menen intellektuallıq texnologiyalardıń óz-ara baylanısı máselerine qaratıladı. Juwmaqlap aytqanda jasalma intellekt xudojnikti almastırmaydı, kerisinshe, kinematografisttiń shıǵarmashılıq imkaniyatların keńeytetúǵın jańa qural ekenligi belgilenedi.

Gilit sózler: jasalma intellekt, kinematografiya, kino óneri, operatorlıq óner, rejissura sanlıq texnologiyalar, montaj, vizuallıq effektler, media.

Введение

Современное развитие цифровых технологий оказывает значительное влияние на все сферы искусства, включая кинематограф. В XXI веке киноиндустрия переживает период масштабной технологической трансформации, связанной с внедрением компьютерной графики, виртуальной реальности, нейросетей и искусственного интеллекта. Искусственный интеллект становится одним из наиболее обсуждаемых и перспективных направлений развития современной культуры и медиа.

Кинематограф как синтетическое искусство всегда был тесно связан с техническим прогрессом. Появление звукового кино, цветной плёнки, цифровых камер и компьютерной графики кардинально меняло методы создания фильмов. Сегодня аналогичную революцию вызывает искусственный интеллект, который постепенно внедряется практически на всех этапах кинопроизводства.

Актуальность данной темы определяется стремительным развитием интеллектуальных технологий и их активным использованием в киноиндустрии. Искусственный интеллект способен анализировать большие объёмы информации, генерировать изображения, автоматизировать монтаж, улучшать качество изображения и создавать новые художественные формы. Всё это открывает перед режиссёрами, операторами и продюсерами новые возможности для творчества.

Цель данной статьи — исследовать роль искусственного интеллекта как нового инструмента кинематографии, определить его влияние на творческий процесс и выявить перспективы дальнейшего развития киноискусства.

Искусственный интеллект и современное кино

Искусственный интеллект представляет собой совокупность технологий, способных выполнять задачи, требующие человеческого интеллекта. К таким задачам относятся анализ информации, обучение, распознавание образов, генерация текста, изображений и видео.

В кинематографии технологии искусственного интеллекта начали активно применяться в последние годы. Крупные киностудии используют интеллектуальные алгоритмы для анализа сценариев, прогнозирования коммерческого успеха фильмов и изучения зрительской аудитории. Благодаря этому продюсеры могут более точно определять предпочтения зрителей и создавать проекты, соответствующие современным тенденциям.

Одним из важных направлений применения искусственного интеллекта является автоматизация производственных процессов. Современные программы способны ускорять монтаж, синхронизировать звук, стабилизировать изображение и выполнять сложную цветокоррекцию. Это значительно сокращает время постпродакшена и снижает финансовые затраты.

Кроме того, искусственный интеллект активно используется в создании визуальных эффектов. Современные нейросетевые технологии позволяют создавать реалистичные цифровые образы, виртуальных персонажей и сложные анимационные сцены. В фильмах мирового кинематографа уже используются технологии омоложения актёров, восстановления архивных кадров и генерации фотореалистичных изображений.

Следует отметить, что внедрение искусственного интеллекта изменяет не только техническую сторону кинопроизводства, но и художественную структуру киноязыка. Новые технологии позволяют создавать визуальные решения, ранее невозможные в традиционном кинематографе.

Искусственный интеллект в операторском искусстве

Операторское искусство является одной из важнейших составляющих кинематографии. Именно оператор формирует визуальную атмосферу фильма, определяет композицию кадра, работу со светом, цветом и движением камеры.

Современные интеллектуальные технологии всё активнее внедряются в операторскую практику. Искусственный интеллект помогает автоматизировать процессы фокусировки, стабилизации изображения и настройки экспозиции. Камеры нового поколения способны самостоятельно распознавать лица, отслеживать движение объектов и подбирать оптимальные параметры съёмки.

Особенно важным становится использование искусственного интеллекта в виртуальном производстве. Технологии LED-экранов и цифровых декораций позволяют создавать сложные сцены без

необходимости выезда на реальные локации. Оператор получает возможность работать с виртуальной средой в реальном времени, управляя освещением и визуальным пространством.

Нейросетевые программы также помогают в предварительной визуализации будущего фильма. С помощью искусственного интеллекта можно быстро создавать раскадровки, тестировать композицию кадра и моделировать освещение. Это значительно облегчает подготовительный этап производства.

Однако следует подчеркнуть, что искусственный интеллект не способен полностью заменить художественное мышление оператора. Настоящее операторское искусство основывается не только на технических знаниях, но и на эмоциональном восприятии, авторском стиле и творческой интуиции. Искусственный интеллект является инструментом, расширяющим возможности специалиста, но не заменяющим его художественное видение.

Влияние искусственного интеллекта на режиссуру и монтаж

Режиссура представляет собой сложный творческий процесс, связанный с организацией художественного пространства фильма. Искусственный интеллект постепенно становится помощником режиссёра на различных этапах создания картины.

Сегодня существуют программы, способные анализировать сценарии и предлагать варианты структуры сюжета, темпа повествования и эмоциональной динамики. Некоторые алгоритмы могут прогнозировать реакцию зрителей на определённые сцены или персонажей.

В области монтажа искусственный интеллект открывает особенно широкие возможности. Современные монтажные программы способны автоматически сортировать видеоматериалы, распознавать лица, выделять ключевые сцены и создавать предварительные версии монтажа.

Интеллектуальные системы помогают ускорить работу монтажёра и сосредоточиться на художественной стороне фильма. Например, алгоритмы могут автоматически синхронизировать звук, подбирать музыкальное сопровождение и даже определять оптимальный ритм монтажа.

Одним из наиболее интересных направлений является генеративный искусственный интеллект, способный создавать новые изображения, анимацию и даже видеосцены. Это открывает перспективы для появления новых форм экранного искусства.

Несмотря на технические преимущества, использование искусственного интеллекта вызывает и определённые дискуссии. Многие исследователи считают, что чрезмерная автоматизация может привести к снижению индивидуальности авторского кино. Искусство

всегда связано с человеческими эмоциями, опытом и мировоззрением, которые невозможно полностью воспроизвести алгоритмами.

Этические и культурные аспекты использования искусственного интеллекта

Развитие искусственного интеллекта в киноиндустрии ставит перед обществом ряд этических вопросов. Одной из главных проблем является вопрос авторства. Если часть визуального контента создаётся нейросетью, возникает необходимость определения роли человека в создании произведения.

Кроме того, использование цифровых копий актёров и технологий deepfake вызывает вопросы, связанные с авторскими правами и моральной ответственностью. Современные технологии позволяют создавать реалистичные изображения людей без их непосредственного участия.

Важным аспектом остаётся проблема сохранения национальной культуры и художественной индивидуальности. Массовое использование универсальных алгоритмов может привести к унификации визуального языка кино. Поэтому особенно важно сохранять культурные особенности национального кинематографа.

Для кинематографистов Узбекистана и Каракалпакстана искусственный интеллект может стать эффективным инструментом развития национального кино. Новые технологии позволяют создавать качественные визуальные проекты даже при ограниченных финансовых ресурсах. Это особенно актуально для молодых режиссёров и операторов.

В образовательной сфере искусственный интеллект также открывает новые перспективы. Студенты творческих вузов получают доступ к современным программам визуализации, монтажа и генерации изображений. Это способствует развитию профессиональных навыков и повышению качества подготовки будущих специалистов.

Перспективы развития кинематографии в эпоху искусственного интеллекта

Будущее кинематографии во многом связано с дальнейшим развитием интеллектуальных технологий. Уже сегодня можно наблюдать формирование новых методов производства фильмов, основанных на взаимодействии человека и искусственного интеллекта.

В ближайшие годы ожидается активное развитие виртуального кино, интерактивных фильмов и иммерсивных медиаформатов. Искусственный интеллект позволит создавать персонализированный контент, адаптирующийся под интересы зрителя.

Большое значение приобретает развитие нейросетевой генерации видео. Современные технологии позволяют создавать реалистичные сцены без использования традиционных методов съёмки. Это может существенно изменить структуру кинопроизводства.

Одновременно возрастает роль творческой личности режиссёра и оператора. В условиях технологического прогресса именно художественное мышление становится главным фактором создания уникального произведения искусства.

Таким образом, искусственный интеллект следует рассматривать не как угрозу кинематографу, а как новый этап его эволюции. Технологии открывают перед художниками новые формы выразительности, расширяют возможности визуального повествования и способствуют развитию мирового киноискусства.

Заключение

Искусственный интеллект становится важнейшим инструментом современной кинематографии. Его использование охватывает практически все этапы кинопроизводства — от написания сценария до монтажа и создания визуальных эффектов.

Современные интеллектуальные технологии позволяют значительно ускорить производственные процессы, повысить качество изображения и расширить художественные возможности кино. Особенно важным является внедрение искусственного интеллекта в операторское искусство, режиссуру и постпродакшн.

Вместе с тем искусственный интеллект не способен заменить творческую индивидуальность человека. Настоящее киноискусство основывается на эмоциональном восприятии, культурном опыте и художественном мышлении автора.

Перспективы развития кинематографии связаны с гармоничным сочетанием технологических инноваций и человеческого творчества. Искусственный интеллект должен рассматриваться как инструмент, помогающий художнику реализовывать новые идеи и создавать более выразительные аудиовизуальные произведения.

Таким образом, развитие искусственного интеллекта открывает новую эпоху в истории мирового кинематографа и формирует новые направления развития современного экранного искусства.

Список литературы:

1. Manovich L. *The Language of New Media*. — Cambridge: MIT Press, 2001. — 356 p.

2. Elsaesser T., Hagener M. *Film Theory: An Introduction through the Senses*. — London: Routledge, 2015. — 280 p.

3. McClean S. *Digital Storytelling: The Narrative Power of Visual Effects in Film*. — Cambridge: MIT Press, 2007. — 240 p.

4. Иванов С. П. *Компьютерная графика и визуальные эффекты в кино*. — СПб.: БХВ-Петербург, 2019. — 320 с.

5. Попов Д. А. *Искусственный интеллект в медиаиндустрии*. — М.: Юрайт, 2021. — 215 с.

6. UNESCO. *Culture and Artificial Intelligence: Impacts on Creative Industries*. — Paris: UNESCO Publishing, 2021. — 98 p.

KINO SAN’ATIDA IJTIMOIY HAQIQAT TALQINI

Tajaddinova Guljahan
O‘zbekiston davlat San’at va madaniyat instituti Nukus filiali o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori

ANNOTACIYA: Ushbu maqolada kino san’atida ijtimoiy haqiqat tushunchasining talqini, uning shakllanish mexanizmlari hamda axborot makonidagi o‘rni tahlil qilinadi. Jahon va o‘zbek, qoraqalpoq kinematografiyasi misolida haqiqat va badiiy to‘qima o‘rtasidagi munosabat, shuningdek, kinoning jamiyat ongiga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Turli filmlar tahlili orqali media va ijtimoiy voqelik o‘rtasidagi bog‘liqlik ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: kino, ijtimoiy haqiqat, axborot makoni, media, posthaqiqat, o‘zbek kinosi.

Annotation: This article analyzes the interpretation of the concept of social reality in cinema art, its formation mechanisms, and its role in the information space. Based on examples from world, Uzbek, and Karakalpak cinematography, the relationship between truth and artistic fiction, as well as the influence of cinema on public consciousness, is examined. Through the analysis of various films, the connection between media and social reality is revealed.

Keywords: cinema, social reality, information space, media, post-truth, Uzbek cinema.

Аннотация: В данной статье анализируется интерпретация понятия социальной реальности в кинематографическом искусстве, механизмы её формирования и её роль в информационном пространстве. На примере мирового, узбекского и каракалпакского кинематографа рассматривается соотношение истины и художественного вымысла, а также влияние кино на общественное сознание. Через анализ различных фильмов раскрывается связь между медиа и социальной реальностью.

Ключевые слова: кино, социальная реальность, информационное пространство, медиа, постправда, узбекское кино.Hozirgi raqamlashuv va globallashuv sharoitida axborot makoni inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Axborot oqimining ortishi “haqiqat” tushunchasini ham murakkablashtirmoqda. Bu jarayonda kino san’ati nafaqat madaniy mahsulot, balki ijtimoiy voqelikni shakllantiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Kino orqali jamiyatdagi voqealar aks ettiriladi, biroq bu aks ettirish doimo muayyan badiiy talqin bilan bog‘liq. Shu bois kinoni ijtimoiy haqiqatni yaratuvchi va qayta talqin qiluvchi vosita sifatida o‘rganish dolzarb ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — kino san’atida ijtimoiy haqiqat talqinini jahon va o‘zbek, qoraqalpoq kinematografiyasi misolida tahlil qilishdir.

Ijtimoiy haqiqat — bu jamiyat tomonidan qabul qilingan va axborot, madaniyat hamda ijtimoiy tajriba ta’sirida shakllangan voqelik tasavvuridir. U ko‘pincha obyektiv voqelikning to‘liq in’ikosi emas, balki uning talqini hisoblanadi.

Zamonaviy axborot jamiyatida “posthaqiqat” holati keng tarqalgan bo‘lib, unda faktlardan ko‘ra emotsiyalar va shaxsiy qarashlar ustunlik qiladi. Kino aynan shu jarayonda muhim rol o‘ynaydi, chunki u voqelikni vizual va emotsional shaklda taqdim etadi.

Kino san’ati ijtimoiy voqelikni aks ettirish bilan birga, uni qayta yaratadi. Har bir film — bu rejissyor va muallifning voqelikka bo‘lgan munosabatining ifodasidir.

Masalan, «The Truman Show» filmida sun’iy ravishda yaratilgan hayot orqali insonning haqiqatni anglash muammosi yoritiladi. Film qahramoni Truman butun umr sun’iy dunyoda yashaydi. Film “sen ko‘rayotgan narsa haqiqatan ham haqiqatmi?” degan savolni o‘rtaga qo‘yadi. Odamlar boshqalar hayotini tomosha qilishni yaxshi ko‘radi (realiti-shoular kabi). Bu orqali ommaviy axborot vositalari tanqid qilinadi. Film media orqali shakllantirilgan “soxta haqiqat” g‘oyasini ilgari suradi. «Wag the Dog» filmi esa siyosiy manfaatlar uchun media orqali voqelikni soxtalashtirish jarayonini ko‘rsatadi. Bu yerda axborot jamiyatni boshqarish vositasiga aylanadi.

O‘zbek kinematografiyasida ham ijtimoiy haqiqatni aks ettirish muhim o‘rin tutadi. Masalan, «O‘tkan kunlar» filmida tarixiy voqelik badiiy talqin orqali qayta yaratiladi. Asardagi voqealar orqali o‘sha davr ijtimoiy munosabatlari va qadriyatlari namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy filmlarda ijtimoiy muammolar, axborot inqirozi va jamiyatdagi ishonch muammosi keng yoritilmoqda.

«Don’t Look Up» filmida ilmiy haqiqat va jamoatchilik munosabati o‘rtasidagi ziddiyat ko‘rsatiladi. Film axborotning noto‘g‘ri taqdim etilishi qanday qilib haqiqatni inkor etishga olib kelishini ochib beradi.

O‘zbek kinosida esa ijtimoiy haqiqat ko‘proq kundalik hayot orqali ko‘rsatiladi. Masalan, «Mahallada duv-duv gap» filmida mahalla muhiti orqali jamoaviy fikr va ijtimoiy nazorat mexanizmi tasvirlangan. Bu yerda haqiqat jamoa qarashi orqali shakllanadi. Shuningdek, «Super kelinchak» filmida zamonaviy oilaviy munosabatlar va ijtimoiy rollar orqali jamiyatdagi qadriyatlar tizimi namoyon bo‘ladi. Bu film orqali ijtimoiy haqiqatning madaniy xususiyatga ega ekani ko‘rinadi.

Qoraqalpoq kinosida ijtimoiy haqiqat talqini tarixiy voqelik, inson taqdiri, milliy madaniyat orqali talqin qilishini ko‘rish mumkin. Qoraqalpoq kinematografiyasi ijtimoiy haqiqatni milliy madaniyat va tarix orqali aks ettiradi. Buning yorqin misoli — «Eshon baxshi» (Hayotning uch fasli) filmidir. Film mashhur baxshi Eshon Qo‘spolatovning hayoti orqali XX asr boshlaridan 1953-yilgacha bo‘lgan ijtimoiy jarayonlarni aks ettiradi. Unda: milliy baxshichilik an’anasi rivoji; san’atkorning jamiyatdagi o‘rni; davrning ijtimoiy qiyinchiliklari badiiy va dramatik usulda ochib berilgan.

Filmda musiqa (dutor ijrosi) va qo‘shiqlar orqali voqelik ta’sirchan qilib berilgan bo‘lib, bu usul ijtimoiy haqiqatni hissiy darajada yetkazishga xizmat qiladi.

Kino jamiyat ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. U nafaqat axborot beradi, balki tomoshabinning fikrlash tarzini shakllantiradi. Masalan, «Abdullajon» filmida yumor va fantastika orqali ijtimoiy kamchiliklar tanqid qilinadi. Bu usul orqali tomoshabin muammolarni yengilroq qabul qiladi, ammo ular haqida o‘ylashga majbur bo‘ladi.

Kino orqali ijtimoiy stereotiplar shakllanadi; muayyan qadriyatlar targ‘ib qilinadi; jamiyatdagi muammolarga munosabat belgilanadi. Shu sababli kinoning ta’sirini to‘g‘ri baholash muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy axborot makonida kino industriyasi global xarakterga ega bo‘lib, filmlar internet orqali keng tarqalmoqda. Bu esa kinoning ta’sir doirasini yanada kengaytiradi.

Axborot makoni va kino o‘rtasidagi bog‘liqlik quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

—kino axborot tarqatish vositasiga aylanadi ya’niy kino faqatgina ko‘ngilochar emas, balki ma’lumot va g‘oyalarni tarqatadi. Kino orqali odamlarga ma’lum bir qarash, g‘oya yoki muammo yetkaziladi.

—media kino mazmuniga ta’sir ko‘rsatadi, bunda axborot makonidagi trendlar, yangiliklar va jamiyatdagi muhit film syujetlariga ta’sir qiladi. Masalan, so‘nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlar va internet haqida ko‘p filmlar chiqmoqda. Ya’ni, kino jamiyatda nima muhim bo‘lsa, o‘sha mavzuni ko‘proq yoritadi.

—ijtimoiy tarmoqlar filmlarning qabul qilinishiga ta’sir qiladi. Hozir filmlar qanday qabul qilinishi ko‘p jihatdan ijtimoiy tarmoqlarga bog‘liq. Film chiqishi bilan «Instagram», «TikTok» da sharhlar va tahlillar tarqaladi. Agar film haqida yaxshi fikrlar ko‘p bo‘lsa — u tez ommalashadi. Aksincha, tanqid ko‘p bo‘lsa — odamlar kamroq ko‘radi. Tomoshabin fikri ham boshqalarga ta’sir qiladi.

“Posthaqiqat” sharoitida kino ko‘pincha voqelikning emotsional talqinini ustun qo‘yadi, bu esa tomoshabinning haqiqatni qabul qilish jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kino san’ati ijtimoiy haqiqatni aks ettirish bilan cheklanmay, uni shakllantirishda ham faol ishtirok etadi. Jahon va o‘zbek kinematografiyasi misolida kino orqali voqelik turlicha talqin qilinishi va yangi ma’nolar kasb etishi aniqlandi.

O‘zbek va qoraqalpoq filmlari misolida ijtimoiy haqiqat ko‘proq milliy qadriyatlar, an’analar va kundalik hayot orqali ifodalanishi ko‘zga tashlanadi. Bu esa kinoning madaniy xususiyatlar bilan chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.

Zamonaviy axborot makonida kinoning roli ortib borayotgani sababli, tomoshabinlarda media savodxonlik va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abulqosimova, X. **Kino san’ati asoslari**. – Toshkent, 2007.
2. Abulqosimova, X. **Kinoteledramaturgiya asoslari**. – Toshkent, 2009.
3. Akbarov, H. **Kino san’ati tarixi**. – Toshkent, 2008.
4. Akramova, F.A. **Ijtimoiy psixologiya** (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent, 2007.
5. Ahmedov, B. **Kino: mahorat pog‘onalari**. – Toshkent, 2010.
6. Aliev, M. **Kino asoslari**. – Toshkent: O‘qituvchi, 1993.
va ichki dunyosiga murojaat kuchayib, psixologik tahlil elementlari rivojlana boshladi. Bu jarayon ayniqsa Berdaq an’analarini davom ettirgan keyingi avlod shoirlari ijodida yaqqol ko‘rinadi.Qoraqalpoq shoirlari inson ruhiyatini ochib berishda tabiat tasvirlari, ichki monolog, ramziy obrazlar va falsafiy mushohadalardan samarali foydalandilar. Lirik qahramonning ichki kechinmalari ko‘p hollarda tashqi muhit bilan uyg‘un holda tasvirlandi.

XX asr Qoraqalpoq she’riyatida lirik qahramonning ruhiy olami markaziy o‘rin egallaydi. Shoirlar inson qalbidagi iztirob, muhabbat, sog‘inch, umid va hayotiy qarama-qarshiliklarni ta’sirchan poetik shaklda ifodalaydilar. Masalan, Ibrayim Yusupov she’rlarida insonning ma’naviy olami, vatanga muhabbat va ichki iztiroblar lirik qahramon kechinmalari orqali ochib beriladi. Uning poeziyasida psixologik tasvir tabiat manzaralari bilan uyg‘unlashib ketadi. Qoraqalpoq she’riyatida psixologik tasvirning muhim xususiyatlaridan biri, tabiat va inson ruhiyatining o‘zaro uyg‘unligidir. Shoirlar ko‘pincha tabiat hodisalari orqali qahramon ichki holatini ifodalaydilar. Masalan, yomg‘ir, qayg‘u va hasratni, shamol, beqarorlikni, tun, yolg‘izlikni anglatuvchi poetik ramz sifatida qo‘llanadi. Bu esa she’rning emotsional ta’sirchanligini oshiradi. Bunday uyg‘unlik natijasida she’rxon qahramon ruhiyatini chuqurroq his etadi. Psixologik tasvir mahoratida simvolik obrazlar va badiiy detallar muhim ahamiyatga ega. Qoraqalpoq shoirlari ayrim predmet yoki holatlar orqali katta ma’no yuklaydilar. Masalan, yo‘l, hayot ramzi, dengiz, inson taqdiri, quyosh, umid va erkinlik timsoli sifatida talqin qilinadi. Badiiy detallar orqali qahramonning ichki ruhiy holati ta’sirchan ochib beriladi. Bu esa she’riyatning estetik qimmatini oshiradi.

XX asr Qoraqalpoq she’riyatida psixologizm milliy qadriyatlar va xalq ruhi bilan chambarchas bog‘liq. Shoirlar xalqning tarixiy xotirasi, milliy og‘riqlari va orzu-intilishlarini inson qalbi orqali ifodalaydilar. Ayniqsa, Orol muammosi bilan bog‘liq she’rlarda ekologik fojea inson ruhiyati bilan uyg‘un holda tasvirlangan. Bu asarlarda tabiat fojeasi inson qalbidagi iztirob bilan birlashib ketadi. XX asr Qoraqalpoq she’riyatida psixologik tasvir mahorati muhim badiiy xususiyat sifatida shakllandi va taraqqiy etdi. Shoirlar inson ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va ma’naviy iztiroblarini yuksak badiiy mahorat bilan ifodalashga erishdilar. Tabiat tasviri, ichki monolog, simvolik obrazlar va badiiy detallar psixologizmni kuchaytiruvchi asosiy vositalar bo‘lib xizmat qildi. Qoraqalpoq she’riyatida psixologik tasvir nafaqat shaxsiy kechinmalarni, balki xalqning milliy ruhi va ijtimoiy dardlarini ham ifodalash imkonini berdi. Bu esa mazkur she’riyatning badiiy-estetik ahamiyatini yanada oshirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yusupov I. She’rlar va dostonlar. — Nukus: Bilim, 1990. — B. 67–74.

2. Qo‘ng‘irotboyev J. Badiiy mahorat va psixologizm. — Toshkent: Fan, 1995. — B. 80–96.

3. Karimov N. XX asr adabiyoti masalalari. — Toshkent: Ma’naviyat, 2001. — B. 134–140.

КАМАЛ МӘМБЕТОВ ИЛИМИЙ МИЙРАСЫНДА МИЛЛИЙ ӘДЕБИЯТ МӘСЕЛЕЛЕРИ

Қалжанова Тазахан Қалбаевна
ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы оқытыўшысы

Annotaciya Bul maqalada Kamal Mámbetovtıń ilimiy miyrasında milliy ádebiyat máseleleriniń sáwleleniwi, onıń qaraqalpaq ádebiyattanıwınıń rawajlanıwına qosqan úlesi jáne folklor hám milliy qádiriyatlardı izertlewdegi ilimiy kózqarasları tallanadı. Ilimpazdıń xalıq awızeki dóretiwshiligi, jazba ádebiyat hám milliy mádeniyatqa baylanıslı ilimiy kózqarasları ilimiy tiykarda sáwlelendiriledi.

Tayanısh sózler: milliy ádebiyat, folklor, qaraqalpaq ádebiyatı, ádebiyattanıw, ilimiy miyras, mádeniyat.

Milliy ádebiyat hár bir xalıqtıń ruwxıy dúnyası, tariyxıy rawajlanıwı hám mádeniy miyrasın ózinde jámlegen biybaha baylıq esaplanadı. Ádebiyat arqalı xalıqtıń arzıw-niyetleri, turmıs tárizi, úrp-ádetleri hám qádiriyatları áwladtan-áwladqa jetip baradı. Sol sebepli milliy ádebiyattı úyreniw hám onı ilimiy tiykarda izertlew hár bir jámiettiń ruwxıy rawajlanıwında áhmiyetli orın iyeleydi. Milliy ádebiyat tek ǵana kórkem dóretiwshilik ónimi emes, al xalıqtıń tariyxıy yadın, ruwxıy tájiriybesin hám jámiyetlik sanasın sáwlelendiretuǵın áhmiyetli dárek sıpatında da úlken áhmiyetke iye. Ol arqalı xalıqtıń ózine tán dúnyaqarası, qádiriyatları hám milliy identifikaciyası qáliplesedi. Qaraqalpaq ádebiyattanıwınıń rawajlanıwında kóplegen ilimpazlar nátiyjeli jumıs alıp barǵan bolsa da, Kamal Mámbetovtıń ilimiy miyrası ayrıqsha áhmiyetke iye. Ilimpaz óziniń ilimiy izleniwlerinde milliy ádebiyattıń qáliplesiw processleri, onıń tariyxıy rawajlanıw basqıshları hám kórkem-estetikalıq ózgesheliklerin tereń hám ilimiy tiykarda talqılap bergen. Ol ádebiy miyrastı tek ǵana tariyxıy hádiyse sıpatında emes, al xalıqtıń ruwxıy turmısı hám milliy ózligin kórsetiwshi tiykarǵı faktor sıpatında qaradı. Sonıń menen birge, Kamal Mámbetov xalıq awızeki dóretiwshiligi, jazba ádebiyat hám folklor úlgilerin ilimiy úyreniw arqalı qaraqalpaq ádebiyattanıwınıń teoriyalıq hám metodologiyalıq tiykarların rawajlandırıwǵa úlken úles qosqan. Onıń ilimiy kózqarasları milliy ádebiyattıń jámiyetlik turmıstaǵı ornın jáne de tereńirek ańlawǵa imkaniyat beredi hám jas izertlewshiler ushın áhmiyetli ilimiy baǵdar bolıp xızmet etedi.

Kamal Mámbetov óziniń ilimiy jumısında qaraqalpaq xalıq awızeki dóretiwshiligin tereń hám sistemalı túrde izertlegen ilimpazlardan biri bolıp esaplanadı. Ol xalıq awızeki dóretiwshiliginiń tiykarǵı janrları - dástanlar, xalıq qosıqları, ápsana hám ráwiyatlardı ilimiy tallaw arqalı xalıqtıń tariyxıy yadın, ruwxıy dúnyasın hám estetikalıq kózqarasların ashıp beriwge háreket etken. Ilimpaz folklor úlgilerin ápiwayı dóretiwshilik ónimi sıpatında emes, al xalıqtıń ásirler dawamında qáliplesken ruwxıy tájiriybesi hám dúnyaǵa kózqarasın

sáwlelendiretuǵın áhmiyetli mádeniy qatlam sıpatında qaradı. Onıń ilimiy kózqaraslarına bola, milliy ádebiyat xalıqtıń ruwxıy dúnyasın, tariyxıy rawajlanıwın hám milliy ózligin kórsetiwshi tiykarǵı qurallardan biri. Sol sebepli ol ádebiyattı tek ǵana kórkem dóretiwshilik nátiyjesi sıpatında emes, al xalıq turmısınıń sociallıq, tariyxıy hám ruwxıy processlerin ózinde jámlegen áhmiyetli tariyxıy-ruwxıy derek sıpatında da tallap shıqqan. Alım folklor hám jazba ádebiyat arasındaǵı tıǵız baylanıstı kórsetip, olardıń bir-birin bayıtıp barıwın ilimiy tiykarda túsindirip bergen. Usı jaǵınan Kamal Mámbetovtıń ilimiy kózqarası qaraqalpaq ádebiyattanıwında folklordı úyreniwdiń teoriyalıq tiykarların bekkemlewge xızmet etken. Kamal Mámbetovtıń ilimiy jumısında ádebiy shıǵarmanı tallawǵa qatnas ayrıqsha metodologiyalıq áhmiyetke iye. Ilimpaz hár bir kórkem shıǵarmanı úyreniwde tariyxıylıq hám kórkemlik principlerine qatań ámel etiw zárúrligin atap ótken. Onıń pikirinshe, ádebiy shıǵarma belgili bir tariyxıy dáwirdiń jemisi bolıp, onda sol dáwirdiń jámiyetlik-siyasiy sharayatı, mádeniy ortalıǵı hám xalıqtıń ruwxıy kózqarasları óz kórinisin tabadı. Sol sebepli shıǵarmanı tallawda tek ǵana onıń kórkemlik forması hám estetikalıq ózgeshelikleri emes, al dóretilgen dáwiri, tariyxıy konteksti hám avtor jasaǵan sociallıq ortalıq ta tereń úyreniliwi zárúr. Ilimpazdıń bul qatnası ádebiyattı kompleksli tallaw, yaǵnıy tariyxıy hám kórkem táreplerdi úylesikli halda úyreniwge tiykarlanǵan ilimiy metod sıpatında kórinedi. Bul metodologiyalıq kóz-qaraslar qaraqalpaq ádebiyatınıń rawajlanıw basqıshların ilimiy tiykarda úyreniwge keń múmkinshilik jaratqan. Nátiyjede ádebiy processtiń evolyuciyası, janrlardıń qáliplesiwi hám milliy ádebiyattıń ózine tán ózgesheliklerin tereń tallawǵa tiykar tayarlanǵan. Bul bolsa Kamal Mámbetovtıń qaraqalpaq ádebiyattanıwınıń rawajlanıwına qosqan áhmiyetli ilimiy úleslerinen biri bolıp esaplanadı. Kamal Mámbetov óziniń ilimiy kózqaraslarında milliy ádebiyattıń jas áwladtıń tárbiyasındaǵı ornı hám áhmiyetine ayrıqsha itibar qaratqan. Ilimpazdıń pikirinshe, ádebiyat tek ǵana kórkem-estetikalıq qubılıs emes, al insannıń ruwxıy jetilisiwin qáliplestiriwshi áhmiyetli tárbiya quralı bolıp tabıladı. Ásirese, milliy ádebiyat úlgilerin úyreniw arqalı jaslar óz xalqınıń tariyxı, qádiriyatları hám ruwxıy miyrası menen jaqınnan tanısadı. Onıń atap ótiwinshe, ádebiy shıǵarmalar jas áwladta milliy maqtanısh, watansúyiwshilik, adamgershilik hám ruwxıy jetiklik sıyaqlı pazıyletlerdi qáliplestiriwde áhmiyetli rol atqaradı. Usı arqalı ádebiyat jámiettiń ruwxıy turaqlılıǵın támiyinlewshi tiykarǵı faktorlardan biri sıpatında kórinedi.Usı kózqarastan Kamal Mambetov milliy ádebiyat úlgilerin bilimlendiriw procesinde keńnen qollanıwdı usınıs etken bolıp, bul qatnas jaslardı milliy ruwxta tárbiyalaw hám olardıń ruwxıy dúnyaqarasın bayıtıwǵa xızmet etedi.

Juwmaqlap aytqanda, Kamal Mámbetovtıń ilimiy miyrasında milliy ádebiyat máseleleri áhmiyetli orın ieleydi. Ol qaraqalpaq ádebiyatı hám folklorın ilimiy tiykarda úyrenip, milliy mádeniyattıń rawajlanıwına úlken úles qosqan. Onıń ilimiy miynetleri búgingi kúnde de ádebiyattanıw ushın áhmiyetli dárek bolıp xızmet etedi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Мәмбетов К. Әдебият теориясы. –Нөкис: 1995.
2. Karimov N. Milliy adabiyot va mánaviyat. - T.: "Mánawiyat," 2008.
3. Kaljanova, T. The history of general turkic literature in the research of K. Mambetov https://doi.org/10.5281/zenodo.19886016

СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ БИЛАН ИШЛАЙДИГАН ИНТЕРАКТИВ ҚОҒИРЧОҚЛАРНИНГ БОЛАЛАР НУТҚИ ВА ИЖТИМОИЙ КОНЛИКМАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ

Қабулова Мехрибан
ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы, ф.и.ф.д.(PhD)
Ерназаров Нурланбек
ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы оқытыўшысы

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun’iy intellekt (SI) bilan ta’minlangan "aqlli" qo’g’irchoqlar va ijtimoiy robotlarning bolalar nutqi hamda ijtimoiy ko’nikmalarini rivojlantirishdagi pedagogik va psixologik ahamiyati o’rganilgan. Ilmiy tahlillar asosida, jismoniy ko’rinishga ega aqlli qurilmalar an’anaviy 2D ekranlarga (telefon, planshet) qaraganda bolalar e’tiborini uzoqroq ushlab turishi va yangi so’zlarni o’zlashtirishini osonlashtirishi ochib berilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается педагогическое и психологическое значение «умных» кукол и социальных роботов, оснащенных искусственным интеллектом (ИИ), в развитии речи и социальных навыков у детей. На основе научного анализа выявлено, что умные устройства, имеющие физическое воплощение, дольше удерживают внимание детей и облегчают усвоение новых слов по сравнению с традиционными 2D-экранами (телефонами, планшетами).

Abstract: This article examines the pedagogical and psychological significance of "smart" dolls and social robots equipped with artificial intelligence (AI) in developing children’s speech and social skills. Based on scientific analysis, it is revealed that smart devices with a physical embodiment hold children’s attention longer and facilitate the acquisition of new words compared to traditional 2D screens (phones, tablets).

Kalit so’zlar: sun’iy intellekt, aqlli qo’g’irchoqlar, ijtimoiy robotlar, bolalar tarbiyasi, nutq o’stirish, ijtimoiy ko’nikmalar, ta’lim texnologiyalari.

Ключевые слова: искусственный интеллект, умные куклы, социальные роботы, воспитание детей, развитие речи, социальные навыки, образовательные технологии.

Keywords: artificial intelligence, smart dolls, social robots, child upbringing, speech development, social skills, educational technologies.

Hozirgi vaqtda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi bolalar tarbiyasi va ta’lim jarayoniga chuqur ta’sir ko’rsatmoqda. Mamlakatimizda ham bu masalaga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilib, zamonaviy texnologiyalarni ta’limga integratsiya qilish ishlari jadallashmoqda. Xususan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to’g’risida"gi PQ-4996-sonli qarorida iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimida, shu jumladan ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini qo’llash ustuvor vazifa qilib belgilangan [1: Lex.uz]. Bu esa o’quv jarayonlarida innovatsion, xususan, aqlli qurilmalardan foydalanishning huquqiy va amaliy asosini yaratadi.

Ayniqsa, sun’iy intellekt bilan ishlaydigan "aqlli" qo’g’irchoqlar va ijtimoiy robotlar bolalarning nutq va ijtimoiy ko’nikmalarini rivojlantirishda yangi pedagogik va psixologik vosita sifatida o’rganilmoqda. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, bolalar aqlli qo’g’irchoqlar va ijtimoiy robotlar bilan muloqot qilish orqali yangi so’zlar va til ko’nikmalarini muvaffaqiyatli o’zlashtira oladilar [2; 146]. Bu vositalar bolalarning diqqatini an’anaviy 2D ekranli qurilmalarga (planshet yoki televizor) qaraganda ko’proq tortadi. Buning asosiy sababi, aqlli qo’g’irchoqlarning jismoniy mavjudligi (physical embodiment) o’quv jarayonini reallashtiradi va bolaning diqqatini uzoq vaqt ushlab turishga yordam beradi [3; 2].

Shuningdek, aqlli interaktiv qo’g’irchoqlarning bolalar psixologiyasi va ijtimoiylashuviga ta’siri juda katta. Agar sun’iy intellektga ega qo’g’irchoq yoki robot o’quvchiga katta yoshdagi o’qituvchi emas, balki "o’rganuvchi do’st" (peer) sifatida tanishtirilsa, bolalar uchun ular bilan muloqot qilish qiziqarliroq bo’ladi. Bunday holatda o’quv jarayonidagi xatolar yoki tushunishdagi qiyinchiliklari bor bolalarda qo’rquv yoki stress keltirib chiqarmaydi [3; 2]. Olimlarning ta’kidlashicha, bolalar ta’lim beruvchi robotlar bilan suhbatlashganda o’zlarini erkin his qiladilar, chunki aqlli qurilmalar va robotlar xato qilib qo’ygan bolani jazolamaydi yoki odamlar kabi psixologik bosim o’tkazmaydi [4; 2].

Nutq ko’nikmalarini rivojlantirishda "aqlli" qo’g’irchoqlarning (robotlarning) jismoniy ahamiyati. Hozirgi zamon pedagogikasi va lingvistikasida bolalarning til o’rganish jarayonida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarini qo’llash katta natijalar bermoqda. Bolalar uchun so’z boyligini rivojlantirishda oddiy 2D ekranli qurilmalarga (televizor yoki planshet) qaraganda, jismoniy ko’rinishga (embodiment) ega bo’lgan aqlli qo’g’irchoqlar yoki ijtimoiy robotlar ko’plab afzalliklarga ega. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, o’quv jarayonida jismoniy ko’rinishga ega bo’lgan robotlar va qo’g’irchoqlar bolalarning e’tiborini kuchliroq tortadi va yangi so’zlarni eslab qolishini yaxshilaydi [2; 147]. Shuningdek, aqlli qurilmalar ikkinchi tilni o’rgatishda (masalan, L2TOR loyihasi) bolaning qiziqishini orttiradi va tildagi qiyinchiliklarni o’yin orqali yengishga yordam beradi [3; 2]. Demak, aqlli

qo’g’irchoqning jismoniy mavjudligi bolaning nutq ko’nikmalarini faol tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy ko’nikmalar va psixologik erkinlik. Bolalarning ijtimoiy ko’nikmalarini shakllantirishda ularning atrofdagilar bilan muloqot o’rnata olishi asosiy o’rinni egallaydi. Sun’iy intellekt bilan ishlaydigan qo’g’irchoqlar o’quv jarayonida nafaqat o’qituvchi vazifasini, balki "tengdosh do’st" vazifasini ham bajara oladi. Olimlarning kuzatishlariga ko’ra, aqlli qo’g’irchoqlar yoki robotlar o’qituvchi yoki ota-ona sifatida emas, balki tengdosh do’st sifatida suhbatlashganda, bolalarda xato qilishdan qo’rqish hissi va psixologik stress pasayadi [4; 2]. Bundan tashqari, tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, bolalar interaktiv robotlar bilan suhbatlashish davomida ularni ijtimoiy hamkor sifatida qabul qiladi va ularga emotsional jihatdan bog’lanishi, birgalikdagi o’yinlar orqali o’zaro tushunish ko’nikmalarini rivojlantirishi mumkin [5; 63]. Bu esa bolada o’ziga bo’lgan ishonchni oshiradi.

Tarbiyaviy cheklovlar va axloqiy qarashlar. Aqlli qo’g’irchoqlarning bolalar tarbiyasidagi ijobiy tomonlariga qaramay, ilmiy jamoatchilik bu texnologiyalarning cheklovlarini ham aytib o’tmoqda. Sun’iy intellekt qanchalik rivojlangan bo’lmasin, u inson emotsiyasini to’liq va tabiiy ravishda his qila olmaydi. Shuning uchun tadqiqotchilar quyidagi xulosaga kelishgan: sun’iy intellektga ega qo’g’irchoqlar va robotlar hech qachon haqiqiy odamlar bilan (ota-ona va o’qituvchilar) bo’ladigan muloqotning o’rnini bosa almaydi, ular faqat bolaning rivojlanishini qo’llab-quvvatlovchi qo’shimcha ta’lim vositasi sifatida ishlatilishi kerak [2; 149]. Bolaning ijtimoiy va emotsional rivojlanishi uchun real odamlar bilan jonli muloqot doimo birinchi o’rinda turishi shart.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt bilan ishlaydigan "aqlli" qo’g’irchoqlar va ijtimoiy robotlar hozirgi zamon bolalar tarbiyasi va ta’lim jarayonida katta pedagogik salohiyatga ega. Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlar quyidagi asosiy xulosalarni chiqarishga asos bo’ladi:

Birinchidan, aqlli qo’g’irchoqlarning jismoniy mavjudligi (fazodagi harakatlari va shakli) bolaning o’quv jarayoniga bo’lgan diqqatini barqaror ushlab turishga yordam beradi. Bu esa, an’anaviy ekranli qurilmalarga (telefon, televizor) qaraganda, bolalarning yangi so’zlarni o’rganish va nutq ko’nikmalarini rivojlantirish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Ikkinchidan, sun’iy intellektga ega qo’g’irchoqlarning "tengdosh do’st" rolini bajara olishi bolalardagi xato qilish qo’rquvini yoki o’quv jarayonidagi psixologik stressni kamaytiradi. Bolalar ular bilan erkin muloqot qilish orqali o’zlarining boshlang’ich ijtimoiy va kommunikativ ko’nikmalarini rivojlantiradilar.

Uchinchidan va eng muhimi, dunyoviy ilmiy tadqiqotlarning yakuniy xulosasiga ko’ra, sun’iy intellekt qurilmalari hech qachon haqiqiy inson (ota-ona va o’qituvchi) tarbiyasining o’rnini to’liq bosa almaydi. Akademik T. Belpaeme va uning hamkasblari ta’kidlashicha, aqlli robotlar va qo’g’irchoqlar faqatgina an’anaviy o’qitish metodlarini boyituvchi va qo’llab-quvvatlovchi "qo’shimcha texnologik vosita" sifatida qabul qilinishi kerak [6; 8]. Bolaning

barkamol inson bo’lib, emotsional va ijtimoiy jihatdan to’liq rivojlanishi uchun jamiyatdagi jonli muloqot (odamlar bilan o’zaro ta’sir) doimo eng muhim o’rinni egallaydi va bu jarayon tabiiy ravishda davom etishi shart [2; 150].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to’g’risida"gi PQ-4996-sonli qarori. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.02.2021-y., 07/21/4996/0127-son).
2. Kanero, J., Geçkin, V., Oranç, C., Mamus, E., Küntay, A. C., & Göksun, T. (2018). Social Robots for Early Language Learning: Current Evidence and Future Directions. *Child Development Perspectives*, 12(3), 146-151.
3. Vogt, P., de Haas, M., de Jong, C., Baxter, P., & Krahmer, E. (2017). Child-Robot Interactions for Second Language Tutoring to Preschool Children. *Frontiers in Human Neuroscience*, 11, 73.
4. Mubin, O., Stevens, C. J., Shahid, S., Mahmud, A. A., & Dong, J. J. (2013). A review of the applicability of robots in education. *Technology for Education and Learning*, 1(1), 1-7.
5. Kanda, T., Hirano, T., Eaton, D., & Ishiguro, H. (2004). Interactive robots as social partners and peer tutors for children: A field trial. *Human-computer interaction*, 19(1-2), 61-84.
6. Belpaeme, T., Kennedy, J., Ramachandran, A., Scassellati, B., & Tanaka, F. (2018). Social robots for education: A review. *Science robotics*, 3(21), eaat5954.

HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE’RIYATIDA AYOL OBRAZIDAGI MA’NAVIY QADRIYATLAR

Останова Севинч
ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы 3-курс студенти
Илимий басшысы, ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы
оқытыўшысы ***Уразбаев Ислам***

Annotatsiya. Ushbu maqolada Halima Xudoyberdiyeva ijodi, she’riyati tahlili, she’rlaridagi ayol kuchi,dardlari, jamiyatdagi o‘rni qanday tasvirlanganligi haqida aytib o‘tilgan.Shunikdek shoiraning ona mehri va oilaviy qadriyatlarni she’rlarida ifoda etganligi haqida ham so‘z yuritiladi.

Annatation. This article examines the work and poetry of Khalima Khudoiberdieva, analyzing how her poems reflect the power, suffering, and place of women in society. The expression of maternal love and family values in her poems is also discussed.

Абстрактный. В данной статье рассматривается творчество и поэзия Халимы Худойбердиевой, анализируется, как её стихи отражают силу, страдания и место женщин в обществе. Также обсуждается выражение материнской любви и семейных ценностей в её стихах.

Kalit so‘zlar: ayol, ona, mehr-muhabbat, ayol qalbi, qadr-qimmat, shoira, tuyg‘ular, ijod.

Keywords: woman, mother, love, female heart, dignity, poet, feelings, creativity.

Ключевые слова: женщина, мать, любовь, женское сердце, достоинство, поэт, чувства, творчество.

Adabiyot osmonining yorqin yulduzi , benazir iste’dod sohibasi Halima Xudoyberdiyeva 1974-yilning 17- may sanasida Sirdaryo viloyatining boyovut tumanida dunyoga kelgan.ToshDUning jurnalistika fakultetini tugatgan. Shoiraning ko‘plab ijod na’munalari birin ketinlikda bosmadan chiqarilgan. Halima Xudoyberdiyeva nafaqat shoira , balki xalq dardini yuragidan o‘tkazgan, ayol qalbining eng nozik tuyg‘ularini satrlarga jo etgan, Vatanga muhabbatni ulug‘lagan buyuk ijodkor timsolidir.

Shoira ijodi asosan ayol kuchi,dardlari, kechinmalari-yu yashash tarzi barcha – barchasini o‘z ichki kechinmalari orqali ifodalagan. Uning she’rlarini o‘qigan vaqtimizda ayol qalbining eng nozik va shu bilan birga eng mustahkam qirralarini o‘ta samimiy va jo‘shqin ohanglarda kashf etganini ko‘rishimiz mumkin.Halima Xudoyberdiyeva ayolni shunchaki zaifa emas , balki hayotning barcha sinovlariga dosh beradigan kuchli shaxs sifatida tasvirlaydi. Uning ushbu satrlari buni yaqqol isbotlaydi:

Oshiqlaring poyinga gul otib ham bo‘ldi,
Xilvatlarda labingdan bol totib ham bo‘ldi.
Va bu haqda kimlargadir sotib ham bo‘ldi,
Sen baribir muqaddassan , muqaddas ayol.**[1.197-b]**

Ushbu she’r orqali biz ojizaning sha’ni , qadr – qimmati va har qanday malomatlardan ustun turuvchi sofligi yuksak cho‘qqilarda ulug‘langanini ko‘rishimiz mumkin. U nafaqat ayol, u opa , u singil, u onadir. Shoira ijodida bu obrazlar milliy o‘zlik va fidoiylik bilan chambarchast bog‘liqdir. Ijodkor ayol timsolida o‘zbekona oila muhitini, mehr-muhabbat va sadoqat qadriyatlarini saqlab qoluvchi kuchni ko‘radi. Ojiza faqat ro‘zg‘or va oila doirasida band bolib qolmaydi u jamiyatdagi o‘zgarishlarga munosabat bildiradi, millat va xalq taqdiri bilan birga yashaydi, uning dunyo qarashlari ham chuqur ruhiy-falsafiy jihatga egadir. Ayol tabiati o‘zining barcha quvonchlari, iztiroblari, armonlari va ichki kechinmalari bilan bor bo‘yicha namoyon bo‘ladi. Shoira ayol qalbining sirlarini, uning muhabbatdagi sadoqati va xiyonat qarshisidagi iztiroblarini yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlaydi.

Halima Xudoyberdiyeva ijodi – bu o‘zbek ayolining yurak ovozi, milliy o‘zlikni anglatuvchi badiiy kalit, she’riyatdagi estetik va ijtimoiy uyg‘unlikning yorqin namunasi. Mazkur tadqiqot shoiraning badiiy tafakkuri, poetik obrazlari, til va uslub xususiyatlari, estetik g‘oyalari asosida chuqur ilmiy yondashuv bilan tahlil qilindi. **[2.7-b]**. Shoiraning ijodida shaxs erkinligi , jamiyat ma’naviyatining yuksalishi eng asosiy badiiy g‘oyalardir. Bu qadriyatlarni yosh avlodga yetkazish ijodkorning sof niyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saylanma. “Muqaddas ayol” to‘plamidan.1987

2. Halima Xudoyberdiyeva ijodining o‘rganilishi - Nusratov Bobur.

3. Adabiyotshunoslikka kirish , T.Boboyev O‘qituvchi , 1995

4. Saylanma , H.Xudoyberdiyeva , “Sharq” 2000

БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА АРТ-ПЕДАГОГИКАНИНГ ЎРНИ ВА УСЛУВЛАРИ

Хусанов Бабур Неъмат ўғли

ЎзДСМИ мустақил тадқиқотчиси

Annotatsiya: ushbu maqolada art-pedagogikaning ta’limdagi o‘rni va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada san’at ishlab – vizual san’at, musiqa, teatr va jamoaviy ijodiy faoliyatlar – o‘qitish jarayoniga integratsiya ishlab chiqarish o‘quvchilarda kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanish ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: art-pedagogika, ijod, tafakkur, visual, san’at, hissiy intellekt, jamoa, fikr, kognitiv, boshlang‘ich ta’lim, tanqid.

Аннотация: в данной статье представлен теоретический анализ роли художественной педагогики в образовании и её значения для развития мышления учащихся начальной школы. В статье рассматривается интеграция художественных видов деятельности – изобразительного искусства, музыки, театра и совместных творческих проектов – в учебный процесс с учетом развития когнитивных, эмоциональных и социальных навыков учащихся.

Ключевые слова: художественная педагогика, творчество, мышление, изобразительное искусство, эмоциональный интеллект, команда, мыслительная деятельность, когнитивное развитие, начальное образование, критика.

Abstract: this article scientifically and theoretically analyzes the role of art pedagogy in education and its importance in developing the thinking of elementary school students. The article examines the integration of art activities – visual arts, music, theater, and collaborative creative endeavors – into the teaching process and their impact on students' cognitive, emotional, and social development.

Keywords: art pedagogy, creativity, thinking, visual, art, emotional intelligence, team, idea, cognitive, primary education, critique.

Özet: bu makale, eğitimde sanat pedagojisinin rolünü ve ilkokul öğrencilerinin düşünme becerilerinin geliştirilmesindeki önemini teorik bir bakış açısıyla ele almaktadır. Makale, öğrencilerin bilişsel, duygusal ve sosyal becerilerinin gelişimini göz önünde bulundurarak, sanat etkinliklerinin (görsel

sanatlar, müzik, tiyatro ve işbirliğine dayalı yaratıcı çalışmalar) öğretim sürecine entegrasyonunu incelemektedir.

Anahtar kelimeler: sanat pedagojisi, yaratıcılık, düşünme, görsel sanatlar, duygusal zeka, takım, düşünce, bilişsel, ilköğretim, eleştiri.

Art pedagogika – bu san’at va pedagogikani birlashtirgan tarbiyalash va ta’lim berish usulidir. Uning asosiy maqsadi — insonning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, shuqur va empatiya hissini uyg‘otish va shaxsni barqaror va muxtor tarzda shakllantirishdir. Art pedagogikada o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlar interaktiv va kreativ bo‘lib, o‘quvchilarning ichki dunyosi va ixtiyoriy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Art pedagogikada ko‘pincha san’at vositalari (rasm, musiqa, dramaturgiya, teatr, raqs va h.k.) va jismoniy faoliyatlar o‘qitish jarayoniga jalb etiladi. Bu usul o‘quvchilarning diqqatini, his-tuyug‘ularini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Art pedagogika o‘quvchilarga o‘z hislarini va fikrlarini erkin ifodalashga imkoniyat beradi va shu orqali ularning ijodiy va intellektual salohiyatini yuksaltirishga yordam beradi. Art pedagogika ta’limda bir qator muhim ta’sirlarga ega bo‘lib, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, his-tuyg‘ularini va intellektual salohiyatlarini rivojlantirishga ko‘maklashadi. Quyida art pedagogikasining ta’limdagi asosiy ta’sirlarini tahlil qilamiz.

Art pedagogika o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini, shijoatini va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ushbu usul bilan o‘quvchilarga yangi ideyalar va yangicha qarashlarni izlash imkonini yaratadi, bu esa ularni ishonchli va mustaqil fikrlashga ruhlantiradi. San’at vositalaridan (rasm, musiqa, teatr va h.k.) foydalanish o‘quvchilarda yozma va nutqiy fikrlashdan tashqari, ularning ichki dunyosi va his-tuyg‘ularini boshqalarga ifodalash imkoniyatini yaratadi. Bu his-tuyg‘ularning to‘g‘ri, noaniq va samarali ishlatilishi o‘quvchining psixoemotsional rivojlanishiga ham yordam beradi. Art pedagogika o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi aniq va har tomonlama aloqalarni o‘rnatishga yordam beradi. Ushbu o‘qitish jarayoni interaktiv va ijodiy bo‘lib, har ikki tomonning faol ishtirokini ta’minlaydi. Bu o‘quvchilarga tajriba orqali o‘z bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish imkonini beradi. Art pedagogika shaxsning ichki rivojlanishini va uning ijtimoiy moslashuvini qo‘llab-quvvatlaydi. U shular orqali o‘quvchiga o‘zini tanish va uning ijtimoiy muhitdagi o‘rnini aniqlashga yordam beradi.

Art pedagogika ta’limda tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Uquvchilar nafaqat standartlarga amal qilib, balki yangicha va alternativ yo‘llarni ham ko‘rib chiqishga o‘rganadilar. Art pedagogika turli xil qarashlarni, madaniyatlarni va fikrlarni qabul qilishga urg‘u beradi. Bu o‘quvchilarni turli dunyoqarashlarga va ijodiy izlanishlarga ochiq qilib, ularning ijtimoiy va madaniy shaxs sifatida rivojlanishini ta’minlaydi. San’at va ijodiy faoliyatlar orqali ta’lim jarayoni jonlanib, o‘quvchilarni o‘qishga va o‘rganishga qiziqtiradi. Bundan tashqari, art


pedagogika o‘quvchining diqqatini uzoq vaqt davomida saqlab turishga yordam beradi.

Art-pedagogika — ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va ta’limda san’atning qo‘llanilishi.Art-pedagogikani bosqichlar va usullar bo‘yicha tushuntirish (masalan, vizual san’at, musiqa, teatr va boshqa san’at turlaridan foydalanish).


Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda nazariy, ijodiy va tanqidiy fikrlash kabi metodlardan foydalanish o‘zining samarasini ko‘rsatib kelmoqda. Art-pedagogika orqali ularning ijodiy, tanqidiy va vizual fikrlashini rivojlantirish.Art-pedagogik usullarning o‘quvchilarning axloqiy va estetik rivojlanishidagi ta’siri va Art-pedagogikani boshlang‘ich sinfda qo‘llash usullarini ko‘rib chiqamiz.

1. Vizual san’at – rasm, shakllar va ranglar orqali tafakkurni rivojlantirishda vizual san’at ta’limi kognitiv rivojlanishning kuchli vositasidir. Neyroilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rasm chizish va tasviriy faoliyat prefrontal korteks, parietal lob va hippokampni bir vaqtda faollashtiradi – bu esa mantiqiy fikrlash, fazoviy idrok va xotira integratsiyasini kuchaytiradi.


Vizual-fazoviy idrok – bolalar shakllar, nisbatlar va ranglarni tahlil qilar ekan, miyaning “nima?” va “qayerda?” tizimlari birgalikda ishlaydi. Ranglarni tanlash esa hissiy intellekt bilan bog‘liq – amigdala rang stimullariga javob beradi. Kompozitsiya tuzish esa ijroiya funksiyalarni (rejalashtirish, maqsad qo‘yish) rivojlantiradi.



2. Musiqa va teatr – ovoz, harakat va emotsiyalar orqali emotsional intellektni shakllantirish – musiqa va teatr ta’limi emotsional intellektning (EI) barcha to‘rt komponentini – o‘z hissiyotlarini anglash, boshqarish, boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va munosabatlarni boshqarishni – birga rivojlantiradi. Musiqa o‘rganish miyaning neyroplastisite mexanizmini faollashtiradi. Teatr esa “ko‘zgu neyronlar” (mirror neurons) tizimini ishga soladi – bu empati va ijtimoiy idrok uchun asosiy mexanizmdir. Musiqa ritmiga harakatlanish serebellyum va bazal gangliyani rivojlantiradi, bu esa impuls nazorati va ritm sezgisini kuchaytiradi. Ularni quyidagi guruhlarga ajratib ko‘rib chiqamiz.



3. Jamoaviy ijodiy faoliyatlar – muammoli vaziyatlarni hal qilish va jamoaviy fikrlash ijodiy hamkorlik tadqiqotlarida “guruh aqli” hodisasini aniqlagan – guruh a’zolari birgalikda ishlaganda individual samaradorlikdan 1.5–3 barobar yuqori natijalarga erishadilar.



Uchala yo‘nalish birgalikda “21-asr ko‘nikmalari” deb ataladigan to‘plam – tanqidiy tafakkur, ijodkorlik, hamkorlik va muloqotni shakllantiradi. Har bir metodning o‘ziga xos kuchi bor: vizual san’at kognitiv va fazoviy tafakkurni, musiqa va teatr emotsional anglash va empatiyani, jamoaviy ijod esa ijtimoiy va metakognitiv ko‘nikmalarni ustuvor rivojlantiradi. Lekin ularni birlashtirgan holda qo‘llash eng yuqori pedagogik samaraga olib keladi.

Art-pedagogika – san’at va pedagogikaning integratsiyasi. Bu yondashuv, san’at vositalarini pedagogik jarayonlarga kiritish orqali o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini, tasavvurni va tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan.Art-pedagogikaning asosiy g‘oyalaridan biri – o‘quvchilarga san’at asarlari orqali dunyoni turlicha idrok etishga imkon berishdir. Rasm chizish, musiqa va drama mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilarda kreativlik va ijodiy tafakkur shakllanadi. Art-pedagogika yordamida o‘quvchilar boshqalarning hissiyotlarini tushunish va o‘z his-tuyg‘ularini ifodalashda yordam olishadi. San’at mashg‘ulotlari o‘quvchilarda o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi, shu bilan birga, ular fikrlash jarayonlarida yanada faolroq bo‘ladilar. Art-pedagogika yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkuri rivojlanadi, ular ijodiy fikrlashni o‘rganadi va o‘zlarini turli san’at shakllarida ifodalashga qodir bo‘ladilar.

Bunday yondashuv nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki o‘quvchilarning ichki dunyosini, dunyoqarashini kengaytiradi.Agar maqolada ma'lum bir usul yoki metodni kengaytirmoqchi bo‘lsangiz, o‘quvchilarning ijodiy yondoshuvlarini taqdim etishda qo‘llanadigan muayyan materiallar yoki tajribalar bilan bog‘liq misollarni qo‘shish mumkin.

Xulosa shuki, art-pedagogika – san’at va pedagogikaning integratsiyasi sifatida – yordam'ich sinf o‘quvchilarining har organik rivojlanishida muhim pedagogik vosita. Vizual san’at orqali kognitiv va fazoviy tafakkur, musiqa va teatr orqali emotsional anglash hamda empati, jamoaviy ijodiy faoliyatlar orqali esa ijtimoiy hamkorlik va muammoni hal qilish ko‘rinishida maqsadli ravshan shakllantiriladi. Ush uch yo‘nalishni bir xilda qo‘llash an'anaviy ta’lim usullariga nisbatan samaradorlikni o‘zgartirishga, o‘quvchining ichki dunyosini mustaqil va uni mustaqil, ijodkor shaxs sifatida tarbiyalaydi. Shu bois, art-pedagogik zamonaviy talim tizimiga keng joriy etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Falsafa qomusiy lug‘at. -T.: Sharq, 2004.
2. Abdullayeva M. Dramatik teatr va kinoda aktyorlik mahorati. -T.: Tafakkur qanoti, 2014.
3. Qobilov N. Aktyorlik mahorati. -T.: Navro‘z, 2020.
4. Qobilov N. Muhammadiyev Sh. Aktyorlik mahorati. -T.: Navro‘z, 2020.
5. Mahmudov J. Mahmudova X. Aktyorlik mahorati. -T.: Lesson Press, 2016.Sayfullayev B., Mamatqosimov J. Aktyorlik mahorati. -T.: Fan va texnologiya. T.: 2012.
6. Расулов, У. (2024). Мусиқали драмада драматург, бастакор ва режиссёр ижодий ҳамкорлиги: улар ижодида мавзу ва жанрнинг мутаносиблиги масаласи. *Oriental Art and Culture*, *5*(5), 572-577.
7. Usnatov, R. J. (2025). Musiqali dramaning ayrim muammolari. *Inter education & global study*, (1), 518-522.
8. Qudratov, O. (2024). Musiqali teatr gul toji, arshinmolchi. *Oriental Art and Culture*, *5*(5), 274-278.

«Ш.СЕЙТОВТЫҢ «ХАЛҚАБАД» РОМАНЫНДАҒЫ ТАБЫЎ СӨЗЛЕРДИҢ ГРАМАТИКАЛЫҚ ХЫЗМЕТИ

Оразбаева Назенайым Даулетбай қызы
ҚМУ таяныш докторанты

Annotaciya: Usı maqalada qaraqalpaq ádebiyatınıń kórnekli wákili Sh. Seytovtıń «Xalqabad» romanındaǵı tabu sózler hám olardıń kórkem teksttegi pragmatikalıq (funkcional-kommunikativlik) xızmetleri talqılanadı. Romandaǵı qaraqalpaq xalqınıń dástúriy turmısı, diniy-mifologiyalıq túsinikleri hám etikası menen baylanıslı qollanılǵan qadaǵan etilgen sózlerdiń kórkemlik xızmeti, qaharmanlar psixologiyasın ashıwdaǵı áhmiyeti lingvopragmatikalıq tárepten analizlengen.

Tayanısh sózler: tabu, lingvopragmatika, kórkem tekst, til mádeniyatı.

Annotatsiya: Ushbu maqolada qoraqalpoq adabiyotining taniqli vakili Sh. Seytovning «Xalqabad» romanidagi taqiq qilingan so'zlar va ularning badiiy matndagi pragmatik (funksional-kommunikativ) vazifalari muhokama qilinadi. Romandagi qoraqalpoq xalqining an'anaviy hayoti, diniy-mifologik tushunchalari va axloqiy qadriyatlari bilan bog'liq bo'lgan, ma'lum maqsadda ishlatilgan so'zlarning badiiy vazifalari va qahramonlar psixologiyasini ochishdagi ahamiyati lingvopragmatik nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются запрещенные слова в романе «Халкабад» Ш. Сеитова, известного представителя каракалпакской литературы, и их прагматические (функционально-коммуникативные) функции в литературном тексте. С лингвисто-прагматической точки зрения анализируются художественные функции слов, используемых в романе для конкретной цели, связанной с традиционным образом жизни, религиозно-мифологическими концепциями и моральными ценностями каракалпакского народа, а также их значение в раскрытии психологии персонажей.

Ключевые слова: табу, лингвистопрагматика, литературный текст, языковая культура.

Abstract: This article discusses the forbidden words in the novel "Xalqabad" by Sh. Seitov, a well-known representative of Karakalpak literature, and their pragmatic (functional-communicative) functions in the literary text. The artistic functions of the words used in the novel for a specific purpose, related to the traditional life, religious-mythological concepts and moral values of the Karakalpak people, and their significance in revealing the psychology of the characters are analyzed from a linguopragmatic point of view.

Keywords: taboo, linguopragmatics, literary text, language culture.

Kórkem shıǵarmada til tásirsheńligin táminlewshi, xalıqtıń mentaliteti menen mádeniyatın kórsetiwshi eń áhmiyetli leksikalıq qatlamlardıń biri — tabu sózler bolıp tabıladı.

Tabu túsinigi túrli mádeniyatlar hám jámiyetlerde tereń tamır atqan bolıp, onıń kelip shıǵıwı antropologiyalıq, sociologiyalıq, psixologiyalıq hám lingvistikalıq tárepten keń úyrenilgen**.** Tabu-polineziya tilinde “qadaǵan etilgen”, “muqaddes” degen mánilerdi bildiredi[1]. Jámiyette qanday da bir tásir, qorqınshı yamasa ádep-ikrám normaları sebepli tuwra aytıw qadaǵan etilgen sózler.

Tabu ataması birinshi márte XVIII ásirde Polineziya atawındaǵı qáwimlerdiń turmısın úyreniw barısında ataqlı teńiz sayaxatshısı hám izertlewshi kapitan Kuk tárepinen kiritilgen bolıp, ol usı dáwirdegi málim bir qáwimniń ózara múnásibetlerinde hám dástúrlerinde bar bolǵan sheklewlerdi ańlatıwda qollanılǵan. Tabudıń insaniyat tarıyxında qashan payda bolǵanlıǵı haqqında házirge shekem anıq pikirler, dálillewler kórsetilmegen. Biraq, ayırım miynetlerde, tiykarınan, túrk tiliniń túsindirme sózliginde tómendegishe tárip

berilgen: “Muqaddes esaplanǵan bazı insanlardıń, haywanlardıń atın aytıw, olarǵa jaqınlasıw qadaǵan etilgen, bolmasa zıyanlı aqıbetlerge alıp keledi dep túsiniletuǵın diniy túsinik, qadaǵan etilgen nárseler, sózler”[2].

Lingvopragmatika kózqarasınan qaraǵanda, tabu sózler tekstte tek ǵana qadaǵan quralı emes, bálki avtordıń qaharmanlar obrazın jaratıw, dáwir atmosferasın beriw hám tildiń milliy boyawın ashıwdaǵı tiykarǵı kórkemlik quralı esaplanadı.

Sh.Seytovtıń «Xalqabad» romanı qaraqalpaq xalqınıń XX ásirdiń 20-30-jıllarındaǵı milliy tili, dástúri, psixologiyası hám jámiyetlik turmısın barınsha kórsetip bergen kórkem shıǵarma bolıp esaplanadı. Romanda qaraqalpaq xalqınıń til mádeniyatı, sonıń ishinde, tabu sózler-belgili bir jámiyetlik, diniy yamasa tásir etiw qorqınshı sebepli qollanılıwı qadaǵan etilgen yamasa sheklengen sózler kórkemlik hám pragmatikalıq maqsetlerde júdá sheberlik penen qollanılǵan.

Romandaǵı tabu sózler hám olardı almastırıwshı leksemalardı baqlaw barısında olardıń qollanılıw niyetine (pragmatikalıq baǵdarına) qaray tómendegi toparlarǵa bólip úyreniwge boladı.

Sezimlerdi bórttirip kórsetiw: Sóylew waqtında tıńlawshıǵa kúshli psixologiyalıq tásir ótkeriw, ǵázep, tolqınlanıw yamasa qattı quwanıwdı ańlatıw ushın qollanılǵan tabu sózler. Shabaz-sózi erli-zayıplılardıń, ásirese, erlerdiń hayalına xoshametlep aytatuǵın sózi[3;410]. Bul sóz romanda júdá kóplep qaharmanlardıń tilinde qollanıńǵan. Solardıń biri Nazarbaydıń hayalı Bazardıń tilinen óz erine heshqashan kewli jibimese de ol nawqaslanıp qalǵan waqtında bir jaǵdayda qollanıladı. Mısalı: Ómirde eń bolmasa tımawratıp kórmegen Nazekeńe “Adam úseytip óledi eken-aw!” degennen basqa oy kelgen joq. Bazar hawlıqqanınan kóylegin teris kiyip, shútik shıranı jıltırattı.

-Ne boldı, **shabazım,** ne boldı? -dep shıranı betine tutsa, ólimtik sáwle Nazarbaydıń másh ireń kózlerindegi lıqqa tolǵan jasqa shaǵılıstı. (“Shar buzıw” 79-bet).

Jeńge sózi tuwısqan, atalas yamasa jaqın urıwlas aǵanıń hayalına aytıladı. Bul sóz qaraqalpaq shańaraqlarında, awıllarında jiyi qollanıladı. Romanda sóz etilgen “Jaqsılıq” sovxozınıń adamları da bir-biri menen atalas, jaqın bolǵanlıqtan húrmet-izzet kórsetiw ushın jası kishi er jigitler jeńge sózin barlıq hayallarǵa qarata qollanılǵan. Tomendegi mısalda eki qaharman arasındaǵı sáwbette er adam tilinen qollanılǵan. Mısalı: ...kolxozda seniki-meniki degen gáp bolmaydı, hámmesi ortaq.

-Jeńgeńe bek bol deseń-o onnansha, wa-ha-ha....(“Shar buzıw” 15-bet)

Qorǵanıw mexanizmi wazıypası: Psixologiyalıq jaqtan awırıw, qorqıw yáki stress jaǵdayında ishki halatın jeńilletiw ushın xızmet etetuǵın tabu sózler. Bul mazmundaǵı tabu sózler romanda kóbinese hayal-qızlardıń tilinen bayanlanadı. Romanda sóz etilgen tiykarǵı waqıya-kolxozlastırıw waqtında awıllarǵa oraydan jiberilgen wákillerden qorqıw, olarǵa isenbew jaǵdayları bolǵan waqıtta olarǵa kóbinese “qáynim” dep múrájáát etken. Negizinen, qáyin sózi erli-zayıplı adamlardıń tuwısqan inilerine aytıladı[4;386]. -Men barman,

qáynim, -dep búyrektey búlkildep Ayxan shıqtı. -Beretuǵınımdı soń aytaman, **kisimiz** bir jaqqa ketip edi...(“Shar buzıw” 97-bet)

Sonday-aq, hayallar óz ómirlik joldasın sıylap, atın atamay olardıń ornına “kisim” “tórem”, “úydegi” dep ataydı. Romandaǵı qaharmanlar bunday sózlerdi barqulla emes, teń sociallıq ortalıqta, yamasa ayırım orınlarda kózabaǵa qollanılǵan jaǵdayların kóriwge boladı. Mısalı: -Oy, jaqsı adam boldıń ǵoy, á! -dedi hayal eljirep hám otta sasıp atırǵan quyqanı ayaǵı menen ısırıńqırap, -Áy**, tórem,** shıǵa ǵoy, -dep baqırdı. Qoydıń iyesi emes, Qıdır ata keldi... (“Shar buzıw” 25-bet).

Jámiyettegi ózara shegaranı belgilew: Bul baǵdardaǵı tabu sózler romandaǵı barlıq hayal-qızlardıń tilinde ushırasadı. At qoyıwǵa, laqap taǵıwǵa hayal-qızlardan sheberi joq. Sebebi, olar awıllaslarınıń peyline, jumısına, sırtqı pishimine baylanıslı hár turli laqaplardan paydalanǵan. Mısalı, Shundıy qaynaǵa, Dáw qaynaǵa, Úyshi bala, Sozanay sheshe, Tıshtanay sheshe, Tasmańlay hám taǵı basqa. Daqılın jıynatqan úydiń hayalı Sozanayǵa keledi de, “Bereket tap sheshe, mınaw bir kepshik gúnjini al, atama aytayıq desek qorqtıq” deydi. Sonnan góne qabaq bar ma, góne shanash bar ma, salıp tıqqıshlap júrgeni. Nabada kórip qoysa “Seniń kómeklesip júrgen adamlarıńnan mına **Tıshtanay sheshem** táwir, bereket tapqır, “Jańalıq etiń” dep enepattay ákelip bere qoydı” deydi de, adamlardıń peyliniń jaqsılanıp kiyatırǵanlıǵın aytıp ǵarrısın bir iráhátlendirip taslaydı. (“Shar buzıw” 119-bet)

-Atlılardıń túskeni jańa, múddáhásin aytpay atırǵandıdaǵı....

-Sonda sen jawshı ekenin qayaqtan bildiń...

-Sozanay sheshem ayttı....(“Shar buzıw” 21-bet)

Sıdıqtıń eltisi, túrinde qan-qoq joq, kele sala: -Óyppey, **úyshi bala!** Esitken jerden awlaq-áy! Balań meshitti baltalap atır! -dep jılap jiberdi. (“Shar buzıw” 86-bet).

«Xalqabad» romanında qaraqalpaq xalqınıń shańaraq turmısı, kelinler menen qayin jurt arasındaǵı qatnaslar, úlken hám kishi insanlar ortasındaǵı ierarxiya júdá anıq súwretlengen. Joqarıda ajıratıp kórsetilgen tabu sózlerdiń pragmatikalıq xızmeti-kelinlerdiń úlkenlerge bolǵan húrmetin, ádep-ikrám normaların hám shańaraqtaǵı óz ornın til arqalı kórsetiw bolıp tabıladı. Jazıwshı bul tillik qural arqalı qaraqalpaq kelinlerine tán bolǵan miynetkeshlik, kishipeyillik hám sıpayılıq qásiyetlerin personajdıń tili arqalı hár tárepleme ashıp bere alǵan.

Sh.Seytovtıń «Xalqabad» romanındaǵı tabu sózler hám olardıń pragmatikalıq xızmetin úyreniw tómendegi juwmaqlardı shıǵarıwǵa imkaniyat beredi:

Birinshiden, tabu sózler romanda tek ǵana tillik sheklewler emes, bálki kórkem teksttiń estetikalıq tásirin arttırıwshı mánili qural xızmetin atqarǵan.

Ekinshiden, avtor qaraqalpaq xalqınıń ruwxıy mádeniyatın, úrp-ádetlerin personajlardıń tili arqalı tabiyiy hám realistlik replikalarda kórsete alǵan.

Lingvopragmatikalıq kózqarastan, «Xalqabad» romanındaǵı tabular tekstte adresat hám adresant (sóylewshi hám tıńlawshı) arasındaǵı baylanıstı

baqlawshı, emociyalıq tásirdi basqarıwshı hám milliy mentalitetti sáwlelendiriwshi baslı kórkemlik strategiyasınıń biri retinde bahalasaq boladı.

Sh. Seytovtıń «Xalqabad» romanı qaraqalpaq xalqınıń turmısınıń eń quramalı dáwirlerin kórsetiw menen birge, xalıq tiliniń baylıǵın, ásirese, sıpayılıq, qorqınısh hám dástúrlerge sáykes qollanılǵan tabu sózlerdiń kórkem modifikaciyasın izertlewde tabılmas derek bolıp xızmet etedi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tabu
2. Türk dil kurumu, Türkçe Sözlük, Ankara 2005,s1549
3. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. Жети томлық. Жетинши том. Нөкис, «Qaraqalpaqstan», 2023.
4. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. Жети томлық. Төртинши том. Нөкис, «Qaraqalpaqstan», 2023.
5. Сейтов Ш. Халқабад. 1-2-китаплар. Нөкис, «Jeti ıqlım», 2023.

АРТ МЕДИЯ ТЕЛКАНАЛЛАР

Абдиқадир Оразов

ӨзМКӨМИ Нөкис филиалы оқытыўшысы

Art-jurnalistika – bul mádeniyat hám kórkem óner tarawın sáwlelendiretuǵın medianıń qánigelesken baǵdarı bolıp tabıladı. Ol dóretiwshiler menen auditoriya arasında baylanıstırıwshı wazıypanı atqarıp, jámiyettiń estetikalıq talǵamın qáliplestiredi hám jańa mádeniy qádiriyatlardı úgit-násiyatlap baradı.

Usı orında televidenieniń jámiyetimiz turmısındaǵı áhmiyetin atap ótiwimiz tiyis. Televidenie xalıqqa siyasiy, sociallıq, ekonomikalıq, mádeniy-aǵartıwshılıq baǵdarında alıp barılıp atırǵan jumıslardı tásirsheń usılda jetkerip beretuǵın kommunikaciya qurallarınan biri bolıp esaplanadı. Art mediaǵa qánigelesken telkanallar bolsa tamashagóylerge tek ǵana kewil ashar baǵdarlamalardı usınıp qoymastan belgili xudojnik hám dramaturglerdiń shıǵarmaları, sonday-aq, muzıka, teatr, kino dóretpelerin talqılap, jámiyette mádeniy bilim hám kónlikpelerdi payda etiwde xızmet etip keledi.

Bul ilimiy maqala temasın sáwlelendiriwde elimizde kórkem óner hám mádeniyat tarawına qánigelesken telekanallar jumısı talqılanadı. Izertlew jumısında Mádeniy aǵartıwshılıq baǵdarındaǵı jumıslardı úgit-násiyatlawda «Madaniyat va ma’rifat» telekanalı, muzıkalıq dóretpelerdi keń auditoriyaǵa jetkeriwde «Navo» telekanalı, sonday-aq, kino kórkem shıǵarmaların sáwlelendiriwde «Kinoteatr» telekanallarınıń búgingi kúndegi xızmeti atap ótiledi.

«Madaniyat va ma’rifat» telekanalı elimizde mádeniyat, ilim hám mádeniy-ruwxıy qádiriyatlardı rawajlandırıwda óz úlesin qosıp kelmekte. Telekanal Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2012-jıl 30-iyulda qabıl etilgen PQ-1794-sanlı qararı tiykarında shólkemlestirilgen. Usı qararǵa muwapıq,

telekanal 2013-jıl 1-yanvardan baslap óz baǵdarlamaların efir arqalı tamashagóylerge jetkize basladı. Telekanaldıń jolǵa qoyılıwı elimizdiń mádeniy hám ruwxıy turmısın bayıtıwǵa, xalqımızdıń mádeniy bilim dárejesin arttırıwǵa xızmet etiw maqsetinde shólkemlesirilgen[65].

Telekanal qısqa waqıt ishinde tele tamashagóylerdiń kewlinen orın alıp, elimizdiń mádeniy-aǵartıwshılıq turmısında óz orının taptı. Onıń efir waqıtı 24 saat dawam etip, elimizdiń barlıq aymaqların qamtıydı. Baǵdarlamalar kórermenlerdiń jası, qızıǵıwshılıǵı hám kásibine qaramastan xalıqtıń barlıq qatlamına arnalǵan. Telekanal hár bir waqıya hám temanı sáwlelendiriwde xalıqtıń milliy mentaliteti, qádiriyatları hám ádep-ikramlılıq qaǵıydaların esapqa aladı. Sol sebepli, telekanal zıyalılar, mádeniyat hám kórkem óner wákilleri tárepinen joqarı bahalanıp kelinedi.

Telekanal quramında birneshe arnawlı redakciyalar jumıs alıp baradı. «Málimleme-tallaw baǵdarlamaları» redakciyası elimiz hám dúnyada júz berip atırǵan mádeniy waqıyalar haqqında operativ maǵlıwmat berip, ilim, bilimlendiriw hám kórkem óner tarawlarındaǵı jańalıqlardı sáwlelendiredi. «Mádeniy-kórkem baǵdarlamalar» redakciyası bolsa ádebiyat, muzıka, kórkem óner hám festival, seminar, kórgizbeler haqqında telekórsetiwler tayarlaydı, belgili dóretiwshilerdiń shıǵarmaların keń jámiyetshilikke tanıstırıp baradı. Sonday-aq, «Ruwxıy-aǵartıwshılıq baǵdarlamalar» redakciyası bolsa xalıqtıń bilim hám mádeniy dárejesin arttırıwǵa qaratılǵan baǵdarlamalardı usınıp, bilimlendiriw tarawındaǵı reformalar haqqında kórsetiwlerdi uzatıp baradı.

Bunnan tısqarı, «Ilimiy-aǵartıwshılıq baǵdarlamalar» redakciyası xalqımızdıń bay tariyxıy hám mádeniy miyrasın sáwlelendiriw, ullı ata-babalarımızdıń dúnya sivilizaciyasına qosqan úlesin keń sáwlelendirip baradı. Al «Kino, videoónimler hám operativ dublyaj» redakciyası bolsa milliy hám jáhán kino ónimlerin efirge tayarlap, sırt el filmlerin milliy mentalitetke say dublyaj etip tamashagóyler názerine uzatıp keledi.

Elimizde muzıkalıq mádeniyattı rawajlandırıw, milliy hám jáhán muzıka miyrasın keńnen en jaydırıw, jaslardıń ruwxıy hám estetikalıq talǵamın jetilistiriwde «Navo» telekanalı áhmiyetli rol atqarıp kelmekte. Telekanal Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2014-jıl 17-dekabrde qabıl etilgen PQ2273-sanlı qararı tiykarında shólkemlestirilgen. Qararǵa muwapıq, telekanal «Yoshlar» teleradiokanalı janında jańa muzıkalıq telekanal sıpatında shólkemlestirildi[66]. «Navo» telekanalı xalıqtı jáhán hám klassikalıq muzıkası, zamanagóy estrada kórkem óneriniń eń jaqsı úlgileri menen tanıstırıp baradı.

Telekanaldıń efir waqıtı 24 saat bolıp, teletamashagóylerge túrli muzıkalıq baǵdarlamalardı usınıp baradı. Baǵdarlamalar arasında «Umıtılmas namalar», «Milliy miyras», «Máńgi namalar», «Jańa jaqın qosıqlar» hám «Klassikalıq nama» sıyaqlı kórsetiwler orın alǵan. Bul baǵdarlamalarda milliy muzıka, klassikalıq namalar hám ustaz qosıqshılardıń professional atqarıwları kórsetilip, tamashagóylerge bay muzıkalıq miyras haqqında maǵlıwmat berip

[65] https://www.mtrk.uz/uz/tv/madaniyat/about/
[66] https://mtrk.uz/uz/tv/navo/about/

keledi. Sonıń menen birge, ózbek xalıq muzıkası, ayaq oyın kórkem óneri hám sazlı muzıka mektepleriniń ráńbáreńligi, olar erisken jetiskenlikler hám jáhán mádeniyatındaǵı ornı haqqında maǵlıwmatlar keń sáwlelendiriledi. Bul bolsa keń jámiyetshiliktiń, ásirese jaslardıń muzıkalıq sawatlılıǵın arttırıwǵa, olardı klassikalıq muzıka hám milliy qádiriyatlarǵa húrmet ruwxında tárbiyalawǵa úles qosıwda áhmiyetli esaplanadı.

